

81

P 895

**РУССКО-УЗБЕКСКИЙ ТОЛКОВЫЙ СЛОВАРЬ ТЕРМИНОВ  
ПО СОВРЕМЕННЫМ КОМПЬЮТЕРНЫМ ТЕХНОЛОГИЯМ**

**ZAMONAVIY KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARIGA  
OID ATAMALARNING RUSCHA-O'ZBEKCHA IZOHLI LUG'ATI**

**ЗАМОНАВИЙ КОМПЬЮТЕР ТЕХНОЛОГИЯЛАРИГА  
ОИД АТАМАЛАРНИНГ РУСЧА-ЎЗБЕКЧА ИЗОҲЛИ ЛУҒАТИ**



**Министерство по развитию информационных технологий и  
коммуникаций Республики Узбекистан**

**Государственное унитарное предприятие Центр научно-технических и  
маркетинговых исследований – «UNICON.UZ»  
(ГУП «UNICON.UZ»)**

**Русско-узбекский толковый словарь терминов  
по современным компьютерным технологиям**

---

**O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va  
kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi**

**«UNICON.UZ» – Fan-texnika va marketing tadqiqotlari markazi  
Davlat unitar korxonasi  
(«UNICON.UZ» DUK)**

**Zamonaviy kompyuter texnologiyalariga oid atamalarning  
ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati**

---

**Ўзбекистон Республикаси Ахборот технологиялари ва  
коммуникацияларини ривожлантириш вазирлиги**

**«UNICON.UZ» – Fan-texnika va marketing tadqiqotlari markazi  
Davlat unitar korxonasi  
(«UNICON.UZ» DUK)**

**Замонавий компьютер технологияларига оид атамаларнинг  
русча-ўзбекча изоҳли луғати**

Toshkent – 2015

Под общей редакцией Кадирова А.А.

Словарь составлен  
д.т.н., профессором Мухитдиновым М.М., Кулматовым Х.Х.

переведен и отредактирован  
Ахмедовой Ё.Н, Тулягановым Ш.Ш., Хаджиевой М.Ф.

Компьютерный набор: Хаджиева М.Ф.

Рецензенты: заведующий кафедрой «Электроники и радиотехники» ТУИТ,  
к.т.н. Фазилжанов И.Р, профессор кафедры «Информационные  
технологии» ТУИТ, д.т.н. Турсунбаев Ф.К.

---

A.A.Kadirovning umumiy tahriri ostida.

Lugʻat t.f.d., professor M.M.Muxitdinov, X.X.Kulmatovlar tomonidan tuzildi,

Yo.N.Ahmedova, Sh.Sh.Toʻlaganov, M.F.Xadjiyevalar tomonidan  
tarjima va tahrir qilindi.

Kompyuter ishlari: Xadjiyeva M.F.

Taqrizchilar: TATU «Elektronika va radiotexnika» kafedrası mudiri,  
t.f.n. I.R.Faziljanov, TATU «Axborot texnologiyalari» kafedrası  
professori, t.f.d. F.K.Tursunbayev.

---

A.A.Кадировнинг умумий таҳрири остида.

Луғат т.ф.д., профессор М.М.Мухитдинов, Х.Х.Кулматовлар  
томонидан тузилди.

Ё.Н.Аҳмедова, Ш.Ш.Тўлаганов, М.Ф.Хаджиевалар томонидан  
таржима ва таҳрир қилинди.

Компьютер ишлари: М.Ф.Хаджиева

Тақризчилар: ТАТУ «Электроника ва радиотехника» кафедраси мудири,  
т.ф.н. И.Р.Фазилжанов, ТАТУ «Ахборот технологиялари» кафедраси  
профессори, т.ф.д. Ф.К.Турсунбаев.

## Содержание

Введение .....	VI
Список сокращений .....	XII
Русско-узбекский толковый словарь терминов по современным компьютерным технологиям .....	1
Алфавитный указатель терминов на русском языке .....	393
Алфавитный указатель терминов на узбекском языке (латиница) ...	411
Алфавитный указатель терминов на узбекском языке (кириллица) ..	429
Алфавитный указатель терминов на английском языке .....	447
Список использованных источников .....	465

## Mundarija

Kirish .....	VIII
Qisqartmalar ro‘yxati .....	XII
Zamonaviy kompyuter texnologiyalariga oid atamalarning ruscha- o‘zbekcha izohli lug‘ati .....	1
Atamalarning rus tilidagi alifbo ko‘rsatkichi .....	393
Atamalarning o‘zbek tili (lotin alifbosi) dagi alifbo ko‘rsatkichi .....	411
Atamalarning o‘zbek tili (kirill alifbosi) dagi alifbo ko‘rsatkichi .....	429
Atamalarning ingliz tilidagi alifbo ko‘rsatkichi .....	447
Foydalanilgan manbalar ro‘yxati .....	465

## Мундарижа

Кириш .....	X
Қисқартмалар рўйхати .....	XII
Замонавий компьютер технологияларига оид атамаларнинг русча-ўзбекча изоҳли луғати .....	1
Атамаларнинг рус тилидаги алифбо кўрсаткичи .....	393
Атамаларнинг ўзбек тилидаги (лотин алифбосидаги) алифбо кўрсаткичи .....	411
Атамаларнинг ўзбек тилидаги (кирилл алифбосидаги) алифбо кўрсаткичи .....	429
Атамаларнинг инглиз тилидаги алифбо кўрсаткичи .....	447
Фойдаланилган манбалар рўйхати .....	465

## Введение

В настоящее время в нашей стране большое внимание уделяется развитию информационно-коммуникационных технологий и внедрению их в отрасли народного хозяйства республики. На это направлен целый ряд законодательных актов по дальнейшему развитию информационно-коммуникационных технологий. Быстрое развитие технологий и создание новых аппаратных средств и программных продуктов ежедневно порождают все новые термины. Значение отдельных терминов со временем изменяются.

Процессы развития компьютерной науки и техники столь стремительны, что русский язык постоянно пополняется новыми компьютерными терминами, постепенно освобождаясь от устаревших и часто изменяя значения уже сложившихся. Поэтому многие словари перестают удовлетворять пользователей вскоре после их издания. Среди наименее подтвержденных старению толковых словарей большинство ориентированы в основном на специалистов, занимающихся обработкой данных и программирование, и содержат, как правило, краткие определения, позволяющие начинающему пользователю компьютера уловить лишь общий смысл специальных терминов. Некоторые словари, прежде всего, отражают англо-американскую лексику, а не русскую, и также рассчитаны на специалистов-переводчиков и программистов. Кроме того, многие пояснения в этих словарях не дают полного толкования понятия, а только выделяют его важнейшие особенности.

Предлагаемый словарь рассчитан не только на специалистов, но и на школьников, студентов, аспирантов. Преподавателей и начинающих пользователей вычислительной техники.

В настоящее время органами управления народным образованием рекомендовано к использованию в школах и других средних учебных заведениях несколько разных учебников по курсу «Основы информатики и вычислительной техники».

В отличие от школьников студенты вузов изучают программирование и применение вычислительной техники на конкретных языках программирования высокого уровня и в основном на персональных компьютерах. Для них в словаре имеются сведения по представлению данных в компьютере, определения основных синтаксических конструкций языков Паскаль, Фортран и Си. На практических занятиях студентам пригодятся сведения об операционных системах, системах программирования и стандартных программных средствах. Кроме того, словарь поможет студентам в изучении всех предметов, так или иначе связанных с компьютером.

Студенты компьютерных специальностей найдут в словаре определения и объяснения многих профессиональных терминов и понятий, таких как виртуальная память, обратное проектирование, макросредства, файловая система и т.п., с которыми приходится сталкиваться при чтении учебников, пособий и документации по различным разделам компьютерной науки, техники и технологии.

Быстро растет число людей, имеющих дома персональный компьютер . При этом у начинающих пользователей персональных компьютеров и тех, кто заинтересовался увлекательным компьютерным делом, появляется немало терминологических вопросов. Кроме того, начинающий пользователь, чтобы найти нужную информацию, вынужден просматривать много пособий и справочников. Предлагаемый словарь, несомненно, будет полезен этому кругу читателей, т.к. сочетает в себе толковательные, справочные и обучающие функции и содержит в концентрированном виде сведения, относящиеся к современному аппаратному и программному обеспечению. Словарь окажет помощь аспирантам, преподавателям, специалистам и переводчикам, и содержит определения, объяснения, примеры использования и английские эквиваленты свыше 750 компьютерных терминов и словосочетаний. Кроме того, в конце словаря дополнительно расположен алфавитный перечень английских эквивалентов представленных в словаре терминов и словосочетаний.

Словарь, помимо познавательных, информативных функций, может способствовать самостоятельному обучению, для чего в нем широко используются перекрестные ссылки и указания, помогающие понять отношения между взаимосвязанными понятиями или различными аспектами одного понятия.

Русско-узбекский толковый словарь терминов по современным компьютерным технологиям разработан впервые. Он послужит основой при осуществлении локализации данных операционных систем на узбекский язык, приведет к увеличению количества пользователей, а также будет способствовать развитию информационно-коммуникационных технологий.

Словарь будет полезен всем пользователям систем, преподавателям, переводчикам, а также студентам, обучающимся по специальностям программист, инженер-программист, системный администратор и широкого круга специалистов по компьютерной технике и технологии.

Заранее выражаем признательность за замечания и предложения. Они будут учтены при подготовке очередного издания словаря.

Наш адрес: 100202, г. Ташкент, ул. Богишамол, 7<sup>а</sup>.  
Государственное унитарное предприятие  
«Центр научно-технических и маркетинговых исследований» – «UNICON.UZ»,  
Служба терминологии и словарей

## Kirish

Mamlakatimizda hozirgi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish va ularni respublikaning xalq xo'jaligi sohasiga joriy etishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bir qator qonun hujjatlari axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada rivojlantirishga qaratilgan. Texnologiyalarning tez rivojlanishi va yangi apparat vositalari va dasturiy mahsulotlarning yaratilishi har kuni yangi atamalarni keltirib chiqaryapti. Ayrim atamalarning ahamiyati vaqti kelib o'zgaryapti.

Kompyuter fan-texnikasi shu qadar tez sur'atlarda rivojlanmoqdaki, rus tilidagi amaldagi atamalar o'rniga yangi kompyuter atamaları kirib kelyapti va ayrimlarining mazmuni qisman o'zgartirilyapti. Shuning uchun, ko'pgina lug'atlar nashr etilgandan so'ng foydalanuvchilarning talabini qondira olmayapti. Tasdiqlangan izohli lug'atlarning ko'pi asosan ma'lumotlarni qayta ishlash va dasturlash bilan shug'ullanuvchi mutaxassislariga mo'ljallangan va, odatda, kompyuterda ishlashni endigina o'rganayotgan foydalanuvchiga maxsus atamalarning faqat umumiy mazmunini anglatadigan qisqa ta'rifga ega. Ayrim lug'atlar, avvalo, rus leksikasini emas, ingliz-amerika leksikasini aks ettiradi va tarjimonlar hamda dasturchilar uchun mo'ljallangan. Bundan tashqari, bu lug'atlardagi ko'pgina izohlar tushunchaning to'liq mazmunini emas, balki uning muhim xususiyatlarinigina ochib beradi.

Tavsiya etilayotgan lug'at mutaxassislarigagina emas, maktab o'quvchilari, talabalar, aspirantlar, o'qituvchilar va hisoblash texnikasidan foydalanishni o'rganmoqchi bo'lganlar uchun ham mo'ljallangan.

Hozirgi kunda xalq maorifi boshqaruv organlari tomonidan «Informatika va hisoblash texnikasi asoslari» kursi bo'yicha bir nechta darsliklar maktablarda va boshqa o'rta o'quv yurtlarida foydalanish uchun tavsiya etilgan.

Maktab o'quvchilaridan farqli ravishda, oliy o'quv yurtlarining talabalari dasturlash va hisoblash texnikasidan foydalanishni dasturlashning yuqori darajadagi aniq tillari (dasturlari) da va asosan shaxsiy kompyuterlarda o'rganadilar. Lug'atda ular uchun kompyuterda ma'lumotlarni taqdim etish bo'yicha ma'lumotlar, Paskal, Fortran va Si tillari asosiy sintaktik konstruksiyalarining ta'riflari berilgan. Amaliy mashg'ulotlarda talabalarga operatsion tizimlar, dasturlash tizimlari va standart dasturiy vositalar haqida ma'lumotlar kerak bo'lishi mumkin.

Kompyuter mutaxassisligi bo'yicha talabalar lug'atda kompyuter fani, texnikasi va texnologiyasi bo'yicha turli bo'limlar bo'yicha darsliklar, qo'llanmalar va xat-hujjatlar bilan tanishishda duch kelinadigan virtual xotira, fayl tizimi va shunga o'xshash ko'plab kasbiy atamalar va tushunchalarning ta'riflarini topishlari mumkin.

O'z uyida shaxsiy kompyuterga ega bo'lgan foydalanuvchilarning soni tobora ortib bormoqda. Bunda shaxsiy kompyuterlardan foydalanuvchilar va kompyuter ishi bilan qiziquvchilarda atamalar bo'yicha savollar paydo bo'lishi tabiiy. Bundan tashqari, boshlovchi foydalanuvchi, kerakli ma'lumotni topish uchun ko'pgina qo'llanmalar va ma'lumotnomalarni ko'rib chiqishga majbur

bo'ladilar. Tavsiya etilayotgan lug'at, albatta, shunday doiradagi o'quvchilar uchun foydali bo'ladi, chunki izohli, ma'lumot shaklidagi va o'rgatuvchi funksiyalarni o'z ichiga oladi va zamonaviy apparat va dasturiy ta'minotga taalluqli to'plangan ma'lumotlarni o'zida aks ettiradi. Lug'at aspirantlarga, o'qituvchilarga, mutaxassislarga va tarjimonlarga yordam beradi, va 750 dan ortiq kompyuter atamalari va iboralarining ta'riflari, foydalanish yuzasidan misollar va ingliz tilidagi ekvivalentlarini o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, lug'atning oxirida qo'shimcha tarzda lug'atda keltirilgan atamalarning ingliz tilidagi ekvivalentlarining alifbo ro'yxati joylashtirilgan.

Lug'at, bilim olish, axborot manбайдan tashqari, mustaqil o'rganish uchun ham yordam berishi mumkin, buning uchun lug'atda bir-biri bilan o'zaro bog'langan tushunchalar yoki bir tushunchaning turli aspektlari o'rtasidagi munosabatlarni tushunishga yordam beruvchi havolalar va izohlar keltirilgan.

Zamonaviy kompyuter texnologiyalari bo'yicha ruscha-o'zbekcha izohli lug'at birinchi marotaba ishlab chiqilyapti. Lug'at operatsion tizim ma'lumotlarini o'zbek tiliga mahalliyashtirishda asos bo'lib xizmat qiladi, foydalanuvchilar sonining oshishiga olib keladi, shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirishga imkon beradi.

Lug'at tizimdan foydalanuvchilarga, o'qituvchilarga, tarjimonlarga, shuningdek, dasturchi, muhandis-dasturchi, tizim administratori va kompyuter texnikasi va texnologiyasi bo'yicha keng doiradagi mutaxassislarga foydali bo'ladi, deb hisoblaymiz.

Lug'at yuzasidan bildiriladigan fikr-mulohazalar uchun oldindan minnatdorchilik bildiramiz. Ular lug'atning keyingi nashrini tayyorlashda e'tiborga olinadi.

Bizning manzil: 100202, Toshkent sh., Bog'ishamol ko'chasi, 7<sup>a</sup> uy  
«UNICON.UZ» – «Fan-texnika va marketing  
tadqiqotlari markazi» Davlat unitar korxonasi,  
Atamashunoslik va lug'atlar xizmati

## Кириш

Мамлакатимизда ҳозирги кунда ахборот-коммуникация технологияларини ривожлантириш ва уларни республиканинг халқ хўжалиги соҳасига жорий этишга катта эътибор қаратилмоқда. Бир қатор қонун ҳужжатлари ахборот-коммуникация технологияларини янада ривожлантиришга қаратилган. Технологияларнинг тез ривожланиши ва янги аппарат воситалари ва дастурий маҳсулотларнинг яратилиши ҳар куни янги атамаларни келтириб чиқаряпти. Айрим атамаларнинг аҳамияти вақти келиб ўзгаряпти.

Компьютер фан-техникаси шу қадар тез суръатларда ривожланмоқдаки, рус тилидаги амалдаги атамалар ўрнига янги компьютер атамалари кириб келяпти ва айримларининг мазмуни қисман ўзгартириляпти.

Шунинг учун, кўпгина луғатлар нашр этилгандан сўнг фойдаланувчиларнинг талабини қондира олмаяпти. Тасдиқланган изоҳли луғатларнинг кўпи асосан маълумотларни қайта ишлаш ва дастурлаш билан шуғулланувчи мутахассисларга мўлжалланган ва, одатда, компьютерда ишлашни эндиgina ўрганаётган фойдаланувчига махсус атамаларнинг фақат умумий мазмунини англатадиган қисқа таърифга эга. Айрим луғатлар, аввало, рус лексикасини эмас, инглиз-америка лексикасини акс эттиради ва таржимонлар ҳамда дастурчилар учун мўлжалланган. Бундан ташқари, бу луғатлардаги кўпгина изоҳлар тушунчанинг тўлиқ мазмунини эмас, балки унинг муҳим хусусиятларинигина очиб беради.

Тавсия этилаётган луғат мутахассисларгагина эмас, мактаб ўқувчилари, талабалар, аспирантлар, ўқитувчилар ва ҳисоблаш техникасидан фойдаланишни ўрганмоқчи бўлганлар учун ҳам мўлжалланган.

Ҳозирги кунда халқ маорифи бошқарув органлари томонидан «Информатика ва ҳисоблаш техникаси асослари» курси бўйича бир нечта дарсликлар мактабларда ва бошқа ўрта ўқув юртларида фойдаланиш учун тавсия этилган.

Мактаб ўқувчиларидан фарқли равишда, олий ўқув юртларининг талабалари дастурлаш ва ҳисоблаш техникасидан фойдаланишни дастурлашнинг юқори даражадаги аниқ тиллари (дастурлари)да ва асосан шахсий компьютерларда ўрганадилар. Луғатда улар учун компьютерда маълумотларни тақдим этиш бўйича маълумотлар, Паскаль, Фортран ва Си тиллари асосий синтактик конструкцияларининг таърифлари берилган. Амалий машғулотларда талабаларга операцион тизимлар, дастурлаш тизимлари ва стандарт дастурий воситалар ҳақида маълумотлар керак бўлиши мумкин.

Компьютер мутахассислиги бўйича талабалар луғатда компьютер фани, техникаси ва технологияси бўйича турли бўлимлар бўйича дарсликлар, қўлланмалар ва хат-ҳужжатлар билан танишишда дуч келинадиган виртуал хотира, файл тизими ва шунга ўхшаш кўплаб касбий атамалар ва тушунчаларнинг таърифларини топишлари мумкин.

Ўз уyiда шахсий компьютерга эга бўлган фойдаланувчиларнинг сони тобора ортиб бормоқда. Бунда шахсий компьютерлардан фойдаланувчилар ва компьютер иши билан қизиқувчиларда атамалар бўйича саволлар пайдо

бўлиши табиий. Бундан ташқари, бошловчи фойдаланувчи, керакли маълумотни топиш учун кўпгина қўлланмалар ва маълумотномаларни кўриб чиқишга мажбур бўлади. Тавсия этилаётган луғат, албатта, шундай доирадаги ўқувчилар учун фойдали бўлади, чунки изоҳли, маълумот шаклидаги ва ўргатувчи функцияларни ўз ичига олади ва замонавий аппарат ва дастурий таъминотга тааллуқли тўпланган маълумотларни ўзида акс эттиради. Луғат аспирантларга, ўқитувчиларга, мутахассисларга ва таржимонларга ёрдам беради, ва 750 дан ортиқ компьютер атамалари ва ибораларининг таърифлари, фойдаланиш юзасидан мисоллар ва инглиз тилидаги эквивалентларини ўз ичига олади. Бундан ташқари, луғатнинг охирида қўшимча тарзда луғатда келтирилган атамаларнинг инглиз тилидаги эквивалентларининг алифбо рўйхати жойлаштирилган.

Луғат, билим олиш, ахборот манбаидан ташқари, мустақил ўрганиш учун ҳам ёрдам бериши мумкин, бунинг учун луғатда бир-бири билан ўзаро боғланган тушунчалар ёки бир тушунчанинг турли аспекти ўртасидаги муносабатларни тушунишга ёрдам берувчи ҳаволалар ва изоҳлар келтирилган.

Замонавий компьютер технологиялари бўйича русча-ўзбекча изоҳли луғат биринчи мартаба ишлаб чиқилди. Луғат операцион тизим маълумотларини ўзбек тилига маҳаллийлаштиришда асос бўлиб хизмат қилади, фойдаланувчилар сонининг ошишига олиб келади, шунингдек, ахборот-коммуникация технологияларини ривожлантиришга имкон беради.

Луғат тизимдан фойдаланувчиларга, ўқитувчиларга, таржимонларга, шунингдек, дастурчи, муҳандис-дастурчи, тизим администратори ва компьютер техникаси ва технологияси бўйича кенг доирадаги мутахассисларга фойдали бўлади, деб ҳисоблаймиз.

Луғат юзасидан билдириладиган фикр-мулоҳазалар учун олдиндан миннатдорчилик билдирамыз. Улар луғатнинг кейинги нашрини тайёрлашда эътиборга олинади.

Бизнинг манзил: 100202, Тошкент ш., Боғишамол кўчаси, 7<sup>а</sup> уй  
«UNICON.UZ» – «Фан-техника ва маркетинг  
тадқиқотлари маркази» Давлат унитар корхонаси,  
Атамашунослик ва луғатлар хизмати

**Англо-русско-узбекский список сокращений**  
**Inglizcha-ruscha-o‘zbekcha qisqartmalar ro‘uxati**  
**Инглизча-русча-ўзбекча қисқартмалар рўйхати**

Инглиз.	Рус.	Ўзб.
<b>ANSI</b> – American national standards institute	Американский национальный институт стандартизации	Amerika milliy standartlashtirish instituti Америка миллий стандартлаштириш институти
<b>HTML</b> – hyper text markup language	гипертекстовый язык описания	gipermatn tavsiflash tili гиперматн тавсифлаш тили
<b>DRAM</b> – dynamic random access memory	динамическое оперативное запоминающее устройство	dinamik operativ хотира qurilmasi динамик оператив хотира қурилмаси
<b>SQL</b> – structured query language	язык структурированных запросов	strukturalangan so‘rovlar tili структураланган сўровлар тили
<b>BIOS</b> – basic input-output system	базовая система ввода-вывода	tayanch kiritish-chiqarish tizimi таянч киритиш-чиқариш тизими
<b>WML</b> – wireless markup language	беспроводной язык разметки	simsiz belgilash tili симсиз белгилаш тили
<b>XML</b> – extensible markup language	расширяемый язык разметки	kengayadigan belgilash tili кенгайдиган белгилаш тили
<b>WWW</b> – world wide web	всемирная паутина	butunjahon «o‘rgimchak to‘ri» бутунжаҳон «ўргимчак тўри»
<b>OLE</b> – object linking and embedding	связывание и включение объекта	obyektzni bog‘lash va ulash объектни боғлаш ва улаш
<b>NTFS</b> – new technology file system	файловая система новой технологии	yangi texnologiya fayl tizimi янги технология файл тизими
<b>CMOS</b> – complementary metal-oxide-semiconductor	комплементарная структура металл-оксид-полупроводник	metall-oksid-yarimo‘tkazgich komplementar strukturasi металл-оксид-яримўтказгич комплементар структураси
<b>FAT</b> – file allocation table	таблица размещения файлов	fayllarni joylashtirish jadvali файлларни жойлаштириш жадвали
<b>DLL</b> – dynamic link library	динамически компокуемая библиотека	dinamik joylashtiriladigan biblioteka динамик жойлаштирила-диган библиотека
<b>DDE</b> – dynamic data exchange	динамический обмен данными	dinamik ma’lumotlar almashinishi динамик маълумотлар алмашиниши

<b>MS-DOS</b> – MicroSoft disk operating system	дисктовая операционная система MicroSoft	<i>MicroSoft</i> disk operatsion tizimi MicroSoft диск операцион тизими
<b>POST</b> – power on self test	система (программа) самотестирования	o‘zini-o‘zi testlash tizimi (dasturi) ўзини-ўзи тестлаш тизими (дастури)
<b>API</b> – applications programming interface	интерфейс прикладного программирования	amaliy dasturlash interfeysi амалий дастурлаш интерфейси
<b>RAID</b> – redundant array of independent disks	массив недорогих дисков с избыточностью	ortiqchalik bo‘lgan arzon disklar massivi ортиқчалик бўлган арзон дисклар массиви
<b>DVD</b> – digital versatile disk	цифровой универсальный диск	raqamli universal disk рақамли универсал диск
<b>NCSA</b> – national center for supercomputing applications	национальный центр суперкомпьютерных приложений	superkompyuter ilovalarning milliy markazi суперкомпьютер иловаларнинг миллий маркази
<b>HTTP</b> – hyper text transfer protocol	протокол передачи гипертекста	gipermatnni uzatish protokoli гиперматнни узатиш протоколи
<b>COM</b> – component object model	объектная модель компонентов	komponentlarning obyekt modeli компонентларнинг объект модели
<b>CD-RW</b> – compact disk re writable	перезаписываемый компакт-диск	qayta yoziladigan kompakt-disk қайта ёзиладиган компакт-диск
<b>CD-ROM</b> – compact disk read-only memory	постоянное запоминающее устройство на компакт-диске	kompakt-diskdagi doimiy хотирловчи qurilma компакт-дискдаги доимий хотирловчи қурилма
<b>PERL</b> – practical extraction and report language	практический язык извлечений и отчетов	hisobotlar va ko‘chirmalar amaliy tili ҳисоботлар ва кўчирмалар амалий тили
<b>OSI</b> – open systems interconnection	взаимодействие открытых систем	ochiq tizimlarning o‘zaro aloqasi очиқ тизимларнинг ўзаро алоқаси
<b>FTP</b> – file transfer protocol	протокол передачи файлов	fayllarni uzatish protokoli файлларни узатиш протоколи
<b>RISC</b> – reduced instruction set computer	компьютер с сокращенным набором команд	qisqartirilgan komandalar to‘plamiga ega kompyuter қисқартирилган командалар тўпламига эга компьютер

<b>PCMCIA</b> – personal computer memory card international association	международная ассоциация карт памяти для персональных компьютеров	shaxsiy kompyuterlar uchun хотира kartalarini ishlab chiqaruvchilar xalqaro uyushmasi шахсий компьютерлар учун хотира карталарини ишлаб чиқарувчилар халқаро уюшмаси
<b>SSD</b> – solid state drive	твердотельный накопитель	qattiq jisimli to‘plagich қаттиқ жисмли тўплағич
<b>VRML</b> – virtual reality modeling language	язык, моделирующий виртуальную реальность	virtual voqelikni modellashtiradigan til виртуал воқеликни моделлаштирадиган тил
<b>DOS</b> – disk operating system	дисктовая операционная система	disk operatsion tizimi диск операцион тизими
<b>BASIC</b> – beginner’s allpurpose symbolic instruction code	всецеловой символический код инструкций для начинающих	boshlovchilar uchun yo‘riqnomalarning asosiy simvollik kodi бошловчилар учун йўриқномаларнинг асосий символик коди
<b>IBM</b> – international business machines	международные машины для бизнеса	biznes uchun xalqaro mashinalar бизнес учун халқаро машиналар

Термин	Определение
<b>А</b>	
<p><b>Абак</b>  <b>uz</b> - abak  абак  <b>en</b> - abacus</p>	<p>Счетный прибор у древних греков и римлян в виде доски, разделенной на полосы. При счете камешки или палочки передвигались по полосам, которые определяли разряды чисел. Утратил свое значение с изобретением счетов.</p> <p>Qadimgi greklar va rimliklarning, tasmalarga ajratilgan taxtacha ko‘rinishidagi sanoq vositasi. Sanashda toshchalar yoki tayoqchalar tasmalar bo‘ylab siljitiilib, sonlarning razryadlari aniqlanardi. Cho‘tlar kashf qilinishi bilan ahamiyatini yo‘qotdi.</p>
<p><b>Абонент</b>  <b>uz</b> - abonent  абонент  <b>en</b> - subscriber</p>	<p>Человек или организация с правом и возможностью пользоваться услугами компьютерной сети.</p> <p>Kompyuter tarmog‘i xizmatlaridan foydalanish huquqi va imkoniyati bo‘lgan odam yoki tashkilot.</p>
<p><b>Абсолютная величина (модуль)</b>  <b>uz</b> - absolyut kattalik (modul)  абсолют катталик (модуль)  <b>en</b> - absolute value (module)</p>	<p>Компьютер тармоғи хизматларидан фойдаланиш ҳуқуқи ва имконияти бўлган одам ёки ташкилот.</p> <p>Функция, определяемая для действительного числа <math>a</math> (обозначается <math> a </math>) следующим образом:  <math> a  = a</math>, если <math>a &gt; 0</math>. <math> a  = -a</math>, если <math>a &lt; 0</math>. В большинстве языков программирования имеются стандартные функции для вычисления абсолютной величины арифметического выражения: так, в языках Paskal и BASIC – <code>abs()</code>, в языке Си – <code>abs()</code> – для целочисленного аргумента и <code>fabs()</code> – для аргумента в виде числа с плавающей точкой (запятой).</p> <p>Quyidagicha tarzda a haqiqiy son uchun aniqlanadigan funksiya (<math> a </math> qilib belgilanadi): <math> a =a</math>, agar <math>a &gt; 0</math></p>

## A

bo'lsa;  $|a|=-a$ , agar  $a < 0$  bo'lsa. Ko'plab dasturlash tillarida arifmetik ifodaning absolyut kattaligini hisoblash uchun standart funksiyalar mavjud: jumladan, *Paskal* va *BASIK* tillarida – `abs()`, *Si* tilida – `abs()` butun sonli argument uchun va `fabs()` – suriladigan nuqtali (vergulli) son ko'rinishidagi argument uchun.

Quyidaгича тарзда а ҳақиқий сон учун аниқланадиган функция ( $|a|$  қилиб белгиланади):  $|a|=a$ , агар  $a > 0$  бўлса;  $|a|=-a$ , агар  $a < 0$  бўлса. Қўплаб дастурлаш тилларида арифметик ифоданинг абсолют катталигини ҳисоблаш учун стандарт функциялар мавжуд: жумладан, *Paskal* ва *BASIK* тилларида – `abs()`, *Si* тилида – `abs()` бутун сонли аргумент учун ва `fabs()` – суриладиган нуқтали (вергулли) сон кўринишидаги аргумент учун.

### **Абстрактная вычислительная машина**

**uz** - abstrakt hisoblash mashinasi

абстракт ҳисоблаш

машинаси

**en** - abstract computing machine

Теоретическое построение, с помощью которого дается математическое определение алгоритма. Известны машины Тьюринга, Поста, машина Колмогорова.

Algoritmning matematik tavsifi bayon qilinadigan nazariy tuzilish. Turing, Post mashinalari, Kolmogorov mashinasi ma'lum.

Алгоритмнинг математик тавсифи баён қилинадиган назарий тузилиш. Тюринг, Пост машиналари, Колмогоров машинаси маълум.

### **Автомат**

**uz** - avtomat

автомат

**en** - automaton

Устройство или совокупность устройств, выполняющие какие-либо действия без непосредственного участия человека.

Odamning bevosita ishtirokisiz qandaydir ishlarni bajaradigan qurilma yoki qurilmalar yig'indisi.

Одамнинг бевосита иштирокисиз қандайдир ишларни бажарадиган қурилма ёки қурилмалар йиғиндиси.

### **Автомат конечный**

Автомат, имеющий конечные входные и выход-

## A

**uz** - oxirgi avtomat  
охирги автомат  
**en** - finite automat

### **Автоматизация**

**uz** - avtomatlashtirish  
автоматлаштириш  
**en** - automation

### **Автоматизированное программирование**

**uz** - avtomatlashtirilgan  
dasturlash  
автоматлаштирилган  
дастурлаш  
**en** - automated programming

ные алфавиты и конечное множество состояний.

Holatlarning oxirgi ko‘pligiga hamda oxirgi kirish va chiqish alifbolariga ega bo‘lgan avtomat.

Ҳолатларнинг охирги кўплигига ҳамда охирги кириш ва чиқиш алифболарига эга бўлган автомат.

Разработка и применение комплекса методов, приборов, устройств и систем, направленных на уменьшение роли прямого участия человека в материальных, энергетических и информационных процессах.

Примечание – Различают автоматизацию производства, технологических процессов, управления, проектирования, обучения, программирования и комплексную автоматизацию.

Odamning moddiy, energetik va axborot jarayonlarida bevosita qatnashishining ahamiyatini kamaytirishga qaratilgan tizimlar, qurilmalar, asboblar va metodlarni ishlab chiqish va qo‘llash.

Izoh – Ishlab chiqarishni, texnologik jarayonlarni boshqaruvni, loyihalashni, o‘qitishni, dasturlashni avtomatlashtirish va kompleks avtomatlashtirish farqlanadi.

Одамнинг моддий, энергетик ва ахборот жараёнларида бевосита қатнашишининг аҳамиятини камайтиришга қаратилган тизимлар, қурилмалар, асбоблар ва методларни ишлаб чиқиш ва қўллаш. Изох – Ишлаб чиқаришни, технологик жараёнларни бошқарувни, лойihalашни, ўқитишни, дастурлашни автоматлаштириш ва комплекс автоматлаштириш фарқланади.

Совокупность методов и инструментальных средств для проектирования и сопровождения прикладных программ.

Примечание – В автоматизированном проектировании широко известна CASE-технология (Computer Aided Software Engineering – автоматизированный инжиниринг программных средств) для разработки практически всех типов программного обеспечения.

Amaliy dasturlarni loyihalash va qo‘llash uchun mo‘ljallangan metodlar hamda instrumental vositalar jami.

Izoh – Avtomatlashtirilgan dasturlashda amalda dasturiy

## A

ta'minotning barcha turlarini ishlab chiqishda ko'maklashadigan CASE texnologiyasi (CASE – Computer Aided Software Engineering – dasturiy vositalarning avtomatlashtirilgan injiniringi) keng ma'lum.

Амалий дастурларни лойиҳалаш ва қўллаш учун мўлжалланган методлар ҳамда инструментал воситалар жами.

Изоҳ – Автоматлаштирилган дастурлашда амалда дастурий таъминотнинг барча турларини ишлаб чиқишда қўмаклашадиган CASE технологияси (CASE – Computer Aided Software Engineering – дастурий воситаларнинг автоматлаштирилган инжиниринги) кенг маълум.

### **Автоматизированное рабочее место**

**uz** - avtomatlashtirilgan ish joyi

автоматлаштирилган иш жойи

**en** - automated workplace

Комплекс технических, программных и методических средств, обслуживающих рабочее место специалиста. Независимые, обособленные автоматические рабочие места недостаточно эффективны; дальнейшее их развитие связано с разработкой в составе компьютерных сетей.

Mutaxassis ish joyiga xizmat ko'rsatadigan texnik, dasturiy va metodik vositalar kompleksi. Mustaqil, alohida avtomatlashtirilgan ish joylari unchali samarador emas, ularning keyingi rivojlanishi kompyuter tarmoqlari tarkibida ishlab chiqish bilan bog'liq.

Мутахассис иш жойига хизмат кўрсатадиган техник, дастурий ва методик воситалар комплекси. Мустақил, алоҳида автоматлаштирилган иш жойлари унчали самарадор эмас, уларнинг кейинги ривожланиши компютер тармоқлари таркибида ишлаб чиқиш билан боғлиқ.

### **Автоматика**

**uz** - avtomatika

автоматика

**en** - automatics

Научная и техническая дисциплина, охватывающая вопросы создания устройств и систем, функционирующих без непосредственного участия человека.

Odamning bevosita ishtirokisiz ishlaydigan tizimlar va qurilmalar yaratish masalalarini qamrab oladigan ilmiy va texnik fan.

Одамнинг бевосита иштирокисиз ишлайдиган тизимлар ва қурилмалар яратиш масалаларини қамраб оладиган илмий ва техник фан.

### **Автономный режим**

Режим работы нескольких систем независимо

## А

**uz** - avtonom rejim  
автоном режим  
**en** - of-line mode

друг от друга, хотя физически они соединены между собой. Часто называют режимом «off-line» (вне системы).

Jismonan o‘zaro bog‘langan bo‘lsa ham, bir-biridan mustaqil hisoblanadigan bir nechta tizimning ishlash rejimi. Ko‘pincha, «off-line» (tizimdan tashqari) rejim deb ataladi.

Жисмонан ўзаро боғланган бўлса ҳам, бир-бирдан мустақил ҳисобланадиган бир нечта тизимнинг ишлаш режими. Кўпинча, «off-line» (tizimdan tashqari) rejim deb ataladi.

### **Автоформализация знаний**

**uz** - bilimlarni  
avtoformallashtirish  
билимларни  
автоформаллаштириш  
**en** - autoformalization of  
knowledge

Процесс формализации знаний специалиста в виде программы для компьютера. Для обеспечения автоформализации знаний требуются специальные методы и инструменты (например, персональные компьютеры).

Mutaxassis bilimlarini kompyuter uchun dastur ko‘rinishida formallashtirish jarayoni. Bilimlarning avtomatlashtirilishini ta‘minlash uchun maxsus metodlar va vositalar (masalan, shaxsiy kompyuterlar) talab qilinadi.

Мутахассис билимларини компьютер учун дастур кўринишида формаллаштириш жараёни. Билимларнинг автоматлаштирилишини таъминлаш учун махсус методлар ва воситалар (масалан, шахсий компьютерлар) талаб қилинади.

### **Агент**

**uz** - agent  
агент  
**en** - agent

Невидимая для пользователя (обычно работающая в фоновом режиме), управляемая событиями программа (т.е. выполняющая некоторые действия, когда происходит заданное событие). В \*nix-операционных системах они называются демонами.

Foydalanuvchiga ko‘rinmaydigan (odatda fon rejimida ishlaydigan), hodisalar bilan boshqariladigan dastur (ya‘ni, biror hodisa yuzaga kelganda qandaydir harakatni amalga oshiradigan). \*nix-operatsion tizimlarda ular demon deb ataladi.

Фойдаланувчига кўринмайдиган (одатда фон ре-

## А

жимида ишлайдиган), ҳодисалар билан бошқариладиган дастур (яъни, бирор ҳодиса юзага келганда қандайдир ҳаракатни амалга оширадиган). \*nix-операцион тизимларда улар демон деб аталади.

### Адаптер

**uz** - adapter

адаптер

**en** - adapter

Устройство сопряжения центрального процессора и периферийных устройств компьютера, иногда осуществляет функции управления периферийным устройством. Обычно выполнен в виде микросхемы и помещен в материнскую плату, может быть представлен отдельной платой.

Kompyuterning periferik qurilmalarini va markaziy protsessorni birlashtirish qurilmasi, baʼzida periferik qurilmani boshqarish funksiyasini ham amalga oshiradi. Odatda, mikrosxema koʻrinishida boʻladi va asosiy plataga joylashtiriladi, alohida plata ham boʻlishi mumkin.

Компьютернинг периферик қурилмаларини ва марказий процессорни бирлаштириш қурилмаси, баъзида периферик қурилмани бошқариш функциясини ҳам амалга оширади. Одатда, микросхема кўринишида бўлади ва асосий платага жойлаштирилади, алоҳида плата ҳам бўлиши мумкин.

### Адаптер графический

**uz** - grafik adapter

график адаптер

**en** - graphics card

Плата расширения персонального компьютера, поддерживающая графические функции дисплейного устройства (как правило, монитора). Графические адаптеры также называются «адаптерами дисплея» и «видеокартами».

Shaxsiy kompyuterning, displeyli qurilma (odatda, monitor)ning grafik funksiyalarini taʼminlaydigan kengayish platasi. Grafik adapterlar, shuningdek, «display adapterlari» va «videokartalar» deb ham ataladi.

Шахсий компьютернинг, дисплейли қурилма (одатда, монитор)нинг график функцияларини таъминлайдиган кенгайиш платаси. График адаптерлар, шунингдек, «дисплей адаптерлари» ва «видеокарталар» деб ҳам аталади.

## А

### **Адаптер цокольной сети**

**uz** - sokol tarmoq adapteri

цоколь тармоқ адаптери

**en** - adapter of socle network

Адаптер для подключения компьютера к локальной сети компьютеров.

Kompyuterni lokal kompyuterlar tarmog‘iga ulash uchun mo‘ljallangan adapter

Компьютерни локал компьютерлар тармоғига улаш учун мўлжалланган адаптер.

### **Администратор базы данных**

**uz** - ma’lumotlar bazasi administratori

маълумотлар базаси администратори

**en** - administrator of base data

Лицо или группа лиц, занимающиеся текущим управлением базы данных и отвечающие за технологию ее работы. Основные функции: обеспечение надежности функционирования, поддержание целостности, обеспечение санкционированного доступа, реструктуризация, актуализация данных. Инструмент управления – специальные программы.

Ma’lumotlar bazasini joriy boshqarish bilan shug‘ullanadigan va uning ishlash texnologiyasi uchun mas’ul bo‘lgan shaxs yoki shaxslar guruhi. Asosiy vazifalari: ishonchli ishlashni ta’minlash, yaxlitlikni ushlab turish, ruxsat etilgan tarzda foydalanishni ta’minlash, ma’lumotlarni restrukturalizatsiyalash, aktuallashtirish. Boshqarish vositasi – maxsus dasturlar.

Маълумотлар базасини жорий бошқариш билан шуғулланадиган ва унинг ишлаш технологияси учун масъул бўлган шахс ёки шахслар гуруҳи. Асосий вазифалари: ишончли ишлашни таъминлаш, яхлитликни ушлаб туриш, рухсат этилган тарзда фойдаланишни таъминлаш, маълумотларни реструктуризациялаш, актуаллаштириш. Бошқариш воситаси – махсус дастурлар.

### **Администратор компьютерной сети**

**uz** - kompyuter tarmog‘i adminstratori

компьютер тармоғи администратори

**en** - computer network administrator

Лицо или группа лиц, занимающихся текущим управлением сети и перспективой ее развития. Основные функции: обеспечение надежности функционирования, определение и выдача адресов и паролей доступа, обеспечение взаимодействия с другими сетями, взаимодействие с администраторами базы данных.

## A

Tarmoqni joriy boshqarish va uni rivojlantirish istiqboli bilan shugʻullanadigan shaxs yoki shaxslar guruhi. Asosiy vazifalari: ishonchli ishlashni taʼminlash, foydalanish (kirish) parollari va adreslarini aniqlash va berish, boshqa tarmoqlar bilan birgalikda ishlashni taʼminlash, maʼlumotlar bazalarining administratorlari bilan birgalikda ishlash.

Тармоқни жорий бошқариш ва уни ривожлантириш истикболи билан шуғулланадиган шахс ёки шахслар гуруҳи. Асосий вазифалари: ишончли ишлашни таъминлаш, фойдаланиш (кириш) пароллари ва адресларини аниқлаш ва бериш, бошқа тармоқлар билан биргаликда ишлашни таъминлаш, маълумотлар базаларининг администраторлари билан биргаликда ишлаш.

### Адресация

**uz** - adreslash

адреслаш

**en** - addressing

1 Способ обеспечить быстрый доступ к отдельным ячейкам памяти или портам компьютера путем указания их номера.

2 В компьютерных сетях способ определения места расположения абонента.

1 Nomerlarini koʻrsatish yoʻli bilan kompyuter portlariga yoki хотиранинг alohida yacheykalariga, tez kirishni (foydalanishni) taʼminlash usuli.

2 Kompyuter tarmoqlarida abonent joylashgan yerni aniqlash usuli.

1 Номерларини кўрсатиш йўли билан компьютер портларига ёки хотиранинг алоҳида ячейкаларига, тез киришни (фойдаланишни) таъминлаш усули.

2 Компьютер тармоқларида абонент жойлашган ерни аниқлаш усули.

### Аккумулятор

**uz** - akkumulyator

аккумулятор

**en** - accumulator

Ячейка памяти для хранения результатов вычисления; обычно называют один из регистров арифметико-логическом устройстве процессора.

Hisoblash natijalarini saqlash uchun moʻljallangan хотира yacheykasi; protsessorning arifmetik-mantiqiy qurilmasidagi registrlardan biri.

## А

Ҳисоблаш натижаларини сақлаш учун мўлжалланган хотира ячейкаси; процессорнинг арифметик-мантикий қурилмасидаги регистрлардан бири.

### **Акселератор графический**

**uz** - grafik akselerator

график акселератор

**en** - graphic accelerator

Устройство, позволяющее выполнять многие операции с графическими данными без использования центрального процессора. Графические акселераторы условно делятся на три вида: для графических оболочек, для создания трехмерной графики (3D акселераторы), для воспроизведения динамических изображений.

Markaziy protsessordan foydalanmasdan, grafik ma'lumotlar bilan ko'plab operatsiyalarni bajarish imkonini beradigan qurilma. Grafik akseleratorlar shartli ravishda uch turga bo'linadi: grafik qobiqlar uchun mo'ljallangan, uch o'lchamli grafikani yaratish uchun mo'ljallangan (3D akseleratorlar), dinamik tasvirlarni tiklash uchun mo'ljallangan grafik akseleratorlar.

Марказий процессордан фойдаланмасдан, график маълумотлар билан кўплаб операцияларни бажариш имконини берадиган қурилма. График акселераторлар шартли равишда уч турга бўлинади: график қобиклар учун мўлжалланган, уч ўлчамли графикани яратиш учун мўлжалланган (3D акселераторлар), динамик тасвирларни тиклаш учун мўлжалланган график акселераторлар.

### **Аксессуар**

**uz** - aksessuar

аксессуар

**en** - component

Элемент компьютера или программной среды; может быть использован только вместе со всей системой, но приобрести и установить его можно отдельно. Например, к мультимедиа аксессуарам компьютера относятся: компакт-диски, звуковые адаптеры, колонки. В системе Windows имеется группа Аксессуары, в которую входят приложения: Часы, Калькулятор, Записная книжка и пр.

Kompyuter yoki dasturiy muhit elementi; faqat butun tizim bilan birgalikda ishlatilishi mumkin, lekin uni alohida sotib olish va o'rnatish mumkin. Masalan, kompyuterning multimedia aksessuarlariga kompakt-disklar, tovush adapterlari, kolonkalar kiradi; Win-

## A

dows tizimida Soat, Kalkulyator, Yon daftarcha kabi ilovalar kiradigan Aksessuarlar guruhi bor.

Компьютер ёки дастурий муҳит элементи; фақат бутун тизим билан биргаликда ишлатилиши мумкин, лекин уни алоҳида сотиб олиш ва ўрнатиш мумкин. Масалан, компьютернинг мультимедиа аксессуарларига компакт-дисклар, товуш адаптерлари, колонкалар киради; Windows тизимида Соат, Калькулятор, Ён дафтарча каби иловалар кирадиган Аксессуарлар гуруҳи бор.

### **Активное устройство**

**uz** - aktiv qurilma

актив қурилма

**en** - active device

Физическое или логическое устройство, с которым работает система в данный момент времени. Активными могут быть некоторая программа, файл или база данных, т.е в данный момент они готовы для ввода/вывода данных.

Berilgan vaqt onida tizim ishlaydigan fizik yoki mantiqiy qurilma. Ba'zi dastur, yoki ma'lumotlar bazasi ham aktiv bo'lishi, ya'ni berilgan onda ular ma'lumotlarni kiritish/chiqarish uchun tayyor bo'lishi mumkin.

Берилган вақт онда тизим ишлайдиган физик ёки мантикий қурилма. Баъзи дастур, ёки маълумотлар базаси ҳам актив бўлиши, яъни берилган онда улар маълумотларни киритиш/чиқариш учун тайёр бўлиши мумкин.

### **Актуализация**

**uz** - aktuallashtirish

актуаллаштириш

**en** - updating

Процесс поддержания базы данных, системы в актуальном состоянии, т.е. постоянное, полное и своевременное внесение всех изменений.

Ma'lumotlar bazasi, tizimni aktual holatda ushlab turish jarayoni, ya'ni barcha o'zgartirishlarni muntazam, to'liq va o'z vaqtida kiritish.

Маълумотлар базаси, тизимни актуал ҳолатда ушлаб туриш жараёни, яъни барча ўзгартиришларни мунтазам, тўлиқ ва ўз вақтида киритиш.

### **Алгоритм**

**uz** - algoritim

алгоритм

**en** - algorithm

Заранее определенное, точное предписание; задает дискретный (пошаговый) процесс, начинающийся определенным образом и приводящий к результату за конечное число шагов. Относится к исходным математическим понятиям, которые не могут быть определены через другие, более прос-

## А

тые понятия. Каждый алгоритм должен задаваться множеством допустимых исходных данных, начальным состоянием, множеством допустимых промежуточных состояний, правилами перехода из одного состояния в другое, множеством конечных результатов, конечным состоянием. В зависимости от конкретного задания этих параметров определяются классы алгоритмов, например алгоритмы линейные, циклические, сортировки и т.д. При разработке алгоритма всегда должен предполагаться его исполнитель. Слово «алгоритм» – производное от имени среднеазиатского ученого Ал Хорезми, жившего в IX в.

Oldindan belgilangan, aniq ko'rsatma. Muayyan tarzda boshlanadigan va qadamlarning qat'iy soni ichida natijaga olib keladigan diskret (qadamma-qadam) jarayonni belgilaydi. Birmuncha sodda tushunchalar orqali aniqlab bo'lmaydigan boshlang'ich matematik tushunchalarga kiradi. Har bir algoritm yo'l qo'yiladigan boshlang'ich ma'lumotlarning ko'pligi bilan, boshlang'ich holat bilan, yo'l qo'yiladigan oraliq holatlarning ko'pligi bilan, bir holatdan boshqa holatga o'tish qoidalari bilan, oxirgi natijalarning ko'pligi bilan, oxirgi holat bilan berilishi mumkin. Bu parametrlarning muayyan vazifasiga bog'liq ravishda, algoritmlarning klasslari aniqlanadi, masalan, chiziqli, siklik algoritmlar, saralash algoritmlari va h.k. Algoritmni ishlab chiqish-da har doim uni bajaruvchi ko'zda tutilishi kerak. «Алгоритм» so'zi IX asrda yashagan O'rta Osiyolik olim al-Xorazmiy nomidan olingan.

Олдиндан белгиланган, аниқ кўрсатма. Муайян tarzda бошланадиган ва қадамларнинг қатъий сони ичида натижага олиб келадиган дискрет (қадамма-қадам) жараёни белгилайди. Бирмунча sodda тушунчалар орқали аниқлаб бўлмайдиган бошланғич математик тушунчаларга киради. Ҳар бир алгоритм йўл қўйиладиган бошланғич маълумотларнинг кўплиги билан, бошланғич ҳолат билан, йўл қўйиладиган оралиқ ҳолатларнинг кўплиги билан, бир ҳолатдан бошқа ҳолатга ўтиш қоидалари билан, охириги натижаларнинг кўплиги

## А

билан, охирги ҳолат билан берилиши мумкин. Бу параметрларнинг муайян вазифасига боғлиқ равишда, алгоритмларнинг класслари аниқланади, масалан, чизиқли, циклик алгоритмлар, саралаш алгоритмлари ва ҳ.к. Алгоритмни ишлаб чиқишда ҳар доим уни бажарувчи кўзда тутилиши керак. «Алгоритм» сўзи IX асрда яшаган Ўрта Осиёлик олим ал-Хоразмий номидан олинган.

### Алгоритмический язык

**uz** - algoritmik til

алгоритмик тил

**en** - algorithmic language

Набор символов и система правил образования и истолкования конструкций из этих символов для задания алгоритмов.

Simvollar to‘plami va algoritmlarni berish uchun bu simvollardan konstruksiyalar tuzish va ularni talqin qilish qoidalari tizimi.

Символлар тўплами ва алгоритмларни бериш учун бу символлардан конструкциялар тузиш ва уларни талқин қилиш қоидалари тизими.

### Алфавит

**uz** - alfavit

алфавит

**en** - alphabet

Совокупность упорядоченных в определенном смысле символов в данном языке или системе. Эти символы называются буквами. Только символы, принадлежащие данному алфавиту, можно использовать для построения слов. Например, алфавит языка Паскаль состоит из латинских букв (строчные и прописные буквы не различаются), цифр и специальных символов.

Berilgan til yoki tizimda ma’lum bir ma’noda tartiblashtirilgan simvollar yig’indisi. Bu simvollar harflar deb ataladi. Muayyan alfavitga tegishli bo‘lgan simvollarangina so‘zlarni tuzishda foydalanish mumkin. Masalan, *Paskal* tilining alfaviti lotin harflaridan (katta va kichik harflar ajratilmaydi), raqamlar va maxsus simvollardan tuzilgan.

Берилган тил ёки тизимда маълум бир маънода тартиблаштирилган символлар йиғиндиси. Бу символлар ҳарфлар деб аталади. Муайян алфавитга тегишли бўлган символлардангина сўзларни тузишда фойдаланиш мумкин. Масалан, *Paskal* тилининг алфавити лотин ҳарфларидан (катта ва кичик ҳарфлар ажратилмайди), рақамлар ва махсус символлардан тузилган.

## А

**Американский стандартный код для обмена информацией**  
**uz** - axborot almashinish uchun Amerika standart kodi  
ахборот алмашиниш учун Америка стандарт коди  
**en** - American standard code for information interchange (ASCII)

Набор из 128 кодов для машинного представления букв латинского алфавита, чисел, знаков препинания и специальных символов, каждому из которых соответствует конкретное 7-битовое двоичное число.

Lotin alfaviti harflarini, sonlarni, tinish belgilarini mashinada taqdim etish uchun, 128 ta koddan va har biriga 7-bitli aniq ikkilik son to'g'ri keladigan maxsus simvollardan iborat to'plam.

Лотин алфавити ҳарфларини, сонларни, тиниш белгиларини машинада тақдим этиш учун, 128 та коддан ва ҳар бирига 7-битли аниқ иккилик сон тўғри келадиган махсус символлардан иборат тўплам.

**Аналитическая машина Бэббеджа**  
**uz** - Bebbejning analitik mashinasi  
Бэббежнинг аналитик машинаси  
**en** - analytical car of Bebbezha

Универсальное счетное механическое устройство, разработанное Ч.Бэббеджем. Прообраз компьютера. Имела практически те же устройства, что и современные компьютеры: память, арифметическое устройство, устройство управления, устройства ввода/вывода; управлялась машина программой. Проект разработан в 1834 году, но полностью она не построена.

Ch.Bebbej tomonidan ishlab chiqilgan universal mexanik hisoblash qurilmasi. Kompyuterning proobrazi. Amalda hozirgi kompyuterlardagi qurilmalar: хотира, арифметик қурилма, бoшқариш қурилмаси, кiritиш/чиқариш қурилмаларига эга бo'лган, машина дастур билан бoшқарилган. Loyiha 1834 yilda ishlab chiqilgan, lekin to'la qurilmagan.

Ч.Бэббеж томонидан ишлаб чиқилган универсал механик ҳисоблаш қурилмаси. Компьютернинг прообрази. Амалда ҳозирги компьютерлардаги қурилмалар: хотира, арифметик қурилма, бошқариш қурилмаси, киритиш/чиқариш қурилмаларига эга бўлган, машина дастур билан бошқарилган. Лойиха 1834 йилда ишлаб чиқилган, лекин тўла қурилмаган.

## A

### **Аналитическая обработка в реальном времени**

**uz** - real vaqtda analitik qayta ishlash

реал вақтда аналитик қайта ишлаш

**en** - on-line analytical processing (OLAP)

Оперативный анализ данных для поддержки принятия важных решений. Выполнение операций над данными осуществляется OLAP-машиной. Термин был предложен Е.Коддом в 1993 г. Вместе с 12 правилами.

Muhim qarorlar qabul qilinishini ta'minlash uchun ma'lumotlarni operativ tahlil qilish. Ma'lumotlar ustidagi operatsiyalarni *OLAP*-mashina amalga oshiradi. Atama E.Kodd tomonidan 12 qoida bilan birga 1993 yilda taklif qilingan.

Мухим қарорлар қабул қилинишини таъминлаш учун маълумотларни оператив таҳлил қилиш. Маълумотлар устидаги операцияларни *OLAP*-машина амалга оширади. Атама Е.Кодд томонидан 12 қоида билан бирга 1993 йилда таклиф қилинган.

### **Аналоговая вычислительная машина**

**uz** - analog hisoblash mashinasi

аналог ҳисоблаш машинаси

**en** - analog computer

Вычислительная машина, оперирующая данными, представленными в аналоговом виде, отличается от цифровых большей скоростью выполнения операции и простотой программирования. Аналоговые вычислительные машины практически всегда жестко специализированы. Предполагается, что аналоговые вычислительные машины получает свое дальнейшее развитие при создании нейрокомпьютера.

Тартиб бўйича рақамланган элементларнинг охири кетма-кетлиги. Бир ўлчамли массив. Элементлар турли хил: бутун, символли бўлиши мумкин. Баъзи дастурлаш тилларида (Pascal, C) векторда барча элементлар бир турда бўлиши керак, бошқа тилларда (FOX) векторда турли хил элементлар бўлиши мумкин.

### Векторная графика

**uz** - vektorli grafika  
векторли графика  
**en** - vector art

Способ представления изображения как совокупности графических элементов, описанных любым способом, в том числе графическими командами. Хранится в метафайлах, которые чаще всего представляются как файлы в двоичном коде.

Tasvirni, har qanday usul bilan, shu jumladan, grafik komandalar bilan tavsiflangan grafik elementlar yig'indisi sifatida taqdim etish usuli. Ko'pincha, ikkilik koddagi fayllar sifatida taqdim qilinadi.

Тасвирни, ҳар қандай усул билан, шу жумладан, график командалар билан тавсифланган график элементлар йиғиндиси сифатида тақдим этиш усули. Кўпинча, иккилик коддаги файллар сифатида тақдим қилинади.

### Величина

**uz** - kattalik  
катталик  
**en** - amount, greatness

Элемент данных, определенный либо своим именем, либо значением, либо и тем, и другим. Часть памяти; задается именем (идентификатором) и значением, хранимым в памяти.

## В

O‘z nomi yoki qiymat bilan yoki ham unisi, ham bunisi bilan belgilanadigan ma’lumotlar elementi. Xotiraning bir qismi, nom (identifikator) va хотирада сақланадиган қиймат билан берилди.

Ўз номи ёки қиймат билан ёки ҳам униси, ҳам буниси билан белгиланадиган маълумотлар элементи. Хотиранинг бир қисми, ном (идентификатор) ва хотирада сақланадиган қиймат билан берилди.

### Величина аналоговая

**uz** - analog kattalik

аналог катталик

**en** - analog size

Величина, у которой значения изменяются непрерывно; ее конкретное значение зависит только от точности прибора, производящего измерение.

Қийматлари то‘хтовсиз о‘згарадиган катталик; uning aniq qiymati o‘lchashni amalga oshiradigan asbobning aniqligiga bog‘liq.

Қийматлари тўхтовсиз ўзгарадиган катталик; унинг аниқ қиймати ўлчашни амалга оширадиган асбобнинг аниқлигига боғлиқ.

### Величина дискретная

**uz** - diskret kattalik

дискрет катталик

**en** - discrete size

Величина, значения которой изменяются скачкообразно. Например, величина, характеризующая наличие или отсутствие тока в электрической цепи, дискретная и может принимать значения «да» или «нет» (0 или 1).

Қийматлари сакраб-сакраб о‘згарадиган катталик. Масалан, электр занжирда ток борлигини yoki yo‘qligini tavsiflaydigan kattalik diskret kattalik bo‘lib, «ha» yoki «yo‘q» (0 va 1) qiymat olishi mumkin.

Қийматлари сакраб-сакраб ўзгарадиган катталик. Масалан, электр занжирда ток борлигини ёки йўқлигини тавсифлайдиган катталик дискрет катталик бўлиб, «ҳа» ёки «йўқ» (0 ва 1) қиймат олиши мумкин.

### Версия

**uz** - versiya

версия

**en** - version

Вариант программного продукта, в который внесены некоторые изменения. Различные версии индексируются следующим образом: существенные изменения показываются цифрой до точки; промежуточные варианты – цифрами после точ-

## В

ки. Например, существуют версии MS-DOS: MS-DOS 6.2 и MS-DOS 6.22. Последняя означает, что выпущенная DOS версия 6.22 (читается: дос-шесть-точка-два-два) несколько отличается от версии 6.2.

Dasturiy mahsulotning, ba'zi o'zgartirishlar kiritilgan varianti. Turli versiyalar quyidagicha tarzda indekslanadi: jiddiy o'zgartirishlar nuqttagacha raqam bilan oraliq variantlar nuqtadan keyingi raqamlar bilan ko'rsatiladi. Masalan, *MS-DOS* ning versiyalari bor: *MS-DOS 6.2* va *MS-DOS 6.22*. Oxirgisi chiqarilgan *6.22 DOS* versiya (dos-olti-nuqta-ikki-ikki deb o'qiladi) 6.2 versiyadan birmuncha farq qilishini bildiradi.

Дастурий маҳсулотнинг, баъзи ўзгартиришлар киритилган варианты. Турли версиялар қуйдагича тарзда индексланади: жиддий ўзгартиришлар нуқтагача рақам билан оралиқ вариантлар нуқтадан кейинги рақамлар билан кўрсатилади. Масалан, *MS-DOS* нинг версиялари бор: *MS-DOS 6.2* ва *MS-DOS 6.22*. Охиргиси чиқарилган *6.22 DOS* версия (дос-олти-нуқта-икки-икки деб ўқилади) 6.2 версиядан бирмунча фарқ қилишини билдиради.

### Ветвление

**uz** - tarmoqlanish

тармоқланиш

**en** - branching

Одна из трех основных структур, используемая при составлении алгоритмов. Позволяет в зависимости от условий выполнять различные ветви алгоритма. В некоторых источниках эта структура называется выбором. К ветвлению относятся такие команды в языках программирования высокого уровня, как: *if... then... else; case... of*.

Algoritmlarni tuzishda foydalaniladigan uchta asosiy strukturadan biri. Sharoitga bog'liq holda, algoritm turli tarmoqlarini bajarish imkonini beradi. Ba'zi manbalarda bu struktura tanlash deb ataladi. Tarmoqlanishga yuqori daraja dasturlash tillaridagi *if... then... else; case... of* kabi komandalar kiradi.

Алгоритмларни тузишда фойдаланиладиган учта асосий структурадан бири. Шароитга боғлиқ

## В

холда, алгоритм турли тармоқларини бажариш имконини беради. Баъзи манбаларда бу структура танлаш деб аталади. Тармоқланишга юқори даража дастурлаш тилларидаги if... then... else; case... of каби командалар киради.

### **Видеопамять**

**uz** - videoxotira

видеохотира

**en** - video memory

Дополнительная память для обеспечения качественного изображения на дисплее. Является частью видеоадаптера, имеет объем до нескольких мегабайт. В видеопамяти формируются изображения одного или нескольких экранов, которые затем подаются на дисплей. В некоторых компьютерах видеопамять выделяется из оперативной памяти.

Displeyda sifatli tasvirni ta'minlash uchun mo'ljallangan qo'shimcha хотира. Videoadapterni qismi hisoblanadi, bir necha megabaytgacha hajmga ega. Videoxotirada bitta yoki bir nechta ekranning tasviri shakllanadi, displeyga uzatiladi. Ba'zi kompyuterlarda videoxotira operativ хотирадан ajratiladi.

Дисплейда сифатли тасвири таъминлаш учун мўлжалланган қўшимча хотира. Видеоадаптернинг қисми ҳисобланади, бир неча мегабайтгача ҳажмга эга. Видеохотирада битта ёки бир неча экраннинг тасвири шаклланади, дисплейга узатилади. Баъзи компьютерларда видеохотира оператив хотирадан ажратилади.

### **Визуальное**

**программирование**

**uz** - vizual dasturlash

визуал дастурлаш

**en** - visual programming

Программирование, предусматривающее создание приложений с помощью наглядных средств. Программист не создает текст программы, а показывает, что должно получиться в результате. Текст программы генерируется автоматически с помощью визуального прототипа. Визуальное программирование основывается на объектно-ориентированном программировании и OLE-технологии или подобных ей технологиях. Элементы визуального программирования широко используются в конкретных языках программирования и средствах создания приложений от Visual C++ до DELPHI.

## В

Ko'rgazmali vositalar yordamida ilovalar yaratish ko'zda tutiladigan dasturlash. Dasturchi dastur matnini yaratmaydi, balki natijada nima bo'lishini ko'rsatadi. Dastur matni vizual prototip yordamida avtomatik tarzda yuzaga keladi. Vizual dasturlash obyektga yo'naltirilgan dasturlashga va *OLE* texnologiyalarga yoki unga o'xshash texnologiyalarga asoslanadi. Vizual dasturlash elementlaridan *Visual C ++* dan tortib *DELPHI* gacha bo'lgan ilovalarni yaratish vositalarida va ma'lum bir dasturlash tillarida keng foydalaniladi.

Kўргазмали воситалар ёрдамида иловалар яратиш кўзда тутиладиган дастурлаш. Дастурчи дастур матнини яратмайди, балки натижада нима бўлишини кўрсатади. Дастур матни визуал прототип ёрдамида автоматик тарзда юзага келади. Визуал дастурлаш объектга йўналтирилган дастурлашга ва OLE технологияларга ёки унга ўхшаш технологияларга асосланади. Визуал дастурлаш элементларидан Visual C ++ дан тортиб DELPHI га-ча бўлган иловаларни яратиш воситаларида ва маълум бир дастурлаш тилларида кенг фойдаланилади.

### Винчестер

**uz** - vinchester

винчестер

**en** - hard disk

Устройство для хранения данных, то же, что накопитель на жестком магнитном диске. Разработан в 1973 г. фирмой IBM. Диск имел характеристики: емкость 30 Mbyte, время доступа 30 ms. По другой версии, накопитель состоял из двух дисков по 30 Mbyte каждый.

Ма'lumotlarni saqlash qurilmasi, qattiq magnit diskdagi to'plagichning o'zi *IBM* firmasi tomonidan 1973 yilda ishlab chiqilgan. Diskning xarakteristikalarini quyidagicha edi: sig'imi 30 *Mbyte*, foydalanish vaqti 30 *ms*. Boshqa versiyaga ko'ra, to'plagich har biri 30 *Mbyte* bo'lgan ikkita diskdan iborat bo'lgan.

Маълумотларни сақлаш қурилмаси, қаттиқ магнит дискдаги тўплагичнинг ўзи *IBM* фирмаси томонидан 1973 йилда ишлаб чиқилган. Дискнинг

## В

характеристикалари куйидагича эди: сифими 30 Mbyte, фойдаланиш вақти 30 ms. Бошқа версияга кўра, тўплагич ҳар бири 30 Mbyte бўлган иккита дискдан иборат бўлган.

### Виртуальная машина

**uz** - virtual mashina

виртуал машина

**en** - virtual computer

Среда, создаваемая программным обеспечением в компьютере, которая моделирует физическое устройство. В Windows виртуальные машины моделируют отдельные компьютеры, каждый из которых имеет свои собственные службы, включая ресурсы памяти, сервисы файловой системы, драйверы устройств и доступ к периферии. Windows содержит 2 основных типа виртуальных машин: System VM, которая используется для запуска приложений Windows, и DOS VM, которая создается для каждого приложения MS-DOS, выполняющегося в Windows.

Kompyuterda dasturiy ta'minot yaratadigan, fizik qurilma modellashtiriladigan muhit. *Windows* da virtual mashinalar, har biri o'zining xususiy xizmatlariga, jumladan, хотира resurslariga, fayl tizimi serverlariga, qurilmalar drayverlariga, periferiyadan foydalanish huquqiga ega bo'lgan alohida kompyuterlarni modellashtiradi. *Windows* virtual mashinalarining ikkita asosiy turini ichiga oladi: *Windows* ilovalarini ishga tushirish uchun foydalaniladigan *System VM* va *Windows* da bajariladigan *MS-DOS* ning har bir ilovasi uchun yaratiladigan *DOS VM*.

Компьютерда дастурий таъминот яратадиган, физик қурилма моделлаштириладиган муҳит. *Windows* да виртуал машиналар, ҳар бири ўзининг хусусий хизматларига, жумладан, хотира ресурсларига, файл тизими серверларига, қурилмалар драйверларига, перифериядан фойдаланиш ҳуқуқига эга бўлган алоҳида компьютерларни моделлаштиради. *Windows* виртуал машиналарнинг иккита асосий турини ичига олади: *Windows* иловаларини ишга тушириш учун фойдаланиладиган *System VM* ва *Windows* да бажариладиган *MS-DOS* нинг ҳар бир иловаси учун яратиладиган *DOS VM*.

## В

### **Виртуальная память**

**uz** - virtual хотира

виртуал хотира

**en** - virtual memory

Метод работы компьютера с памятью на жестком диске как с оперативной памятью. Позволяет обрабатывать большие объёмы данных и обеспечивает многозадачный режим работы.

Kompyuterning qattiq diskda хотира bilan bo'lgani kabi ishlash metodi. Katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash imkonini beradi va ko'p vazifali ishlash rejimini ta'minlaydi.

Компьютернинг қаттиқ дискда хотира билан бўлгани каби ишлаш методи. Катта ҳажмдаги маълумотларни қайта ишлаш имконини беради ва кўп вазифали ишлаш режимини таъминлайди.

### **Виртуальная реальность**

**uz** - virtual borliq

виртуал борлиқ

**en** - virtual reality

Имитация реального мира современными техническими и программными средствами.

Zamonaviy texnik va dasturiy vositalar bilan real dunyoni imitatsiya qilish.

Замонавий техник ва дастурий воситалар билан реал дунёни имитация қилиш.

### **Виртуальный диск**

**uz** - virtual disk

виртуал диск

**en** - virtual disk

Псевдодисковый накопитель, созданный программным образом из части оперативной памяти. Операционная система работает с ним, как с реально существующим диском. Используется в двух случаях, для временного дублирования физически существующего диска и целью ускорения доступа к данным, так как оперативная память намного быстрее дисковой.

Operativ хотира qismidan dasturiy tarzda yaratilgan, psevdodiskli to'plagich. Operatsion tizim u bilan, haqiqatda mavjud bo'lgan disk bilan ishlagandek ishlaydi. Ikki holatda, moddiy mavjud bo'lgan diskni vaqtinchalik takrorlash uchun va ma'lumotlardan foydalanishni tezlashtirish maqsadida foydalaniladi, chunki operativ хотира diskli хотирага nisbatan ancha tez. Ko'pincha elektron disk deb ataladi.

Оператив хотира қисмидан дастурий тарзда яратилган, псевдодискли тўплагич. Операцион тизим у билан, ҳақиқатда мавжуд бўлган диск

## В

билан ишлагандек ишлайди. Икки ҳолатда, моддий мавжуд бўлган дискни вақтинчалик такрорлаш учун ва маълумотлардан фойдаланишни тезлаштириш мақсадида фойдаланилади, чунки оператив хотира диски хотирага нисбатан анча тез. Кўпинча электрон диск деб аталади.

### **Вирус компьютерный**

**uz** - kompyuter virusi

компьютер вируси

**en** - computer virus

1 Анонимная программа, которая внедряется в вычислительную систему с целью исказить, модифицировать или уничтожить данные.

2 Программа, которая обладает следующими свойствами: возможностью копирования себя в другие файлы, диски, электронно вычислительные машины; возможностью выполнения без явного вызова; возможностью осуществления несанкционированного доступа к информации; возможностью маскировки от попыток обнаружения.

3 Вредоносная программа, способная создавать свои копии или другие вредоносные программы и внедрять их в файлы, системные области компьютера, компьютерных сетей, а также осуществлять иные деструктивные действия.

1 Hisoblash tizimiga, ma'lumotlarni buzish, o'zgartirish yoki yo'q qilish maqsadida kiritiladigan anonim dastur.

2 Quyidagi xususiyatlarga: o'zini boshqa fayllarga, diskka, elektron hisoblash mashinasiga ko'chirish; aniq chaqiruvsiz bajarish; axborotdan ruxsat etilmagan tarzda foydalanishni amalga oshirish; aniqlashga urinishdan maskirovka qilish imkoniyatiga ega dastur.

3 O'zining nusxasini yoki boshqa zararli dasturlar yarata oladigan va ularni kompyuter fayllariga, tizim sohalariga kiritadigan, shuningdek, boshqa destruktiv harakatlarni amalga oshiradigan zararli dastur.

1 Ҳисоблаш тизимига, маълумотларни бузиш, ўзгартириш ёки йўқ қилиш мақсадида киритиладиган аноним дастур.

2 Қуйидаги хусусиятларга: ўзини бошқа файлларга, дискка, электрон ҳисоблаш машинасига кўчириш; аниқ чақирувсиз бажариш; ахборотдан

## В

рухсат этилмаган тарзда фойдаланишни амалга ошириш; аниқлашга уринишдан маскировка қилиш имкониятига эга дастур.

3 Ўзининг нусхасини ёки бошқа зарарли дастурлар ярата оладиган ва уларни компьютер файлларига, тизим соҳаларига киритадиган, шунингдек, бошқа деструктив ҳаракатларни амалга оширадиган зарарли дастур.

### **Вложенность**

**uz** - qo'yilganlik

қўйилганлик

**en** - nesting

Структура алгоритма, программы, команды, в которой происходит вхождение в аналогичную или другую конструкции. Например, цикл в цикле, условный оператор в условном операторе.

O'xshash yoki boshqa bir konstruktsiyaga kirish yuz beradigan algoritmlar, dastur, komanda strukturasi. Masalan, sikldagi sikl, shartli operatoridagi shartli operator.

Ўхшаш ёки бошқа бир конструкцияга кириш юз берадиган алгоритм, дастур, команда структураси. Масалан, циклдаги цикл, шартли оператордаги шартли оператор.

### **Внешнее запоминающее устройство**

**uz** - tashqi хотирловчи qurilma

ташки хотирловчи

қурилма

**en** - external memory

Устройство для длительного хранения данных, конструктивно выполненное отдельно; энергонезависимая память.

Konstruktiv jihatdan alohida qilingan, ma'lumotlarni uzoq muddat saqlash uchun mo'ljallangan qurilma; energiyaga bog'liq bo'lmagan хотира.

Конструктив жиҳатдан алоҳида қилинган, маълумотларни узоқ муддат сақлаш учун мўлжалланган қурилма; энергияга боғлиқ бўлмаган хотира.

### **Внешнее устройство**

**uz** - tashqi qurilma

ташки қурилма

**en** - external device

Устройство, не работающее непосредственно с центральным процессором компьютера.

Kompyuterning markaziy protsessori bilan bevosita ishlamaydigan qurilma.

Компьютернинг марказий процессори билан бевосита ишламайдиган қурилма.

## В

### **Волоконно-оптический кабель**

**uz** - optik tolali kabel

оптик толали кабель

**en** - fiber-optic cable

Кабель, передающий данные с помощью света, что увеличивает скорость и качество передачи. Используется в компьютерных сетях. Волоконный (гибкий) диэлектрик, выполненный на основе кварцевого стекла и окруженный оболочкой с показателем преломления меньшим, чем у сердцевины.

Ma'lumotlar yorug'lik yordamida uzatiladigan kabel, bu uzatish sifati va tezligini oshiradi. Kompyuter tarmoqlarida ishlatiladi. Kvarts shisha asosida qilingan va sindirish ko'rsatkichi o'zakdagiga nisbatan kichik bo'lgan qobiq bilan o'ralgan tolali (egiluvchan) dielektrik.

Ma'lumotlar ёруғлик ёрдамида узатиладиган кабель, бу узатиш сифати ва тезлигини оширади. Компьютер тармоқларида ишлатилади. Кварц шиша асосида қилинган ва синдириш кўрсаткичи ўзакдагига нисбатан кичик бўлган қобик билан ўралган толали (эгиловчан) диэлектрик.

### **Восьмеричная система счисления**

**uz** - sakkizlik sanoq tizimi

саккизлик саноқ тизими

**en** - octal notation

Позиционная система счисления с основанием 8. Для записи чисел используются цифры – 0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7 .

Asosi 8 bo'lgan pozitsion sanoq tizimi. Sonlarni yozish uchun, 0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7 raqamlaridan foydalaniladi.

Асоси 8 бўлган позицион саноқ тизими. Сонларни ёзиш учун, 0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7 рақамларидан фойдаланилади.

### **Время наработки на отказ**

**uz** - buzilishgacha ishlash vaqti

бузилишгача ишлаш

вақти

**en** - time to failure

Среднее время между двумя техническими последовательными отказами вычислительной системы или устройства. Один из показателей надежности системы.

Hisoblash tizimi yoki qurilmaning ikkita texnik ketma-ket buzilishlari orasidagi o'rtacha vaqt tizimning ishonchlilik ko'rsatkichlaridan biri.

Ҳисоблаш тизими ёки қурилманинг иккита техник кетма-кет бузилишлари орасидаги ўртача вақт тизимнинг ишончилилик кўрсаткичларидан бири.

## В

### **Всемирная паутина (WWW)**

**uz** - Butunjahon «oʻrgimchak toʻri» (WWW)

Бутунжаҳон «ўргимчак тўри» (WWW)

**en** - World wide web (WWW)

Одна из многих технологий, поддерживаемая сетью Internet. Обеспечивает поиск гипертекстовых документов. Основа WWW сервер, компьютер, входящий в Internet, который хранит адресованные страницы гипертекста; гипертекст, созданный при помощи специальных языков – HTML, VRML, Java; браузер, программа, обеспечивающая взаимодействие пользователя/клиента с сервером и компьютерами, на которых находится гипертекст.

*Internet tarmogʻi qoʻllab-quvvatlaydigan koʻplab texnologiyalardan biri. Gipermatnli hujjatlar izlab topilishini taʼminlaydi. WWW ning asosini Internet ga kiradigan, gipermatnning adreslangan sahifalari saqlanadigan kompyuter, server; HTML, VRML, Java kabi maxsus tillar yordamida tuzilgan gipermatn; brauzer, foydalanuvchi/mijozning server va gipermatn boʻlgan kompyuterlar bilan birgalikda ishlashini taʼminlaydigan dastur tashkil qiladi.*

Internet тармоғи қўллаб-қувватлайдиган кўплаб технологиялардан бири. Гиперматнли хужжатлар излаб топилишини таъминлайди. WWW нинг асосини Internet га кирадиган, гиперматннинг адресланган саҳифалари сақланадиган компьютер, сервер; HTML, VRML, Java каби махсус тиллар ёрдамида тузилган гиперматн; браузер, фойдаланувчи/мижознинг сервер ва гиперматн бўлган компьютерлар билан биргаликда ишлашини таъминлайдиган дастур ташкил қилади.

### **Всплывающее меню**

**uz** - qalqib chiqadigan menyu  
қалқиб чиқадиган меню

**en** - pop-up menu

Меню, появляющееся на следующем уровне иерархии и скрытое до момента его выбора.

Iyerarxiyaning keyingi sathida paydo boʻladigan va tanlab olinadigan momentgacha yashirin menyu.

Иерархиянинг кейинги сатҳида пайдо бўладиган ва танлаб олинадиган моментгача яширин меню.

### **Вставка**

**uz** - qoʻshimcha  
қўшимча

**en** - paste

Процедура добавления к некоторой упорядоченной структуре (массиву, списку, файлу) нового элемента. Может быть сделана на логическом и физическом уровнях.

## В

Qandaydir tartiblashtirilgan strukturaga (massivga, ro'yxatga, faylga) tegishli joyga yangi elementni qo'shish protsedurasi. Mantiqiy va fizik darajalarda qilinishi mumkin.

Қандайдир тартибластирилган структурага (масивга, рўйхатга, файлга) тегишли жойга янги элементни қўшиш процедураси. Мантикий ва физик даражаларда қилиниши мумкин.

### Встраивание шрифта

**uz** - shiftni o'rnatish

шрифтни ўрнатиш

**en** - internal font

Технология, при которой текст, подготовленный с одним из шрифтов True Type, при переносе на другой компьютер, на котором такого шрифта нет, все равно будет читаться, печататься на принтере таким же шрифтом. Шрифт передается вместе с текстом и его можно использовать только с этим текстом и той средой (приложением), в которой он подготовлен. Работает в среде Windows.

*True Type* shifrlarining biri bilan tayyorlangan matn, bunday shifrt bo'lmagan boshqa kompyuterga ko'chirilganda, baribir ayni shunday shifrtli printerda o'qiladigan, bosiladigan texnologiya. Shifrt matn bilan birga uzatiladi, undan faqat shu matn va matn tayyorlangan muhit (ilova) bilan foydalanish mumkin. *Windows* muhitida ishlaydi.

True Type shifrlarining biri bilan tayyorlangan matn, bunday shifrt bo'lmagan boshqa kompyuterga ko'chirilganda, baribir ayni shunday shifrtli printerda o'qiladigan, bosiladigan texnologiya. Shifrt matn bilan birga uzatiladi, undan faqat shu matn va matn tayyorlangan muhit (ilova) bilan foydalanish mumkin. *Windows* muhitida ishlaydi.

### Выборка

**uz** - tanlab-tanlab olish

танлаб-танлаб олиш

**en** - selection

Процесс переноса или копирования данных по некоторым признакам с одного места на другое с целью сортировки, формирования результирующих документов и пр.

Saralash maqsadida, ma'lumotlarni qandaydir belgilariga ko'ra bir joydan boshqa bir joyga ko'chirish yoki ulardan nusxa olish, natijalovchi hujjatlarni tuzish jarayoni.

## В

Саралаш мақсадида, маълумотларни қандайдир белгиларига кўра бир жойдан бошқа бир жойга кўчириш ёки улардан нусха олиш, натижаловчи ҳужжатларни тузиш жараёни.

### **Вывод**

**uz** - xulosa chiqarish

хулоса чиқариш

**en** - output

Процесс получения результата на основании имеющихся фактов и правил. Используется в системах искусственного интеллекта и логического вывода.

Mavjud faktlar va qoidalar asosida natija olish jarayoni. Sun'iy intellekt va mantiqiy xulosa tizimlarida foydalaniladi.

Мавжуд фактлар ва қоидалар асосида натижа олиш жараёни. Сунъий интеллект ва мантиқий хулоса тизимларида фойдаланилади.

### **Высказывание**

**uz** - mulohaza

мулоҳаза

**en** - proposition

Понятие математической логики, определяемое как повествовательное предложение; может быть истинным или ложным, но не может быть истинным и ложным одновременно. В информатике это понятие сужается до определения: высказывание – это логическое выражение. Над высказываниями возможно производить логические операции. Из простых высказываний строятся сложные.

Matematik mantiqning, darak gap sifatida aniqlanadigan tushunchasi; chin yoki yolg'on bo'lishi mumkin, lekin bir vaqtda chin yoki yolg'on bo'lishi mumkin emas. Informatikada bu tushuncha, mulohaza – bu mantiqiy ifoda degan tavsifgacha torayadi. Mulohazalar ustida mantiqiy amallar bajarilishi mumkin. Oddiy mulohazalardan murakkab mulohazalar quriladi.

Математик мантиқнинг, дарак гап сифатида аниқланадиган тушунчаси; чин ёки ёлғон бўлиши мумкин, лекин бир вақтда чин ёки ёлғон бўлиши мумкин эмас. Информатикада бу тушунча, мулоҳаза – бу мантиқий ифода деган тавсифгача тораяди. Мулоҳазалар устида мантиқий амаллар бажарилиши мумкин. Оддий мулоҳазалардан мураккаб мулоҳазалар қурилади.

## В

### **Вычислительная машина**

**uz** - hisoblash mashinasi

hisoblash mashinasi

**en** - computer

Комплекс устройств и программных средств для автоматической обработки данных при решении математических и в основном информационных задач. Управление машиной, обработка данных осуществляются по алгоритмам, вводимым в машину в виде программ. Программы и данные хранятся в памяти машины. Основное устройство центральный процессор.

Matematik, asosan axborot bilan bog'liq vazifalarni hal qilishda ma'lumotlarni avtomatik qayta ishlash uchun mo'ljallangan dasturiy vositalar va qurilmalar kompleksi. Mashinani boshqarish ma'lumotlarni qayta ishlash, dasturlar ko'rinishida mashinaga kiritiladigan algoritmlar bo'yicha amalga oshiriladi. Dasturlar va ma'lumotlar mashina xotirasida saqlanadi. Asosiy qurilmasi markaziy protsessor.

Математик, асосан ахборот билан боғлиқ вазифаларни ҳал қилишда маълумотларни автоматик қайта ишлаш учун мўлжалланган дастурий воситалар ва қурилмалар комплекси. Машинани бошқариш маълумотларни қайта ишлаш, дастурлар кўринишида машинага киритиладиган алгоритмлар бўйича амалга оширилади. Дастурлар ва маълумотлар машина хотирасида сақланади. Асосий қурилмаси марказий процессор.

### **Вычислительная сеть**

**uz** - hisoblash tarmog'i

hisoblash tarmoqi

**en** - computer network

Комплекс компьютеров, вспомогательного оборудования, каналов связи и специального программного обеспечения для передачи данных между элементами сети. В зависимости от задач, типа оборудования и линий связи вычислительные сети разделяются на нелокальные, корпоративные, территориальные и глобальные сети. Сети создаются для более полного использования ресурсов или их перераспределения, для быстрой и автоматической связи с передачей больших объемов данных.

Ma'lumotlarni tarmoq elementlari o'rtasida uzatish uchun mo'ljallangan kompyuterlar, yordamchi uskuna, aloqa kanallari va maxsus dasturiy ta'minot

## В

kompleksi. Hisoblash tarmoqlari vazifalarga, uskuna turiga hamda aloqa liniyalariga bogʻliq ravishda, lokal boʻlmagan, korporativ, hududiy va global tarmoqlarga boʻlinadi. Tarmoqlar resurslardan yanada toʻliqroq foydalanish yoki ularni qayta taqsimlash uchun, katta hajmdagi maʼlumotlar uzatilgan holda, tez va avtomatik aloqa uchun yaratiladi.

Маълумотларни тармоқ элементлари ўртасида узатиш учун мўлжалланган компьютерлар, ёрдамчи ускуна, алоқа каналлари ва махсус дастурий таъминот комплекси. Ҳисоблаш тармоқлари вазифаларга, ускуна турига ҳамда алоқа линияларига боғлиқ равишда, локал бўлмаган, корпоратив, ҳудудий ва глобал тармоқларга бўлинади. Тармоқлар ресурслардан янада тўлиқроқ фойдаланиш ёки уларни қайта тақсимлаш учун, катта ҳажмдаги маълумотлар узатилган ҳолда, тез ва автоматик алоқа учун яратилади.

### **Вычислительная техника**

**uz** - hisoblash texnikasi

ҳисоблаш техникаси

**en** - computing technology

Отрасль техники, занимающаяся вопросами разработки вычислительных машин и всех связанных с ними устройств, их производства и эксплуатации.

Texnikaning, hisoblash mashinalari va ular bilan bogʻliq barcha qurilmalarni ishlab chiqish, ularni ishlab chiqarish va ulardan foydalanish masalalari bilan shugʻullanadigan sohasi.

Техниканинг, ҳисоблаш машиналари ва улар билан боғлиқ барча қурилмаларни ишлаб чиқиш, уларни ишлаб чиқариш ва улардан фойдаланиш масалалари билан шуғулланадиган соҳаси.

### **Вычислительный**

#### **эксперимент**

**uz** - hisoblash eksperimenti

ҳисоблаш эксперименти

**en** - computing experiment

Метод исследования явления процесса, машины, для которых разработана компьютерная модель. Качество вычислительного эксперимента зависит от адекватности модели реальному объекту и от экспериментатора, определяющего варьируемые параметры. Преимущества вычислительного эксперимента перед любым другим в его высокой скорости и относительно незначительных затратах. Широко используется в математике, физике,

## В

химии, биологии, экологии, технике и информатике.

Kompyuter modeli ishlab chiqilgan hodisa, jarayon, mashinani o'rganish metodi. Hisoblash eksperimentining sifati, modelning real obyektga o'xshashligiga va hisoblanadigan parametrlarni belgilaydigan eksperimentatorga bog'liq. Hisoblash eksperimentining boshqa har qanday eksperimentdan afzalligi, tezligining yuqori bo'lishligida va xarajatlarning nisbatan kamligida. Texnika va informatikada, matematika, fizika, ximiya, biologiya, ekologiyada keng foydalaniladi.

Компьютер модели ишлаб чиқилган ҳодиса, жараён, машинани ўрганиш методи. Ҳисоблаш экспериментининг сифати, моделнинг реал объектга ўхшашлигига ва ҳисобланадиган параметрларни белгилайдиган экспериментаторга боғлиқ. Ҳисоблаш экспериментининг бошқа ҳар қандай экспериментдан афзаллиги, тезлигининг юқори бўлишлигида ва харажатларнинг нисбатан камлигида. Техника ва информатикада, математика, физика, химия, биология, экологияда кенг фойдаланилади.

## Г

### Генератор прикладных программ

**uz** - amaliy dasturlar generatori

амалий дастурлар

генератори

**en** - application generator

Программы, входящие в систему управления базами данных, предназначенные для автоматизации составления программ управления конкретной базой данных. Для использования генератора программ не требуется высокой квалификации, по этому создание структуры базы данных, ввод и корректировку данных, формирование отчетов может выполнять конечный пользователь.

Ma'lumotlar bazalarini boshqarish tizimiga kiradigan muayyan ma'lumotlar bazasini boshqarish dasturlarini tuzishni avtomatlashtirish uchun mo'ljallangan dasturlar. Dasturlar generatoridan foydalanish uchun yuqori malaka talab qilinmaydi. Shu sababli, ma'lumotlar bazasi strukturasi

## Г

yaratish, ma'lumotlar kiritilishini va tuzatilishini, hisobotlar tuzishni oxirgi foydalanuvchi bajarishi mumkin.

Маълумотлар базаларини бошқариш тизимига кирадиган муайян маълумотлар базасини бошқариш дастурларини тузишни автоматлаштириш учун мўлжалланган дастурлар. Дастурлар генераторидан фойдаланиш учун юқори малака талаб қилинмайди. Шу сабабли, маълумотлар базаси структурасини яратиш, маълумотлар киритилишини ва тузатилишини, ҳисоботлар тузишни охириги фойдаланувчи бажариши мумкин.

**Генератор случайных чисел**  
**uz** - tasodifiy sonlar generatori  
тасодифий сонлар генератори  
**en** - random number generator

Устройство или программа, вырабатывающие случайные числа. Действительно случайные числа получить очень сложно, практически всегда в результате появляются псевдослучайные числа.

Tasodifiy sonlar ishlab chiqadigan qurilma yoki dastur. Haqiqatda tasodifiy sonlarni olish juda qiyin, amalda natijada doim psevdotasodifiy sonlar paydo bo'ladi.

Тасодифий сонлар ишлаб чиқадиган қурилма ёки дастур. Ҳақиқатда тасодифий сонларни олиш жуда қийин, амалда натижада доим псевдотасодифий сонлар пайдо бўлади.

**Генератор тактовой частоты**  
**uz** - takt chastota generatori  
такт частота генератори  
**en** - clock speed generator

Устройство для выработки через разные строчки времени последовательности импульсов. Время между двумя последовательными импульсами называется тактом. Некоторые команды процессора выгоняются за несколько тактов. Импульсы, проходя через все элементы компьютера, заставляют их работать в едином такте – синхронно. Частота генерации тактовых импульсов определяет быстродействие компьютера.

Teng vaqt oraliqlaridan so'ng impulslar ketma-ketligini ishlab chiqaradigan qurilma. Ikkita ketma-ket impuls orasidagi vaqt takt deb ataladi. Protsessorning ba'zi komandalari bir nechta takt ichida chiqariladi. Kompyuterning barcha elementlari orqali

## Г

oʻtadigan impulslar ularni yagona taktda – sinxron ishlashga majbur qiladi. Takt impulslarning generatsiya chastotasi kompyuterning tez ishlashini belgilaydi.

Тенг вақт ораликларидан сўнг импульслар кетма-кетлигини ишлаб чиқарадиган қурилма. Иккита кетма-кет импульс орасидаги вақт такт деб аталади. Процессорнинг баъзи командалари бир нечта такт ичида чиқарилади. Компьютернинг барча элементлари орқали ўтадиган импульслар уларни ягона тактда – синхрон ишлашга мажбур қилади. Такт импульсларнинг генерация частотаси компьютернинг тез ишлашини белгилайди.

### **Геоинформационная система**

**uz** - geoinformatsion tizim  
геоинформацион тизим  
**en** - geographic information system

Информационная система, в которой данные описывают физические объекты и схемы их расположения в пространстве.

Maʼlumotlar fizik obyektlarni va ularning fazoda joylashish sxemalarini tavsiflaydigan informatsion tizim.

Маълумотлар физик объектларни ва уларнинг фазода жойлашиш схемаларини тавсифлайдиган информацион тизим.

### **Гибкий магнитный диск**

**uz** - egiluvchan magnit disk  
эгилувчан магнит диск  
**en** - floppy disk

Диск из гибкой пластмассы в защитной пластмассовой упаковке. Диск покрыт магнитным составом. Широко распространены диски с размерами 5,25 и 3,5 дюйма (inch) в диаметре. Для работы с гибким магнитным диском необходим накопитель на гибком магнитном диске. Предназначен для длительного хранения данных, используется для хранения резервных копий и переноса данных с одного компьютера на другой. Для чтения/записи требуются соответствующие дисководы. Данные записываются по концентрическим окружностям, называемым треками, или дорожками.

Plastmassa himoya oʻramidagi egiluvchan plastmassadan qilingan disk. Disk magnit tarkib bilan qoplangan. Oʻlchamlari diametrda 5,25 va 3,5 dyuym

## Г

(*inch*) bo'lgan disklar keng tarqalgan. Egiluvchan magnit disk bilan ishlash uchun egiluvchan magnit diskdagi to'plagich zarur. Ma'lumotlarni uzoq vaqt saqlash uchun mo'ljallangan, rezerv nusxalarni saqlash va ma'lumotlarni bir kompyuterdan boshqasiga ko'chirish uchun ishlatiladi. O'qish/yozish uchun tegishli diskovodlar talab qilinadi. Ma'lumotlar yo'l-kalar yoki treklar deb ataladigan konsentrik aylanalar bo'ylab yoziladi.

Пластмасса химоя ўрамидаги эгилувчан пластмассадан қилинган диск. Диск магнит таркиб билан қопланган. Ўлчамлари диаметрда 5,25 ва 3,5 дюйм (*inch*) бўлган дисклар кенг тарқалган. Эгилувчан магнит диск билан ишлаш учун эгилувчан магнит дискдаги тўплагич зарур. Маълумотларни узоқ вақт сақлаш учун мўлжалланган, резерв нусхаларни сақлаш ва маълумотларни бир компьютердан бошқасига кўчириш учун ишлатилади. Ўқиш/ёзиш учун тегишли дискководлар талаб қилинади. Маълумотлар йўлкалар ёки треклар деб аталадиган концентрик айланалар бўйлаб ёзилади.

### **Гигабайт (Gbyte)**

**uz** - gigabayt (Gbyte)  
гигабайт (Gbyte)  
**en** - Gbyte

Единица измерения ёмкости памяти компьютерных систем – 230 или 1.073.741.824 byte.

Компьютер тизимлари хотира сиг'imini o'lchash birligi 230 yoki 1.073.741.824 *byte* ga teng.

Компьютер тизимлари хотира сиг'имини ўлчаши бирлиги 230 ёки 1.073.741.824 *byte* га тенг.

### **Гипервизор**

**uz** - gipervizor  
гипервизор  
**en** - hypervisor

Программа или аппаратная схема, обеспечивающая или позволяющая одновременное, параллельное выполнение нескольких или даже многих операционных систем на одном и том же хост-компьютере. Гипервизор также обеспечивает изоляцию операционных систем друг от друга, защиту и безопасность, разделение ресурсов между различными запущенными операционными системами и управление ресурсами. Гипервизор сам по себе в некотором роде является минимальной операционной системой (микроядром или наноядром).

## Г

Ayni bir xost-kompyuterda bir vaqtda bir qancha yoki ko‘plab operatsion tizimlar parallel bajarilishini ta‘minlaydigan yoki bajarilishiga imkon yaratadigan dasturiy yoki apparat sxema. Gipervizor, shuningdek, operatsion tizimlarning bir-biridan izolyatsiya qilinishini, muhofazasini va xavfsizligini, ishga tushirilgan turli operatsion tizimlar o‘rtasida resurslar ajratilishini va bu resurslar boshqarilishini ham ta‘minlaydi. Gipervizor qandaydir ma‘noda minimal operatsion tizim (mikroyadro yoki nanoyadro) hisoblanadi.

Айни бир хост-компьютерда бир вақтда бир қанча ёки кўплаб операцион тизимлар параллел бажарилишини таъминлайдиган ёки бажарилишига имкон яратадиган дастурий ёки аппарат схема. Гипервизор, шунингдек, операцион тизимларнинг бир-биридан изоляция қилинишини, муҳофазасини ва хавфсизлигини, ишга туширилган турли операцион тизимлар ўртасида ресурслар ажратилишини ва бу ресурслар бошқарилишини ҳам таъминлайди. Гипервизор қандайдир маънода минимал операцион тизим (микроядро ёки наноядро) ҳисобланади.

**Гиперкард**  
**uz** - giperkard  
гиперкард  
**en** - huper card

Визуальная среда программирования, позволяющая создавать собственные приложения гипермедиа на компьютере Macintosh, в системе MAC OS версий 6-9. Гиперкард можно назвать «организатором информации», позволяющим собирать воедино тексты, картинки, звуки, анимацию, предлагая их пользователю в удобном, интерактивном виде.

*Macintosh* kompyuterida, 6-9 versiyalar *MAC OS* tizimida gipermedia ilovalar yaratish imkonini beradigan vizual dasturlash muhiti. Giperkardni, foydalanuvchiga qulay, interaktiv ko‘rinishda taklif etgan holda, matnlar, rasmlar, tovushlar, animatsiyani birga to‘plash imkonini beradigan «axborot tashkilotchisi» deb atash mumkin.

Macintosh kompyuterida, 6-9 versiyalar *MAC OS*

## Г

тизимида гипермедиа иловалар яратиш имконини берадиган визуал дастурлаш муҳити. Гиперкард-ни, фойдаланувчига қулай, интерактив кўриниш-да таклиф этган ҳолда, матнлар, расмлар, товуш-лар, анимацияни бирга тўплаш имконини беради-ган «ахборот ташкилотчиси» деб аташ мумкин.

### **Гиперссылка**

**uz** - giperhavola  
гиперхавола  
**en** - hyperlink

Специальные пометки в тексте, распознаваемые программой (браузером), которая осуществляет переход к указанному фрагменту данного текста или к другому файлу, расположенному в общем случае на другом компьютере. Гиперссылки представляет разработчик текста в соответствии с требованиями браузера.

Matndagi, dastur (brauzer) aniqlaydigan maxsus belgilar. Dastur berilgan matnning ko'rsatilgan bo'lagiga yoki umumiy holda boshqa kompyuterda joylashgan boshqa faylga o'tishni amalga oshiradi. Giperhavolalar brauzer talablariga ko'ra, matnni ishlab chiquvchi tomonidan qo'yib chiqiladi.

Matndagi, dastur (brauzer) aniqlaydigan maxsus belgilar. Dastur berilgan matnning ko'rsatilgan bo'lagiga yoki umumiy holda boshqa kompyuterda joylashgan boshqa faylga o'tishni amalga oshiradi. Giperhavolalar brauzer talablariga ko'ra, matnni ishlab chiquvchi tomonidan qo'yib chiqiladi.

### **Гипертекстовый язык описания**

**uz** - gipermatn tavsiflash tili  
гиперматн тавсифлаш тили  
**en** - hyper text markup language (HTML)

Язык разметки исходного текста Web-документа, включающий специальные символы (теги), которые позволяют Web-браузеру сконструировать из текста дизайн. HTML предоставляет возможности форматирования и обработки форм, управления шрифтами, отображения информации в табличном виде, гипертекстовые связи и поддержку Java-апплетов.

*Web*-brauzerning dizayn matnini loyihalash imkonini beradigan, maxsus simvollar (teglar)dan tarkib topgan, *Web*-hujjat matnini yozish tili. *HTML* tili shakllarni formatlash va qayta ishlash, shriftlarni boshqarish, ma'lumotlarni grafik ko'rinishda uzatish,

## Г

gipermatnli aloqalarni tashkil etish va *Java* appletlarni qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi.

Web-браузернинг дизайн матнини лойиҳалаш имконини берадиган, махсус символлар (теглар)дан таркиб топган, Web-хужжат матнини ёзиш тили. HTML тили шаклларни форматлаш ва қайта ишлаш, шрифтларни бошқариш, маълумотларни график кўринишда узатиш, гиперматнли алоқаларни ташкил этиш ва *Java* апплетларни кўллаб-қувватлаш имконини беради.

### Главная загрузочная запись

**uz** - asosiy yuklash yozuvi

асосий юклаш ёзуви

**en** - master boot record

Информация, содержащаяся в первом секторе жёсткого диска (в специальной области). Главная загрузочная запись содержит таблицу разделов диска и определяет активный раздел (раздел, используемый для загрузки операционной системы), а также содержит код, которому BIOS передает управление для дальнейшей загрузки операционной системы.

Qattiq diskning birinchi sektorida (maxsus qismida) bo‘lgan axborot. Asosiy yuklash yozuvi disk bo‘limlari jadvalini ichiga oladi va aktiv bo‘limni belgilaydi (operatsion tizimni yuklash uchun foydalaniladigan bo‘lim), shuningdek, keyinchalik operatsion tizimni yuklash uchun, *BIOS* boshqarishni topshiradigan kodni ham ichiga oladi. Asosiy yuklash yozuvi diskni bo‘limlarga ajratish vaqtida yaratiladi.

Қаттиқ дискнинг биринчи секторида (махсус қисмида) бўлган ахборот. Асосий юклаш ёзуви диск бўлимлари жадвалини ичига олади ва актив бўлимни белгилайди (операцион тизимни юклаш учун фойдаланиладиган бўлим), шунингдек, кейинчалик операцион тизимни юклаш учун, *BIOS* бошқаришни топширадиган кодни ҳам ичига олади. Асосий юклаш ёзуви дискни бўлимларга ажратиш вақтида яратилади.

## Г

### **Главная файловая таблица**

**uz** - asosiy fayl jadvali  
асосий файл жадвали  
**en** - master file table (MFT)

Реляционная база данных, в которой файловая система NTFS хранит информацию о содержимом тома.

*NTFS* fayl tizimi tomning tarkibi haqida ma'lumotlarni saqlaydigan relyatsion ma'lumotlar bazasi.

NTFS файл тизими томнинг таркиби ҳақида маълумотларни сақлайдиган реляцион маълумотлар базаси.

### **Глобальная переменная**

**uz** - global o'zgaruvchi  
глобал ўзгарувчи  
**en** - global variable

Переменная в языках программирования; может использоваться во всех блоках и процедурах программы в отличие от локальной переменной.

Dasturlash tillaridagi o'zgaruvchi; lokal o'zgaruvchidan farqli ravishda, dasturning barcha protseduralarida va bloklarida foydalanilishi mumkin.

Дастурлаш тилларидаги ўзгарувчи; локал ўзгарувчидан фарқли равишда, дастурнинг барча процедураларида ва блокларида фойдаланилиши мумкин.

### **Голография**

**uz** - golografiya  
голография  
**en** - holographics

Раздел науки и техники, занимающийся изучением и созданием способов и устройств для записи и обработки волновых полей различной природы.

Fan va texnikaning, tabiati turlicha bo'lgan to'liq maydonlarni yozish va qayta ishlash uchun mo'ljallangan qurilmalar va usullar yaratish, ularni o'rganish bilan shug'ullanadigan bo'limi.

Фан ва техниканинг, табиати турлича бўлган тўлқин майдонларни ёзиш ва қайта ишлаш учун мўлжалланган қурилмалар ва усуллар яратиш, уларни ўрганиш билан шуғулланадиган бўлими.

### **Горячий старт**

**uz** - qaynoq start  
қайноқ старт  
**en** - hot start

Перезагрузка операционной системы без выключения/включения компьютера. В компьютерах с операционной системой MS-DOS – это одновременное нажатие трех клавиш – Ctrl, Alt, Delete (записывается так: Ctrl+Alt+Delete).

## Г

Operatsion tizimni kompyuterni uzib qo‘ymasdan/ulamasdan turib qayta yuklash. *MS-DOS* operatsion tizimli kompyuterlarda bu – uchta, *Ctrl*, *Alt*, *Delete* klavishalarini bir vaqtda bosish (*Ctrl+Alt+Delete* ko‘rinishda yoziladi).

Операцион тизимни компьютерни узиб қўймасдан/уламасдан туриб қайта юклаш. *MS-DOS* операцион тизимли компьютерларда бу – учта, *Ctrl*, *Alt*, *Delete* клавишаларини бир вақтда босиш (*Ctrl+Alt+Delete* кўринишда ёзилади).

### Граф

**uz** - graf

граф

**en** - graph

Основное понятие теории графов, структура, состоящая из множества точек и некоторого семейства пар точек. В приложениях граф представляется в виде сети, где узлы – это множество точек, а соединение узлов – это пары точек, называемые ребрами. Различают ориентированные графы, если порядок соединения узлов существенен, неориентированные – в противном случае. Графы широко используются в информатике.

Graflar nazariyasining asosiy tushunchasi, nuqtalar ko‘pligidan va nuqtalar juftining ba‘zi turkumidan iborat struktura. Ilovalarda graf tarmoq ko‘rinishida ko‘rsatiladi, bu yerda uzellar nuqtalar ko‘pligi, uzellar birikmasi esa, qirralar deb ataladigan nuqtalar jufti. Yo‘naltirilgan va yo‘naltirilmagan graflar ajratiladi. Graflardan informatikada keng foydalaniladi.

Графлар назариясининг асосий тушунчаси, нуқталар кўплигидан ва нуқталар жуфтининг баъзи туркумидан иборат структура. Иловаларда граф тармоқ кўринишида кўрсатилади, бу ерда узеллар нуқталар кўплиги, узеллар бирикмаси эса, қирралар деб аталадиган нуқталар жуфти. Йўналтирилган ва йўналтирилмаган графлар ажратилади. Графлардан информатикада кенг фойдаланилади.

### Графика

**uz** - grafika

графика

**en** - diagram

Наиболее общий способ визуального представления данных в компьютере, в котором объединяются текстовые данные и графические образы. Способы или форматы представления самого графического изображения на машинных носите-

## Г

лях бывают двух типов: растровая и векторная графика.

Matnli ma'lumotlar va grafik timsollar birlashtirilgan kompyuterda ma'lumotlarni vizual taqdim etishning eng umumiy usuli. Mashina tashuvchilarda grafik tasvirning o'zini taqdim etishning rastarli va vektorli grafika kabi ikki turi bor.

Matnli ma'lumotlar va grafik timsollar birlashtirilgan kompyuterda ma'lumotlarni vizual taqdim etishning eng umumiy usuli. Mashina tashuvchilarda grafik tasvirning o'zini taqdim etishning rastarli va vektorli grafika kabi ikki turi bor.

### **Графический интерфейс пользователя**

**uz** - grafik foydalanuvchi interfeysi

график фойдаланувчи интерфейси

**en** - graphic user interface

Программа, позволяющая осуществлять визуализацию данных. Примеры графического интерфейса пользователя: OSF/Motif, Windows, OS/2 Presentation Manager.

Ma'lumotlarni vizuallashtirish imkonini beruvchi dastur. Grafik foydalanuvchi interfeysiga misollar: *OSF/Motif, Windows, OS/2 Presentation Manager*.

Ma'lumotlarni vizuallashtirish imkonini beruvchi dastur. Grafik foydalanuvchi interfeysiga misollar: *OSF/Motif, Windows, OS/2 Presentation Manager*.

### **Графический редактор**

**uz** - grafik redaktor (muharrir)

график редактор

(мухаррир)

**en** - graphics editor

Программа (или пакет программ), позволяющая создавать и редактировать двумерные изображения с помощью компьютера.

Примечание — Типы графических редакторов: 1 Растровые графические редакторы. Наиболее популярны: Adobe Photoshop для операционных систем Microsoft Windows и MAC OS X, GIMP для GNU/Linux и других POSIX-совместимых. 2 Векторные графические редакторы. Наиболее популярны: Corel Draw, Macromedia Free Hand — для Windows, Inkscape — для всех операционных систем.

Kompyuter yordamida ikki o'lchovli tasvirlarni tuzish va tahrir qilish imkonini beradigan dastur (yoki dasturlar paketi).

Izoh — Grafik redaktorlarning turlari: 1 Rastarli grafik

## Г

redaktorlar. Nisbatan ommalashgan redaktorlar: *Microsoft Windows* va *MAC OS X* operatsion tizimlari uchun *Adobe Photoshop*. *GNU/Linux* va boshqa *POSIX* standartiga muvofiq operatsion tizimlari uchun *GIMP* redaktori. 2 Vektorli grafik redaktorlar. Nisbatan ommalashgan redaktorlar: *Corel Draw*, *Macromedia Free Hand* – *Windows* uchun, *Inkscape* – barcha operatsion tizimlar uchun.

Компьютер ёрдамида икки ўлчовли тасвирларни тузиш ва тахрир қилиш имконини берадиган дастур (ёки дастурлар пакети).

Изох – График редакторларнинг турлари: 1 Растрли график редакторлар. Нисбатан оммалашган редакторлар: *Microsoft Windows* ва *MAC OS X* операцион тизимлари учун *Adobe Photoshop*. *GNU/Linux* ва бoshqa *POSIX* стандартига мувофиқ операцион тизимлари учун *GIMP* редактори. 2 Векторли график редакторлар. Нисбатан оммалашган редакторлар: *Corel Draw*, *Macromedia Free Hand* – *Windows* учун, *Inkscape* – барча операцион тизимлар учун.

## Д

**Дамп**

**uz** - dump

дамп

**en** - dump

Вывод на экран, в файл или распечатка содержимого области памяти или файла. Обычно производится для поиска текстовых сообщений либо с целью выяснить причины «зависания» компьютера, а также при отладке программы. Содержит сведения для специалистов.

Xotira bo'lagi yoki fayl mazmunini ekranga chiqarish, faylga olish yoki chop etish. Odatda, kompyuterning «qotib qolish» sababini aniqlash maqsadida matnli xabarlarni izlashda, shuningdek, tuzilayotgan dasturni tekshirishda ham dump olinadi. Mutaxassislar uchun ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Хотира бўлаги ёки файл мазмунини экранга чиқариш, файлга олиш ёки чоп этиш. Одатда, компьютернинг «қотиб қолиш» сабабини аниқлаш мақсадида матнли хабарларни излашда, шунингдек, тузилаётган дастурни текширишда ҳам дамп олинади. Мутахассислар учун маълумотларни ўз ичига олади.

## Д

### Данные

**uz** - ma'lumotlar

маълумотлар

**en** - data

Базовые элементы информации, такие как числа, буквы, символы, которые обрабатываются или создаются человеком, компьютером или машиной; сюда же включается информация, подготовленная для определенных целей (при этом часто подразумевается формат) и хранящаяся в цифровом (двоичном) виде. Может включать речь, текст, факсимильные сообщения, динамические изображения.

Axborotning sonlar, harflar, simvollar kabi, odam, kompyuter yoki mashina yaratadigan va qayta ishlaydigan, bazaviy elementlari, unga raqamli (ikkilik) ko'rinishda saqlanadigan va muayyan maqsadlar uchun tayyorlangan axborot ham kiradi. Nutq, matn, faksimil xabarlarini, dinamik tasvirlarni ichiga olishi mumkin.

Ахборотнинг сонлар, ҳарфлар, символлар каби, одам, компьютер ёки машина яратадиган ва қайта ишлайдиган, базавий элементлари, унга рақамли (иккилик) кўринишда сақланадиган ва муайян мақсадлар учун тайёрланган ахборот ҳам кирати. Нутқ, матн, факсимиль хабарларни, динамик тасвирларни ичига олиши мумкин.

### Дата

**uz** - sana

сана

**en** - date

Хранящаяся в CMOS-памяти компьютера дата. Позволяет определить дату создания документа и помогает при синхронизации.

Kompyuterning CMOS-xotirasida saqlanadigan sana. Hujjat yaratilgan vaqtni aniqlash uchun xizmat qiladi va sinxronlashda yordam beradi.

Компьютернинг CMOS-хотирасида сақланадиган сана. Хужжат яратилган вақтни аниқлаш учун хизмат қилади ва синхронлашда ёрдам беради.

### Дата создания файла

**uz** - faylning yaratilish sanasi

файлнинг яратилиш

санаси

**en** - file creation data

День, месяц и год создания конкретного файла. Эта дата хранится в заголовке файла, меняется на текущую во время корректировки файла. Посмотреть дату создания файла можно в любой операционной системе или оболочке.

## Д

Ma'lum bir fayl yaratilgan kun, oy, yil. Bu sana fayl sarlavhasida saqlanadi, faylni to'g'rilashda joriy sanaga o'zgartiriladi. Faylning yaratilish sanasini istalgan operatsion tizimda yoki qobiqda ko'rish mumkin.

Маълум бир файл яратилган кун, ой, йил. Бу сана файл сарлавҳасида сақланади, файлни тўғри-лашда жорий санага ўзгартирилади. Файлнинг яратилиш санасини исталган операцион тизимда ёки қобикда кўриш мумкин.

### **Датчик**

**uz** - datchik

датчик

**en** - sensor unit

Устройство, обеспечивающее регистрацию какой-либо физической величины, преобразование ее в сигналы и передачу этих сигналов для обработки в систему управления.

Qandaydir fizik kattalikning qayd etilishini, uning signallarga o'zgartilishini va bu signallarning, qayta ishlash uchun boshqarish tizimiga uzatilishini ta'minlaydigan qurilma.

Қандайдир физик катталикнинг қайд этилишини, унинг сигналларга ўзгартилишини ва бу сигналларнинг, қайта ишлаш учун бошқариш тизимига узатилишини таъминлайдиган қурилма.

### **Двоичная система**

**счисления**

**uz** - ikkilik sanoq tizimi

иккилик саноқ тизими

**en** - base-2 system

Позиционная система счисления с основанием 2. Для записи чисел используются двоичные цифры 0 и 1. Основная система счисления в информатике.

Asosi 2 bo'lgan pozitsion sanoq tizimi. Sonlarni yozish uchun 0 va 1 ikkilik raqamlardan foydalaniladi. Informatikada asosiy sanoq tizimi hisoblanadi.

Асоси 2 бўлган позицион саноқ тизими. Сонларни ёзиш учун 0 ва 1 иккилик рақамлардан фойдаланилади. Информатикада асосий саноқ тизими ҳисобланади.

## Д

### Двоичный поиск

**uz** - ikkilik izlash

иккилик излаш

**en** - binary search

Алгоритм поиска определенного объекта среди заданного множества упорядоченных объектов: множество делится на две части и выясняется, в какой части находится разыскиваемый объект. Часть, где объект находится, делится опять на два множества и т.д.

Tartiblashtirilgan obyektarning berilgan ko'pligidan ma'lum bir obyektни izlab topish algoritmi: ko'plik ikki qismga bo'linadi va izlanayotgan obyekt qaysi qismda ekanligi aniqlanadi. Obyekt bor bo'lgan qism yana ikkita ko'plikka bo'linadi va h.k.

Тартиблаштирилган объектларнинг берилган кўплигидан маълум бир объектни излаб топиш алгоритми: кўплик икки қисмга бўлинади ва изланаётган объект қайси қисмда эканлиги аниқланади. Объект бор бўлган қисм яна иккита кўпликка бўлинади ва ҳ.к.

### Двухсторонний модуль памяти

**uz** - ikki tomonlama хотира модули

икки томонлама хотира модули

**en** - dual inline memory module (DIMM)

Форм-фактор модулей памяти DRAM. Основное отличие DIMM является то, что контакты, расположенные на разных сторонах модуля, являются независимыми. DIMM реализует функцию обнаружения и исправления ошибок в 64 (без контроля четности) или 72 (с контролем по четности или коду ECC) линиях передачи данных.

*DRAM* хотира modullarining form-faktori. Modulning turli tomonlarida joylashgan kontaktlarning bog'liq bo'lmasligi *DIMM* ning asosiy farqi hisoblanadi. *DIMM 64* (juftlikni nazorat qilmasdan) yoki *72* (juftlik yoki *ESS* kodi bo'yicha nazorat qilish bilan) ma'lumotlar uzatish liniyasida xatolarni aniqlash va tuzatish funksiyasini bajaradi.

DRAM хотира модулларининг форм-фактори. Модулнинг турли томонларида жойлашган контактларнинг боғлиқ бўлмаслиги DIMM нинг асосий фарқи ҳисобланади. DIMM 64 (жуфтликни назорат қилмасдан) ёки 72 (жуфтлик ёки ESS коди бўйича назорат қилиш билан) маълумотлар узатиш линиясида хатоларни аниқлаш ва тузатиш функциясини бажаради.

## Д

### Деинсталлятор

**uz** - deinstallator

деинсталлятор

**en** - deinstaller

Компьютерная программа, предназначенная для деинсталляции (удаления) какого-либо приложения. Необходимость применения деинсталляторов вызвана тем, что многие современные приложения при установке записывают свои программные файлы по разным адресам, а также часто регистрируют свои данные в системном реестре.

Qandaydir ilovani deinstallatsiya qilish (o'chirib tashlash) uchun mo'ljallangan kompleks dastur. Deinstallatorlarni qo'llash zarurati, ko'plab zamonaviy ilovalar o'rnatish paytida o'z dastur fayllarini turli adreslar bo'yicha yozishi, shuningdek, o'z ma'lumotlarini tez-tez tizim reestrda qayd etishi bilan izohlanadi.

Qandaydir ilovani deinstallatsiya qilish (o'chirib tashlash) uchun mo'ljallangan kompleks dastur. Deinstallatorlarni qo'llash zarurati, ko'plab zamonaviy ilovalar o'rnatish paytida o'z dastur fayllarini turli adreslar bo'yicha yozishi, shuningdek, o'z ma'lumotlarini tez-tez tizim reestrda qayd etishi bilan izohlanadi.

### Дейтаграмма

**uz** - deytagramma

дейтаграмма

**en** - datagram

Блок информации, передаваемый протоколом без предварительного установления соединения и создания виртуального канала. Любой протокол, не устанавливающий предварительное соединение (а также обычно не контролирующий порядок приема-передачи и дублирование пакетов), называется дейтаграммным протоколом.

Oldindan virtual kanal tuzilmasdan va ulanish o'rnatilmasdan, protokol uzatadigan axborot bloki. Oldindan ulanish o'rnatilmaydigan (shuningdek, paketlarni qabul qilish-uzatish va takrorlash tartibi nazorat qilinmaydigan) har qanday protokol deytagrammali protokol deb ataladi.

Oldindan virtual kanal tuzilmasdan va ulanish o'rnatilmasdan, protokol uzatadigan axborot bloki. Oldindan ulanish o'rnatilmaydigan

## Д

(шунингдек, пакетларни қабул қилиш-узатиш ва такрорлаш тартиби назорат қилинмайдиган) ҳар қандай протокол дейтаграммали протокол деб аталади.

### **Декатенация**

**uz** - dektenatsiya

декатенация

**en** - decatenation

Операция разбиения строки символов на отдельные части; обратная конкатенации. В языках программирования существуют специальные функции, выполняющие эту операцию.

Simvollar satrlarini alohida qismlarga ajratish operatsiyasi; konkatenatsiyaga teskari bo'lgan operatsiya. Dasturlash tillarida bu operatsiyani bajaradigan maxsus funksiyalar mavjud.

Символлар сатрларини алоҳида қисмларга ажратиш операцияси; конкатенацияга тескари бўлган операция. Дастурлаш тилларида бу операцияни бажарадиган махсус функциялар мавжуд.

### **Декларативный язык программирования**

**uz** - deklarativ dasturlash tili

декларатив дастурлаш тили

**en** - declarative programming language

Язык программирования, построенный на предварительном описании данных в явном указании того, что должно получиться в результате в отличие от процедурно-ориентированных языков, в которых указывается, как можно получить результат. Декларативные языки, в свою очередь, можно разделить на функциональные и логические.

Ma'lumotlarni dastlab tavsiflash asosiga qurilgan va natijani qanday olish mumkinligi ko'rsatiladigan protseduraga yo'naltirilgan tillardan farqli ravishda, natijada nima olinishi ko'rsatiladigan dasturlash tili. Deklarativ tillarni, o'z navbatida, funksional va mantiqiy tillarga bo'lish mumkin.

Маълумотларни дастлаб тавсифлаш асосига қурилган ва натижани қандай олиш мумкинлиги кўрсатиладиган процедурага йўналтирилган тиллардан фарқли равишда, натижада нима олинishi кўрсатиладиган дастурлаш тили. Декларатив тилларни, ўз навбатида, функционал ва мантиқий тилларга бўлиш мумкин.

## Д

### Деление нацело

**uz** - butunga bo'lish

бутунга бўлиш

**en** - exact division

Арифметическая операция. Ее результат – целая часть частного, дробная часть отбрасывается. Имеется практически во всех языках программирования. Обозначается записью  $a \div b$ , в некоторых языках –  $a/b$ .

Arifmetik amal. Uning natijasi – xususiyning butun qismi, kasr qismi tashlab yuboriladi. Deyarli barcha dasturlash tillarida bor.  $A \div b$  yozuv bilan, ba'zi tillarda  $a/b$  qilib belgilanadi.

Арифметик амал. Унинг натижаси – хусусийнинг бутун қисми, каср қисми ташлаб юборилади. Дeyarli барча дастурлаш тилларида бор.  $A \div b$  ёзув билан, баъзи тилларда  $a/b$  қилиб белгиланади.

### Деление по модулю

**uz** - modul bo'yicha bo'lish

модуль бўйича бўлиш

**en** - division on modulo

Арифметическая операция. Ее результат – остаток от деления нацело. Имеется практически во всех языках программирования. Обозначается  $a \bmod b$ .

Arifmetik amal. Uning natijasi – butunga bo'lish qoldig'i. Deyarli barcha dasturlash tillarida bor.  $a \bmod b$  ko'rinishida belgilanadi.

Арифметик амал. Унинг натижаси – бутунга бўлиш қолдиғи. Дeyarli барча дастурлаш тилларида бор.  $a \bmod b$  кўринишида белгиланади.

### Демонстрационная версия

**uz** - ko'rsatish uchun

belgilangan versiya

кўрсатиш учун

belgilangan versiya

**en** - demo version

Вариант программного продукта; должен дать максимально полное представление о реальной версии. В эту версию обычно вставляют конкретные примеры данных, а программы для настройки на условия пользователя из нее удаляют. Как правило, поставляется бесплатно, но воспользоваться ею для практического применения невозможно.

Dasturiy mahsulotning varianti; haqiqiy versiya to'g'risida maksimal darajada to'liq tasavvur berishi kerak bo'ladi. Bu versiyaga, odatda, ma'lumotlarning aniq namunalari qo'yiladi, foydalanuvchining sharoitlariga sozlash uchun mo'ljallangan dasturlar undan chiqarib tashlanadi. Odatda, bepul yetkazib beriladi, lekin undan amalda qo'llash uchun foydalanishning imkoni yo'q.

## Д

Дастурий маҳсулотнинг варианты; ҳақиқий версия тўғрисида максимал даражада тўлиқ тасаввур бериши керак бўлади. Бу версияга, одатда, маълумотларнинг аниқ намуналари қўйилади, фойдаланувчининг шароитларига созлаш учун мўлжалланган дастурлар ундан чиқариб ташланади. Одатда, бепул етказиб берилади, лекин ундан амалда қўллаш учун фойдаланишнинг имкони йўқ.

### **Демонстрационные пакеты программ**

**uz** - dasturlarning ko'rsatish uchun belgilangan paketlari  
дастурларнинг кўрсатиш учун белгиланган пакетлари  
**en** - demonstration software packages

Целевые программные комплексы для эффективного доведения определенной информации до аудитории. Применяются в основном для презентации и рекламы. Целесообразно использовать в целях обучения.

Ma'lum bir axborotni auditoriyaga samarali yetkazish uchun mo'ljallangan aniq maqsadga yo'naltirilgan dasturiy komplekslar. Asosan, prezentatsiya va reklama maqsadida qo'llaniladi. O'qitish-o'rgatish maqsadlarida qo'llanilishi foydalibroq bo'ladi.

Маълум бир ахборотни аудиторияга самарали етказиш учун мўлжалланган аниқ мақсадга йўналтирилган дастурий комплекслар. Асосан, презентация ва реклама мақсадида қўлланилади. Ўқитиш-ўргатиш мақсадларида қўлланилиши фойдалироқ бўлади.

### **Дерево**

**uz** - daraxt  
дарахт  
**en** - tree

Структура, напоминающая дерево. В ее основании имеется один элемент (корень), связанный с несколькими элементами (стволами), которые, в свою очередь, связаны еще с несколькими (ветками) и т.д. до последних элементов (листьев) получается многоуровневое дерево. Дерево – это связный неориентированный граф без циклов.

Daraxtni eslatadigan struktura. Uning asosida bir qancha element (tana) bog'langan bitta element (ildiz) bo'ladi. Bu elementlar (tanalar) o'z navbatida yana bir qancha (shoxlar) bilan bog'langan va h.k, shu tarzda so'nggi elementlargacha (yaproqlargacha). Natijada ko'p pog'onali daraxt hosil bo'ladi. Daraxt – bu, bog'langan yo'naltirilmagan siklsiz grafdir.

## Д

Дарахтни эслатадиган структура. Унинг асосида бир қанча элемент (тана) боғланган битта элемент (илдиз) бўлади. Бу элементлар (таналар) ўз навбатида яна бир қанча (шоҳлар) билан боғланган ва ҳ.к, шу тарзда сўнги элементларгача (япроқларгача). Натижада кўп поғонали дарахт ҳосил бўлади. Дарахт – бу, боғланган йўналтирилмаган циклсиз графдир.

### Дерево решений

**uz** - yechimlar daraxti

ечимлар дарахти

**en** - decisions tree

Граф, схема, отражающие структуру задачи оптимизации многошагового процесса. Ветви дерева отображают различные события, которые могут иметь место, а узлы – точки, в которых возникает необходимость выбора. Причем узлы различны – в одних выбор осуществляет сам проект-менеджер из некоторого набора альтернатив, в других выбор от него не зависит. В таких случаях проект-менеджер может осуществлять оценку вероятности того или иного решения.

Ко‘р qadamli jarayonni optimallashtirish vazifalari strukturasi aks ettirilgan sxema, graf. Daraxt shoxlari ro‘y berishi mumkin bo‘lgan turli hodisalarni, tugunlari esa, tanlash zarurati paydo bo‘ladigan nuqtalarni aks ettiradi. Aytib o‘tish kerakki, tugunlar turlicha – birida tanlashni loyiha-menejerning o‘zi alternativalarining qandaydir to‘plamidan amalga oshiradi, boshqalaridan tanlash unga bog‘liq bo‘lmaydi. Bunday hollarda, loyiha-menejer u yoki bu yechim ehtimolligini baholashni amalga oshirishi mumkin.

Кўп қадамли жараёни оптималлаш вазифалари структурасини акс эттирадиган схема, граф. Дарахт шоҳлари рўй бериши мумкин бўлган турли ҳодисаларни, тугунлари эса, танлаш зарурати пайдо бўладиган нуқталарни акс эттиради. Айтиб ўтиш керакки, тугунлар турлича – бирида танлашни лойиҳа-менежернинг ўзи альтернативаларнинг қандайдир тўпламидан амалга оширади, бошқаларидан танлаш унга боғлиқ бўлмайди. Бундай ҳолларда, лойиҳа-менежер у ёки бу ечим эҳтимоллигини баҳолашни амалга ошириши мумкин.

## Д

### **Дескриптор**

**uz** - deskriptor

дескриптор

**en** - descriptor

Слово или словосочетание (возможен код), позволяющее найти и определить данные, хранящиеся в информационной системе. Иногда называют ключевым словом. При разработке системы необходимо определить дескрипторы и учесть их существование.

Axborot tizimida saqlanadigan ma'lumotlarni topish va tavsiflash imkonini beradigan so'z yoki so'z birikmasi (kod bo'lishi mumkin). Ba'zan, kalit so'z deb ataladi. Tizimni ishlab chiqishda deskriptorlarni aniqlash va ularning mavjudligini hisobga olish zarur.

Axborot tizimida saqlanadigan ma'lumotlarni topish va tavsiflash imkonini beradigan s'uz e'ki s'uz biirikmasi (kod b'ulishi mumkin). Ba'zan, kalit s'uz deb ataladi. Tizimni ishlab chiqishda deskriptorlarni aniqlash va ularning mavjudligini hisobga olish zarur.

### **Дефрагментация**

**uz** - defragmentatsiya

дефрагментация

**en** - defragmentation

Процесс обновления и оптимизации логической структуры раздела диска с целью обеспечить хранение файлов в непрерывной последовательности кластеров. Применяется в основном в отношении файловых систем FAT и NTFS. После дефрагментации ускоряется чтение и запись файлов, а следовательно и работа программ. Другое определение дефрагментации: перераспределение файлов на диске, при котором они располагаются в непрерывных областях.

Fayllarni uzluksiz ketma-ket klasterlarda saqlanishini ta'minlash maqsadida disk bo'limining mantiqiy strukturasi optimallashtirish va yangilash jarayoni. Asosan FAT va NTFS fayl tizimlarida ishlatiladi. Defragmentatsiyadan so'ng fayllarni o'qish va yozish, shuningdek, dastur ishlari ham tezlashadi. Defragmentatsiyaning boshqa vazifasi: diskda fayllarni uzluksiz maydonda joylashadigan qilib taqsimlash.

## Д

Файлларни узлуксиз кетма-кет кластерларда сақланишини таъминлаш мақсадида диск бўлимининг мантикий структурасини оптималлаш ва янгилаш жараёни. Асосан FAT ва NTFS файл тизимларида ишлатилади. Дефрагментациядан сўнг файлларни ўқиш ва ёзиш, шунингдек, дастур ишлари ҳам тезлашади. Дефрагментациянинг бошқа вазифаси: дискда файлларни узлуксиз майдонда жойлашадиган қилиб тақсимлаш.

### Джойстик

**uz** - joystick

жойстик

**en** - joystick

Устройство в виде рукоятки, служащее для управления курсором на экране, обеспечивая его перемещение в любом направлении. Широко используются в симуляторах и аркадных компьютерных играх, а также в игровых приставках и т.п. Для этого на рукоятке имеется множество кнопок и ползунков. Некоторые джойстики, кроме перемещения рукоятки, обеспечивают ещё и её вращение вокруг своей оси.

Ektranda kursor bilan boshqarish uchun xizmat qiladigan, uni istalgan yo'nalishdagi harakatlanishini ta'minlaydigan, tutqich ko'rinishidagi qurilma. Bu qurilmalar barcha manipulyatorlarning asosi hisoblanadi. Simulyatorlar va arkadali kompyuter o'yinlarida, o'yin pristavkalarida va shunga o'xshash qurilmalarda keng qo'llaniladi. Buning uchun tutqichda ko'plab tugmalar va polzunlar mavjud. Ayrim joysticklar tutqichni harakatlantirishdan tashqari, uning o'z o'qi atrofida aylanishini ham ta'minlaydi.

Экранда курсор билан бошқариш учун хизмат қиладиган, уни исталган йўналишдаги ҳаракатланишини таъминлайдиган, тутқич кўринишидаги қурилма. Бу қурилмалар барча манипуляторларнинг асоси ҳисобланади. Симуляторлар ва аркадали компьютер ўйинларида, ўйин приставкаларида ва шунга ўхшаш қурилмаларда кенг қўлланилади. Бунинг учун тутқичда кўплаб тугмалар ва ползунлар мавжуд. Айрим жойстиклар тутқични ҳаракатлантиришдан ташқари, унинг ўз

## Д

**Диаграмма**  
**uz** - diagramma  
диаграмма  
**en** - diagram

ўқи атрофида айланишини ҳам таъминлайди.

Графическое условное изображение измеряемых величин и их отношений. Во многих системах деловой графики диаграммы представляются в виде столбцов и кругов в двухмерном и трехмерном виде.

O‘lchanadigan kattaliklar va ularning nisbatlarini grafik tarzda shartli tasvirlash. Amaliy grafikaning ko‘pgina tizimlarida diagrammalar ikki o‘lchamli va uch o‘lchamli ko‘rinishda ustunlar va doiralalar ko‘rinishida taqdim qilinadi.

Ўлчанадиган катталиклар ва уларнинг нисбатларини график тарзда шартли тасвирлаш. Амалий графиканинг кўпгина тизимларида диаграммалар икки ўлчамли ва уч ўлчамли кўринишда устунлар ва доиралар кўринишида тақдим қилинади.

**Диалект**  
**uz** - dialekt  
диалект  
**en** - dialect

Частная версия некоторого языка программирования. Например, существуют диалекты BASIC для программирования на компьютерах фирмы Apple.

Ba’zi bir dasturlash tilining xususiy versiyasi. Masalan, *Apple* firmasining kompyuterlarida dasturlash uchun *BASIC* dialektlari mavjud.

Баъзи бир дастурлаш тилининг хусусий версияси. Масалан, *Apple* фирмасининг компьютерларида дастурлаш учун *BASIC* диалектлари мавжуд.

**Диалоговый режим**  
**uz** - dialogli rejim  
диалогли режим  
**en** - on-line mode

Режим прямого взаимодействия между человеком и компьютерами в сети или между компьютером и периферийным устройством, при котором связь между взаимодействующими системами не прерывается. Часто называется интерактивным режимом или режимом «on-line».

Odam va tarmoqdagi kompyuter(lar) bilan yoki kompyuter va periferik qurilma o‘rtasidagi bevosita birgalikda ishlash rejimi, bunda birga ishlaydigan tizimlar o‘rtasida aloqa uzilmaydi. Ko‘pincha, interaktiv yoki «on-line» rejimi deb ataladi.

Одам ва тармоқдаги компьютер(лар) билан ёки

## Д

компьютер ва периферик қурилма ўртасидаги бевосита биргаликда ишлаш режими, бунда бирга ишлайдиган тизимлар ўртасида алоқа узилмайди. Кўпинча, интерактив ёки «on-line» режими деб аталади.

### **Диджитайзер**

**uz** - digitayzer

дигитайзер

**en** - digitizer

Устройство для ввода графических данных в компьютер, основанное на разных технических принципах.

Turli texnik prinsiplarga asoslangan, grafik ma'lumotlarni kompyuterga kiritish uchun xizmat qiladigan qurilma.

Турли техник принципларга асосланган, график маълумотларни компьютерга киритиш учун хизмат қиладиган қурилма.

### **Дизассемблирование**

**uz** - dizassemblirlash

дизассемблирлаш

**en** - disassemble

Процесс и/или способ получения исходного текста программы на ассемблере из программы в машинных кодах. Полезен, при определении степени оптимальности транслятора при генерации кодов собственной программы. Позволяет понять алгоритм и/или метод построения программ, у которых отсутствуют исходные тексты. Существуют специальные программы – дизассемблеры, которые выполняют этот процесс.

Mashina kodlaridagi dasturdan assemblerdagi dasturning boshlang'ich matnini olish jarayoni va/yoki usuli. Dasturning o'zining kodlarini generatsiyalashda translyatorning optimallik darajasini belgilashda foydali. Dastlabki matnlari bo'lmagan dasturlarni tuzish metodi va/yoki algoritmini tushunish imkonini beradi. Bu jarayonni bajaradigan maxsus dasturlar – dizassemblerlar mavjud.

Машина кодларидаги дастурдан ассемблердаги дастурнинг бошланғич матнини олиш жараёни ва/ёки усули. Дастурнинг ўзининг кодларини генерациялашда трансляторнинг оптималлик даражасини белгилашда фойдали. Дастлабки матнлари бўлмаган дастурларни тузиш методи ва/ёки алгоритмини тушуниш имконини беради. Бу жараёни бажарадиган махсус дастурлар – ди-

## Д

зассемблерлар мавжуд.

### Дизъюнкция

**uz** - dizyunksiya

дизъюнкция

**en** - disjunction

Логическая операция. Дизъюнкцией двух высказываний  $P$  и  $Q$  называется новое высказывание (обозначается  $P \vee Q$ , читается «или  $P$  или  $Q$ »), которое истинно в тех случаях, когда хотя бы одно из высказываний  $P$  или  $Q$  истинно, и ложно только тогда, когда оба высказывания ложны. Иногда обозначается  $P \text{ or } Q$  (от англ. *or* – или).

Mantiqiy amal.  $R$  va  $Q$  mulohazalardan juda bo'lmaganda bittasi chin bo'lgan holatda chin bo'ladigan va har ikki mulohaza yolg'on bo'lganda yolg'on bo'ladigan yangi mulohaza,  $R$  va  $Q$  mulohazalar dizyunksiyasi deb ataladi. ( $P \vee Q$  kabi belgilanadi, «yoki  $R$  yoki  $Q$ » deb o'qiladi). Ba'zida  $P \text{ or } Q$  (inglizcha *or* – yoki) deb belgilanadi.

Мантикий амал.  $P$  va  $Q$  мулоҳазалардан жуда бўлмаганда биттаси чин бўлган ҳолатда чин бўладиган ва ҳар икки мулоҳаза ёлғон бўлганда ёлғон бўладиган янги мулоҳаза,  $P$  va  $Q$  мулоҳазалар дизъюнкцияси деб аталади. ( $P \vee Q$  каби белгиланади, «ёки  $P$  ёки  $Q$ » деб ўқилади). Баъзида  $P \text{ or } Q$  (инглизча *or* – ёки) деб белгиланади.

### Динамическая компоновка

**uz** - dinamik komponovka

динамик компоновка

**en** - dynamic linking

Метод подключения к исполняемой программе стандартных функций и/или данных в момент обращения к ним с помощью их вызова из специальной библиотеки DLL (Dynamic Link Library). Динамическая компоновка работает с приложениями, созданными под Windows. Метод является альтернативой статической компоновке.

Dinamik komponovka qilinadigan maxsus bibliotekadan *DLL (Dynamic Link Library)* chaqirib olish yordamida murojaat qilish paytida ma'lumotlar va/yoki standart funksiyalarni bajariladigan dasturga qo'shish metodi. Dinamik komponovka *Windows* ga moslashtirilgan ilovalar bilan ishlaydi. Statik komponovkaga alternativ hisoblanadi.

Динамик компоновка қилинадиган махсус библиотекадан *DLL (Dynamic Link Library)* чақириб

## Д

олиш ёрдамида мурожаат қилиш пайтида маълумотлар ва/ёки стандарт функцияларни бажариладиган дастурга қўшиш методи. Динамик компоновка Windows га мослаштирилган иловалар билан ишлайди. Статик компоновкага альтернатив ҳисобланади.

### **Динамическая оперативная память**

**uz** - dinamik operativ хотира

динамик оператив хотира

**en** - dynamic RAM

Тип полупроводниковой оперативной памяти. Каждый двоичный разряд (бит) хранится в схеме, состоящей из транзистора и конденсатора. Если конденсатор заряжен, это соответствует 1, разряженный конденсатор соответствует 0. Транзистор управляет доступом к конденсатору. Микросхема динамической оперативной памяти содержит, как правило, 1 048 576 bit, и из них набирается оперативная память.

Yarimoʻtkazgichli operativ хотирaning bir turi. Har bir ikkilik razryad (bit) tranzistor va kondensatordan iborat sxemada saqlanadi. Agar, kondensator zaryadlangan boʻlsa, 1 ga mos keladi, zaryadsizlangan kondensator 0 ga mos keladi. Tranzistor kondensatordan foydalanishni boshqaradi. Dinamik operativ хотирaning mikrosxemasi odatda, 1 048 576 bit ni ichiga oladi, ulardan operativ хотира yigʻiladi.

Яримўтказгичли оператив хотиранинг бир тури. Ҳар бир иккилик разряд (бит) транзистор ва конденсатордан иборат схемада сақланади. Агар, конденсатор зарядланган бўлса, 1 га мос келади, зарядсизланган конденсатор 0 га мос келади. Транзистор конденсатордан фойдаланишни бошқаради. Динамик оператив хотиранинг микросхемаси одатда, 1 048 576 bit ни ичига олади, улардан оператив хотира йиғилади.

### **Динамически компонуемая библиотека**

**uz** - dinamik joylashtiriladigan biblioteka

динамик жойлаштирил-  
ладиган библиотека

**en** - dynamic link library (DLL)

Совокупность файлов, содержащих данные и функции, используемые программами-приложениями, написанными специально для работы под Windows. Под данными понимаются пиктограммы, шрифты и меню. DLL обеспечивает такой метод работы под Windows, когда нужные исполняемой программе функции и/или данные подключаются к работе в момент обращения к

## Д

ним в отличие от стандартного включения в работающую программу.

Maxsus ravishda *Windows* ostida ishlash uchun yozilgan dasturlar-illovalarda foydalaniladigan ma'lumotlar va funksiyalarni ichiga oladigan fayllar jami. Ma'lumotlar deganda, piktogrammalar, shriftlar va menyu tushuniladi. *DLL* bajariladigan dasturga kerak bo'ladigan funksiyalar va/yoki ma'lumotlar ishga, ishlaydigan dasturga standart kirishdan farqli ravishda, ularga murojaat qilish paytida jalb qilingan paytda, *Windows* ostida ishlash metodini ta'minlaydi.

Махсус равишда *Windows* остида ишлаш учун ёзилган дастурлар-иловаларда фойдаланиладиган маълумотлар ва функцияларни ичига оладиган файллар жами. Маълумотлар деганда, пиктограммалар, шрифтлар ва меню тушунилади. *DLL* бажариладиган дастурга керак бўладиган функциялар ва/ёки маълумотлар ишга, ишлайдиган дастурга стандарт киришдан фаркли равишда, уларга мурожаат қилиш пайтида жалб қилинган пайтда, *Windows* остида ишлаш методини таъминлайди.

### **Динамический обмен данными**

**uz** - dinamik ma'lumotlar almashinishi

динамик маълумотлар алмашиниши

**en** - dynamic data exchange (DDE)

Протокол межпрограммного взаимодействия в среде *Windows*. Постепенно вытесняется механизмом *OLE*. Суть его действия заключается в установлении постоянной связи между двумя программами, в результате чего в случае обновления документа в одном приложении будет обновлена связанная с ним информация в документах другого приложения.

*Windows* muhitidagi dasturlararo birgalikda ishlash protokoli. *OLE* mexanizmi asta-sekin siqib chiqarmoqda. Uning amal qilishining mohiyati, ikki dastur o'rtasida doimiy aloqa o'rnatishdan iborat, natijada bir ilovadagi hujjat yangilanganda, u bilan bog'liq bo'lgan boshqa ilova hujjatlaridagi axborot ham yangilanadi.

*Windows* мухитидаги дастурлараро биргаликда

## Д

ишлаш протоколи. OLE механизми аста-секин сиқиб чиқармоқда. Унинг амал қилишининг моҳияти, икки дастур ўртасида доимий алоқа ўрнатишдан иборат, натижада бир иловадаги хужжат янгиланганда, у билан боғлиқ бўлган бошқа илова хужжатларидаги ахборот ҳам янгиланади.

### Диск

**uz** - disk

диск

**en** - disk

Хранилище данных в виде круглой пластины. Часто под диском понимается несколько дисков, объединенных в пакет. Диск – это носитель данных. Устройство, которое записывает (читает) данные на (с) диске (а), называется накопителем данных. Диски запоминаются по способу записи/чтения данных, возможности их замены, плотности записи. По способу записи/чтения диски делятся на магнитные, лазерные (оптические), магнитооптические. Магнитные диски, в свою очередь делятся на гибкие и жесткие. Лазерные диски предназначены в основном только для чтения данных. Магнитооптические диски могут использоваться для чтения и записи данных.

Dumaloq plastina ko‘rinishidagi ma’lumotlar ombori. Ko‘pincha, disk deganda, paketga birlashtirilgan bir nechta disk tushuniladi. Disk – bu, ma’lumotlar tashuvchidir. Ma’lumotlarni diskka yozadigan (diskdan o‘qiydigan) qurilma ma’lumotlarni to‘plagich deb nomlanadi. Disklar ma’lumotlarni yozish/o‘qish usuli bo‘yicha, ularni almashtirish mumkinligiga ko‘ra, yozuv zichligiga ko‘ra xotirada qoladi. O‘qish/yoziq usuliga ko‘ra, disklar magnit, lazer (optik), magnitoptik disklarga bo‘linadi. Magnit disklar, o‘z navbatida egiluvchan va qattiq magnit disklarga bo‘linadi. Lazer disklar asosan, faqat ma’lumotlarni o‘qish uchun mo‘ljallangan. Magnitoptik disklardan ma’lumotlarni yozish va o‘qish uchun foydalanilishi mumkin.

Думалоқ пластина кўринишидаги маълумотлар омбори. Кўпинча, диск деганда, пакетга бирлаштирилган бир нечта диск тушунилади. Диск – бу, маълумотлар ташувчидир. Маълумотларни

## Д

дискка ёзадиган (дискдан ўқийдиган) курилма маълумотларни тўплагич деб номланади. Дисклар маълумотларни ёзиш/ўқиш усули бўйича, уларни алмаштириш мумкинлигига кўра, ёзув зичлигига кўра хотирада қолади. Ўқиш/ёзиш усулига кўра, дисклар магнит, лазер (оптик), магнитооптик дискларга бўлинади. Магнит дисклар, ўз навбатида эгилувчан ва қаттиқ магнит дискларга бўлинади. Лазер дисклар асосан, фақат маълумотларни ўқиш учун мўлжалланган. Магнитооптик дисклардан маълумотларни ёзиш ва ўқиш учун фойдаланилиши мумкин.

### **Диспетчер**

**uz** - dispatcher

диспетчер

**en** - manager

Модуль операционной системы, обеспечивающий управление выполнением программ. Программа выполняющая координирующую и управляющую роль в системе.

Operatsion tizimning, dasturlarning bajarilishini boshqarish ta'minlanadigan moduli. Tizimda muvofiqlashtirish va boshqaruv rolini bajaradigan dastur.

Операцион тизимнинг, дастурларнинг бажарилишини бошқариш таъминланадиган модули. Тизимда мувофиқлаштириш ва бошқарув ролини бажарадиган дастур.

### **Диспетчерский приоритет**

**uz** - dispatcher ustuvorligi

диспетчер устуворлиги

**en** - dispatching priority

Номер, присваиваемый заданиям и используемый в мультипрограммном режиме для определения порядка, в котором задания будут обрабатываться.

Topshiriqlarga beriladigan va multidastur rejimda, topshiriq markaziy protsessor tomonidan qayta ishlanadigan tartibni aniqlash uchun foydalaniladigan raqam.

Топшириқларга бериладиган ва мультидастур режимда, топшириқ марказий процессор томонидан қайта ишланадиган тартибни аниқлаш учун фойдаланиладиган рақам.

### **Дисплей**

**uz** - displey

Устройство визуального отображения данных. Дисплей используется для ввода и вывода дан-

## Д

дисплей  
**en** - display

ных. Принципы работы дисплея разные. Самое большое распространение в персональных компьютерах получили дисплеи с использованием электронно-лучевых трубок. Дисплеи бывают также на плазменных панелях, жидких кристаллах, светодиодах. Дисплей используется и для управления компьютером, поэтому его часто называют монитором.

Ma'lumotlarni vizual aks ettirish qurilmasi. Displaydan ma'lumotlarni kiritish va chiqarish uchun foydalaniladi. Displayning ishlash prinsiplari turlicha. Shaxsiy kompyuterlarda elektron-nurli trubkalardan foydalanilgan displeylar juda keng tarqalgan. Shuningdek, plazma panellar, suyuq kristallar, yorug'lik diodlari asosidagi displeylar ham bor. Displayni kompyuterga ulash uchun tegishli adapter zarur. Displaydan, shuningdek, kompyuterni boshqarish uchun ham foydalaniladi, shu sababli ko'pincha monitor deb ham ataladi.

Ma'lumotlarni vizual aks ettirish qurilmasi. Displaydan ma'lumotlarni kiritish va chiqarish uchun foydalaniladi. Displayning ishlash prinsiplari turlicha. Shaxsiy kompyuterlarda elektron-nurli trubkalardan foydalanilgan displeylar juda keng tarqalgan. Shuningdek, plazma panellar, suyuq kristallar, yorug'lik diodlari asosidagi displeylar ham bor. Displayni kompyuterga ulash uchun tegishli adapter zarur. Displaydan, shuningdek, kompyuterni boshqarish uchun ham foydalaniladi, shu sababli ko'pincha monitor deb ham ataladi.

**Дисплей на электронно-лучевой трубке**

**uz** - elektron-nurli trubka asosidagi display

электрон-нурли трубка  
асосидаги дисплей

**en** - cathode-ray tube display

Дисплей, на экране которого изображение создается с помощью электронно-лучевой трубки. Для работы кроме дисплея необходимы соответствующий адаптер или карта. Для создания цветного изображения и возможности использования графики необходим графический адаптер. В дисплее на электронно-лучевой трубке изображение создается бомбардировкой флуоресцирующего экрана электронным лучом. Луч движется по

## Д

экрану слева направо и сверху вниз, за один проход формируются все горизонтальные строки. Важными показателями являются: строчная частота дисплея – число строк, формируемое дисплеем за 1 s; частота обновления кадров (кадровая частота). Широко распространены дисплеи с цифровым управлением. В ближайшее время ожидается массовый переход на дисплейные панели.

Ekranida tasvir elektron-nurli trubka yordamida yaratiladigan display. Ishlash uchun, displaydan tashqari tegishli adapter yoki karta zarur bo'ladi. Rangli tasvirni yaratish uchun va grafikadan foydalanish mumkin bo'lishi uchun grafik adapter zarur. Elektron-nurli trubka asosidagi displayda tasvir fluoressensiyalanadigan ekranni elektron nur bilan bombardimon qilish orqali yaratiladi. Nur ekran bo'ylab chapdan o'ngga, yuqoridan pastga harakatlanadi, bitta o'tish ichida barcha gorizontal satrlar shakllantiriladi. Displayning satr chastotasi – display 1 s ichida shakllantiradigan satrlar soni; kadrlarning yangilanish chastotasi (kadr chastotasi) muhim ko'rsatkichlar hisoblanadi. Raqamli boshqariladigan displeylar keng tarqalgan. Yaqin vaqtda displeyli panellarga ommaviy o'tish kutilmoqda.

Экранида тасвир электрон-нурли трубка ёрдамида яратиладиган дисплей. Ишлаш учун, дисплейдан ташқари тегишли адаптер ёки карта зарур бўлади. Рангли тасвирни яратиш учун ва графикадан фойдаланиш мумкин бўлиши учун график адаптер зарур. Электрон-нурли трубка асосидаги дисплейда тасвир флуоресценцияланадиган экранни электрон нур билан бомбардимон қилиш орқали яратилади. Нур экран бўйлаб чапдан ўнгга, юқоридан пастга ҳаракатланади, битта ўтиш ичида барча горизонтал сатрлар шакллантирилади. Дисплейнинг сатр частотаси – дисплей 1 s ичида шакллантирадиган сатрлар сони; кадрларнинг янгиланиш частотаси (кадр частотаси) муҳим кўрсаткичлар ҳисобланади. Рақамли бошқариладиган дисплейлар кенг

## Д

тарқалган. Яқин вақтда дисплейли панелларга оммавий ўтиш кутилмоқда.

### **Дисплейная панель**

**uz** - displeyli panel

дисплейли панель

**en** - display panel

Дисплей, построенный на основе плазменной или жидко-кристаллической технологии. Дисплей, имеющий в основе жидкие кристаллы, – это плоский экран, на котором расположена сетка из жидких кристаллов и микропроводников. Микропроводники подают электрический ток к кристаллам, которые под напряжением начинают светиться создавая изображение. Шаг точки 0,26 – 0,3 mm. Максимальное разрешение 1280x1024, 75 Hz.

Plazma yoki suyuq kristall texnologiya asosida qurilgan displey. Asosida suyuq kristall bo'lgan displey – bu, suyuq kristallar va mikroo'tkazgichlardan iborat to'r joylashgan yassi ekrandir. Mikroo'tkazgichlar kristallarga elektr toki uzatadi, kristallar kuchlanish ostida tasvir hosil qilgan holda, yorisha boshlaydi. Nuqta qadami 0,26-0,3 mm. Maksimal ajrata olish: 1280x1024, 75 Hz.

Плазма ёки суюқ кристалл технология асосида қурилган дисплей. Асосида суюқ кристалл бўлган дисплей – бу, суюқ кристаллар ва микроўтказгичлардан иборат тўр жойлашган ясси экрандир. Микроўтказгичлар кристалларга электр токи узатади, кристаллар кучланиш остида тасвир ҳосил қилган ҳолда, ёриша бошлайди. Нуқта қадами 0,26-0,3 mm. Максимал ажрата олиш: 1280x1024, 75 Hz.

### **Дистанционное образование**

**uz** - masofadan ta'lim

масофадан таълим

**en** - online education

1 Современный комплекс образовательных услуг, предоставляемых широким слоям населения на основе использования способов дистанционного обучения.

2 Совокупность мер и средств, которые дают возможность получения образования учащимся, географически удаленным от учебного заведения, предоставляющего образовательные услуги.

1 Masofadan o'qitish usullaridan foydalanish asosida aholining keng qatlamlariga taqdim etiladigan ta'lim

## Д

xizmatlarining zamonaviy kompleksi.

2 Ta'lim xizmatlarini taqdim etadigan o'quv yurtidan geografik jihatdan olisda bo'lgan o'quvchilarga ta'lim olish imkonini beradigan vositalar va chora-tadbirlar yig'indisi.

1 Масофадан ўқитиш усулларида фойдаланиш асосида аҳолининг кенг қатламларига тақдим этиладиган таълим хизматларининг замонавий комплекси.

2 Таълим хизматларини тақдим этадиган ўқув юртидан географик жихатдан олисда бўлган ўқувчиларга таълим олиш имконини берадиган воситалар ва чора-тадбирлар йиғиндиси.

### Дистанционное обучение

**uz** - masofadan o'qish-o'qitish

масофадан ўқиш-ўқитиш

**en** - e-learning

Способ реализации процесса обучения, основанный на использовании современных информационных и телекоммуникационных технологий, позволяющих осуществлять обучение на расстоянии без непосредственного, личного контакта между преподавателем и учащимся. Близко к понятию «открытого обучения».

О'qituvchi va o'quvchi o'rtasida bevosita, shaxsiy muloqotsiz masofadan turib o'qish-o'qitishni amalga oshirish imkonini beradigan zamonaviy axborot hamda telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan, o'qish-o'qitish jarayonini amalga oshirish usuli. «Ochiq o'qish-o'qitish» tushunchasiga yaqin.

Ўқитувчи ва ўқувчи ўртасида бевосита, шахсий мулоқотсиз масофадан туриб ўқиш-ўқитишни амалга ошириш имконини берадиган замонавий ахборот ҳамда телекоммуникация технологияларидан фойдаланишга асосланган, ўқиш-ўқитиш жараёнини амалга ошириш усули. «Очиқ ўқиш-ўқитиш» тушунчасига яқин.

### Документ

**uz** - hujjat

хужжат

**en** - document

1 Материальный объект, содержащий в фиксированном виде информацию, оформленную в установленном порядке, имеющий в соответствии с действующим законодательством правовое значение.

## Д

2 Файл, создаваемый при сохранении результатов работы в какой - либо компьютерной программе. Примерами документов могут служить файлы текстовых редакторов, электронные таблицы, рисунки и пр.

1 Qayd etilgan ko‘rinishda belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan axborotni ichiga oladigan, amaldagi qonunchilikka muvofiq huquqiy ahamiyatga ega bo‘lgan moddiy obyekt.

2 Qandaydir kompyuter dasturida ish natijalari saqlangan paytda yaratiladigan fayl. Matn redaktorlari fayllari, elektron jadvallar, rasmlar va boshqalar hujjatlarga misol bo‘lishi mumkin.

1 Қайд этилган кўринишда белгиланган тартибда расмийлаштирилган ахборотни ичига оладиган, амалдаги қонунчиликка мувофиқ ҳуқуқий аҳамиятга эга бўлган моддий объект.

2 Қандайдир компьютер дастурида иш натижалари сақланган пайтда яратиладиган файл. Матн редакторлари файллари, электрон жадваллар, расмлар ва бошқалар ҳужжатларга мисол бўлиши мумкин.

### **Документированная информация**

**uz** - hujjatlashtirilgan axborot  
хужжатлаштирилган  
ахборот

**en** - documented information

Информация, зафиксированная на материальном носителе и обладающая реквизитами, позволяющими её идентифицировать.

Moddiy tashuvchida qayd qilingan va identifikatsiya qilish imkonini beradigan rekvizitlarga ega bo‘lgan axborot.

Моддий ташувчида қайд қилинган ва идентификация қилиш имконини берадиган реkvизитларга эга бўлган ахборот.

### **Долговременная память**

**uz** - uzoq muddatli хотира  
узоқ муддатли хотира  
**en** - long-time memory

Запоминающее устройство компьютера для хранения данных в течение длительного времени. Не зависит от наличия энергопитания во время хранения. Имеет разные физические принципы хранения данных: магнитные, оптические, магнито-оптические и др.

## Д

Uzoq muddat mobaynida ma'lumotlarni saqlash uchun mo'ljallangan kompyuter xotirlovchi qurilmasi. Saqlash vaqtida energiya ta'minoti bo'lishiga bog'liq emas. Ma'lumotlarni saqlashning turli fizik: magnit, optik, magnitoptik prinsiplariga ega.

Узоқ муддат мобайнида маълумотларни сақлаш учун мўлжалланган компьютер хотирловчи қурилмаси. Сақлаш вақтида энергия таъминоти бўлишига боғлиқ эмас. Маълумотларни сақлашнинг турли физик: магнит, оптик, магнитооптик принципларига эга.

### **Домашний компьютер**

**uz** - uy kompyuteri  
уй компьютери  
**en** - home computer

Компьютер, используемый дома и обладающий универсальностью, многофункциональностью, простотой в обращении, надежностью, высокой производительностью, низкой ценой, современным дизайном.

Uyda foydalaniladigan, universal, ko'p funksiyali, muomala qilish oson bo'lgan, ishonchli, yuqori unumli, arzon, zamonaviy dizaynga ega kompyuter.

Уйда фойдаланиладиган, универсал, кўп функцияли, муомала қилиш осон бўлган, ишончли, юқори унумли, арзон, замонавий дизайнга эга компьютер.

### **Доменное имя**

**uz** - domen nomi  
домен номи  
**en** - domain name

Символьное имя каждого компьютера, подключенного к Internet. Строится иерархия имен. Каждый уровень этой иерархии называется доменом и отделяется от соседнего уровня точкой. Имя определяется справа налево.

*Internet* ga ulangan har bir kompyuterning ramziy nomi. Nomlar iyerarxiyasi quriladi. Bu iyerarxiyaning har bir darajasi domen deb ataladi va qo'shni darajadan nuqta bilan ajratiladi. Nom o'ngdan chapga qarab belgilanadi.

Internet га уланган ҳар бир компьютернинг рамзий номи. Номлар иерархияси қурилади. Бу иерархиянинг ҳар бир даражаси домен деб аталади ва қўшни даражадан нуқта билан ажратилади.

## Д

Ном ўнгдан чапга қараб белгиланади.

**Дорожка**  
**uz** - yo'lka  
йўлка  
**en** - tract

Месторасположение данных на дисковой памяти в виде концентрической окружности. При магнитном способе записи данные располагаются последовательно по этим концентрическим окружностям. На компакт-дисках данные записываются по одной спиралевидной дорожке. Иногда называется треком.

Ma'lumotlarning konsentrik aylana ko'rinishidagi disk хотирасида o'rni va joylashishi. Magnit yozish usulida ma'lumotlar bu konsentrik aylana bo'ylab ketma-ket joylashadi. Kompakt-disklarda ma'lumotlar bitta spiralsimon yo'lka bo'ylab yoziladi. Ba'zan trek deb ataladi.

Маълумотларнинг концентрик айлана кўринишидаги диск хотирасида ўрни ва жойлашиши. Магнит ёзиш усулида маълумотлар бу концентрик айлана бўйлаб кетма-кет жойлашади. Компакт-дискларда маълумотлар битта спиралсимон йўлка бўйлаб ёзилади. Баъзан трек деб аталади.

**Доступ**  
**uz** - erkin foydalanish  
эркин фойдаланиш  
**en** - access

Возможность чтения/записи данных в любых типах памяти. Различают методы прямого (произвольного) и последовательного доступа, тесно связанные с устройствами. Прямой доступ означает, что чтение-запись конкретных данных возможны без чтения/записи других данных. Последовательный доступ предполагает просмотр многих, если не всех, данных, чтобы прочитать/записать необходимые данные. Права доступа устанавливаются либо администратором, либо владельцем ресурса.

Xotiraning har qanday turida ma'lumotlarni o'qish/ yozish mumkinligi. To'g'ridan-to'g'ri (ixtiyoriy) va ketma-ket erkin foydalanish metodlari ajratiladi, ular qurilma bilan qattiq bog'langan. To'g'ridan-to'g'ri erkin foydalanish, ma'lum bir ma'lumotlarni o'qish/ yozish, boshqa ma'lumotlarni o'qimasdan/ yozmasdan turib mumkin bo'lishligini bildiradi. Ketma-ket erkin foydalanish, zarur ma'lumotlarni o'qish/ yozish uchun, barcha ma'lumotlar bo'lmasa ham, ulardan ko'pi

## Д

koʻrib chiqilishini bildiradi. Foydalanish huquqi administrator yoki resurs egasi tomonidan belgilanadi. Хотиранинг ҳар қандай турида маълумотларни ўқиш/ёзиш мумкинлиги. Тўғридан-тўғри (ихтиёр) ва кетма-кет эркин фойдаланиш методлари ажратилади, улар қурилма билан қаттиқ боғланган. Тўғридан-тўғри эркин фойдаланиш, маълум бир маълумотларни ўқиш/ёзиш, бошқа маълумотларни ўқимасдан/ёзмасдан туриб мумкин бўлиш-лигини билдиради. Кетма-кет эркин фойдаланиш, зарур маълумотларни ўқиш/ёзиш учун, барча маълумотлар бўлмаса ҳам, улардан кўпи кўриб чиқилишини билдиради. Фойдаланиш ҳуқуқи администратор ёки ресурс эгаси томонидан белгиланади.

### **Драйвер**

**uz** - drayver

драйвер

**en** - driver

Программа, обеспечивающая связь между операционной системой и периферийным устройством, управление устройством и регулирующая поток данных, проходящий через устройство. Можно считать драйвер частью операционной системы. При подключении к компьютеру нового устройства необходимо иметь драйвер, обеспечивающий работу этого устройства. Разработать драйвер, если он не поставляется с устройством, может программист.

Operatsion tizim va periferik qurilma oʻrtasida aloqani taʼminlaydigan, qurilmani boshqaradigan va qurilma orqali oʻtadigan maʼlumotlar oqimini tartibga soladigan dastur. Drayverni operatsion tizimning bir qismi deb hisoblash mumkin. Kompyuterga yangi qurilma ulanayotganda bu qurilmaning ishlashini taʼminlaydigan drayver boʻlishi zarur. Drayverni, agar u qurilma bilan birga yetkazib berilmasa, dasturchi ishlab chiqishi mumkin.

Операцион тизим ва периферик қурилма ўртасида алоқани таъминлайдиган, қурилмани бошқарадиган ва қурилма орқали ўтадиган маълумотлар оқимини тартибга соладиган дастур. Драйверни операцион тизимнинг бир қисми деб ҳисоблаш мумкин. Компьютерга янги қурилма уланаётганда бу қурилманинг ишлашини таъминлайдиган драйвер бўлиши зарур. Драйверни, агар

## Д

у курилма билан бирга етказиб берилмаса. дастурчи ишлаб чиқиши мумкин.

**Дружественность системы**

**uz** - tizimning do‘stonaligi

тизимнинг дўстоналиги

**en** - system crawlability

Качественная характеристика системы, отражающая удобство работы с ней пользователя. Данная характеристика относится как к оборудованию системы, так и к программным средствам. Например, вместо привычной клавиатуры разработана клавиатура, поддерживающая руку и состоящая из двух частей: для каждой руки отдельно; всплывающее меню удобнее простого меню.

Tizimning, foydalanuvchi bu tizim bilan ishlash paytida qulaylik yaratilishini aks ettiradigan sifat xarakteristikasi. Bu xarakteristika ham tizim uskunasi, ham dasturiy vositalarga taalluqli. Masalan, odatdagi klaviatura o‘rniga qo‘lni tutib turadigan va har bir qo‘l uchun alohida bo‘lgan: ikki qismdan iborat klaviatura ishlab chiqilgan; suzib chiqadigan menyu oddiy menyudan qulayroq.

Тизимнинг, фойдаланувчи бу тизим билан ишлаш пайтида қулайлик яратилишини акс эттирадиган сифат хактеристикаси. Бу хактеристика ҳам тизим ускунаси, ҳам дастурий воситаларга тааллуқли. Масалан, одатдаги клавиатура ўрнига қўлни тутиб турадиган ва ҳар бир қўл учун алоҳида бўлган: икки қисмдан иборат клавиатура ишлаб чиқилган; сузиб чиқадиган меню оддий менюдан қулайроқ.

## Е

**Емкость**

**uz** - sig‘im

сиғим

**en** - capacity

Максимальный объем данных, который может храниться в памяти компьютера. Емкость всех видов памяти измеряется в битах, байтах и их производных.

Kompyuter хотирасида сақланиши мумкин бўлган ма’лумотларнинг максимал ҳажми. Barcha турдаги хотира sig‘imi bitlarda, baytlarda va ularning hosilalarida o‘lchanadi.

Компьютер хотирасида сақланиши мумкин

## Е

бўлган маълумотларнинг максимал ҳажми. Барча турдаги хотира сифими битларда, байтларда ва уларнинг ҳосилаларида ўлчанади.

### **Е-практикум**

**uz** - E-praktikum

Е-практикум

**en** - E-practicum

Программный продукт для обучения школьников; поддерживает школьный курс информатики на компьютерах типа «Корвет», «УКНЦ», «Ямаха». В своем составе имеет интерпретатор языка, очень похожего на Pascal, с русской лексикой; имеется набор исполнителей: «чертежник», «вездеход» и др., позволяющих просто вводить понятия алгоритмов. Назван в честь академика П.Ершова.

О'quvchilarni o'qish-o'rgatish uchun mo'ljallangan dasturiy mahsulot. «Korvet», «UKNS», «Yamaха» turidagi kompyuterlarda maktab informatika kursini qo'llaydi. Tarkibida *Pascal* tiliga juda o'xshash bo'lgan ruscha leksikali til interpretatori bor; algoritmlar tushunchasini kiritish imkonini beradigan «chizmachi», «vezdexod» va boshqa bajaruvchilar to'plami mavjud. Akademik P.Yershov sharafiga nomlangan.

Ўқувчиларни ўқиш-ўргатиш учун мўлжалланган дастурий маҳсулот. «Корвет», «УКНЦ», «Ямаха» туридаги компьютерларда мактаб информатика курсини қўллайди. Таркибида *Pascal* тилига жуда ўхшаш бўлган русча лексикали тил интерпретатори бор; алгоритмлар тушунчасини киритиш имконини берадиган «чизмачи», «вездеход» ва бошқа бажарувчилар тўплами мавжуд. Академик П.Ершов шарафига номланган.

## Ж

### **Жесткий магнитный диск**

**uz** - qattiq magnit disk

каттиқ магнит диск

**en** - winchester

Диск для хранения данных. В отличие от гибкого магнитного диска, который является съёмным, жесткий магнитный диск никогда не снимается; составляет единое целое с дисководом. Диск сделан из алюминиевого сплава и магнитного покрытия. Диски вместе с высокоскоростным двигателем и тонкопленочными головками чтения/записи помещаются в герметический корпус.

## Ж

Жесткие диски бывают разной емкости – от 20 Mbyte до 9,1 Gbyte.

Ма'lumotlar saqlash uchun mo'ljallangan disk. Olinadigan egiluvchan diskdan farqli ravishda, qattiq magnit disk hech qachon olinmaydi, diskovod bilan bir butun yaxlitni tashkil qiladi. Disk alyumin qotishma va magnit qoplamadan qilingan. Disklar yuqori tezlikli dvigatel va yupqa plyonkali o'qish/yozish kallaklari bilan birga germetik korpusga joylashtiriladi. Qattiq diskning sig'imi turlicha – 20 Mbyte dan 9,1 Gbyte gacha bo'ladi.

Маълумотлар сақлаш учун мўлжалланган диск. Олинадиган эгилувчан дискдан фарқли равишда, қаттиқ магнит диск ҳеч қачон олинмайди, дисковод билан бир бутун яхлитни ташкил қилади. Диск алюмин қотишма ва магнит қопламадан қилинган. Дисклар юқори тезликли двигатель ва юпка плёнкали ўқиш/ёзиш каллаклари билан бирга герmetik корпусга жойлаштирилади. Қаттиқ дискларнинг сифими турлича – 20 Mbyte дан 9,1 Gbyte гача бўлади.

## З

### «Зависание»

**uz** -«qotib qolish»

«қотиб қолиш»

**en** - hangup

Состояние компьютера, возникшее из-за неправильной работы программного обеспечения, неправильных действий оператора или сбоя технических средств, при котором компьютер не выполняет следующего шага работы и не реагирует на стандартные прерывания. Различают «зависания» разной степени. При «зависании» программы обычно нажимают одновременно клавиши Ctrl и Break; при зависании операционной системы делают «горячий» старт (запуск), при отключении клавиатуры нажимают клавишу Reset, если она есть, либо выключают-включают компьютер.

Dasturiy ta'minotning noto'g'ri ishlashi operatorning noto'g'ri harakatlari yoki texnik vositalarning ishlaymay qolishi tufayli yuzaga keladigan kompyuterning holati. Bunda kompyuter ishning keyingi qadamini bajarmaydi va standart uzilishlarga javob bermaydi.

Turli darajadagi «qotib qolishlar» ajratiladi. Dastur «qotib qolganda», odatda, bir vaqtda *Ctrl* va *Break* klavishalari bosiladi; operatsion tizim «qotib qolganda», «qaynoq» start (ishga tushirish) bajariladi; klaviatura o'chib qolganda, *Reset* klavishasi bosiladi, agar bu klavisha bo'lsa, yoki kompyuter o'chirib-yoqiladi.

**uz** - iteratsiya

итерация

**en** - iteration

Повторение пошагового процесса, когда результат предыдущего шага используется для получения результата следующего шага. Основа итерационных вычислительных методов для решения многих задач. Если итерационный процесс сходится, это значит, что процесс заканчивается результативно; если расходится, то либо необходимо менять начальные условия, либо задача не имеет решения, либо основа итерационного процесса неправильно построена.

Oldingi qadamning natijasidan keyingi qadamning natijasini olish uchun foydalaniladigan, qadamlab yuz beradigan jarayonning takrorlanishi. Ko'plab masalalarni hal qilish uchun mo'ljallangan iteratsion hisoblash metodlarining asosi. Agar iteratsion jarayon to'g'ri kelsa, bu, jarayon natijali tugallanishini bildiradi; to'g'ri kelmasa, boshlang'ich shartlarni o'zgartirish zarur yoki masalaning yechimi yo'q yoki iteratsion jarayonning asosi noto'g'ri qurilgan.

Олдинги қадамнинг натижасидан кейинги қадамнинг натижасини олиш учун фойдаланиладиган, қадамлаб юз берадиган жараённинг такрорланиши. Кўплаб масалаларни ҳал қилиш учун

## И

мўлжалланган итерацион ҳисоблаш методларининг асоси. Агар итерацион жараён тўғри келса, бу, жараён натижали тугалланишини билдиради; тўғри келмаса, бошланғич шартларни ўзгартириш зарур ёки масаланинг ечими йўқ ёки итерацион жараённинг асоси нотўғри қурилган.

## К

### Кадр

**uz** - kadr

кадр

**en** - frame

В телекоммуникациях и компьютерных сетях: пакет данных определённого формата для передачи по каналу связи; в видеографике: отдельный кадр в видеопотоке; в языке HTML, Web-дизайне: область окна браузера для представления отдельной Web-страницы; в программировании (особенно на языках низкого уровня): область памяти, выделяемая для хранения локальных переменных функции.

Telekommunikatsiyada va kompyuter tarmoqlarida: aloqa kanali orqali uzatish uchun ma'lum bir formatdagi ma'lumotlar paketi; videografikada: videooqim-dagi alohida kadr; *HTML* tili va *Web*-dizaynda: alohida *Web*-sahifani ko'rsatuvchi brauzer oynasining sohasi; dasturlashda (asosan quyi darajali tillarda): funksiyaning lokal o'zgaruvchilarini saqlash uchun ajratiladigan xotira sohasi.

Телекоммуникацияда ва компьютер тармоқларида: алоқа канали орқали узатиш учун маълум бир форматдаги маълумотлар пакети; видеографикада: видеооқимдаги алоҳида кадр; HTML тили ва Web-дизайнда: алоҳида Web-саҳифани кўрсатувчи браузер ойнасининг соҳаси; дастурлашда (асосан қуйи даражали тилларда): функциянинг локал ўзгарувчиларини сақлаш учун ажратиладиган хотира соҳаси.

### Канал связи

**uz** - aloqa kanali

алоқа канали

**en** - data link

Технические устройства и физическая среда, обеспечивающие передачу данных. Каналы связи разделяются на аналоговые и цифровые, на телефонные, телеграфные, радиочастотные, телевизионные, инфракрасные и оптические. Каналы связи бывают также выделенные и коммутируе-

## К

мые. Основная характеристика канала – его пропускная способность.

Ma'lumotlar uzatilishini ta'minlaydigan tabiiy muhit va texnik qurilmalar. Aloqa kanallari analog va raqamli, telefon, telegraf, radiochastota, televizion, infraqizil hamda optik aloqa kanallariga bo'linadi. Shuningdek, ajratilgan va kommutatsiyalanadigan aloqa kanallari ham bor. Kanalning asosiy xarakteristikasi uning o'tkazish qobiliyatidir.

Маълумотлар узатилишини таъминлайдиган табиий муҳит ва техник қурилмалар. Алоқа каналлари аналог ва рақамли, телефон, телеграф, радиочастота, телевизион, инфрақизил ҳамда оптик алоқа каналларига бўлинади. Шунингдек, ажратилган ва коммутацияланадиган алоқа каналлари ҳам бор. Каналнинг асосий хarakteristikasi унинг ўтказиш қобилиятидир.

### Карман

**uz** - choʻntak

чўнтак

**en** - bin

Часть памяти, выделяемая системой, куда временно помещаются данные для копирования или переноса.

Xotiraning tizim tomonidan ajratiladigan, nusxa koʻchirish yoki koʻchirish uchun ma'lumotlar vaqtincha joylashtiriladigan qismi.

Хотиранинг тизим томонидан ажратиладиган, нусха кўчириш ёки кўчириш учун маълумотлар вақтинча жойлаштириладиган қисми.

### Карманный компьютер

**uz** - choʻntak kompyuteri

чўнтак компютери

**en** - pocket PC

Вид портативного компьютера, по размерам и весу напоминает электронную записную книжку, а по функциональным возможностям – почти настольный компьютер. Оперативная память такого компьютера выполняет функцию долговременной памяти и имеет размер в несколько мегабайт. Жесткий диск отсутствует. Работает, как правило под управлением Windows CE, имеет интерфейс с другими компьютерами, встроенные интегрированные системы. Дисплей – жидкокристаллический.

Portativ kompyuterning bir turi, o'lcamlari va

## К

og'irligiga ko'ra elektron yon daftarchani eslatadi, funksional imkoniyatlariga ko'ra stol kompyuteriga deyarli o'xshash. Bunday kompyuterning operativ хотираси uzoq muddatli хотира funksiyasini bajaradi va bir necha megabayt o'lchamga ega. Qattiq disk yo'q. Odatda, *Windows CE* ostida ishlaydi, boshqa kompyuterlar bilan interfeysga, o'rnatilgan integratsiyalashgan tizimlarga ega. Displayi suyuq kristalli.

Портатив компьютернинг бир тури, ўлчамлари ва оғирлигига кўра электрон ён дафтarchани эслатади, функционал имкониятларига кўра стол компьютерига деярли ўхшаш. Бундай компьютернинг оператив хотираси узок мuddатли хотира функциясини бажаради ва бир неча мегабайт ўлчамга эга. Қаттиқ диск йўқ. Одатда, *Windows CE* остида ишлайди, бошқа компьютерлар билан интерфейсга, ўрнатилган интеграциялашган тизимларга эга. Дисплейи сууқ кристалли.

### Карта памяти

**uz** - хотира kartasi

хотира картаси

**en** - storage map

Схема распределения памяти, как правило, оперативной или постоянной.

Operativ yoki doimiy хотиранинг taqsimlanish sxemasi.

Оператив ёки доимий хотиранинг тақсимланиш схемаси.

### Картридж

**uz** - kartrij

картриж

**en** - cartridge

Сменяемая часть устройства. Обычно это кассета, в которой хранится красящая лента для принтеров, тонер для лазерных принтеров или множительных аппаратов, чернила для струйных принтеров.

Qurilmaning almashtiriladigan qismi. Odatda, bu, printer uchun bo'yaydigan tasma, lazer printerlar yoki ko'paytiruvchi apparatlar uchun toner, purkagichli printerlar uchun siyoh saqlanadigan kasseta.

Қурилманинг алмаштириладиган қисми. Одатда, бу, принтер учун бўйайдиган тасма, лазер принтерлар ёки кўпайтирувчи аппаратлар учун тонер,

## К

пуркагичли принтерлар учун сиёҳ сақланадиган кассета.

### **Каталог файлов**

**uz** - fayllar katalogi

файллар каталоги

**en** - file catalog

Логическое разбиение дисковой памяти на части, в которых могут храниться файлы и другие каталоги. Совокупность каталогов создает дерево каталогов с корневым каталогом. В каждом каталоге могут быть другие каталоги и файлы. Каждый каталог имеет имя, присваиваемое ему пользователем; корневой каталог в дисковой операционной системе имеет стандартное имя «/» (обратный слэш). Владелец диска может сам построить дерево каталогов, в частности, это может быть только корневой каталог, а в нем все файлы.

Disk хотирасини fayllar va boshqa kataloglar saqlanishi mumkin bo'lgan qismlarga mantiqiy bo'lish. Kataloglar yig'indisi o'zak katalogli kataloglar daraxtini hosil qiladi. Har bir katalogda boshqa kataloglar va fayllar bo'lishi mumkin. Har bir katalog foydalanuvchi tomonidan beriladigan nomga ega; o'zak katalog diskli operatsion tizimda «/» (teskari slash) standart nomga ega. Disk egasining o'zi kataloglar daraxtini tuzishi mumkin, xususan, bu faqat, barcha fayllarni ichiga oladigan o'zak katalog bo'lishi mumkin.

Диск хотирасини файллар ва бошқа каталоглар сақланиши мумкин бўлган қисмларга мантикий бўлиш. Каталоглар йиғиндиси ўзак каталогли каталоглар дарахтини ҳосил қилади. Ҳар бир каталогда бошқа каталоглар ва файллар бўлиши мумкин. Ҳар бир каталог фойдаланувчи томонидан бериладиган номга эга; ўзак каталог дискли операцион тизимда «/» (тескари слэш) стандарт номга эга. Диск эгасининг ўзи каталоглар дарахтини тузиши мумкин, хусусан, бу фақат, барча файлларни ичига оладиган ўзак каталог бўлиши мумкин.

### **Килобайт (Kbyte)**

**uz** - kilobayt (Kbyte)

килобайт (Kbyte)

**en** - kilobyte (Kbyte)

Единица измерения количества данных или объема памяти, равная  $2^{10}=1024$  byte.

Xotira hajmini yoki ma'lumotlar miqdorini o'lchash

## К

birligi. 210=1024 *byte* ga teng.

Хотира ҳажмини ёки маълумотлар миқдорини ўлчаш бирлиги. 210=1024 *byte* га тенг.

### Клавиатура

**uz** - klaviatura

клавиатура

**en** - keyboard

Устройство для ручного ввода данных в компьютер. Клавиатуры различаются количеством клавиш. Стандартным для IBM-подобных компьютеров является клавиатура со 101 клавишей, где выделены блоки: функциональных клавиш; букв, цифр и вспомогательных символов; клавиш управления курсором; цифровой клавиатуры (дублируется для удобства ввода). При каждой нажатии клавиши в процессор посылает не код символа, нарисованный на клавише, а код клавиши, который затем программным путем связывается с символом. Такой подход позволяет гибко менять набираемые символы.

Ma'lumotlarni kompyuterga qo'lda kiritish uchun xizmat qiladigan qurilma. Klaviaturalar klavishlar soni bilan ajralib turadi. *IBM* o'xshash kompyuterlar uchun 101 ta klavishli klaviatura standart hisoblanadi, bu klaviaturada funksional klavishlar, harflar, raqamlar va yordamchi simvollar bloklari, kursorni boshqarish klavishlari; raqamli klaviatura (kiritish oson bo'lishi uchun takrorlanadi) bloklari ajratilgan. Klavishlar har gal bosilganda protsessorga klavishda chizilgan simvol kodi emas, balki keyin dasturiy yo'l bilan simvol bilan bog'lanadigan klavish kodi yuboriladi. Bunday yondashuv teriladigan simvollarni tez o'zgartirish imkonini beradi.

Маълумотларни компьютерга қўлда киритиш учун хизмат қиладиган қурилма. Клавиатуралар клавишлар сони билан ажралиб туради. *IBM* ўхшаш компьютерлар учун 101 та клавишли клавиатура стандарт ҳисобланади, бу клавиатурада функционал клавишлар, ҳарфлар, рақамлар ва ёрдамчи символлар блоклари, курсорни бошқариш клавишлари; рақамли клавиатура (киритиш осон бўлиши учун такрорланади) блоклари ажратилган. Клавишлар ҳар гал босилганда процес-

## К

сорга клавишда чизилган символ коди эмас, балки кейин дастурий йўл билан символ билан боғланадиган клавиш коди юборилади. Бундай ёндашув териладиган символларни тез ўзгартириш имконини беради.

### Кластер

**uz** - klaster

кластер

**en** - cluster

В системах хранения данных – рассматриваемая как единое целое часть диска, состоящая из фиксированного числа секторов, используемых операционной системой для чтения и записи данных. Минимальная порция дискового пространства, которая может быть выделена для размещения файла. Чем меньше размер кластера, тем более эффективно используется дисковая память.

Ма'lumotlarni saqlash tizimlarida – qayd etilgan sonli sektorlardan tashkil topgan, operatsion tizimlarda ma'lumotlarni o'qish va yozish uchun ishlatiladigan diskning butun qismi. Disk fazosining fayllarni joylashtirish uchun ajratiladigan minimal qismi. Klasterning o'lchami qanchalik kichik bo'lsa, disk хотирасидан шунчалик самарали фойдаланилади.

Маълумотларни сақлаш тизимларида – қайд этилган сонли секторлардан ташкил топган, операцион тизимларда маълумотларни ўқиш ва ёзиш учун ишлатиладиган дискнинг бутун қисми. Диск фазосининг файлларни жойлаштириш учун ажратиладиган минимал қисми. Кластернинг ўлчами қанчалик кичик бўлса, диск хотирасидан шунчалик самарали фойдаланилади.

### Клиент

**uz** - mijoz

мижоз

**en** - customer

Понятие, относящееся к архитектуре «клиент-сервер». Компьютер или программа, которые пользуются ресурсами других компьютеров и программ. Например, в компьютерной сети компьютер, на котором хранится база данных, называется сервером, а другой компьютер, запрашивающий некоторые сведения с сервера, называется клиентом. Программы, обеспечивающие такую работу, называются программой-сервером и программой-клиентом соответственно.

«Mijoz-server» arxitekturasiga taalluqli tushuncha.

## К

Boshqa kompyuterlar va dasturlarning resurslaridan foydalanadigan kompyuter yoki dastur. Masalan, kompyuter tarmog'ida ma'lumotlar bazasi saqlanadigan kompyuter server deb, serverdan ba'zi ma'lumotlarni so'raydigan boshqa bir kompyuter esa mijoz deb ataladi. Bunday ishni ta'minlaydigan dasturlar mos ravishda, server dastur va mijoz dastur deb ataladi.

«Мижоз-сервер» архитектурасига тааллуқли тушунча. Бошқа компьютерлар ва дастурларнинг ресурсларидан фойдаланадиган компьютер ёки дастур. Масалан, компьютер тармоғида маълумотлар базаси сақланадиган компьютер сервер деб, сервердан баъзи маълумотларни сўрайдиган бошқа бир компьютер эса мижоз деб аталади. Бундай ишни таъминлайдиган дастурлар мос равишда, сервер дастур ва мижоз дастур деб аталади.

### **Клон**

**uz** - klon

клон

**en** - klon

Технические или программные средства, функционально подобные другим ранее созданным средствам.

Avval yaratilgan boshqa vositalarga funksional jihatdan o'xshash bo'lgan texnik yoki dasturiy vositalar.

Аввал яратилган бошқа воситаларга функционал жиҳатдан ўхшаш бўлган техник ёки дастурий воситалар.

### **Ключ**

**uz** - kalit

калит

**en** - key

Ключ в системе управления базами данных – последовательность знаков, используемая для идентификации записи в индексно-последовательном файле и быстрого доступа к ней.

Ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimidagi kalit. Baza faylida xabarni identifikatsiya qilish va unga tez kira olishni ta'minlash uchun ishlatiladigan belgilar ketma-ketligi.

Маълумотлар базасини бошқариш тизимидаги калит. База файлида хабарни идентификация қилиш ва унга тез кира олишни таъминлаш учун ишлатиладиган белгилар кетма-кетлиги.

## К

### Код ANSI

**uz** - ANSI kodi  
ANSI коди  
**en** - ANSI code

Стандарт кодирования символов 8-разрядными двоичными числами (1 byte). Используется в Windows.

Simvollarni sakkiz razryadli ikkilik sonlar (1 byte) bilan kodlash standarti. Windows da foydalaniladi.

Символларни саккиз разрядли иккилик сонлар (1 byte) билан кодлаш стандарти. Windows да фойдаланилади.

### Код ASCII

**uz** - ASCII kodi  
ASCII коди  
**en** - ASCII code

Стандарт кодирования символов латинского алфавита, цифр и вспомогательных символов или действий в виде однобайтового двоичного кода (1 byte=8 bit). Первоначально стандарт определял только 128 символов, используя 7 битов (от 0 до 127). Использование всех восьми битов позволяет кодировать еще 128 символов. Дополнительные символы могут быть любыми, им отводятся коды от 128 до 255.

Bir baytli (1 byte=8 bit) ikkilik kod ko‘rinishida lotin alifbosi simvollarini, raqamlar, yordamchi simvollar yoki amallarni kodlash standarti. Dastlab standart 7 bitdan foydalanib (0 dan 127 gacha bo‘lgan) 128 simvolnigina belgilagan edi. Barcha sakkiz bitdan foydalanish yana 128 simvolni kodlash imkonini beradi. Qo‘shimcha simvollar har qanday bo‘lishi mumkin. Ularga 128 dan 255 gacha bo‘lgan kodlar ajratiladi.

Бир байтли (1 byte=8 bit) иккилик код кўринишида лотин алифбоси символларини, рақамлар, ёрдамчи символлар ёки амалларни кодлаш стандарти. Дастлаб стандарт 7 битдан фойдаланиб (0 дан 127 гача бўлган) 128 символнигина белгилаган эди. Барча саккиз битдан фойдаланиш яна 128 символни кодлаш имконини беради. Қўшимча символлар ҳар қандай бўлиши мумкин. Уларга 128 дан 255 гача бўлган кодлар ажратилади.

### Код

**uz** - kod  
код

Набор символов. Может служить паролем к компьютерным играм, исходным текстом компьютерной программы или раскладкой клавиатуры.

## К

**en** - code

Simvollar to‘plami. Kompyuter o‘yinlarida, kompyuter dasturining dastlabki matnida yoki klaviaturaning taqsimlanishida parol bo‘lishi mumkin.

Символлар тўплами. Компьютер ўйинларида, компьютер дастурининг дастлабки матнида ёки клавиатуранинг тақсимланишида пароль бўлиши мумкин.

### **Кодек**

**uz** - kodek

кодек

**en** - codec

Устройство компрессии/декомпрессии видеоданных и звука. При организации видеоконференций кодек получает аналоговые сигналы от микрофонов и видеокамер, преобразует их в дискретную форму и направляет через сеть другой системе. Получая из сети дискретные сигналы кодек, преобразует их в аналоговые сигналы и распределяет между динамиками и мониторами.

Videoma'lumotlar va tovushni kompressiya/dekompressiyalaydigan qurilma. Videokonferensiya o'tkazilganda, u mikrofon va kameradan analog signallarni qabul qiladi. Bu signallar diskret shaklga o'zgartiriladi va tarmoq orqali boshqa tizimga yuboriladi. Kodek tarmoq orqali boshqa tizimning diskret signallarini qabul qilib, ularni analog signallarga o'zgartiradi va radiokarnaylar hamda monitorlar orasida taqsimlaydi.

Видеомаълумотлар ва товушни компрессия/декомпрессиялайдиган қурилма. Видеоконференция ўтказилганда, у микрофон ва камерадан аналог сигналларни қабул қилади. Бу сигналлар дискрет шаклга ўзгартирилади ва тармоқ орқали бошқа тизимга юборилади. Кодек тармоқ орқали бошқа тизимнинг дискрет сигналларини қабул қилиб, уларни аналог сигналларга ўзгартиради ва радиокарнайлар ҳамда мониторлар орасида тақсимлайди.

### **Кодовая таблица**

**uz** - kod jadvali

код жадвали

**en** -code table

Таблица кодировки символов, предназначенная для оперативного изменения набора символов на клавиатуре. Применяется в операционных системах Windows и OS/2.

## К

Klaviaturada simvollar to'plamini operativ o'zgartirish uchun mo'ljallangan simvollarni kodlash jadvali. *Windows* va *OS/2* operatsion tizimlarida qo'llaniladi.

Клавиатурада символлар тўпламини оператив ўзгартириш учун мўлжалланган символларни кодлаш жадвали. *Windows* ва *OS/2* операцион тизимларида қўлланилади.

### Команда

**uz** - komanda

команда

**en** - command

Предписание исполнителю, выданное на понятном ему языке и однозначно определяющее действия исполнителя. Команда может подаваться разными способами; в компьютере это определенный набор символов, если ввод осуществляется через клавиатуру, и/или электрические сигналы, если ввод осуществляется через порты (например, по модему.)

Bajaruvchiga, uning uchun tushunarli tilda berilgan va bajaruvchining harakatini qat'iy belgilaydigan ko'rsatma. Komanda turli usullar bilan berilishi mumkin; kompyuterda bu simvollarning ma'lum bir to'plami, agar kiritish klaviatura orqali amalga oshirilsa, va/yoki elektr signallar, agar kiritish portlar orqali (masalan, modem bo'ylab) amalga oshirilsa.

Бажарувчига, унинг учун тушунарли тилда берилган ва бажарувчининг ҳаракатини қатъий белгилайдиган кўрсатма. Команда турли усуллар билан берилиши мумкин; компьютерда бу символларнинг маълум бир тўплами, агар киритиш клавиатура орқали амалга оширилса, ва/ёки электр сигналлар, агар киритиш портлар орқали (масалан, модем бўйлаб) амалга оширилса.

### Комментарий

**uz** - sharh

шарҳ

**en** - comment

В программировании – языковая конструкция, позволяющая включать в программу или командный файл, поясняющий текст с целью их документирования. При трансляции исходного текста программы и при исполнении командного файла комментарии игнорируются.

## К

Dasturlashda til konstruksiyasi bo'lib, dasturga yoki komanda fayliga uni hujjatlashtirish maqsadida tushuntiruvchi matn sifatida qo'shiladi. Dastur boshlang'ich matni translyatsiya qilinganda va komandalar fayli bajarilishi paytida sharhlar tashlab ketiladi.

Дастурлашда тил конструкцияси бўлиб, дастурга ёки команда файлига уни ҳужжатлаштириш мақсадида тушунтирувчи матн сифатида қўшилади. Дастур бошланғич матни трансляция қилинганда ва командалар файли бажарилиши пайтида шарҳлар ташлаб кетилади.

### **Компакт-диск**

**uz** - kompakt-disk  
компакт-диск  
**en** - CD

Диск для постоянного хранения данных; представляет собой круг из алюминиевого сплава, покрытый защитной прозрачной пленкой.

Ma'lumotlarni doimiy saqlash uchun mo'ljallangan disk, himoyalovchi shaffof plyonka bilan qoplangan alyumin qotishmadan qilingan doirani o'zida ifodalaydi.

Маълумотларни доимий сақлаш учун мўлжалланган диск, ҳимояловчи шаффоф плёнка билан қопланган алюмин қотишмадан қилинган доирани ўзида ифодалайди.

### **Компилятор**

**uz** - kompilyator  
компилятор  
**en** - compiler

Программа, выполняющая преобразование исходного кода разрабатываемой программы с языка программирования в исполняемый код, понятный машине.

Ishlab chiqiladigan dasturning boshlang'ich kodining dasturlash tilidan mashinaga tushunarli bo'lgan bajariladigan kodga o'zgartirilishini amalga oshiradigan dastur.

Ишлаб чиқиладиган дастурнинг бошланғич коднинг дастурлаш тилидан машинага тушунарли бўлган бажариладиган кодга ўзгартирилишини амалга оширадиган дастур.

### **Компиляция**

Преобразование исходного кода программы в эк-

## К

**uz** - kompilyatsiya  
компиляция  
**en** - compilation

вивалентную программу на машинном или промежуточном коде. Логически процесс компиляции делится на этапы, основными из которых являются анализ исходного текста и синтез, или кодогенерация. Физически – каждая стадия просмотра компилятором исходного текста от его начала до конца называется проходом.

Biror-bir dasturlash tilida yozilgan dasturni unga ekvivalent boʻlgan tilga (mashina tili yoki oraliq til) oʻgirish. Kompilyatsiya jarayoni mantiqan boshlangʻich matnni tahlil qilish, sintezlash yoki kodni generatsiya qilishga asoslangan bosqichlardan iborat. Fizik jihatdan – har bir bosqichda kompilyator boshlangʻich matnni boshdan oxirigacha tekshirib chiqadi.

Бирор-бир дастурлаш тилида ёзилган дастурни унга эквивалент бўлган тилга (машина тили ёки оралиқ тил) ўгириш. Компиляция жараёни мантиқан бошланғич матнни таҳлил қилиш, синтезлаш ёки кодни генерация қилишга асосланган босқичлардан иборат. Физик жиҳатдан – ҳар бир босқичда компилятор бошланғич матнни бошдан охиригача текшириб чиқади.

**Компоновщик**  
**uz** - komponovkachi  
компоновкачи  
**en** - builder

Часть системы программирования или самостоятельная программа, собирает выполняемую программу из объектных модулей и стандартных частей из библиотек.

Dasturlash tizimining bir qismi yoki mustaqil dastur, obyekt modullardan va bibliotekadan olinadigan standart qismlardan bajariladigan dasturni yigʻadi.

Дастурлаш тизимининг бир қисми ёки мустақил дастур, объект модуллардан ва библиотекадан олинадиган стандарт қисмлардан бажариладиган дастурни йиғади.

**Компьютер**  
**uz** - kompyuter  
компьютер  
**en** - computer

Цифровая (дискретная) вычислительная машина, способная выполнять команды. Основное назначение компьютера – обработка данных с помощью программ. В компьютере можно выделить

## К

аппаратурную часть и программное обеспечение. Основа программного обеспечения – операционная система.

Komandalarni bajara oladigan raqamli (diskret) hisoblash mashinasi. Kompyuterning asosiy vazifasi – dasturlar yordamida ma'lumotlarni qayta ishlashdir. Kompyuterda apparatura qismi va dasturiy ta'minot ajratiladi. Apparatura qismining asosini mikroprotssessor tashkil qiladi. Dasturiy ta'minot asosi – operatsion tizim.

Командаларни бажара оладиган рақамли (дискрет) ҳисоблаш машинаси. Компьютернинг асосий вазифаси – дастурлар ёрдамида маълумотларни қайта ишлашдир. Компьютерда аппарататура қисми ва дастурий таъминот ажратилади. Аппаратура қисмининг асосини микропроцессор ташкил қилади. Дастурий таъминот асоси – операцион тизим.

### **Компьютерная сеть**

**uz** - kompyuter tarmog'ı  
компьютер тармоғи  
**en** - computer network

Совокупность компьютеров и сетевого оборудования, связанных между собой каналами связи для обмена данными и совместного использования ресурсов. Ресурсы – это оборудование, программы и база данных.

Resurslardan birgalikda foydalanish va ma'lumotlar almashinish uchun, aloqa kanallari bilan o'zaro bog'langan kompyuterlar va tarmoq uskunasi jami. Resurslar – bu uskuna, dasturlar va ma'lumotlar bazasidir.

Ресурслардан биргаликда фойдаланиш ва маълумотлар алмашиниш учун, алоқа каналлари билан ўзаро боғланган компьютерлар ва тармоқ ускунаси жами. Ресурслар – бу ускуна, дастурлар ва маълумотлар базасидир.

### **Конвейер**

**uz** - konveyer  
конвейер  
**en** - pipeline

Метод последовательного подключения программ или модулей друг другу.

Dasturlar yoki modullarni bir-biriga ketma-ket ulash metodi.

## К

Дастурлар ёки модулларни бир-бирига кетма-кет улаш методи.

### Конвертирование

**uz** - konversiyalash

конверсиялаш

**en** - converting

Процесс преобразования данных, записанных в одном формате, в другой.

Bir formatda yozilgan ma'lumotlarni boshqa bir formatga o'zgartirish jarayoni.

Бир форматда ёзилган маълумотларни бошқа бир форматга ўзгартириш жараёни.

### Конкатенация

**uz** - konkatenatsiya

конкатенация

**en** - concatenation

Операция соединения нескольких строк символов в одну. В языках программирования существуют специальные функции, выполняющие эту операцию. Например, в языке Pascal операция конкатенации обозначается +.

Simvollarning bir nechta satrini bitta satrga birlashtirish operatsiyasi. Dasturlash tillarida bu operatsiyani bajaradigan maxsus funksiyalar mavjud. Masalan, *Pascal* tilida konkatenatsiya operatsiyasi + bilan belgilanadi.

Символларнинг бир нечта сатрини битта сатрга бирлаштириш операцияси. Дастурлаш тилларида бу операцияни bajaradigan maxsus funksiyalar mavjud. Masalan, *Pascal* тилида конкатенация операцияси + билан белгиланади.

### Консоль

**uz** - konsol

консоль

**en** - concole

Устройство для управления пользователем работой компьютера. Например, клавиатура, дисплей, мышь – консольные устройства.

Foydalanuvchi tomonidan kompyuter ishini boshqarish uchun mo'ljallangan qurilma. Masalan, klaviatura, displey, sichqoncha konsol qurilmalardir.

Фойдаланувчи томонидан компьютер ишини бошқариш учун мўлжалланган қурилма. Масалан, клавиатура, дисплей, сичқонча консоль қурилмалардир.

### Константа

**uz** - konstanta

константа

Элемент данных, занимающий место в памяти, имеющий имя и определенный тип; в отличие от переменной его значение никогда не меняется.

## К

**en** - constant

Используется при программировании.

Xotirada joy egallaydigan, nom va muayyan turga ega bo'lgan, ma'lumotlar elementi; o'zgaruvchidan farqli ravishda, uning qiymati hech qachon o'zgarмайди. Dasturlashda foydalaniladi.

Хотирада жой эгаллайдиган, ном ва муайян турга эга бўлган, маълумотлар элементи; ўзгарувчидан фарқли равишда, унинг қиймати ҳеч қачон ўзгармайди. Дастурлашда фойдаланилади.

### **Контейнер**

**uz** - konteyner  
контейнер  
**en** - container

В объектно-ориентированном программировании объект (дискковод, файл, папка, приложение), в который помещаются другие объекты.

Obyektga yo'naltirilgan dasturlashda boshqa obyektlar joylashtiriladigan obyekt (diskovod, fayl, papka, ilova).

Объектга йўналтирилган дастурлашда бошқа объектлар жойлаштириладиган объект (дискковод, файл, папка, илова).

### **Контекст**

**uz** - kontekst  
контекст  
**en** - context

Часть текста, позволяющая определить значение какого-либо слова или фразы.

Matnning, qandaydir so'z yoki jumlaning ahamiyatini aniqlash imkonini beradigan qismi.

Матннинг, қандайдир сўз ёки жумланинг аҳамиятини аниқлаш имконини берадиган қисми.

### **Контроллер**

**uz** - kontroller  
контроллер  
**en** - controller

Устройство для управления периферийным оборудованием и предварительной обработки данных для центрального процессора. Выполняет интерпретацию команд процессора для отдельных устройств.

Periferik uskunani boshqarish va ma'lumotlarni markaziy protsessor uchun oldindan qayta ishlash uchun mo'ljallangan qurilma. Alohida qurilmalar uchun protsessor komandalari interpretatsiya qilinishini bajaradi.

Периферик ускунани бошқариш ва маълумотлар-

## К

ни марказий процессор учун олдиндан қайта ишлаш учун мўлжалланган қурилма. Алоҳида қурилмалар учун процессор командалари интерпретация қилинишини бажаради.

### **Конфигурационный файл**

**uz** - konfiguratsion fayl

конфигурацион файл

**en** - configuration file

Файл, в котором описываются составные части системы, вспомогательные параметры, определяющие конкретную настройку системы. Конфигурационные файлы имеются практически во всех мощных системах. Как правило, это текстовые файлы, которые интерпретируются самой системой.

Tizimning tarkibiy qismlari, tizimning muayyan sozlanishini belgilaydigan yordamchi parametrlar tavsiflanadigan fayl. Konfiguratsion fayllar deyarli barcha kuchli tizimlarda bor. Odatda, bu, tizimning o'zi interpretatsiya qiladigan matnli fayllardir.

Тизимнинг таркибий қисмлари, тизимнинг муайян созланишини белгилайдиган ёрдамчи параметрлар тавсифланадиган файл. Конфигурацион файллар деярли барча кучли тизимларда бор. Одатда, бу, тизимнинг ўзи интерпретация қиладиган матнли файллардир.

### **Конфигурация**

**uz** - konfiguratsiya

конфигурация

**en** - configuration

Состав технической и/или программной системы. Иногда под конфигурацией понимают не только состав, но и топологию системы.

Texnik va/yoki dasturiy tizimning tarkibi. Ba'zan, konfiguratsiya deyilganda nafaqat tizimning tarkibi, balki topologiyasi ham tushuniladi.

Техник ва/ёки дастурий тизимнинг таркиби. Баъзан, конфигурация дейилганда нафақат тизимнинг таркиби, балки топологияси ҳам тушунилади.

### **Концентратор**

**uz** - kontsentrator

концентратор

**en** - hub

1 Активное или пассивное устройство, к которому может быть подключено большое число абонентских линий, станций или других концентраторов. Число выходов у такого устройства обычно существенно меньше, чем входов. В зависимости от области применения функции концентратора могут отличаться от функций традици-

## К

онного концентратора каналов. Так, в сетях локальной связи он выполняет функции многопортового повторителя.

2 Центральная станция. Коммутационное ядро сети, предназначенное для организации радиальных связей, например, в сетях с топологией типа «звезда».

3 Центральный кросс (в структурированных кабельных системах).

1 Ko‘plab abonent liniyalari, stansiyalari yoki boshqa konsentratorlar ulanadigan aktiv yoki passiv qurilma. Bunday qurilmaning chiqish uchlari kirish uchlariga qaraganda ancha kam. Qo‘llash sohasiga bog‘liq ravishda konsentrator funksiyalari an’anaviy kanallar konsentratori funksiyalaridan farq qilishi mumkin. Jumladan, lokal aloqa tarmoqlarida u ko‘p portli takrorlagich funksiyasini bajaradi.

2 Markaziy stansiya. Tarmoqning, «yulduz» topologiyali tarmoqlarida radial bog‘lanishlarni tashkil qilish uchun mo‘ljallangan kommutatsion yadrosi.

3 Markaziy kross (strukturalangan kabelli tizimlarda).

1 Kўплаб абонент линиялари, станциялари ёки бошқа концентраторлар уланадиган актив ёки пассив қурилма. Бундай қурилманинг чиқиш уchlari кириш уchlарига қараганда анча кам. Қўллаш соҳасига боғлиқ равишда концентратор функциялари анъанавий каналлар концентратори функцияларидан фарқ қилиши мумкин. Жумладан, локал алоқа тармоқларида у кўп портли такрорлагич функциясини бажаради.

2 Марказий станция. Тармоқнинг, «юлдуз» топологияли тармоқларида радиал боғланишларни ташкил қилиш учун мўлжалланган коммутацион ядроси.

3 Марказий кросс (структураланган кабелли тизимларда).

### Конъюнкция

**uz** - konyunksiya

конъюнкция

**en** - conjunction

Логическая операция. Конъюнкцией двух высказываний P и Q называется новое высказывание (обозначается P&Q, читается «и P и Q»), которое истинно только тогда, когда высказывания P и Q

## К

истинны, а во всех остальных случаях – ложно.

Мантиқий амал.  $P$  va  $Q$  mulohazalar chin bo'lgandagina chin bo'ladigan, boshqa barcha hollarda yolg'on bo'ladigan yangi mulohaza  $P$  va  $Q$  mulohazalarning konyunksiyasi deb ataladi. ( $P \& Q$  kabi belgilanadi, «ham  $P$  ham  $Q$ » deb o'qiladi).

Мантиқий амал.  $P$  va  $Q$  мулоҳазалар чин бўлгандагина чин бўладиган, бошқа барча ҳолларда ёлғон бўладиган янги мулоҳаза  $P$  va  $Q$  мулоҳазаларнинг конъюнкцияси деб аталади. ( $P \& Q$  каби белгиланади, «хам  $P$  ҳам  $Q$ » деб ўқилади).

### Криптография

uz - kriptografiya

криптография

en - cryptography

1 Дисциплина, охватывающая принципы, средства, и методы преобразования данных для сокрытия их семантического содержания, предотвращения их несанкционированного использования или необнаруживаемой модификации.

2 Наука о методах обеспечения секретности и/или подлинности данных при их передаче по каналам телекоммуникаций или хранении.

3 Принципы, средства и методы преобразования информации к непонятному виду, а также восстановления информации к виду, пригодному для восприятия.

1 Ma'lumotlarning semantik mazmunini yashirish, ulardan ruxsat etilmagan tarzda foydalanish yoki ularning aniqlab bo'lmaydigan o'zgartirilishini oldini olish maqsadida, ma'lumotlarni o'zgartirish prinsiplari, vositalari va metodlarini, qamrab oluvchi fan.

2 Telekommunikatsiyalar kanallari orqali uzatishda yoki saqlashda, ma'lumotlarning maxfiyligi va/yoki haqiqiylikini ta'minlash metodlari haqidagi fan.

3 Axborotni tushunarsiz ko'rinishga keltirish prinsiplari, vositalari va metodlari, shuningdek, uni qabul qilish uchun yaroqli ko'rinishga qayta tiklash.

1 Маълумотларнинг семантик мазмунини яшириш, улардан рухсат этилмаган тарзда фойдаланиш ёки уларнинг аниқлаб бўлмайдиган ўзгартрилишини олдини олиш мақсадида, маълумотларни ўзгартириш принциплари, воситалари ва

## К

методларини, қамраб олувчи фан.

2 Телекоммуникациялар каналлари орқали уза-тишда ёки сақлашда, маълумотларнинг махфийлиги ва/ёки ҳақиқийлигини таъминлаш методлари ҳақидаги фан.

3 Ахборотни тушунарсиз кўринишга келтириш принциплари, воситалари ва методлари, шунингдек, уни қабул қилиш учун яроқли кўринишга қайта тиклаш.

**Кроссплатформенное программное обеспечение**  
**uz** - krossplatformali dasturiy ta'minot

кроссплатформали дастурий таъминот  
**en** - cross-platform software

Программное обеспечение, работающее более чем на одной аппаратной платформе и/или операционной системе. Типичным примером является программное обеспечение, предназначенное для работы в операционных системах Linux и Windows одновременно.

Bittadan ko'p apparat platformada va/yoki operatsion tizimda ishlaydigan dasturiy ta'minot. Bir vaqtda *Linux* hamda *Windows* operatsion tizimlarida ishlash uchun mo'ljallangan dasturiy ta'minot bunga tipik misol bo'la oladi.

Биттадан кўп аппарат платформада ва/ёки операцион тизимда ишлайдиган дастурий таъминот. Бир вақтда *Linux* ҳамда *Windows* операцион тизимларида ишлаш учун мўлжалланган дастурий таъминот бунга типик мисол бўла олади.

**Кросс-система**  
**uz** - kross-tizim  
кросс-тизим  
**en** - cross system

Программное средство (на универсальном компьютере), позволяющее разрабатывать программы для специализированных компьютеров, на которых нет возможности создавать программы и в которые готовая программа «прошивается».

Dasturlar yaratish imkoniyati bo'lmagan va tayyor dastur «tikiladigan» ixtisoslashtirilgan kompyuterlar uchun dasturlar ishlab chiqish imkonini beradigan dasturiy vosita (universal kompyuterdagi).

Дастурлар яратиш имконияти бўлмаган ва тайёр дастур «тикиладиган» ихтисослаштирилган компьютерлар учун дастурлар ишлаб чиқиш имконини берадиган дастурий восита (универсал компьютердаги).

## К

### Курсор

**uz** - kursor, ko'rsatkich  
курсор, кўрсаткич

**en** - cursor

Специальная метка, выводимая на монитор компьютерной системы и отмечающая место, где в данный момент работает пользователь.

Kompyuter tizimi monitoriga chiqariladigan va berilgan onda foydalanuvchi ishlaydigan joyni ko'rsatadigan maxsus belgi.

Компьютер тизими мониторига чиқариладиган ва берилган онда фойдаланувчи ишлайдиган жойни кўрсатадиган махсус белги.

### Кэширование диска

**uz** - diskni keshlash  
дискни кэшлаш

**en** - disk caching

Метод, используемый для повышения производительности файловой системы. Вместо постоянных обращений к диску для выполнения операций чтения и записи, файлы хранят в кэше оперативной памяти. Все операции чтения/записи выполняются со скоростью обращения к памяти, что значительно быстрее, чем обращение к диску.

Fayl tizimining unumdorligini oshirish uchun foydalaniladigan metod. O'qish va yozish operatsiyalarini bajarish uchun diskka muntazam murojaat qilishlar o'rniga, fayllar operativ хотира keshida saqlanadi. Barcha o'qish/yoziш operatsiyalari хотирага murojaat qilish tezligi bilan bajariladi, bu diskka murojaat qilishga qaraganda ancha tez.

Файл тизимининг унумдорлигини ошириш учун фойдаланиладиган метод. Ўқиш ва ёзиш операцияларини бажариш учун дискка мунтазам мурожаат қилишлар ўрнига, файллар оператив хотира кэшида сақланади. Барча ўқиш/ёзиш операциялари хотирага мурожаат қилиш тезлиги билан бажарилади, бу дискка мурожаат қилишга қараганда анча тез.

### Кэш-память

**uz** - kesh-hotira  
кэш-хотира

**en** - memory cache

Память для временного хранения данных. Используется для повышения эффективности работы компьютера. Кэш-память между оперативной памятью и жестким магнитным диском бывает двух типов: аппаратная и программная. Аппаратная кэш-память обычно используется в сетевых серверах, в дисковых адаптерах (контроллерах) и

## К

представляет собой полупроводниковую, энергозависимую, очень быстродействующую память. Программа кэш-память – часть оперативной памяти – обычно используется в настольных системах для повышения эффективности работы с внешней памятью.

Ma'lumotlarni vaqtinchalik saqlash uchun xizmat qiladigan хотира. Kompyuterning ishlash samaradorligini oshirish uchun foydalaniladi. Operativ хотира va qattiq magnit disk o'rtasidagi kesh-xotira ikki turda bo'ladi; apparat va dasturiy kesh-xotira. Apparat kesh-xotiradan odatda, tarmoq serverlarida, diskli adapterlarda (kontrollerlarda) foydalaniladi, u yarimo'tkazgichli, energiyaga bog'liq, juda tez ishlaydigan хотирани o'zida ifodalaydi. Dasturiy kesh-xotira operativ хотиранинг bir qismidir, odatda, stol tizimlarida tashqi хотира bilan ishlash samaradorligini oshirish uchun foydalaniladi.

Маълумотларни вақтинчалик сақлаш учун хизмат қиладиган хотира. Компьютернинг ишлаш самардорлигини ошириш учун фойдаланилади. Оператив хотира ва қаттиқ магнит диск ўртасидаги кэш-хотира икки турда бўлади; аппарат ва дастурий кэш-хотира. Аппарат кэш-хотирадан одатда, тармоқ серверларида, диски адаптерларда (контроллерларда) фойдаланилади, у яримўтказгичли, энергияга боғлиқ, жуда тез ишлайдиган хотирани ўзида ифодалайди. Дастурий кэш-хотира оператив хотиранинг бир қисмидир, одатда, стол тизимларида ташқи хотира билан ишлаш самардорлигини ошириш учун фойдаланилади.

## Л

### **Лазерный диск**

**uz** - lazer disk

лазер диск

**en** - laser disk

Диск, используемый для записи и воспроизведения музыки, а также видеoinформации. Запись производится при помощи лазерного луча, который выжигает на поверхности металла маленькие углубления в соответствии с цифровым сигналом, содержащим информацию.

## Л

Musiqqa, shuningdek, video ma'lumotlarni yozish va o'qish uchun ishlatiladigan disk. Yozish jarayoni lazer nuri yordamida ma'lumot saqlovchi raqamli signalni metall yuzaga kichik o'yiqlarni kuydirish orqali amalga oshiriladi.

Муסיқа, шунингдек, видео маълумотларни ёзиш ва ўқиш учун ишлатиладиган диск. Ёзиш жараёни лазер нури ёрдамида маълумот сақловчи рақамли сигнални металл юзага кичик ўйиқларни куйдириш орқали амалга оширилади.

### Лексема

**uz** - leksema

лексема

**en** - lexical element

Последовательность символов, элемент языка программирования, имеет смысл для транслятора. Любая программа – это последовательность лексем.

Simvollar ketma-ketligi, dasturlash tilining elementi, translyator uchun ma'noga ega. Har qanday dastur bu, leksemalar ketma-ketligidir.

Символлар кетма-кетлиги, дастурлаш тилининг элементи, транслятор учун маънога эга. Ҳар қандай дастур бу, лексемалар кетма-кетлигидир.

### Лексикон

**uz** - leksikon

лексикон

**en** - lexicon

Один из текстовых редакторов для персональных компьютеров, входит в интегрированную систему Мастер. Многооконный, имеет удобный интерфейс с пользователем, проверяет орфографию и делает правильные переносы слов.

Shaxsiy kompyuterlar uchun mo'ljallangan matn redaktorlaridan biri, integratsiyalashgan master tizimiga kiradi. Ko'p oynali, foydalanuvchi bilan qulay interfeysga ega, orfografiyani tekshiradi, so'zlarning to'g'ri ko'chirilishini bajaradi.

Шахсий компьютерлар учун мўлжалланган матн редакторларидан бири, интеграциялашган мастер тизимига киради. Кўп ойнали, фойдаланувчи билан қулай интерфейсга эга, орфографияни текширади, сўзларнинг тўғри кўчирилишини бажаради.

### Лексический анализ

Проверка правильности написания слов (лексем)

## Л

**uz** - leksik tahlil  
лексик таҳлил  
**en** - lexical analysis

при программировании. Лексический анализ программы осуществляется при ее трансляции.

Dasturlashda soʻzlar (leksemalar) yozilishining toʻgʻriligini tekshirish. Dasturning leksik tahlili dasturni translyatsiya qilish paytida amalga oshiriladi.

Дастурлашда сўзлар (лексемалар) ёзилишининг тўғрилигини текшириш. Дастурнинг лексик таҳлили дастурни трансляция қилиш пайтида амалга оширилади.

**Линейный алгоритм**  
**uz** - chiziqli algoritm  
чизиқли алгоритм  
**en** - serial algorithm

Простейший алгоритм, все шаги которого выполняются однократно и строго последовательно.

Barcha qadamlari bir marta va qatʻiy ravishda ketma-ket bajariladigan sodda algoritm.

Барча қадамлари бир марта ва қатъий равишда кетма-кет бажариладиган содда алгоритм.

**Листинг**  
**uz** - listing  
листинг  
**en** - listing

Текст программы или данные, распечатанные на принтере или выведенные на экран дисплея.

Dastur matni yoki printerda bosilgan yoki display ekraniga chiqarilgan maʼlumotlar.

Дастур матни ёки принтерда босилган ёки дисплей экранига чиқарилган маълумотлар.

**Литерал**  
**uz** - literal  
литерал  
**en** - literal

Слово или символ в языке программирования, однозначно определяющие свое собственное значение в качестве константы, но не являющиеся обозначением переменной константы или другой конструкции.

Dasturlash tilidagi oʻzining xususiy qiymatini konstanta sifatida qatʻiy belgilaydigan, lekin oʻzgaruvchi, konstanta yoki boshqa bir konstruksiyaning belgisi hisoblanmaydigan simvol yoki soʻz.

Дастурлаш тилидаги ўзининг хусусий қийматини константа сифатида қатъий белгилайдиган, лекин ўзгарувчи, константа ёки бошқа бир конструкци-янинг белгиси ҳисобланмайдиган символ ёки сўз.

## Л

### Литерная величина

**uz** - liter kattalik

литер катталик

**en** - lettered value

Величина, воспринимаемая как текстовая константа. Можно определить литерную величину как литерал без чисел. Другие названия: символная, строковая величины, цепочка. В большинстве языков программирования литерная величина заключается в апострофы – «123», «*abcd*».

Matn konstantasi sifatida qabul qilinadigan kattalik. Liter kattalikni sonlarsiz literal sifatida belgilash mumkin. Boshqa nomlari: simvolli, satri kattalik, zanjir. Ko'pchilik dasturlash tillarida liter kattalik apostroflarga olinadi – «123», «*abcd*».

Matn konstantasi sifatida qabul qilinadigan kattalik. Liter kattalikni sonlarsiz literal sifatida belgilash mumkin. Boshqa nomlari: simvolli, satri kattalik, zanjir. Ko'pchilik dasturlash tillarida liter kattalik apostroflarga olinadi – «123», «*abcd*».

### Логин

**uz** - login

ЛОГИН

**en** - login

Процедура идентификации пользователя при вхождении в компьютерную систему (сеть).

Kompyuter tizimiga (tarmoqqa) kirishda foydalanuvchini identifikatsiya qilish jarayoni, protsedurasi.

Компьютер тизимига (тармоққа) киришда фойдаланувчини идентификация қилиш жараёни, процедураси.

### Логическая операция

**uz** - mantiqiy amal

мантиқий амал

**en** - logic operation

Действия над логическими высказываниями. Во многих языках программирования определены двухместные операции: логическое сложение (OR), логическое умножение (AND), импликация (->), исключающее «или»; одноместная операция – логическое отрицание (NOT).

Mantiqiy mulohazalar ustidagi amallar. Ko'pgina dasturlash tillarida ikki o'rinli amallar: mantiqiy qo'shish (OR), mantiqiy ko'paytirish (AND), implikasiya (->), istisno qiluvchi «yoki»; bir o'rinli amal – mantiqiy inkor (NOT) belgilanadi.

Мантиқий мулоҳазалар устидаги амаллар. Кўпгина дастурлаш тилларида икки ўринли амаллар: мантиқий қўшиш (OR), мантиқий

## Л

кўпайтириш (AND), импликация (-»), истисно қилувчи «ёки»; бир ўринли амал – мантиқий инкор (NOT) белгиланади.

### Логический язык программирования

**uz** - mantiqiy dasturlash tili  
мантиқий дастурлаш тили  
**en** - logical programming language

Язык программирования, относящийся к декларативным; построен на задании отношений между входными данными и правилами логического вывода.

Deklarativ tillarga tegishli bo'lgan dasturlash tili; mantiqiy xulosa qoidalari va kirish ma'lumotlari o'rtasidagi munosabatlarni belgilash asosida qurilgan. Декларатив тилларга тегишли бўлган дастурлаш тили; мантиқий хулоса қоидалари ва кириш маълумотлари ўртасидаги муносабатларни белгилаш асосида қурилган.

### Логическое выражение

**uz** - mantiqiy ifoda  
мантиқий ифода  
**en** - logical expressions

Выражение, в котором операнды – объекты, над которыми выполняются логические операции. Каждый язык программирования задает свои правила образования выражений и свои обозначения операций (синтаксис). Результат выполнения логического выражения – одно из логических значений – либо ИСТИНА, либо ЛОЖЬ.

Ustida mantiqiy amallar bajariladigan obyektlar operandlar bo'lgan ifoda. Har bir dasturlash tili o'zining ifodalar tuzish qoidalarini va operatsiyalarni belgilashlarni belgilaydi (sintaksis). Mantiqiy ifodaning bajarilish natijasi – ChIN yoki YoLG'ON mantiqiy qiymatlardan biri.

Устида мантиқий амаллар бажариладиган объектлар операндлар бўлган ифода. Ҳар бир дастурлаш тили ўзининг ифодалар тузиш қоидаларини ва операцияларни белгилашларни белгилайди (синтаксис). Мантиқий ифоданинг бажарилиш натижаси – ЧИН ёки ЁЛҒОН мантиқий қийматлардан бири.

### Логическое отрицание

**uz** - mantiqiy inkor  
мантиқий инкор  
**en** - logic negation

Логическая операция. В некоторых языках программирования обозначается как NOT и записывается NOT  $p$ , где  $p$  – логическое выражение.

Mantiqiy amal. Ba'zi dasturlash tillarida NOT kabi belgilanadi va NOT  $p$  ko'rinishida yoziladi, bu yerda

## Л

$p$  – mantiqiy ifoda.

Мантикий амал. Баъзи дастурлаш тилларида NOT каби белгиланади ва NOT  $p$  кўринишида ёзилади, бу ерда  $p$  – мантикий ифода.

### Логическое сложение

**uz** - mantiqiy qo'shish  
мантикий кўшиш

**en** - logical addition

Логическая операция. В некоторых языках программирования обозначается как OR и записывается  $p$  OR  $q$ , где  $p$  и  $q$  – логические выражения. В некоторых источниках называется «логическое ИЛИ». В математической логике называется дизъюнкцией и обозначается знаком  $\vee$ .

Mantiqiy amal. Ba'zi dasturlash tillarida OR kabi belgilanadi va  $p$  OR  $q$  ko'rinishida yoziladi, bu yerda  $p$  va  $q$  mantiqiy ifodalardir. Ba'zi manbalarda «mantiqiy YoKI» deb ataladi. Matematik mantiqda «dizyunksiya» deb ataladi va  $\vee$  belgisi bilan belgilanadi.

Мантикий амал. Баъзи дастурлаш тилларида OR каби белгиланади ва  $p$  OR  $q$  кўринишида ёзилади, бу ерда  $p$  ва  $q$  мантикий ифодалардир. Баъзи манбаларда «мантикий ЁКИ» деб аталади. Математик мантиқда «дизъюнкция» деб аталади ва  $\vee$  белгиси билан белгиланади.

### Логическое умножение

**uz** - mantiqiy ko'paytirish  
мантикий кўпайтириш

**en** - logical multiplication

Логическая операция. В некоторых языках программирования обозначается как AND и записывается  $p$  AND  $q$ , где  $p$  и  $q$  – логические выражения. В некоторых источниках называется «логическое И». В математической логике называется конъюнкцией и обозначается  $\&$  (читается – амперсанд) либо знаком  $\wedge$ .

Mantiqiy amal. Ba'zi dasturlash tillarida AND kabi belgilanadi va  $p$  AND  $q$  ko'rinishida yoziladi, bu yerda  $p$  va  $q$  – mantiqiy ifodalar. Ba'zi manbalarda «mantiqiy VA» deb ataladi. Matematik mantiqda konyunksiya deb ataladi va  $\&$  (ampersand deb o'qiladi) yoki  $\wedge$  belgi bilan belgilanadi.

Мантикий амал. Баъзи дастурлаш тилларида AND каби белгиланади ва  $p$  AND  $q$  кўринишида ёзилади, бу ерда  $p$  ва  $q$  – мантикий ифодалар.

## Л

### Логическое устройство

**uz** - mantiqiy qurilma  
мантикий қурилма  
**en** - logical unit

Баъзи манбаларда «мантикий ВА» деб аталади. Математик мантиқда конъюнкция деб аталади ва & (амперсанд деб ўқилади) ёки Л белги билан белгиланади.

Устройство, созданное программным способом, но функционально работающее как физическое. Одному логическому устройству может соответствовать несколько физических, и наоборот. Например, один физический жесткий диск может быть поделен на несколько логических дисков.

Dasturiy yoʻl bilan yaratilgan, biroq funksional jihatdan fizik qurilma kabi ishlaydigan qurilma. Bitta mantiqiy qurilmaga bir nechta fizik qurilma, va aksincha, toʻgʻri kelishi mumkin. Masalan, bitta fizik qattiq disk bir qancha mantiqiy disklarga boʻlinishi mumkin.

Дастурий йўл билан яратилган, бироқ функционал жиҳатдан физик қурилма каби ишлайдиган қурилма. Битта мантикий қурилмага бир нечта физик қурилма, ва аксинча, тўғри келиши мумкин. Масалан, битта физик қаттиқ диск бир қанча мантикий дискларга бўлиниши мумкин.

### Лого

**uz** - logo  
лого  
**en** - logo

Язык программирования высокого уровня, специальная версия языка LISP. Очень простой язык, легко расширяемый, используется в обучении детей младшего возраста. Разработан С. Пейпертом в 1980 году, в Массачусетском технологическом институте (США).

Yuqori darajadagi dasturlash tili, *LISP* tilining maxsus versiyasi. Juda sodda til, oson kengayadi, kichik yoshdagi bolalarni oʻrgatishda foydalaniladi. S.Paypert tomonidan 1980 yilda Massachuset texnologiya instituti (AQSh)da ishlab chiqilgan.

Юқори даражадаги дастурлаш тили, *LISP* тилининг махсус версияси. Жуда содда тил, осон кенгайди, кичик ёшдаги болаларни ўргатишда фойдаланилади. С.Пайперт томонидан 1980 йилда

## Л

Массачусет технология институти (АҚШ)да ишлаб чиқилган.

### Локализация

**uz** - mahalliyashtirish

маҳаллийлаштириш

**en** - localization

Переработка существующего программного продукта с целью использования его в странах с другим языком. Предусматривает перевод документации и пользовательского интерфейса (меню, сообщений, подсказок и помощи), изменение методик расчетов и некоторую переработку программ. Иногда в локализацию включают и консультационную поддержку.

Mavjud dasturiy mahsulotni tili boshqa mamlakatlarda foydalanish maqsadida qayta ishlash. Hujjatlar va foydalanuvchi interfeysi (menyu, xabarlar, aytib turishlar va yordam) ko'chirilishini, hisoblashlar metodikalari o'zgartirilishini va dasturlar birmuncha qayta ishlanishini ko'zda tutadi. Ba'zida mahalliyashtirishga maslahat ta'minoti ham qo'shiladi.

Мавжуд дастурий маҳсулотни тили бошқа мамлакатларда фойдаланиш мақсадида қайта ишлаш. Хужжатлар ва фойдаланувчи интерфеysi (меню, хабарлар, айтиб туришлар ва ёрдам) кўчирилишини, ҳисоблашлар методикалари ўзгартирилишини ва дастурлар бирмунча қайта ишланишини кўзда тутати. Баъзида маҳаллийлаштиришга маслаҳат таъминоти ҳам қўшилади.

### Локальная переменная

**uz** - lokal o'zgaruvchi

локал ўзгарувчи

**en** - local variable

Переменная в языках программирования; используется только в своем блоке или процедуре, в отличие от глобальной переменной, которая может использоваться во всей программе.

Dasturlash tillaridagi o'zgaruvchi; butun dastur bo'yicha foydalanilishi mumkin bo'lgan global o'zgaruvchidan farqli ravishda, faqat o'zining blokida yoki protsedurasida foydalanilishi mumkin.

Дастурлаш тилларидаги ўзгарувчи; бутун дастур бўйича фойдаланилиши мумкин бўлган глобал ўзгарувчидан фарқли равишда, фақат ўзининг блокада ёки процедурасида фойдаланилиши мумкин.

## Л

### Лэптоп

**uz** - lepton

лэптоп

**en** - laptop

Переносной персональный компьютер, размер которого обычно сопоставим с форматом листа А4 или меньше, а вес находится в пределах нескольких килограммов.

O‘lchami odatda A4 formatdagi varaq o‘lchami bilan mos keluvchi, og‘irligi bir necha kilogramm atrofida bo‘lgan ko‘chma shaxsiy kompyuter.

Ўлчами одатда А4 форматдаги варақ ўлчами билан мос келувчи, оғирлиги бир неча килограмм атрофида бўлган кўчма шахсий компьютер.

## М

### Магнитооптический

#### накопитель

**uz** - magnitooptik to‘plagich

магнитооптик тўплагич

**en** - magneto-optical drive

Накопитель для работы с магнитооптическими дисками. Магнитооптический диск изготавливается из алюминиевого сплава и заключен в пластиковую оболочку. Магнитооптические диски (и соответственно дисководы) выпускаются двух размеров: 3,5 дюйма содержит 500 Mbyte данных; 5,25 дюйма содержит 2,3 Gbyte данных. Время доступа к данным составляет около 50 ms.

Magnitooptik disklar bilan ishlash uchun mo‘ljallangan to‘plagich. Magnitooptik disk alyumin qotishmadan tayyorlanadi va plastik qobiqqa joylangan. Magnitooptik disklar (mos ravishda, diskovodlar) ikki o‘lchamda chiqariladi: 3,5 dyuymli disk 500 Mbyte ma’lumotni ichiga oladi; 5,25 dyuymli disk 2,3 Gbyte ma’lumotni ichiga oladi. Ma’lumotlardan erkin foydalanish vaqti 50 ms ga yaqin.

Магнитооптик дисклар билан ишлаш учун мўлжалланган тўплагич. Магнитооптик диск алюмин қотишмадан тайёрланади ва пластик қобикқа жойланган. Магнитооптик дисклар (мос равишда, дисководлар) икки ўлчамда чиқарилади: 3,5 дюймли диск 500 Mbyte маълумотни ичига олади; 5,25 дюймли диск 2, 3 Gbyte маълумотни ичига олади. Маълумотлардан эркин фойдаланиш вақти 50 ms га яқин.

### Макрокоманда

Команда в некотором языке, создаваемая пользо-

## М

**uz** - makrokomanda  
макрокоманда  
**en** - macroinstruction

вателем из известных стандартных команд. Для их создания необходимо иметь соответствующее средство – макроязык.

Foydalanuvchi tomonidan ma'lum standart komandalardan tuziladigan, qandaydir tildagi komanda. Bu komandalarni tuzish uchun tegishli vosita – makrotil bo'lishi kerak.

Фойдаланувчи томонидан маълум стандарт командалардан тузиладиган, қандайдир тилдаги команда. Бу командаларни тузиш учун тегишли восита – макротил бўлиши керак.

### Макропрограммирование

**uz** - makrodasturlash  
макродастурлаш  
**en** - macroprogramming

Процесс написания программ, с использованием макрокоманд.

Dasturlarni makrokomandalardan foydalanib yozish jarayoni.

Дастурларни макрокомандалардан фойдаланиб ёзиш жараёни.

### Макрос

**uz** - makros  
макрос  
**en** - macro

Последовательность команд и/или нажатий клавиш, записанная макрорегистратором под уникальным именем.

Komandalar ketma-ketligi va/yoki yagona nomda makroregistratorida yozilgan klavishlarni bosish ketma-ketligi.

Командалар кетма-кетлиги ва/ёки ягона номда макрорегистраторда ёзилган клавишларни босиш кетма-кетлиги.

### Макроязык

**uz** - makrotil  
макротил  
**en** - macro language

Программное средство, позволяющее пользователю упростить свою работу за счет возможности объединять исходные команды или вместо длинного, часто повторяющегося текста вводить его условный эквивалент. Макроязык состоит из создаваемых пользователем макроопределений (макрокоманд, макроподстановок) и программ, переводящих их в результирующие тексты (в том числе и в программы).

## М

Foydalanuvchiga boshlang'ich komandalarni birlashtirish mumkinligi hisobiga o'z ishini osonlashtirish yoki uzun, tez-tez takrorlanadigan matn o'rniga uning shartli ekvivalentini kiritish imkonini beradigan dasturiy vosita. Makrotil foydalanuvchi tomonidan yaratiladigan makrotavsiflardan (makrokomandalardan, makroalmashtirishlardan) va ularni natijalovchi matnlarga (shu jumladan, dasturlarga) o'tkazadigan dasturlardan iborat.

Фойдаланувчига бошланғич командаларни бирлаштириш мумкинлиги ҳисобига ўз ишини оsonлаштириш ёки узун, тез-тез такrorланадиган матн ўрнига унинг шартли эквивалентини киритиш имконини берадиган дастурий восита. Макротил фойдаланувчи томонидан яратиладиган макротавсифлардан (макрокомандалардан, макроалмасштиришлардан) ва уларни натижаловчи матнларга (шу жумладан, дастурларга) ўтказадиган дастурлардан иборат.

### Манипулятор

**uz** - manipulyator  
манипулятор

**en** - manipulator

Устройство, позволяющее управлять состоянием компьютера, в том числе и вводить данные с помощью рук. К манипуляторам относятся: джойстик, мышь, трекбол, сенсорная панель, перо, трекпоинт, J-клавиша. Самый распространенный манипулятор – клавиатура.

Kompyuter holatini boshqarish, shu jumladan, qo'llar yordamida ma'lumotlarni kiritish imkonini beradigan qurilma. Manipulyatorga joyстик, sichqoncha, trekbol, sensorli panel, pero, trekpoint, J-klavish kiradi. Eng keng tarqalgan manipulyator – klaviatura.

Компьютер ҳолатини бошқариш, шу жумладан, қўллар ёрдамида маълумотларни киритиш имконини берадиган қурилма. Манипуляторга жойстик, сичқонча, трекбол, сенсорли панель, перо, трекпоинт, J-клавиш киради. Энг кенг тарқалган манипулятор – клавиатура.

### Маркер

Признак начала или конца сообщения при его пе-

## М

**uz** - marker  
маркер  
**en** - mark

редаче по каналам связи. Признак конца некоторой совокупности данных (строки, файла).

Aloqa kanallari orqali uzatiladigan xabarning boshlanish yoki tugallanish belgisi. Qandaydir ma'lumotlar (satr, fayl) yig'indisi tugallanishining belgisi.

Алоқа каналлари орқали узатиладиган хабарнинг бошланиш ёки тугалланиш белгиси. Қандайдир маълумотлар (сатр, файл) йиғиндиси тугалланишининг белгиси.

### Маршрутизатор

**uz** - marshrutizator  
маршрутизатор  
**en** - router

Электронное устройство, иногда с программным блоком; определяет оптимальный путь (маршрут) пакета сообщений в компьютерных сетях.

Dasturiy blokli elektron qurilma; kompyuter tarmoqlarda xabarlar paketining optimal yo'li (marshruti)ni belgilaydi.

Дастурий блокли электрон қурилма; компьютер тармоқларда хабарлар пакетининг оптимал йўли (маршрути)ни белгилайди.

### Массив данных

**uz** - ma'lumotlar massivi  
маълумотлар массиви  
**en** - arrayed data

Совокупность однотипных данных, каждое из которых идентифицируется с именем массива и индексом (индексами). В зависимости от количества индексов массивы бывают одномерные (линейные), двухмерные и т.д.

Har biri massiv nomi va indeks(lar) bilan identifikatsiya qilinadigan bir turdagi ma'lumotlar yig'indisi. Indeks(lar) soniga bog'liq ravishda, massivlar bir o'lchamli (chiziqli) ikki o'lchamli va h.k. bo'ladi.

Ҳар бири массив номи ва индекс(лар) билан идентификация қилинадиган бир турдаги маълумотлар йиғиндиси. Индекслар сонига боғлиқ равишда, массивлар бир ўлчамли (чизиқли) икки ўлчамли ва ҳ.к. бўлади.

### Массив дисков RAID

**uz** - RAID disklar massivi

Набор жестких дисководов, конструктивно объединенных в один блок с общим интеллектуаль-

## М

RAID дисклар массиви  
en - RAID disk array

ным контроллером. Как правило, используется в серверах для обеспечения надежности за счет дублирования данных. Существуют восемь уровней (от 0 до 7) реализаций RAID, отличающихся друг от друга степенью избыточности, методом доступа. Стандарт седьмого уровня поддерживается собственной операционной системой и обладает высокой производительностью. От английского. Redundant Arrays of Inexpensive Disks – массив недорогих дисков с избыточностью.

Konstruktiv jihatdan umumiy intellektual kontrollerli bitta blokka birlashtirilgan qattiq diskovodlar to'plami. Odatda, serverlarda, ma'lumotlarning takrorlanishi hisobiga ishonchlilikni oshirish maqsadida foydalaniladi. RAID ni amalga oshirishning, bir-biridan ortiqchalik darajasi, foydalanish metodi bilan farq qiladigan sakkiz darajasi (0 dan 7 gacha bo'lgan) mavjud. Yettinchi daraja standarti operatsion tizimning o'zi tomonidan ta'minlanadi va yuqori unumdorlikka ega. Inglizcha *Redundant Arrays of Inexpensive Disks* – ortiqchalikka ega uncha qimmat bo'lmagan disklar massivi so'zlaridan olingan.

Конструктив жихатдан умумий интеллектуал контроллерли битта блокка бирлаштирилган қаттиқ дисководлар тўплами. Одатда, серверларда, маълумотларнинг такрорланиши ҳисобига ишончлилиқни ошириш мақсадида фойдаланилади. RAIDни амалга оширишнинг, бир-биридан ортиқчалиқ даражаси, фойдаланиш методи билан фарқ қиладиган саккиз даражаси (0 дан 7 гача бўлган) мавжуд. Еттинчи даража стандарти операцион тизимнинг ўзи томонидан таъминланади ва юқори унумдорликка эга. Инглизча *Redundant Arrays of Inexpensive Disks* – ортиқчалиқка эга унча қиммат бўлмаган дисклар массиви сўзларидан олинган.

**Массив недорогих дисков с избыточностью**  
uz - ortiqchalik bo'lgan arzon disklar massivi

Технология, обеспечивающая повышение надёжности хранения данных (RAID 1, RAID 5) или повышение скорости чтения/записи информации (RAID 0). Состоит из использования нескольких

## М

ортиқчалик бўлган арзон  
дисклар массиви  
**en** - redundant array of  
independent disks (RAID)

дисков, объединенных в единый массив.

Ma'lumotlarni saqlash ishonchligini ta'minlovchi (*RAID 1, RAID 5*) tizimi yoki ma'lumotlarni o'qish-yozish tezligini oshiruvchi (*RAID 0*) texnologiya. Bitta massivga birlashtirilgan bir qancha disklardan foydalanishni ifodalaydi.

Маълумотларни сақлаш ишончилигини таъминловчи (*RAID 1, RAID 5*) тизими ёки маълумотларни ўқиш-ёзиш тезлигини оширувчи (*RAID 0*) технология. Битта массивга бирлаштирилган бир қанча дисклардан фойдаланишни ифодалайди.

**Мастер**  
**uz** - master  
мастер  
**en** - master

Функция в современных системах программирования и управления данными, предоставляет пользователю набор соответствующих стандартных заготовок. Устройство (например, дисковод) или блок, выполняющие главенствующую роль в какой-либо системе.

Zamonaviy dasturlash va ma'lumotlarni boshqarish tizimlaridagi funktsiya. Foydalanuvchiga tegishli standart ishlanmalar to'plamini taqdim etadi. Qandaydir tizimda asosiy rolni bajaradigan qurilma (masalan, diskovod) yoki blok.

Замонавий дастурлаш ва маълумотларни бошқариш тизимларидаги функция. Фойдаланувчига тегишли стандарт ишланмалар тўпламини тақдим этади. Қандайдир тизимда асосий ролни бажарадиган қурилма (масалан, дисковод) ёки блок.

**Масштабируемость**  
**uz** - ko'lamlilik  
кўламлилиқ  
**en** - scalability

Свойство системы или ее отдельных частей, характеризующее возможность системы приспособиться к уменьшению или увеличению ее отдельных параметров. Например, операционная система Windows 95 имеет масштабируемый пользовательский интерфейс, обеспечивающий одинаковый внешний вид при использовании дисплеев разных размеров.

Tizim yoki uning alohida qismlarining, tizimning o'zining alohida parametrlari kamayishiga yoki oshishiga moslasha olish imkoniyatini tavsiflaydigan

## М

xossasi. Masalan, *Windows 95* operatsion tizim turli o'lchamdagi displeylardan foydalanilganda bir xil tashqi ko'rinishni ta'minlaydigan keng ko'lamlanadigan foydalanuvchi interfeysiga ega.

Тизим ёки унинг алоҳида қисмларининг, тизимнинг ўзининг алоҳида параметрлари камайишига ёки ошишига мослаша олиш имкониятини тавсифлайдиган хоссаси. Масалан, *Windows 95* операцион тизим турли ўлчамдаги дисплейлардан фойдаланилганда бир хил ташқи кўринишни таъминлайдиган кенг кўламланадиган фойдаланувчи интерфейсига эга.

### **Математический сопроцессор**

**uz** - matematik soprotsessor

математик сопроцессор

**en** - mathematical coprocessor

Дополнительная интегральная схема к главному центральному процессору, быстрее выполняющая команды, работающие с числами, представленными в форме с плавающей точкой (запятой). За счет использования сопроцессора скорость работы персонального компьютера увеличивается в 4-20 раз. Этот выигрыш получается не только при решении вычислительных задач, но и при работе с графикой. При работе с текстами сопроцессор не используется.

Asosiy markaziy protsessorga qo'shimcha integral sxema. Siljiydigan nuqta (vergul) shaklida taqdim etilgan sonlar bilan ishlaydigan komandalarni tez bajaradi. Soprotsessordan foydalanish hisobiga shaxsiy kompyuterning ish tezligi 4-20 marta oshadi. Bunday yutuqqa nafaqat hisoblashga oid masalalarni hal qilishda, balki grafika bilan ishlashda ham erishiladi. Matnlar bilan ishlashda soprotsessordan foydalanilmaydi.

Асосий марказий процессорга қўшимча интеграл схема. Силжийдиган нуқта (вергул) шаклида тақдим этилган сонлар билан ишлайдиган командаларни тез бажаради. Сопроцессордан фойдаланиш ҳисобига шахсий компьютернинг иш тезлиги 4-20 марта ошади. Бундай ютуққа нафақат ҳисоблашга оид масалаларни ҳал қилишда, балки графика билан ишлашда ҳам эришилади. Матнлар билан ишлашда сопроцессордан фойда-

## М

ланилмайди.

### **Матрица**

**uz** - matritsa

матрица

**en** - matrix

Двухмерный массив данных. Таблица, данные, организованные определенным способом.

Ikki o'lchamli ma'lumotlar massivi. Ma'lumotlari ma'lum bir usul bilan tashkil qilingan jadval.

Ikki ўлчамли маълумотлар массиви. Маълумотлари маълум бир усул билан ташкил қилинган жадвал.

### **Машина Тьюринга**

**uz** - Turing mashinasi

Тьюринг машинаси

**en** - Turing machine

Математическое построение, предназначенное для уточнения понятия алгоритма. Используется в теории алгоритмов.

Algoritm tushunchasini aniqlantirish uchun mo'ljallangan matematik tuzilish. Algoritmilar nazariyasida foydalaniladi.

Алгоритм тушунчасини аниқлантириш учун мўлжалланган математик тузилиш. Алгоритмлар назариясида фойдаланилади.

### **Машинные коды**

**uz** - mashina kodlari

машина кодлари

**en** - machine codes

8-,16- или 32-битное число, которых являются инструкциями или командами для компьютерной микросхемы.

Kompyuter mikrosxemasi uchun instruksiyalar yoki komandalar hisoblanadigan 8, 16 yoki 32 bitli sonlar.

Компьютер микросхемаси учун инструкциялар ёки командалар ҳисобланадиган 8, 16 ёки 32 битли сонлар.

### **Машинный язык**

**uz** - mashina tili

машина тили

**en** - machine language

Язык, конструкции которого интерпретируются непосредственно аппаратурой. Именно в этот язык переводятся (транслируются) в конце концов программы, написанные на языках высокого уровня (Pascal, Basic и пр.).

Konstruksiyalari bevosita apparatura tomonidan talqin qilinadigan til. Aynan shu tilga yuqori daraja tillarida (*Pascal*, *Basic*) yozilgan dasturlar pirovardida o'tkaziladi (translyatsiya qilinadi).

## М

Конструкциялари бевосита аппаратура томонидан талқин қилинадиган тил. Айнан шу тилга юқори даража тилларида (Paskal, Basik) ёзилган дастурлар пировардида ўтказилади (трансляция қилинади).

### Мегабайт (Mbyte)

**uz** - megabayt (Mbyte)

мегабайт (Mbyte)

**en** - Mbyte

Единица измерения количества данных или объема памяти, равная  $2^{20} = 1048576$  byte.

Xotira hajmini yoki ma'lumotlar miqdorini o'lchash birligi.  $2^{20} = 1048576$  byte ga teng.

Хотира ҳажмини ёки маълумотлар миқдорини ўлчаш бирлиги.  $2^{20} = 1048576$  byte га тенг.

### Меню

**uz** - menyu

меню

**en** - menu

Список команд или вариантов ответа, выводимый программой на экран. Выбор из меню производится курсором мыши, нажатием выделенной в пункте меню буквы либо перемещением курсора меню. Меню могут быть вложенным и различаются по способу организации и представления на экране.

Dastur ekranga chiqaradigan komandalar yoki javoblar ro'yxati. Menyuda tanlash sichqoncha kursori bilan, unda belgilangan harfni klaviaturadan bosib yoki kursorni harakatlantirish yordamida amalga oshiriladi. Menyular ekranga kiritilgan bo'lishi mumkin va tashkil qilish usuli bo'yicha hamda ekranda ko'rinishi bo'yicha farqlanadi.

Дастур экранга чиқарадиган командалар ёки жавоблар рўйхати. Менюда танлаш сичқонча курсори билан, унда белгиланган харфни клавиатурадан босиб ёки курсорни ҳаракатлантириш ёрдамида амалга оширилади. Менюлар экранга киритилган бўлиши мумкин ва ташкил қилиш усули бўйича ҳамда экранда кўриниши бўйича фарқланади.

### Метасимволы

**uz** - metasimvollar

метасимволлар

**en** - metacharacters

Символы \* и ?, используемые для создания масок имен файлов. Символ «?» соответствует любому одиночному символу, а символ «\*» соответствует нулю или большому количеству символов.

## M

Fayllar nomlarining maskalarini yaratish uchun foydalaniladigan \* va ? simvollari. «?» simvoli har qanday yakka simvolga to‘g‘ri keladi, «\*» simvoli esa, nolga yoki simvollarning katta soniga to‘g‘ri keladi.

Файллар номларининг маскаларини яратиш учун фойдаланиладиган \* ва ? символлари. «?» символи ҳар қандай якка символга тўғри келади, «\*» символи эса, нолга ёки символларнинг катта сонига тўғри келади.

### Метафайл

**uz** - metafayl  
    метафайл  
**en** - metafile

Обычный файл, содержащий записи, описывающие графические элементы в виде графических команд с соответствующими параметрами. Метафайл представляется в двоичном коде.

Grafik elementlar tegishli parametrlarga ega grafik komandalar ko‘rinishida tavsiflanadigan yozuvlarni ichiga olgan oddiy fayl. Metafayl ikkilik kodda taqdim etiladi.

График элементлар тегишли параметрларга эга график командалар кўринишида тавсифланадиган ёзувларни ичига олган оддий файл. Метафайл иккилик кодда тақдим этилади.

### Метод

**uz** - metod  
    метод  
**en** - method

Способ (механизм) решения некоторой задачи. Понятие объективно-ориентированного программирования. Действия в виде процедуры, которые выполняет объект.

Qandaydir vazifani hal qilish usuli (mexanizmi). Obyektga yo‘naltirilgan dasturlash tushunchasi. Obyekt bajaradigan protseduralar ko‘rinishidagi ishlar.

Қандайдир вазифани ҳал қилиш усули (механизми). Объектга йўналтирилган дастурлаш тushunchasi. Объект бажарадиган процедуралар кўринишидаги ишлар.

### Метод доступа

Метод организации хранения и обмена данных в

## М

**uz** - erkin foydalanish  
metodi  
эркин фойдаланиш  
методи  
**en** - access method

устройствах памяти, файлах, базах данных, сетях. Метод доступа бывает: прямой, последовательный, удаленный.

Xotira qurilmalarida, fayllarda, ma'lumotlar bazalarida, tarmoqlarda ma'lumotlar saqlanishini va almashinuvini tashkil qilish metodi. To'g'ridan-to'g'ri, ketma-ket masofadan erkin foydalanish metodi bor.

Хотира қурилмаларида, файлларда, маълумотлар базаларида, тармоқларда маълумотлар сақланишини ва алмашинувини ташкил қилиш методи. Тўғридан-тўғри, кетма-кет масофадан эркин фойдаланиш методи бор.

**Микропроцессор**  
**uz** - mikroprotsessor  
микропроцессор  
**en** - microprocessor

Устройство, осуществляющее обработку данных и управляющее этим процессом, выполненное в виде одной или нескольких больших интегральных схем. Один из основных компонентов микрокомпьютерных систем.

Ma'lumotlar qayta ishlanishini va bu jarayon boshqarilishini amalga oshiradigan, bitta yoki bir nechta katta integral sxema asosida qilingan qurilma. Mikrokompyuterli tizimlarning asosiy komponentlaridan biri.

Маълумотлар қайта ишланишини ва бу жараён бошқарилишини амалга оширадиган, битта ёки бир нечта катта интеграл схема асосида қилинган қурилма. Микрокомпьютерли тизимларнинг асосий компонентларидан бири.

**Микросхема**  
**с сокращенным набором команд**  
**uz** - qisqartirilgan komandalar to'plami bo'lgan mikrosxema  
қисқартирилган  
командалар тўплами бўлган  
микросхема  
**en** - reduced instruction setchi (RIS)

Архитектура процессоров, построенная на основе сокращённого набора команд. Характеризуется наличием команд фиксированной длины, большого количества регистров, операций типа регистр-регистр, а также отсутствием косвенной адресации.

Qisqartirilgan komandalar to'plamiga asoslangan protsessorlar arxitekturasi. Qisqartirilgan uzunlikdagi komandalar, katta miqdordagi registrlar, registr-registr turidagi amallar, bilvosita adresatsiyaning

## М

yoʻqligi bilan tavsiflanadi.

Қисқартирилган командалар тўпламига асосланган процессорлар архитектураси. Қисқартирилган узунликдаги командалар, катта микдордаги регистрлар, регистр-регистр туридаги амаллар, билвосита адресациянинг йўқлиги билан тавсифланади.

### **Многотерминальная система**

**uz** - koʻp terminalli tizim

кўп терминалли тизим

**en** - multiterminal system

Система, включающая в себя компьютер, к которому подключено несколько терминалов; эти терминалы могут находиться рядом, а могут быть удалены на многие километры. Система очень похожа на компьютерную сеть, если терминалы интеллектуальные.

Bir qancha terminal ulanadigan kompyuterni ichiga oladigan tizim; bu terminallar yaqinda ham boʻlishi, koʻplab kilometr uzoqlikda ham boʻlishi mumkin. Tizim kompyuter tarmogʻiga oʻxshab ketadi, agar terminallar intellektual boʻlsa.

Бир қанча терминал уланадиган компьютерни ичига оладиган тизим; бу терминаллар яқинда ҳам бўлиши, кўплаб километр узоқликда ҳам бўлиши мумкин. Тизим компьютер тармоғига ўхшаб кетади, агар терминаллар интеллектуал бўлса.

### **Многоядерный процессор**

**uz** - koʻp yadroli protsessor

кўп ядроли процессор

**en** - multicore processor

Центральный процессор, содержащий два и более вычислительных ядра на одном процессорном кристалле или в одном корпусе.

Bir korpusda yoki bitta protsessor kristalida ikkita va undan ortiq hisoblash yadrolarini ichiga oladigan markaziy protsessor.

Бир корпусда ёки битта процессор кристаллида иккита ва ундан ортиқ ҳисоблаш ядроларини ичига оладиган марказий процессор.

### **Множество**

**uz** - toʻplam

тўплам

**en** - set

Совокупность однородных элементов, которую можно рассматривать как единое целое. В некоторых языках программирования существует тип данных «множество». У данных «множество» со-

## М

ответствуют операции объединения, пересечения, вхождения и др.

Bir butun yaxlit sifatida qarab chiqish mumkin bo'lgan bir jinsli elementlar jami. Ba'zi dasturlash tillarida «to'plam» ma'lumotlar turi mavjud. «To'plam» ma'lumotlarda birlashtirish, kesishish, kirish operatsiyalariga to'g'ri keladi.

Бир бутун яхлит сифатида қараб чиқиш мумкин бўлган бир жинсли элементлар жами. Баъзи дастурлаш тилларида «тўплам» маълумотлар тури мавжуд. «Тўплам» маълумотларда бирлаштириш, кесишиш, кириш операцияларига тўғри келади.

### **Мобильный модуль на шине PCI Express**

**uz** - *PCI Express* shinasidagi mobil modul

PCI Express shinasidaги мобил модуль

**en** - mobile PCI Express module (MXM)

Стандарт взаимодействия для графических процессоров в ноутбуках, в которых используется шина PCI Express, разработанная компанией Nvidia и несколькими производителями мобильных компьютеров.

*Nvidia* kompaniyasi va bir qancha mobil kompyuterlar ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab chiqilgan *PCI Express* shinasidan foydalaniladigan laptoplardagi grafik protsessorlar uchun belgilangan birgalikda ishlash standarti.

*Nvidia* kompaniyasi va bir qancha mobil kompyuterlar ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab chiqilgan PCI Express shinasidan foydalaniladigan laptoplardagi grafik protsessorlar uchun belgilangan birgalikda ishlash standarti.

### **Модальное окно**

**uz** - modal oyna

модаля ойна

**en** - modal window

Окно, требующее каких-либо действий от пользователя перед переключением в другое окно.

Boshqa oynaga o'tishdan oldin foydalanuvchidan qandaydir harakatlar talab qilinadigan oyna.

Бошқа ойнага ўтишдан олдин фойдаланувчидан қандайдир ҳаракатлар талаб қилинадиган ойна.

## М

### Моделирование

**uz** - modellash

моделлаш

**en** - modeling

Процесс разработки модели изучаемого объекта (системы, явления). Главная задача – изучение объекта. Создание модели – это итерационный процесс, при котором модель сравнивается с оригиналом и уточняется. В информатике в основном применяются два метода моделирование: информационное и математическое.

O‘rganiladigan obyekt (tizim, hodisa) modelini ishlab chiqish jarayoni. Asosiy vazifa – obyektни o‘rganish. Modelni yaratish – bu iteratsion jarayon bo‘lib, model original bilan taqqoslanadi va aniqlashtiriladi. Informatikada asosan, modellashning ikki metodi qo‘llaniladi: informatsion va matematik.

Ўрганиладиган объект (tizim, hodisa) modelini ishlab chiqish jarayoni. Asosiy vazifa – obyektни o‘rganish. Modelni yaratish – bu iteratsion jarayon bo‘lib, model original bilan taqqoslanadi va aniqlashtiriladi. Informatikada asosan, modellashning ikki metodi qo‘llaniladi: informatsion va matematik.

### Модель

**uz** - model

модель

**en** - model

Реальный физический объект или процесс, теоретическое построение, информационный образ, представляющие какие-либо свойства исследуемого объекта, процесса или явления. Модель предназначена для изучения объекта путем его упрощения, выбора тех параметров, которые существенны. Очень сложны вопросы правильности выбора модели, ее адекватности исходному объекту. Понятие модели тесно связано с понятиями кибернетики – изоморфизмом и гомоморфизмом.

Tadqiq qilinadigan obyekt, jarayon va hodisaning qandaydir xossalari ifodalaydigan real fizik obyekt yoki jarayon, nazariy tuzilish, informatsion obraz. Model obyektни soddalashtirish, ahamiyatli bo‘lgan parametrlarni tanlash yo‘li bilan o‘rganish uchun mo‘ljallangan. Modelni tanlashning to‘g‘riligi, uning boshlang‘ich obyektga o‘xshashlik masalalari juda

## М

murakkabdir. Model tushunchasi kibernetikaning izomorfizm va gomomorfizm tushunchalari bilan qattiq bogʻliq.

Тадқиқ қилинадиган объект, жараён ва ходисанинг қандайдир хоссаларини ифодалайдиган реал физик объект ёки жараён, назарий тузилиш, информатсион образ. Модель объектни соддалаштириш, аҳамиятли бўлган параметрларни танлаш йўли билан ўрганиш учун мўлжалланган. Моделни танлашнинг тўғрилиги, унинг бошланғич объектга ўхшашлик масалалари жуда мураккабдир. Модель тушунчаси кибернетиканинг изоморфизм ва гомоморфизм тушунчалари билан қаттиқ боғлиқ.

### Модем

**uz** - modem

модем

**en** - modem

Устройство для передачи данных в цифровом виде по аналоговым каналам связи. Данные, записанные с помощью 0 и 1, из компьютера попадают в модем, где соответствующим образом кодируются (модулируются) и попадают в линию связи. На другом конце линии они попадают в другой модем, где преобразуются (демодулируются) опять в двоичные сигналы и поступают в принимающий компьютер. Конструктивно модем может быть выполнен в виде платы – внутренний модем, или специального блока – внешний модем.

Маълумотларни аналог алоқа каналлари орқали коʻринишда узатиш учун моʻljallangan qurilma. 0 va 1 yordamida yozilgan maʼlumotlar kompyuterdan modemga tushadi, u yerda tegishli ravishda kodlanadi (modulyatsiyalanadi) va aloqa liniyasiga tushadi. Liniyaning boshqa bir uchida maʼlumotlar boshqa bir modemga tushadi, u yerda qayta ikkilik signallarga oʻzgartiriladi (demodulyatsiyalanadi) va qabul qiluvchi kompyuterga kelib tushadi. Modem konstruktiv jihatdan plata koʻrinishida – ichki modem yoki maxsus blok koʻrinishida – tashqi modem, qilinishi mumkin.

Маълумотларни аналог алоқа каналлари орқали

## М

рақамли кўринишда узатиш учун мўлжалланган курилма. 0 ва 1 ёрдамида ёзилган маълумотлар компьютердан модемга тушади, у ерда тегишли равишда кодланади (модуляцияланади) ва алоқа линиясига тушади. Линиянинг бошқа бир учиди маълумотлар бошқа бир модемга тушади, у ерда қайта иккилик сигналларга ўзгартирилади (демодуляцияланади) ва қабул қилувчи компьютерга келиб тушади. Модем конструктив жиҳатдан плата кўринишида – ички модем ёки махсус блок кўринишида – ташқи модем, қилиниши мумкин.

### Модула

**uz** - modula

модула

**en** - modula

Универсальный язык программирования процедурного типа. Разработан Н.Виртом в 1975г.; прямой потомок языка Paskal. Основные отличия от стандартного Paskal: введены понятия модуль и процесс, более систематизирован синтаксис, язык дополнен средствами программирования низкого уровня. В 1979 г. создана версия языка – Модула-2.

Protsedura turidagi universal dasturlash tili. *N.Virt* tomonidan 1975 yilda ishlab chiqilgan; *Paskal* tilining to'g'ridan-to'g'ri avlodi. Standart *Paskal* tilidan asosiy farqlari: modul va jarayon tushunchasi kiritilgan, sintaksis yanada tizimlashtirilgan, til past daraja dasturlash vositalari bilan to'ldirilgan. 1979 yilda tilning Modula – 2 versiyasi yaratilgan.

Процедура туридаги универсал дастурлаш тили. Н.Вирт томонидан 1975 йилда ишлаб чиқилган; Paskal тилининг тўғридан-тўғри авлоди. Стандарт Paskal тилидан асосий фарқлари: модуль ва жараён тушунчаси киритилган, синтаксис янада тизимлаштирилган, тил паст даража дастурлаш воситалари билан тўлдирилган. 1979 йилда тилнинг Модула – 2 версияси яратилган.

### Модуль

**uz** - modul

модуль

**en** - module

Функциональная часть технического обеспечения системы, выполненная в одном блоке и имеющая узлы сопряжения с другими модулями. Модули применяются для удобной эксплуатации системы, их можно быстро заменить при выходе из строя и при модернизации. Объект языка прог-

## М

раммирования для выделения процедур, подпрограмм, для самостоятельной отладки и включения в программу готовых частей.

Tizim texnik ta'minotining, bitta blokda qilingan va boshqa modullar bilan birikish uzellariga ega bo'lgan funksional qismi. Modullar tizimdan oson foydalanish uchun qo'llaniladi, ishdan chiqqanda va modernizatsiya qilishda ularni almashtirish mumkin. Protseduralar, kichik dasturlarni ajratish, mustaqil sozlash va dasturga tayyor qismlarni kiritish uchun mo'ljallangan dasturlash tili obyekt.

Тизим техник таъминотининг, битта блокда қилинган ва бошқа модуллар билан бирикиш узелларига эга бўлган функционал қисми. Модуллар тизимдан осон фойдаланиш учун қўлланилади, ишдан чиққанда ва модернизация қилишда уларни алмаштириш мумкин. Процедуралар, кичик дастурларни ажратиш, мустақил созлаш ва дастурга тайёр қисмларни киритиш учун мўлжалланган дастурлаш тили объекти.

### Мост

**uz** - ko'prik  
кўприк  
**en** - bridge

Аппаратно-программное устройство, соединяющее две или более физические локальные сети, имеющие один и тот же протокол.

Bir xil protokolga ega bo'lgan ikkita yoki undan ortiq fizik lokal tarmoqni birlashtiradigan apparat-dasturiy qurilma.

Бир хил протоколга эга бўлган иккита ёки ундан ортиқ физик локал тармоқни бирлаштирадиган аппарат-дастурий қурилма.

### Мультимедиа

**uz** - multimedia  
мультимедиа  
**en** - multimedia

Одновременное использование различных форм представления информации и ее обработки в едином объекте-контейнере. Например, в одном объекте-контейнере может содержаться текстовая, аудио, графическая и видео информация. Термин мультимедиа также, используется для обозначения носителей информации, позволяющих хранить значительные объемы данных и обеспечивать достаточно быстрый доступ к ним.

## M

Axborotni taqdim etishning turli shakllaridan va uning yagona obyekt-konteynerida qayta ishlanishidan bir vaqtda foydalanish. Masalan, bitta obyekt-konteynerda matnli, audio, trafik va video axborot bo'lishi mumkin. Multimedia atamasi, shuningdek, katta hajmdagi ma'lumotlarni saqlash va ulardan tez foydalanish imkonini beradigan axborot tashuvchilarni belgilash uchun ham qo'llaniladi.

Ахборотни тақдим этишнинг турли шакллари­дан ва унинг ягона объект-контейнерида қайта ишланишидан бир вақтда фойдаланиш. Масалан, битта объект-контейнерда матнли, аудио, трафик ва видео ахборот бўлиши мумкин. Мульти­медиа атамаси, шунингдек, катта ҳажмдаги маълумотларни сақлаш ва улардан тез фойдаланиш имконини берадиган ахборот ташувчиларни белгилаш учун ҳам қўлланилади.

### **Мультиплексирование**

**uz** - multipleksirlash

мультиплексирлаш

**en** - multiplexing

Передача двух или более сигналов через один физический канал с уплотнением их по частоте, времени или по форме сигналов.

Ikki yoki undan ortiq signalni chastota, vaqt yoki signallar shakli bo'yicha zichlashtirish bilan bitta fizik kanal orqali uzatish.

Икки ёки ундан ортиқ сигнални частота, вақт ёки сигналлар шакли бўйича зичлаштириш билан битта физик канал орқали узатиш.

### **Мультипроцессорная спецификация**

**uz** - multiprotsessorli

spetsifikatsiya

мультипроцессорли

спецификация

**en** - multi processor specification (MPS)

Открытый стандарт, описывающий интерфейс между операционной системой и прошивкой процессора, позволяющий им работать с x86-совместимыми процессорами в мультипроцессорной конфигурации.

Operatsion tizim va protsessor proshivkasi o'rtasidagi interfeysni tavsiflaydigan, ularga multiprotsessorli konfiguratsiyada x86 mos keladigan protsessor bilan ishlash imkonini beradigan ochiq standart.

## М

Операцион тизим ва процессор прошивкаси ўртасидаги интерфейсни тавсифлайдиган, уларга мультипроцессорли конфигурацияда x86 мос келадиган процессор билан ишлаш имконини берадиган очик стандарт.

### **Мышь**

**uz** - sichqoncha

сичқонча

**en** - mouse

Манипулятор, позволяющий выбирать данные на дисплее, вводить графические данные. Представляет собой позиционирующее устройство из шара и двух оптических датчиков, а также двух основных кнопок. Устройство изобретено Дугом Энгельбартом в 60 гг. XX века в США.

Displeyda ma'lumotlarni tanlash, grafik ma'lumotlarni kiritish imkonini beradigan manipulyator. Shar, ikkita optik datchik, shuningdek, ikkita asosiy tugmadan iborat bo'lgan pozitsion qurilmani o'zida ifodalaydi. Qurilma XX asrning 60-yillarida AQShda, *Dug Engelbart* tomonidan ixtiro qilingan.

Дисплейда маълумотларни танлаш, график маълумотларни киритиш имконини берадиган манипулятор. Шар, иккита оптик датчик, шунингдек, иккита асосий тугмадан иборат бўлган позицион қурилмани ўзида ифодалайди. Қурилма XX асрнинг 60-йилларида АҚШда, Дуг Энгельбарт томонидан ихтиро қилинган.

### **Мэйнфрейм**

**uz** - meynfreym

мэйнфрейм

**en** - mainframe

Вычислительные машины большого размера, обладающие памятью очень большой ёмкости, обеспечивающие сверхбыструю обработку данных. Используются для очень крупных коммерческих и научных приложений.

Ma'lumotlar juda katta tezlikda qayta ishlanishini ta'minlaydigan, juda katta hajmdagi хотирага эга bo'lgan, katta o'lchamdagi hisoblash mashinalari. Juda yirik tijorat va ilmiy ilovalar uchun foydalaniladi.

Маълумотлар жуда катта тезликда қайта ишланишини таъминлайдиган, жуда катта ҳажмдаги хотирага эга бўлган, катта ўлчамдаги

## М

ҳисоблаш машиналари. Жуда йирик тижорат ва илмий иловалар учун фойдаланилади.

## Н

### Надежность

**uz** - ishonchlilik

ишончлилиқ

**en** - availability

Свойство системы безотказно работать в течение определенного времени. Различают надежность аппаратурной части и программного обеспечения. Для количественной характеристики надежности технического обеспечения широко используется время наработки на отказ, могут использоваться вероятность безотказной работы, вероятность отказов и среднее время восстановления.

Tizimning muayyan vaqt mobaynida buzilmasdan ishlash xususiyati. Apparatura qismining ishonchliligi va dasturiy ta'minotning ishonchliligi farqlanadi. Texnik ta'minotning ishonchliligini miqdoriy tavsiflash uchun, buzilishgacha ishlash vaqti, buzilmasdan ishlash ehtimolligi, buzilishlar ehtimolligi va o'rtacha tiklanish vaqti keng qo'llaniladi. Dasturlarning ishonchliligini aniqlash birmuncha murakkabroq. Dasturning to'g'riligi, ya'ni pirovard natijaning o'ylangan algoritmgaga muvofiq kelishligi va algoritmning foydalanuvchi olishni xohlagan narsaga muvofiq kelishligi farqlanadi.

Тизимнинг муайян вақт мобайнида бузилмасдан ишлаш хусусияти. Аппаратура қисмининг ишончлилиги ва дастурий таъминотнинг ишончлилиги фарқланади. Техник таъминотнинг ишончлилигини миқдорий тавсифлаш учун, бузилишгача ишлаш вақти, бузилмасдан ишлаш эҳтимоллиги, бузилишлар эҳтимоллиги ва ўртача тикланиш вақти кенг қўлланилади. Дастурларнинг ишончлилигини аниқлаш бирмунча мураккаброқ. Дастурнинг тўғрилиги, яъни пировард натижанинг ўйланган алгоритмга мувофиқ келишлиги ва алгоритмнинг фойдаланувчи олишни хоҳлаган нарсага мувофиқ келишлиги фарқланади.

### Накопитель

**uz** - to'plagich

Устройство для записи/чтения данных на определенный носитель. Накопители относятся к внеш-

## Н

тўплагич  
**en** - holding bin

ним запоминающим устройствам. Различают накопители на дисках, лентах, картах. Накопители бывают: со съёмными носителями; в этом случае носитель данных можно поменять (например, гибкие магнитные диски, магнитные ленты, компакт - диски, DVD); с постоянными носителями, в этом случае носитель встроен в накопитель и его нельзя сменить (например, жесткий магнитный диск).

Ma'lumotlarni muayyan tashuvchiga yozish/o'qish uchun mo'ljallangan qurilma. To'plagichlar tashqi xotirlovchi qurilmalarga kiradi. Disklardagi, lentaldagi, kartalardagi to'plagichlar farqlanadi. Tashuvchilari olinadigan to'plagichlar, bu holda ma'lumotlar tashuvchisini almashtirish mumkin bo'ladigan tashuvchilari olinadigan to'plagichlar (masalan, egiluvchan magnit disklar, magnit lentalar, kompakt-disklar, DVD) va, tashuvchi to'plagichga o'rnatilgan, uni almashtirish mumkin bo'lmaydigan doimiy tashuvchili to'plagichlar (masalan, qattiq magnit disk) farqlanadi.

Маълумотларни муайян ташувчига ёзиш/ўқиш учун мўлжалланган қурилма. Тўплагичлар ташқи хотирловчи қурилмаларга киради. Дисклардаги, ленталардаги, карталардаги тўплагичлар фарқланади. Ташувчилари олинадиган тўплагичлар, бу ҳолда маълумотлар ташувчисини алмаштириш мумкин бўладиган ташувчилари олинадиган тўплагичлар (масалан, эгилувчан магнит дисклар, магнит ленталар, компакт-дисклар, DVD) ва, ташувчи тўплагичга ўрнатилган, уни алмаштириш мумкин бўлмайдиган доимий ташувчили тўплагичлар (масалан, қаттиқ магнит диск) фарқланади.

**Накопитель на гибком магнитном диске**  
**uz** - egiluvchan magnit diskdagi to'plagich  
эгилувчан магнит дискдаги тўплагич  
**en** - floppy disk drive

Устройство аппаратных средств ЭВМ, которое читает данные и пишет данные на дискеты.

Disketadan ma'lumotlarni o'quvchi va yozuvchi elektron hisoblash mashinalari apparat vositasining qurilmasi.

## Н

Дискетадан маълумотларни ўқувчи ва ёзувчи электрон ҳисоблаш машиналари аппарат воситасининг қурилмаси.

### **Нанотехнология**

**uz** - nanotexnologiya

нанотехнология

**en** - nanotechnology

В информатике – технология изготовления интегральных схем для процессоров в компьютерах, основанная на работе с молекулами и атомами.

Informatikada – kompyuterlardagi protsessorlar uchun integral sxemalar tayyorlash texnologiyasi. Molekulalar va atomlar bilan ishlashga asoslangan.

Информатикада – компьютерлардаги процессорлар учун интеграл схемалар тайёрлаш технологияси. Молекулалар ва атомлар билан ишлашга асосланган.

### **Нейрокомпьютер**

**uz** - neyrokompyuter

нейрокомпьютер

**en** - neural computer

Компьютер, созданный на основе нейронных сетей. Пока не существует самостоятельно, но активно моделируется на современных компьютерах.

Neyron tarmoqlar asosida yaratilgan kompyuter. Hozircha mustaqil tarzda mavjud emas, lekin zamonaviy kompyuterlarda aktiv ravishda modelashtirilmoqda.

Нейрон тармоқлар асосида яратилган компьютер. Ҳозирча мустақил тарзда мавжуд эмас, лекин замонавий компьютерларда актив равишда моделлаштирилмоқда.

### **Нейронная сеть**

**uz** - neyron tarmoq

нейрон тармоқ

**en** - neural network

Сеть, образованная совокупностью формальных нейронов, сумматоров и синапсов.

Formal neyronlar, summatorlar va sinapslar jami hosil qilgan tarmoq.

Формал нейронлар, сумматорлар ва синапслар жами ҳосил қилган тармоқ.

### **Непозиционная система счисления**

**uz** - nopozitsion sanoq tizimi

нопозицион санок тизими

**en** - nonpositional notation

Система счисления, при которой для обозначения чисел вводятся определенные знаки, количественное значение которых всегда одинаково и не зависит от месторасположения. Непозиционные системы используются редко, так как не

## Н

приспособлены для вычислений. Характерный пример – римская система счисления. Имеются символы латинского алфавита со следующими значениями: I-1, V-5, X-10, L-50, C-100, D-500, M-1000.

Sonlarni belgilash uchun, miqdor qiymati har doim bir xil va joylashgan o'rniga bog'liq bo'lmaydigan muayyan belgilar kiritiladigan sanoq tizimi. Nopozitsion sanoq tizimidan kam foydalaniladi, chunki u hisoblashlar uchun moslashtirilmagan. Xarakterli misol – rimcha sanoq tizimi. Lotin alifbosi-ning quyidagi qiymatlarga ega simvollari bor: I-1, V-5, X-10, L-50, C-100, D-500, M-1000.

Сонларни белгилаш учун, миқдор қиймати ҳар доим бир хил ва жойлашган ўрнига боғлиқ бўлмайдиган муайян белгилар киритиладиган санок тизими. Нопозицион санок тизимидан кам фойдаланилади, чунки у ҳисоблашлар учун мослаштирилмаган. Хarakterли мисол – римча санок тизими. Лотин алифбосининг қуйидаги қийматларга эга символлари бор: I-1, V-5, X-10, L-50, C-100, D-500, M-1000.

### **Нисходящая разработка**

**uz** - pasayib boradigan ishlanma pasayib boradigan ishlanma

**en** - top-down development

Метод разработки проектов, систем, программ, при котором разработка производится сверху вниз. Один из основных методов структурного активирования. Нисходящее программирование – частный случай нисходящей разработки.

Loyihalar, tizimlar, dasturlar ishlab chiqish metodi, bunda ishlab chiqish yuqoridan pastga tomon amalga oshiriladi. Strukturaviy aktivlashning asosiy metodlaridan biri. Pasayib boradigan dasturlash pasayib boradigan ishlanmaning xususiy holdir.

Лойиҳалар, тизимлар, дастурлар ишлаб чиқиш методи, бунда ишлаб чиқиш юқоридан пастга томон амалга оширилади. Структуравий активлашнинг асосий методларидан бири. Пасайиб борадиган дастурлаш пасайиб борадиган ишланманинг хусусий ҳолидир.

## Н

### **Новые информационные технологии**

**uz** - yangi axborot texnologiyalari

янги ахборот технологиялари

**en** - new information technologies

Информационные технологии, связанные с дальнейшим развитием как компьютеров, так и систем. Новые информационные технологии основываются на развитии и внедрении компьютерных сетей, систем мультимедиа и виртуальной реальности. Наиболее широко используются в медицине, управлении, образовании, финансах и системах электронных средств массовой информации.

Ham kompyuterlarning, ham ularning yordamida qurilgan tizimlarning yanada rivojlantirilishi bilan bog'liq bo'lgan axborot texnologiyalari. Yangi axborot texnologiyalari kompyuter tarmoqlarini, multimedia tizimlarini va virtual borliqni joriy qilishga va rivojlantirishga asoslanadi. Tibbiyotda, boshqarishda, ta'limda, moliyada va elektron ommaviy axborot vositalari tizimida keng qo'llaniladi.

Ҳам компьютерларнинг, ҳам уларнинг ёрдамида қурилган тизимларнинг янада ривожлантирилиши билан боғлиқ бўлган ахборот технологиялари. Янги ахборот технологиялари компьютер тармоқларини, мультимедиа тизимларини ва виртуал борлиқни жорий қилишга ва ривожлантиришга асосланади. Тиббиётда, бошқаришда, таълимда, молияда ва электрон оммавий ахборот воситалари тизимида кенг қўлланилади.

## О

### **Обеспечение**

**uz** - ta'minot

таъминот

**en** - securing

Набор средств и методов для осуществления каких-либо видов деятельности. Техническое обеспечение системы – это набор технических средств, входящих в систему. Программное обеспечение – совокупность программ и инструкций по их применению. Системное программное обеспечение – операционная система и набор вспомогательных программ, осуществляющих защиту данных, их архивацию и деархивацию, всевозможные тесты, программы восстановления данных.

## O

Faoliyatning qandaydir turlarini amalga oshirish uchun xizmat qiladigan metodlar, vositalar to'plami. Tizimning texnik ta'minoti – bu, tizimga kiradigan texnik vositalar to'plamidir. Dasturiy ta'minot – dasturlar va ularni qo'llash yuzasidan yo'l-yo'riqlar yig'indisi. Tizim dasturiy ta'minoti – operatsion tizim va ma'lumotlar muhofaza qilinishini, ularni arxivlash va dearxivlashni amalga oshiradigan yordamchi dasturlar to'plami, har xil testlar, ma'lumotlarni tiklash dasturlaridir.

Фаолиятнинг қандайдир турларини амалга ошириш учун хизмат қиладиган методлар, воситалар тўплами. Тизимнинг техник таъминоти – бу, тизимга кирадиган техник воситалар тўпламидир. Дастурий таъминот – дастурлар ва уларни қўллаш юзасидан йўл-йўриқлар йиғиндиси. Тизим дастурий таъминоти – операцион тизим ва маълумотлар муҳофаза қилинишини, уларни архивлаш ва деарxivлашни амалга оширадиган ёрдамчи дастурлар тўплами, ҳар хил тестлар, маълумотларни тиклаш дастурларидир.

### Оболочка

**uz** - qobiq

қобик

**en** - cover

Программа (комплекс программ) упрощающая работу с основной программой. Широко используются оболочки для создания среды программирования. Например, фирма Borland для работы с языками Paskal, Си, Prolog разработала оболочку и включила ее в состав языка программирования, что значительно упрощает процесс программирования. Имеется тенденция так разрабатывать системы, чтобы не были нужны оболочки. Иногда используются названия среда, окружение.

Asosiy dastur bilan ishlashni soddalashtiradigan dastur (dasturlar kompleksi). Qobiqlardan dasturlash muhitini yaratish uchun keng foydalaniladi. Masalan, Borland firmasi Paskal, Si, Prolog tillari bilan ishlash uchun qobiq ishlab chiqdi va uni dasturlash tili tarkibiga kiritdi, bu dasturlash jarayonini ancha soddalashtiradi. Qobiqlarga ehtiyoj bo'lmaydigan tizimlarni ishlab chiqishga yo'naltirilgan tendensiya bor. Ba'zida o'rab turgan muhit nomidan foydalaniladi.

## О

Асосий дастур билан ишлашни соддалаштирадиган дастур (дастурлар комплекси). Қобиклардан дастурлаш мухитини яратиш учун кенг фойдаланилади. Масалан, Borland фирмаси Paskal, Си, Prolog тиллари билан ишлаш учун қобик ишлаб чиқди ва уни дастурлаш тили таркибига киритди, бу дастурлаш жараёнини анча соддалаштиради. Қобикларга эҳтиёж бўлмайдиган тизимларни ишлаб чиқишга йўналтирилган тенденция бор. Баъзида ўраб турган мухит номидан фойдаланилади.

### Обратная связь

**uz** - teskari aloqa

тескари алоқа

**en** - back coupling

Воздействие выходных параметров системы на функционирование самой системы. Принцип обратной связи – основной принцип в кибернетических системах. Например, человек – компьютер – система с обратной связью: человек видит результат своей работы на компьютере и в зависимости от результата совершает следующее действие.

Tizim chiqish parametrlarining tizimning ishlashiga ta'sir ko'rsatishi. Teskari aloqa prinsipi kibernetika tizimlaridagi asosiy prinsipdir. Masalan, odam – kompyuter teskari aloqa bo'lgan tizimdir: odam kompyuterdagi o'z ishining natijasini ko'radi va natijaga bog'liq ravishda keyingi ishni amalga oshiradi.

Тизим чиқиш параметрларининг тизимнинг ишлашига таъсир кўрсатиши. Тескари алоқа принципи кибернетика тизимларидаги асосий принципдир. Масалан, одам – компьютер тескари алоқа бўлган тизимдир: одам компьютердаги ўз ишининг натижасини кўради ва натижага боғлиқ равишда кейинги ишни амалга оширади.

### Общая шина

**uz** - umumiy shina

умумий шина

**en** - utility bus

Единый канал для передачи электрических сигналов в компьютере, к которому подключаются периферийные устройства. Схема компьютерной сети – все компьютеры и сетевые устройства подключаются к единому сетевому кабелю, по которому передаются данные.

Periferik qurilmalar ulanadigan kompyuterda elektr signallarni uzatish uchun mo'ljallangan yagona

## О

kanal. Kompyuter tarmog‘ining sxemasi – barcha kompyuterlar va tarmoq qurilmalari ma’lumotlar uzatiladigan yagona tarmoq kanaliga ulanadi.

Периферик қурилмалар уланадиган компьютерда электр сигналларни узатиш учун мўлжалланган ягона канал. Компьютер тармоғининг схемаси – барча компьютерлар ва тармоқ қурилмалари маълумотлар узатиладиган ягона тармоқ каналига уланади.

### **Общий стандарт архитектуры**

**uz** - umumiy arxitektura standarti

умумий архитектура стандарти

**en** - overall architecture standard

Общий стандарт архитектуры материнских плат, разработанный группой производителей микросхем; упорядочивает разбиение материнской платы на функциональные блоки. Основа стандарта – шина PCI.

Mikrosxemalar ishlab chiqaruvchilar guruhi tomonidan ishlab chiqilgan asosiy platalar arxitekturasi umumiy standarti; asosiy plataning funksional bloklarga ajratilishini tartiblashtiradi. Standartning asosini *PCI* shinasini tashkil qiladi.

Микросхемалар ишлаб чиқарувчилар гуруҳи томонидан ишлаб чиқилган асосий платалар архитектурасининг умумий стандарти; асосий платанинг функционал блокларга ажратилишини тартиблаштиради. Стандартнинг асосини *PCI* шинаси ташкил қилади.

### **Общий шлюзовой интерфейс**

**uz** - umumiy shlyuz interfeysi

умумий шлюз интерфейси

**en** - common gateway interface (CGI)

Разработанный NCSA сетевой стандарт, предназначенный для создания серверных HTTP-приложений. Используется Web-серверами для обмена данными между сценариями или приложениями, а затем передачи данных Web-странице или браузеру. CGI сценарии обычно создаются на языке PERL и могут генерировать динамическое содержимое Web-страницы (например корзины заказов в электронной коммерции).

*HTTP*-server dasturlarini yaratish uchun mo‘ljallangan, *NCSA* tomonidan ishlab chiqilgan tarmoq standarti. Web-serverlarda ssenariylar va dasturlar orasida ma’lumotlar almashinishda, keyin web-sahifa yoki brauzerga ma’lumotlarni uzatishda qo‘llaniladi.

## О

*CGI* ssenariylari odatda, *PERL* tilida yoziladi va web-sahifaning dinamik mazmunini ishlab chiqadi (masalan, elektron tijoratda buyurtmalar savatini hosil qiladi).

HTTP-сервер дастурларини яратиш учун мўлжалланган, NCSA томонидан ишлаб чиқилган тармоқ стандарти. Web-серверларда сценарийлар ва дастурлар орасида маълумотлар алмашилишида, кейин Web-саҳифа ёки браузерга маълумотларни узатишида қўлланилади. CGI сценарийлари оdatда, PERL тилида ёзилади ва Web-саҳифанинг динамик мазмунини ишлаб чиқади (масалан, электрон тижоратда буюртмалар саватини ҳосил қилади).

### Объект

**uz** - obyekt

объект

**en** - object

Элемент системы или среды. Понятие объектно-ориентированного программирования, программный модуль, объединяющий в единое целое данные и программы, манипулирующие данными. Объект характеризуется свойствами, которые являются параметрами объекта; методами, позволяющими воздействовать на объект и его свойствами. Объект является неотъемлемым элементом процедурно-ориентированных языков программирования.

Tizim yoki muhit elementi. Obyektga yoʻnaltirilgan dasturlash tushunchasi, maʼlumotlar bilan ishlaydigan dasturlar va maʼlumotlarni bir butun yaxlit qilib birlashtiradigan dasturiy modul. Obyekt, obyektning parametrlari boʻlgan xossalar, obyektga va uning xossalariga taʼsir koʻrsatadigan metodlar bilan tavsiflanadi. Obyekt protseduraga yoʻnaltirilgan dasturlash tillarining ajralmas elementi hisoblanadi.

Тизим ёки муҳит элементи. Объектга йўналтирилган дастурлаш тушунчаси, маълумотлар билан ишлайдиган дастурлар ва маълумотларни бир бутун яхлит қилиб бирлаштирадиган дастурий модуль. Объект, объектнинг параметрлари бўлган хоссалар, объектга ва унинг хоссаларига таъсир кўрсатадиган методлар билан тавсифланади.

## О

### **Объектная модель компонентов**

**uz** - komponentlarning  
obyekt modeli

компонентларнинг  
объект модели

**en** - component object model  
(COM)

Объект процедурага йўналтирилган дастурлаш тилларининг ажралмас элементи ҳисобланади.

Технологический стандарт от компании Microsoft, предназначенный для создания программного обеспечения на основе взаимодействующих распределённых компонентов, каждый из которых может использоваться во многих программах одновременно.

*Microsoft kompaniyasining har biri bir vaqtning o'zida bir nechta dasturda ishlatilishi mumkin bo'lgan, o'zaro birga ishlaydigan taqsimlangan komponentlar asosida dasturiy ta'minot yaratish uchun mo'ljallangan texnologik standarti.*

Microsoft kompaniyasining har biri bir vaqtning ўзидә бир нечта дастурда ишлатилиши мумкин бўлган, ўзаро бирга ишлайдиган тақсимланган компонентлар асосида дастурий таъминот яратиш учун мўлжалланган технологик стандарти.

### **Объектно-ориентированное программирование**

**uz** - obyektga yo'naltirilgan  
dasturlash

объектга йўналтирилган  
дастурлаш

**en** - component-based software  
engineering

Программирование, в основу которого положено понятие объект. Характеризуется тремя основными свойствами: инкапсуляцией, наследованием и полиморфизмом.

Asosiga obyekt tushunchasi qo'yilgan dasturlash. Uchta asosiy xossa: inkapsulyatsiya, vorislik va polimorfizm bilan tavsiflanadi.

Асосига объект тушунчаси қўйилган дастурлаш. Учта асосий хосса: инкапсуляция, ворислик ва полиморфизм билан тавсифланади.

### **Объектно-ориентированный анализ и проектирование сложных систем**

**uz** - murakkab tizimlarni  
loyihalash va obyektga  
yo'naltirilgan tahlil qilish

мураккаб тизимларни  
лойихалаш ва объектга  
йўналтирилган таҳлил қилиш

**en** - object-oriented analysis and

Возникшая в 80-90 гг. XX в. методология анализа и проектирования сложных систем; является основной при разработке программных продуктов, технических, экономических, социальных систем, а также систем управления ими. Основа методологии – построение последовательности моделей исследуемой или разрабатываемой системы: информационной модели, модели состояний и модели процессов.

## O

design of complex system

XX asrning 80-90 yillarida yuzaga kelgan, murakkab tizimlarni loyihalash va tahlil qilish metodologiyasi, dasturiy mahsulotlarni, texnik, iqtisodiy, ijtimoiy tizimlarni, shuningdek, ularni boshqarish tizimlarini ishlab chiqishda asosiy metodologiya hisoblanadi. Tadqiq qilinadigan yoki ishlab chiqiladigan tizim modellarining ketma-ketligi: informatsion model, holatlar modeli va jarayonlar modelini tuzish metodologiyaning asosini tashkil etadi.

XX asrning 80-90 yillarida yuzaga kelgan, murakkab tizimlarni loyihalash va tahlil qilish metodologiyasi, dasturiy mahsulotlarni, texnik, iqtisodiy, ijtimoiy tizimlarni, shuningdek, ularni boshqarish tizimlarini ishlab chiqishda asosiy metodologiya hisoblanadi. Tadqiq qilinadigan yoki ishlab chiqiladigan tizim modellarining ketma-ketligi: informatsion model, holatlar modeli va jarayonlar modelini tuzish metodologiyaning asosini tashkil etadi.

**Объектный файл**

**uz** - obyekt fayli

объект файли

**en** - object file

Файл с промежуточным представлением отдельного модуля программы, полученный в результате обработки исходного кода компилятором. Объектный файл содержит в себе особым образом подготовленный код (часто называемый двоичным или бинарным), который может быть объединен с другими объектными файлами при помощи редактора связей (компоновщиком) для получения готового исполняемого модуля, либо библиотеки.

Kompilyator bilan boshlang'ich kodni qayta ishlash natijasida olingan, dasturning alohida moduli oraliq taqdim etilgan fayl. Obyekt fayli o'z ichiga alohida tarzda tayyorlangan (ko'pincha, ikkilik yoki binar kod deb ataladigan) kodni oladi. Bu kod, tayyor bajariladigan modulni yoki bibliotekani olish uchun, bog'lanishlar redaktori (komponovkachi) yordamida boshqa obyekt fayllari bilan birlashtirilishi mumkin.

Компилятор билан бошланғич кодни қайта ишлаш натижасида олинган, дастурнинг алоҳида модули оралиқ тақдим этилган файл. Объект

## О

файли ўз ичига алоҳида тарзда тайёрланган (кўпинча, иккилик ёки бинар код деб аталадиган) кодни олади. Бу код, тайёр бажариладиган модулни ёки библиотекани олиш учун, боғланишлар редактори (компоновкачи) ёрдамида бошқа объект файллари билан бирлаштирилиши мумкин.

### Окно

**uz** - оуна

ойна

**en** - window

Прямоугольная область на экране дисплея, через которую осуществляется взаимодействие с приложением или его частью. Широко применяется в графических интерфейсах пользователя и всевозможных оболочках, где оно включает в себя такие стандартные элементы, как строка статуса, заголовка и меню. Часть экрана, в которой могут выполняться программы и процессы. Одновременно может быть открыто несколько окон. Например, в одном окне можно открыть программу электронной почты, в другом – работать с электронной таблицей, в третьем – загружать изображения с цифровой камеры, а в четвертом – оформлять заказ в Internet-магазине. Окна можно закрывать, перемещать, изменять их размеры, свертывать в кнопки на панели задач или развешивать на весь экран.

Displey ekranining to'rtburchakli qismi, u orqali ilova yoki uning qismi bilan birga ishlash amalga oshiriladi. Grafik foydalanuvchi interfeyslarida va barcha mumkin bo'lgan qobiqlarda keng qo'llaniladi, status satri, sarlavha va menyu kabi standart elementlarni o'z ichiga oladi. Ekraning dastur va jarayonlar bajarilishi mumkin bo'lgan qismi. Bir vaqtda bir nechta oyna ochilishi mumkin. Masalan, bir oynada elektron pochta dasturini ochish, boshqasida elektron jadval bilan ishlash, uchinchisida raqamli kamerada tasvirni yuklash, to'rtinchisida esa *Internet*-magazinda buyurtmani rasmiylashtirish mumkin. Oynani yopish, hajmini o'zgartirish, vazifalar panelida tugmalarni burish yoki ekranda to'laligicha aks ettirish mumkin.

Дисплей экранининг тўртбурчакли қисми, у орқа-

## О

ли илова ёки унинг қисми билан бирга ишлаш амалга оширилади. График фойдаланувчи интерфейсларида ва барча мумкин бўлган қобикларда кенг қўлланилади, статус сатри, сарлавҳа ва меню каби стандарт элементларни ўз ичига олади. Экраннинг дастур ва жараёнлар бажарилиши мумкин бўлган қисми. Бир вақтда бир нечта ойна очилиши мумкин. Масалан, бир ойнада электрон почта дастурини очиш, бошқасида электрон жадвал билан ишлаш, учинчисида рақамли камерада тасвирни юклаш, тўртинчисида эса Internet-магазинда буюртмани расмийлаштириш мумкин. Ойнани ёпиш, ҳажмини ўзгартириш, вазифалар панелида тугмаларни буриш ёки экранда тўлалигича акс эттириш мумкин.

### Операнд

**uz** - operand

операнд

**en** - operand

Объект языка программирования, над которым производятся операции. Это могут быть константы, переменные, функции, выражения.

Ustida amallar bajariladigan dasturlash tili obyekt. Bu konstantalar, o'zgaruvchilar, funksiyalar, ifodalar bo'lishi mumkin.

Устида амаллар бажариладиган дастурлаш тили объекти. Бу константалар, ўзгарувчилар, функциялар, ифодалар бўлиши мумкин.

### Оперативное запоминающее устройство

**uz** - operativ хотира qurilmasi

оператив хотира

қурилмаси

**en** - random access memory

Полупроводниковое устройство для чтения и записи данных. В обычных компьютерах место, куда программа загружается для исполнения.

Ma'lumotlarni yozish va o'qish uchun mo'ljallangan yarimo'tkazgichli qurilma. Oddiy kompyuterlarda dastur bajarilishi uchun yuklanadigan joy.

Маълумотларни ёзиш ва ўқиш учун мўлжалланган яримўтказгичли қурилма. Оддий компьютерларда дастур бажарилиши учун юкланадиган жой.

### Оператор

**uz** - operator

оператор

**en** - human controller

Конструкция языка программирования, задающая одну или несколько операций, производимых над операндами.

## О

Operandlar ustida bajariladigan bir yoki bir nechta amalni belgilaydigan, dasturlash tili konstruksiyasi.

Операндлар устида бажариладиган бир ёки бир нечта амални белгилайдиган, дастурлаш тили конструкцияси.

### **Операционная система XENIX**

**uz** - XENIX operatsion tizimi

XENIX операцион тизими

**en** - operating system XENIX

Однопользовательская версия операционной системы UNIX для персональных компьютеров. Разработана корпорацией Microsoft. Выпущена в августе 1980 года.

UNIX operatsion tizimining shaxsiy kompyuterlar uchun mo'ljallangan bir foydalanuvchili versiyasi. Microsoft korporatsiyasi tomonidan ishlab chiqilgan. 1980 yilning avgustida chiqarilgan.

UNIX операцион тизимининг шахсий компьютерлар учун мўлжалланган бир фойдаланувчили версияси. Microsoft корпорацияси томонидан ишлаб чиқилган. 1980 йилнинг августида чиқарилган.

### **Операционная система OS/2**

**uz** - OS/2 operatsion tizimi

OS/2 операцион тизими

**en** - OS/2 operating system

Разработанная корпорацией IBM операционная система, обеспечивающая одновременную обработку множества прикладных программ, параллельное выполнение нескольких задач одной прикладной программы, сжатие данных при записи во внешнюю память, организацию резервного копирования, защиту памяти, поддержку национальных языков.

IBM korporatsiyasi tomonidan ishlab chiqilgan operatsion tizim. Bir vaqtning o'zida ko'plab amaliy dasturlarni ishlatish, bitta amaliy dasturning bir necha vazifasi parallel bajarilishini, tashqi хотирага ma'lumotlarni yozishda ularning zichlashtirilishini, zaxira nusxalar tashkillashtirilishini, хотира himoyasini, milliy tillarning qo'llanilishini ta'minlaydi.

IBM корпорацияси томонидан ишлаб чиқилган операцион тизим. Бир вақтнинг ўзида кўплаб амалий дастурларни ишлатиш, битта амалий дастурнинг бир неча вазифаси параллел бажарилишини, ташқи хотирага маълумотларни ёзишда

## О

уларнинг зичлаштирилишини, захира нусхалар ташкиллаштирилишини, хотира ҳимоясини, миллий тилларнинг қўлланилишини таъминлайди.

### Операционная система UNIX

**uz** - UNIX operatsion tizimi

UNIX операцион тизими

**en** - operating system UNIX

Открытая многопользовательская операционная система. Основные версии разработаны американскими фирмами AT&T, UNIX Systems Laboratories, Sun Soft, NeXTComputer, а также группой исследования компьютерных систем университетов Беркли и Стэндфордским. К достоинствам относится ясная концепция системы, ее переносимость и масштабируемость, простота установки и сопровождения, устроенность сетевых компонентов операционной системы, высокая производительность (скорость сетевого обмена достигает 1 Mbyte/s). Система устойчива к сбоям.

Ко'p foydalanuvchili ochiq operatsion tizim. Asosiy versiyalari Amerikaning AT&T, UNIX Systems Laboratories, Sun Soft, NeXTComputer firmalari, shuningdek, Stendford va Berkli universitetlarining kompyuter tizimlarini tadqiq qilish guruhi tomonidan ishlab chiqilgan. Tizim konseptsiyasining aniqligi, uning ko'chirib bo'lishliligi va ko'lamliligi, o'rnatish va qo'llashning soddaligi, tarmoq komponentlarining operativ tizimga o'rnatib bo'lishlik, yuqori unumdorlik (tarmoq almashinish tezligi 1 Mbyte/s ga yetadi) tizimning afzalliklariga kiradi. Tizim to'xtashlarga chidamli.

Кўп фойдаланувчили очик операцион тизим. Асосий версиялари Американинг AT&T, UNIX Systems Laboratories, Sun Soft, NeXTComputer фирмалари, шунингдек, Стэндфорд ва Беркли университетларининг компьютер тизимларини тадқиқ қилиш гуруҳи томонидан ишлаб чиқилган. Тизим концепциясининг аниқлиги, унинг кўчириб бўлишлилиги ва кўламлилиги, ўрнатиш ва қўллашнинг соддалиги, тармоқ компонентларининг оператив тизимга ўрнатиб бўлишлик, юқори унумдорлик (тармоқ алмашиниш тезлиги 1 Mbyte/s га етади) тизимнинг афзалликларига кирди. Тизим тўхташларга чидамли.

## О

### **Операционная система Unix Ware**

**uz** - Unix Ware operatsion tizimi

Unix Ware операцион тизими

**en** - operating system

Unix Ware

Графическая 32-битная операционная система, основанная на UNIX, разработана фирмой Novell. В этой системе возможна работа с приложениями для UNIX, MS-DOS, Windows.

Grafik, 32 bitli operatsion tizim, *UNIX* ga asoslangan, *Novell* firmasi tomonidan ishlab chiqilgan. Bu tizimda *UNIX*, *MS-DOS*, *Windows* uchun mo'ljallangan ilovalar bilan ishlash mumkin.

График, 32 битли операцион тизим, UNIX га асосланган, Novell фирмаси томонидан ишлаб чиқилган. Бу тизимда UNIX, MS-DOS, Windows учун мўлжалланган иловалар билан ишлаш мумкин.

### **Операционная система**

**uz** - operatsion tizim

операцион тизим

**en** - operating system

Комплекс программных обеспечений, которые управляют ресурсами электронной вычислительной машины, работают с прикладными программами и внешними устройствами, обеспечивают взаимосвязь между другими программами, а также интерфейс между пользователем и компьютером.

Elektron-hisoblash mashinasi resurslarini boshqarish, amaliy dasturlarni ishga tushirish va ularning tashqi qurilmalar, boshqa dasturlar bilan o'zaro aloqasini amalga oshiradigan, shuningdek, foydalanuvchining kompyuter bilan muloqotini ta'minlaydigan dasturiy vositalar yig'indisi.

Электрон-ҳисоблаш машинаси ресурсларини бошқариш, амалий дастурларни ишга тушириш ва уларнинг ташқи қурилмалар, бошқа дастурлар билан ўзаро алоқасини амалга оширадиган, шунингдек, фойдаланувчининг компьютер билан мулоқотини таъминлайдиган дастурий воситалар йиғиндиси.

### **Операция**

**uz** - amal

амал

**en** - operation

Действия, производимые над объектами языка программирования, данными, переменными, константами, функциями – операндами. В зависимости от типа операндов различают операции арифметические, строковые (символьные), логи-

## О

ческие, файловые. В зависимости от количества операндов различают одноместные (унарные), двухместные (бинарные) и многоместные (n-арные) операции. В принципе операции определяются языком программирования.

Dasturlash tili obyektlari, ma'lumotlar, o'zgaruvchilar, konstantalar, funksiyalar – operandlar ustida bajariladigan ish. Operandlarning turiga bog'liq ravishda, arifmetik, satrli (simvulli), mantiqiy, faylli amallar farqlanadi. Operandlarning soniga bog'liq ravishda, bir o'rinli (unar), ikki o'rinli (binar) va ko'p o'rinli (*n*-ar) amallar farqlanadi. Umuman olganda, amallar dasturlash tili bilan belgilanadi.

Дастурлаш тили объектлари, маълумотлар, ўзгарувчилар, константалар, функциялар – операндлар устида бажариладиган иш. Операндларнинг турига боғлиқ равишда, арифметик, сатрли (символли), мантиқий, файлли амаллар фарқланади. Операндларнинг сонига боғлиқ равишда, бир ўринли (унар), икки ўринли (бинар) ва кўп ўринли (*n*-ар) амаллар фарқланади. Умуман олганда, амаллар дастурлаш тили билан белгиланади.

### Оптимизация системы

**uz** - tizimni optimallashtirish

tizimni optimallashtirish

**en** - system optimization

Процесс совершенствования системы, для которого задаются критерий оптимизации, параметры оптимизации и ограничения.

Optimallashtirish kriteriysi, optimallashtirish parametrlari va cheklashlar belgilanadigan, tizimni takomillashtirish jarayoni.

Оптималлаш критерийси, оптималлаш параметрлари ва чеклашлар белгиланадиган, тизимни такомиллаштириш жараёни.

### Оптический диск

**uz** - optik disk

optik disk

**en** - optical disc

Носитель информации, выполненный в виде диска, чтение с которого ведется с помощью оптического излучения. Диск обычно плоский, его основа сделана из поликарбоната, на который нанесён специальный слой, который и служит для хранения информации. Для считывания информации используется обычно луч лазера, кото-

## О

рый направляется на специальный слой и отражается от него.

О‘qish optik nurlanish yordamida boradigan disk ko‘rinishidagi axborot tashuvchi. Disk odatda, yassi bo‘lib, asosi polikarbonatdan qilingan. Polikarbonat asosga axborotni saqlash uchun xizmat qiladigan maxsus qatlam surtilgan. Axborotni o‘qish uchun maxsus qatlamga yo‘naltiriladigan va undan qaytadigan lazer nuridan foydalaniladi.

Ўқиш оптик нурланиш ёрдамида борадиган диск кўринишидаги ахборот ташувчи. Диск одатда, ясси бўлиб, асоси поликарбонатдан қилинган. Поликарбонат асосга ахборотни сақлаш учун хизмат қиладиган махсус қатлам суртилган. Ахборотни ўқиш учун махсус қатламга йўналтириладиган ва ундан қайтадиган лазер нуридан фойдаланилади.

### **Оптический накопитель**

**uz** - optik to‘plagich

оптик тўплағич

**en** - optical drive

Устройство для хранения данных, основанное на лазерной технологии. Оптические накопители делятся на типы: «только для чтения» (CD-ROM), «для чтения и однократной записи» (CD-R, Compact Disk-Recordable), «для чтения и многократной записи» (CD-RW, Compact Disk-Re Writable). Кроме этих типов имеются магнитооптические накопители и устройства DVD.

Lazer texnologiyasiga asoslangan ma’lumotlarni saqlash qurilmasi. Optik to‘plagichlar «faqat o‘qish uchun» (CD-ROM), «o‘qish va bir marta yozish uchun» (CD-R, Compact Disk-Recordable), «o‘qish va ko‘p marta yozish uchun» (CD-RW, Compact Disk-Re Writable) kabi turlarga bo‘linadi. Bu turlardan tashqari, magnitooptik to‘plagichlar va DVD qurilmalari bor.

Лазер технологиясига асосланган маълумотларни сақлаш қурилмаси. Оптик тўплағичлар «фақат ўқиш учун» (CD-ROM), «ўқиш ва бир марта ёзиш учун» (CD-R, Compact Disk-Recordable), «ўқиш ва кўп марта ёзиш учун» (CD-RW, Compact Disk-

## О

### **Оптоволоконный распределенный интерфейс данных**

**uz** - optik tolali taqsimlangan  
ma'lumotlar interfeysi

оптик толали

тақсимланган маълумотлар  
интерфейси

**en** - fiber distributed data  
interface (FDDI)

### **Оптоэлектроника**

**uz** - optoelektronika

оптоэлектроника

**en** - optoelectronics

Re Writable) каби турларга бўлинади. Бу турлардан ташқари, магнитооптик тўплагичлар ва DVD қурилмалари бор.

Стандарт для систем передачи данных в оптоволонных компьютерных сетях со скоростью 100 Mbit/s.

Optik tolali kompyuter tarmoqlarida ma'lumotlarni 100 Mbit/s tezlik bilan uzatish tizimlari uchun mo'ljallangan standart.

Оптик толали компьютер тармоқларида маълумотларни 100 Mbit/s тезлик билан узатиш тизимлари учун мўлжалланган стандарт.

Раздел электроники, занимающийся вопросами применения электромагнитных излучений оптического диапазона в устройствах хранения, обработки, передачи и отображения данных. Основные оптоэлектронные устройства: полупроводниковые лазеры (источники когерентного оптического излучения), светодиоды (источники некогерентного оптического излучения), фотодиоды (приемники оптического излучения).

Elektronikaning, optik diapazondagi elektromagnit nurlanishlarni ma'lumotlarni saqlash, qayta ishlash, uzatish va aks ettirish qurilmalarida qo'llanish masalalari bilan shug'ullanadigan bo'limi. Asosiy optoelektron qurilmalar: yarimo'tkazgichli lazerlar (kogerent optik nurlanish manbalari), yorug'lik diodlari (nokogerent optik nurlanish manbalari), fotodiodlar (optik nurlanishni qabulqilgichlar).

Электрониканинг, оптик диапазондаги электромагнит нурланишларни маълумотларни сақлаш, қайта ишлаш, узатиш ва акс эттириш қурилмаларида қўлланиш масалалари билан шуғулланган бўлими. Асосий оптоэлектрон қурилмалар: яримўтказгичли лазерлар (когерент оптик нурланиш манбалари), ёруғлик диодлари (нокогерент оптик нурланиш манбалари), фотодиодлар (оптик нурланишни қабулқилгичлар).

## О

### **Опция**

**uz** - opsiya

опция

**en** - menu option

Элемент меню, который можно выбрать для выполнения.

Bajarish uchun tanlab olinishi mumkin bo'lgan menu elementi.

Бажариш учун танлаб олиниси мумкин бўлган меню элементи.

### **Ориентированный граф**

**uz** - yo'naltirilgan graf

йўналтирилган граф

**en** - oriented graph

Граф, у которого каждое ребро имеет направление.

Har bir qirrası yo'nalishga ega bo'lgan graf.

Ҳар бир қирраси йўналишга эга бўлган граф.

### **Основная плата**

**uz** - asosiy plata

асосий плата

**en** - mainboard

Несущая («материнская») плата-шасси, где монтируются основные блоки аппарата, например, компьютера.

Apparatning, masalan kompyuterning asosiy bloklari joylashtiriladigan tutib turadigan («ona») plata-shassi.

Аппаратнинг, масалан компьютернинг асосий блоклари жойлаштириладиган тутиб турадиган («она») плата-шасси.

### **Открытая система**

**uz** - ochiq tizim

очиқ тизим

**en** - open circuit system

Система, разработчики которой делают общедоступными все необходимые стандарты разработанной системы. Это позволяет другому производителю создать подобную систему, улучшить ее характеристики, добавить собственные устройства или программные средства, организовать их взаимодействие. Примеры открытых систем: персональные компьютеры фирмы IBM, базы данных типа dBASE, Internet.

Ishlab chiquvchilar tomonidan ishlab chiqilgan tizimning barcha zarur standartlaridan umumfoydalanib bo'ladigan tizim. Bu, boshqa bir ishlab chiquvchiga o'xshash tizimni yaratish, uning xarakteristikalarini yaxshilash, o'z qurilmalari yoki dasturiy vositalarini qo'shish, ularning birgalikda ishlashini

## О

tashkil qilish imkonini beradi. Ochiq tizimlarga misollar: *IBM* firmasining shaxsiy kompyuterlari, *dBASE* turidagi ma'lumotlar bazalari, *Internet*.

Ишлаб чиқувчилар томонидан ишлаб чиқилган тизимнинг барча зарур стандартларидан умум-фойдаланиб бўладиган тизим. Бу, бошқа бир ишлаб чиқувчига ўхшаш тизимни яратиш, унинг характеристикаларини яхшилаш, ўз қурилмалари ёки дастурий воситаларини қўшиш, уларнинг биргаликда ишлашини ташкил қилиш имконини беради. Очiq тизимларга мисоллар: *IBM* фирмасининг шахсий компьютерлари, *dBASE* туридаги маълумотлар базалари, *Internet*.

### **Открытый интерфейс взаимодействия с базами данных**

**uz** - ma'lumotlar bazalari bilan birgalikda ishlash ochiq interfeysi

маълумотлар базалари билан биргаликда ишлаш очiq интерфейси  
**en** - open data base connectivity (interface) (ODBC)

### **Отладка программы**

**uz** - dasturni sozlash  
дастурни созлаш  
**en** - programme checkout

Программный комплекс, позволяющий получать доступ к данным в системах управления базами данных, использующих языки структурированных запросов. Разработан фирмой Microsoft.

Strukturalangan so'rovlar tilidan foydalaniladigan ma'lumotlar bazalarini boshqarish tizimlarida ma'lumotlardan erkin foydalanish imkonini beradigan dasturiy kompleks. *Microsoft* firmasi tomonidan ishlab chiqilgan.

Структураланган сўровлар тилидан фойдаланиладиган маълумотлар базаларини бошқариш тизимларида маълумотлардан эркин фойдаланиш имконини берадиган дастурий комплекс. *Microsoft* фирмаси томонидан ишлаб чиқилган.

Один из этапов разработки программ; проверяется правильность написания программы, выявляются и исправляются ошибки. Обычно отладка выполняется на контрольных примерах, близких к реальным, но с известными результатами. В современных языках программирования существуют специальные программы-отладчики, упрощающие процесс отладки.

Dasturlarni ishlab chiqish bosqichlaridan biri; dastur yozilishining to'g'riligi tekshiriladi, xatolar aniqlanadi va to'g'rilanadi. Odatda, sozlash ma'lum na-

## О

tijalar bo‘lgan real namunalarga yaqin nazorat namunalarda bajariladi. Hozirgi dasturlash tillarida sozlash jarayonini soddalashtiradigan sozlovchi dasturlar mavjud.

Дастурларни ишлаб чиқиш босқичларидан бири; дастур ёзилишининг тўғрилиги текширилади, хатолар аниқланади ва тўғриланади. Одатда, созлаш маълум натижалар бўлган реал намуналарга яқин назорат намуналарда бажарилади. Ҳозирги дастурлаш тилларида созлаш жараёнини соддалаштирадиган созловчи дастурлар мавжуд.

### Отладчик

**uz** - sozlovchi

созловчи

**en** - debugger

Программа для упрощения процесса отладки разрабатываемой программы. Обычно предоставляет возможность пошагового выполнения программы, установки контрольных точек, трассировки, просмотра значений переменных и пр.

Ishlab chiqiladigan dasturni sozlash jarayonini soddalashtiradigan dastur. Dasturning qadamlab bajarilish, nazorat nuqtalarini o‘rnatish, trassalashtirish, o‘zgaruvchilar qiymatlarini ko‘rib chiqish imkoniyatini beradi.

Ишлаб чиқиладиган дастурни созлаш жараёнини соддалаштирадиган дастур. Дастурнинг қадамлаб бажарилиш, назорат нуқталарини ўрнатиш, трассалаштириш, ўзгарувчилар қийматларини кўриб чиқиш имкониятини беради.

### Оцифровывание

**uz** - raqamlashtirish

рақамлаштириш

**en** - digitalization

Процесс преобразования аналогового сигнала в дискретный, цифровой. Используется при работе компьютера со звуковыми сигналами и изображениями, получаемыми от аналоговых устройств.

Analog signalni diskret, raqamli signalga aylantirish jarayoni. Kompyuter analog qurilmalardan olinadigan tovush signallari va tasvirlar bilan ishlashida foydalaniladi.

Аналог сигнални дискрет, рақамли сигналга айлантириш жараёни. Компьютер аналог қурилмалардан олинадиган товуш сигналлари ва тасвирлар билан ишлашида фойдаланилади.

### Очередь

Линейный список объектов, организованный по

## О

**uz** - navbat  
навбат  
**en** - queue

мере поступления объектов. Список меняется с приходом нового элемента и/или выбытием элемента. Очереди бывают на выполнение заданий процессором, вывод файлов на принтер.

Obyektlarning kelib tushishiga qarab tashkil qilingan chiziqli ro'yxat. Ro'yxat yangi element kelishi va/yoki elementning chiqarilishi bilan o'zgaradi. Protsessorning vazifalarni bajarish navbati, fayllarni printeriga chiqarish navbati bo'ladi.

Объектларнинг келиб тушишига қараб ташкил қилинган чизиқли рўйхат. Рўйхат янги элемент келиши ва/ёки элементнинг чиқарилиши билан ўзгаради. Процессорнинг вазифаларни бажариш навбати, файлларни принтерга чиқариш навбати бўлади.

## П

### Пакетная обработка

**uz** - paketli qayta ishlash  
пакетли қайта ишлаш  
**en** - batch operation

Организация выполнения нескольких программ в определенной последовательности с помощью команд операционной системы. Пакетная обработка организуется с помощью пакетных файлов.

Operatsion tizim yordamida ma'lum bir izchillikda bir nechta dasturning bajarilishini tashkil qilish. Paketli qayta ishlash paketli fayllar yordamida tashkil qilinadi.

Операцион тизим ёрдамида маълум бир изчилликда бир нечта дастурнинг бажарилишини ташкил қилиш. Пакетли қайта ишлаш пакетли файллар ёрдамида ташкил қилинади.

### Пакетный файл

**uz** - paketli fayl  
пакетли файл  
**en** - package file

Текстовый файл, каждую строку которого операционная система интерпретирует как свои команды. Используется для организации пакетной обработки. Один из типов выполняемых файлов. Разpoznается системой по расширению в имени файла.

Nar bir satrini operatsion tizim o'zining komandalari sifatida talqin qiladigan matnli fayl. Paketli qayta

## II

ishlashni tashkil qilish uchun foydalaniladi. Bajari-ladigan fayl turlaridan biri. Fayl nomida kengayish tizimi orqali aniqlanadi.

Ҳар бир сатрини операцион тизим ўзининг ко-мандалари сифатида талқин қиладиган матнли файл. Пакетли қайта ишлашни ташкил қилиш учун фойдаланилади. Бажариладиган файл тур-ларидан бири. Файл номида кенгайиш тизими орқали аниқланади.

### **Панель**

**uz** - panel  
панель  
**en** - panel

Выделенная прямоугольная область окна, в кото-рой размещаются меню или набор кнопок.

Oynaning, menyu yoki tugmalar to‘plami joylash-gan, to‘g‘riburchakli ajratilgan sohasi.

Ойнининг, меню ёки тугмалар тўплами жойлаш-ган, тўғрибурчакли ажратилган соҳаси.

### **Папка**

**uz** - папка  
папка  
**en** - folder

С точки зрения объектно-ориентированного прог-раммирования, объект, являющийся контейнером для файлов и ресурсов компьютера.

Obyektga yo‘naltirilgan dasturlash nuqtai nazaridan qaraganda, kompyuter resurslari va fayllar uchun konteyner hisoblanadigan obyekt.

Объектга йўналтирилган дастурлаш нуқтаи наза-ридан қараганда, компьютер ресурслари ва файл-лар учун контейнер ҳисобланадиган объект.

### **Параллельная обработка**

**uz** - parallel qayta ishlash  
параллел қайта ишлаш  
**en** - parallel operation

Одновременное выполнение нескольких процес-сов в компьютере. В общем случае для ее выпол-нения необходимы многопроцессорные системы. Параллельная обработка ускоряет выполнение задач.

Kompyuterda bir nechta jarayonning bir vaqtda ba-jarilishi. Umumiy holda, bu jarayonning bajarilishi uchun ko‘p protsessorli tizimlar zarur. Parallel qayta ishlash vazifalar bajarilishini tezlashtiradi.

Компьютерда бир нечта жараённинг бир вақтда

## П

бажарилиши. Умумий ҳолда, бу жараённинг бажарилиши учун кўп процессорли тизимлар зарур. Параллел қайта ишлаш вазифалар бажарилишини тезлаштиради.

### Параллельный порт

**uz** - parallel port

параллел порт

**en** - parallel port

Порт, осуществляющий ввод/вывод данных байтами (все биты одновременно). Параллельный порт передает данные быстрее, чем последовательный, обычно к нему подключают принтер.

Ма'lumotlarning baytlar bilan (barcha bitlar bir vaqtda) kiritilishi/chiqarilishi amalga oshiriladigan port. Parallel port ma'lumotlarni ketma-ket portga nisbatan tezroq uzatadi, odatda unga printer ulanadi.

Маълумотларнинг байтлар билан (барча битлар бир вақтда) киритилиши/чиқарилиши амалга ошириладиган порт. Параллел порт маълумотларни кетма-кет портга нисбатан тезроқ узатади, одатда унга принтер уланади.

### Параметр

**uz** - paramert

параметрт

**en** - parameter

Переменная величина, значение которой передается подпрограмме (процедуре, функции) из внешней среды. Параметры разделяются на формальные и фактические. Формальными параметрами называются переменные, представленные своими именами. Над ними производятся в общем виде все необходимые действия при написании подпрограммы. Фактическими параметрами называются переменные или их значения, представленные при использовании подпрограмм вместо формальных параметров.

Qiymati kichik dasturga (protseduraga, funksiyaga) tashqi muhitdan beriladigan o'zgaruvchan kattalik. Formal va faktik parametrlar ajratiladi. O'z nomi bilan ko'rsatilgan o'zgaruvchilar formal parametrlar deb ataladi. Ular ustida kichik dasturlarni yozishda umumiy ko'rinishda barcha zarur ishlar amalga oshiriladi. Kichik dasturlardan formal parametrlar o'rniga foydalanishda taqdim etilgan o'zgaruvchilar yoki ularning qiymatlari faktik parametrlar deb ataladi.

Қиймати кичик дастурга (процедурага, функция-

## II

га) ташқи муҳитдан бериладиган ўзгарувчан катталик. Формал ва фактик параметрлар ажратилди. Ўз номи билан кўрсатилган ўзгарувчилар формал параметрлар деб аталади. Улар устида кичик дастурларни ёзишда умумий кўринишда барча зарур ишлар амалга оширилади. Кичик дастурлардан формал параметрлар ўрнига фойдаланишда тақдим этилган ўзгарувчилар ёки уларнинг қийматлари фактик параметрлар деб аталади.

### Параметр цикла

**uz** - sikl parametri

цикл параметри

**en** - loop variable

Переменная, управляющая выполнением цикла. В любом цикле программы имеется параметр, меняющий свое значение при каждом проходе тела цикла. Если такого параметра нет, цикл построен неправильно и есть возможность заикливания. При программировании иногда строят «вечные» циклы, выход из которых осуществляется специальными командами. В таких циклах нет параметров цикла, что нарушает стиль программирования.

Sikl bajarilishini boshqaradigan o'zgaruvchi. Dasturning har bir siklida o'z qiymatini sikl jismining har bir o'tishida o'zgartiradigan parametr bor. Agar bunday parametr bo'lmasa, sikl noto'g'ri tuzilgan va sikllanish imkoniyati yuzaga keladi. Dasturlashda ba'zan «abadiy» sikllar quriladi, ulardan chiqib ketish maxsus komandalar orqali amalga oshiriladi. Bunday sikllarda sikl parametrlari bo'lmaydi, bu esa, dasturlash uslubini buzadi.

Цикл бажарилишини бошқарадиган ўзгарувчи. Дастурнинг ҳар бир циклида ўз қийматини цикл жисмининг ҳар бир ўтишида ўзгартирадиган параметр бор. Агар бундай параметр бўлмаса, цикл нотўғри тузилган ва циклланиш имконияти юзага келади. Дастурлашда баъзан «абადий» цикллар қурилади, улардан чиқиб кетиш махсус командалар орқали амалга оширилади. Бундай циклларда цикл параметрлари бўлмайди, бу эса, дастурлаш услубини бузади.

### Пароль

1 Код (последовательность символов), использу-

## П

**uz** - parol  
пароль  
**en** - password

емый для получения доступа к закрытой (защищенной) системе.

2 Средство защиты, используемое для управления входом в систему по учетным записям пользователей, а также организации доступа к компьютерам и ресурсам.

1 Yopiq (himoyalangan) tizimga kira olish uchun foydalaniladigan kod (belgilar ketma-ketligi).

2 Foydalanuvchilarning tizimga kirishida foydalaniladigan himoya vositasi, shuningdek, tashkilotlarda kompyuterlar va resurslarga kirish uchun qo'llaniladi.

1 Ёпиқ (ҳимояланган) тизимга кира олиш учун фойдаланиладиган код (белгилар кетма-кетлиги).

2 Фойдаланувчиларнинг тизимга киришида фойдаланиладиган ҳимоя воситаси, шунингдек, ташкilotларда компьютерлар ва ресурсларга кириш учун қўлланилади.

**Пейджерная связь**  
**uz** - peyjerli aloqa  
пейджерли алоқа  
**en** - pager communication

Алфавитно-цифровая система односторонней радиосвязи. На узле системы устанавливается радиопередатчик на сверхвысоких частотах. Абоненты системы всегда носят с собой устройства приема сообщений – пейджер. Пейджер – это приемник с дисплеем, на котором отображается сообщение. Для передачи сообщения на пейджер необходимо знать номер телефона оператора системы пейджерной связи и номер пейджера. Оператор, получив по телефону передаваемое сообщение, вводит его в компьютер, который посылает на пейджер алфавитно-цифровое радиосообщение.

Alifbo-raqamli bir tomonlama radioaloqa tizimi. Tizim uzelida o'ta yuqori chastotalarda ishlaydigan radiouzatkich o'rnatiladi. Tizim abonentlari har doim o'zlari bilan xabarlarni qabul qiluvchi qurilma – peyjer olib yuradilar. Peyjer – bu, xabar aks etadigan displeyli qabulqilgichdir. Xabarni peyjerga uzatish uchun, peyjerli aloqa tizimi operatorining telefon raqamini va peyjer raqamini bilish zarur. Operator

## II

telefon orqali uzatiladigan xabarni olgach, uni kompyuterga kiritadi. Kompyuter peyjerga alifbo-raqamli radioxabar jo‘natadi.

Алифбо-рақамли бир томонлама радиоалоқа тизими. Тизим узелида ўта юқори частоталарда ишлайдиган радиоузаткич ўрнатилади. Тизим абонентлари ҳар доим ўзлари билан хабарларни қабул қилувчи қурилма – пейжер олиб юрадилар. Пейжер – бу, хабар акс этадиган дисплейли қабулқилгичдир. Хабарни пейжерга узатиш учун, пейжерли алоқа тизими операторининг телефон рақамини ва пейжер рақамини билиш зарур. Оператор телефон орқали узатиладиган хабарни олгач, уни компьютерга киритади. Компьютер пейжерга алифбо-рақамли радиоxabар жўнатади.

### **Перебор**

**uz** - saralash

саралаш

**en** - search

Способ поиска нужного элемента в некотором множестве. Методы полного перебора в реальных задачах требуют очень много машинного времени, поэтому целесообразно использовать, если это возможно, методы направленного поиска.

Qandaydir ko‘plikdagi kerakli elementni izlab topish usuli. To‘la saralash metodlari real vazifalarda juda ko‘p mashina vaqtini talab qiladi, shuning uchun, imkoni bo‘lsa, yo‘naltirilgan izlab topish metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Қандайдир кўпликдаги керакли элементни излаб топиш усули. Тўла саралаш методлари реал вазифаларда жуда кўп машина вақтини талаб қилади, шунинг учун, имкони бўлса, йўналтирилган излаб топиш методларидан фойдаланиш мақсадга мувофиқ.

### **Перевод машинный**

**uz** - mashina tarjiması

машина таржимаси

**en** - automatic translation

Преобразование текста или речи с одного естественного языка на другой с использованием компьютера. Работы по созданию программы, полностью автоматизирующий процесс перевода, ведутся несколько десятилетий. Наилучший результат достигается при переводе технических текстов, но обойтись без проверки и исправлений

## II

полученного перевода человеком не удастся. Существует много подходов к решению этой проблемы; один из них предложен фирмой IBM: строится самообучающаяся система, переводящая с одного языка на другой и обратно со сравнением результатов.

Matn yoki nutqni, kompyuterdan foydalanib bir tabiiy tildan boshqa bir tabiiy tilga o'zgartirish. Tarjima jarayoni to'la avtomatlashtiriladigan dasturni yaratish bo'yicha ishlar o'nlab yillardan buyon olib borilmoqda. Texnik matnlarni tarjima qilishda eng yaxshi natijaga erishilmoqda, lekin olingan tarjimani tekshirish va tuzatishda odamning ishtiroki baribir taqozo qilinmoqda. Bu muammoni hal qilish yuzasidan ko'plab yondashuvlar mavjud; shunday yondashuvlardan biri *IBM* firmasi tomonidan taklif qilingan: natijalar solishtiriladigan bir tildan boshqa tilga va aksincha, tarjima qiladigan, mustaqil ravishda o'rgatadigan tizim yaratilmoqda.

Matn ёки нутқни, компьютёрдан фойдаланиб бир табиий тилдан бошқа бир табиий тилга ўзгартириш. Таржима жараёни тўла автоматлаштириладиган дастурни яратиш бўйича ишлар ўнлаб йиллардан буён олиб борилмоқда. Техник матнларни таржима қилишда энг яхши натижага эришилмоқда, лекин олинган таржимани текшириш ва тузатишда одамнинг иштироки барибир тақозо қилинмоқда. Бу муаммони ҳал қилиш юзасидан кўплаб ёндашувлар мавжуд; шундай ёндашувлардан бири *IBM* фирмаси томонидан таклиф қилинган: натижалар солиштириладиган бир тилдан бошқа тилга ва аксинча, таржима қиладиган, мустақил равишда ўргатадиган тизим яратилмоқда.

### **Перезаписываемый компакт-диск**

**uz** - qayta yoziladigan kompakt-disk

қайта ёзиладиган компакт-диск

**en** - compact disk re writable

Устройство для чтения и записи данных на компакт-дисках.

Kompakt - disklardagi ma'lumotlarni o'qish va yozish uchun xizmat qiladigan qurilma.

Компакт - дисклардаги маълумотларни ўқиш ва

## II

(CD-RW)

**Переменная**

**uz** - o'zgaruvchi

ўзгарувчи

**en** - variable

ёзиш учун хизмат қиладиган қурилма.

Объект языка программирования. В алгоритмических языках переменная – это именованная часть памяти. В эту область памяти могут помещаться разные значения переменной, но в каждый момент времени это должно быть единственным значением.

Dasturlash tili obyekt. Algoritmik tillarda o'zgaruvchi – bu, хотиранинг номланган қисмидир. Хотиранинг бу қисмига о'згарувчининг турли қийматлари жойлаштирилиши мумкин, лекин ҳар бир вақт онда бу ягона қиймат бўлиши керак.

Дастурлаш тили объекти. Алгоритмик тилларда ўзгарувчи – бу, хотиранинг номланган қисмидир. Хотиранинг бу қисмига ўзгарувчининг турли қийматлари жойлаштирилиши мумкин, лекин ҳар бир вақт онда бу ягона қиймат бўлиши керак.

**Периферийные устройства**

**uz** - periferik qurilmalar

периферик қурилмалар

**en** - peripherals

Устройства, подключаемые к компьютеру через порты ввода/вывода и обеспечивающие решение обширного спектра задач.

Компьютерга кiritish/chiqarish portlari orqali ulandigan va keng ko'lamdagi vazifalar hal qilinishini ta'minlaydigan qurilmalar.

Компьютерга киритиш/чиқариш портлари орқали уланадиган ва кенг қўламдаги вазифалар ҳал қилинишини таъминлайдиган қурилмалар.

**Перо**

**uz** - pero

перо

**en** - calligraphic pen

Устройство ввода; по виду представляет собой авторучку, которая может писать на экране дисплея. Очень удобное средство ввода, особенно для графических данных. Пером можно вводить рукописный текст, если имеется программа оптического распознавания символов.

Kiritish qurilmasi; ko'rinishiga qarab, displey ekranida yoza oladigan avtoruchkani o'zida ifodalaydi. Juda qulay kiritish vositasi, ayniqsa grafik ma'lumotlar uchun. Pero bilan qo'lyozma matnni ham kiritish mumkin, agar simvollarni optik aniqlash dastu-

## П

ri bo'lsa.

Киритиш қурилмаси; кўринишига қараб, дисплей экранида ёза оладиган авторучкани ўзида ифода-лайди. Жуда қулай киритиш воситаси, айниқса график маълумотлар учун. Перо билан қўлёзма матнни ҳам киритиш мумкин, агар символларни оптик аниқлаш дастури бўлса.

### Персональный компьютер

**uz** - shaxsiy kompyuter

шахсий компьютер

**en** - personal computer

Компьютер, предназначенный для индивидуального использования. Основные критерии отнесения компьютера к классу персональных компьютеров: малые размеры, отсутствие необходимости их обслуживать, низкая цена, функциональная универсальность и простота модернизации. История создания персональных компьютеров начинается с 1974г., когда фирма MITS (США) разработала компьютер Altair на основе микропроцессора Intel 8080. В 1975 г. Стефан Возняк и Стив Джобс разработали и собрали первые 200 компьютеров под названием Apple. В конце 1976г. они создали фирму Apple, специализирующуюся на производстве персональных компьютеров.

Individual foydalanish uchun mo'ljallangan kompyuter. Kompyuterni shaxsiy kompyuterlar klassiga kiritishning asosiy kriteriyalari: o'lchamlarining kichikligi, ularga xizmat ko'rsatish zaruratining yo'qligi, narxining pastligi, funksional universalligi va modernizatsiyalashning soddaligi. Shaxsiy kompyuterlarning yaratilish tarixi 1974 yildan boshlanadi. Shu yili MITS (AQSh) firmasi Intel 8080 mikroprotssori asosida Altair kompyuterini ishlab chiqdi. 1975 yilda Stefan Voznyak va Stiv Jobs Apple nomi ostida kompyuter ishlab chiqdilar va dastlabki 200 ta kompyuterni yig'dilar. 1976 yilning oxirida ular shaxsiy kompyuterlar ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan Apple firmasini tuzdilar.

Индивидуал фойдаланиш учун мўлжалланган компьютер. Компьютерни шахсий компьютерлар классига киритишнинг асосий критерийлари: ўлчамларининг кичиклиги, уларга хизмат кўрсатиш

## II

заруратининг йўқлиги, нархининг пастлиги, функционал универсаллиги ва модернизациялашнинг соддалиги. Шахсий компьютерларнинг яратилиш тарихи 1974 йилдан бошланади. Шу йили MITS (АҚШ) фирмаси Intel 8080 микропроцессори асосида Altair компьютерини ишлаб чиқди. 1975 йилда Стефан Возняк ва Стив Жобс Apple номи остида компьютер ишлаб чиқдилар ва дастлабки 200 та компьютерни йиғдилар. 1976 йилнинг охирида улар шахсий компьютерлар ишлаб чиқаришга ихтисослаштирилган Apple фирмасини туздилар.

### **Персональный цифровой секретарь**

**uz** - shaxsiy raqamli sekretar

шахсий рақамли

секретарь

**en** - personal digital assistant

Вид портативного компьютера, у которого, как правило, отсутствует клавиатура, ввод/вывод данных осуществляется на сенсорную панель с помощью специальной ручки. Поэтому его иногда называют компьютером с рукописным вводом. Персональный цифровой секретарь имеет большую оперативную и постоянную память. Возможен обмен данных с другим компьютером через параллельный или последовательный интерфейс. Работает под управлением специальной операционной системы. Наиболее известный персональный цифровой секретарь – Newton фирмы Apple.

Odatda, klaviaturasi bo'lmaydigan portativ kompyuterning bir turi. Ma'lumotlarni sensorli panelga kiritish/chiqarish maxsus ruchka yordamida amalga oshiriladi. Shuning uchun, ba'zan qo'lda yozish bilan kiritiladigan kompyuter deb ham ataladi. Shaxsiy raqamli sekretar katta operativ va doimiy хотирага ega. Parallel yoki ketma-ket interfeys orqali boshqa kompyuter bilan ma'lumotlar almashinish mumkin. Maxsus operatsion tizim boshqaruvi ostida ishlaydi. Shaxsiy raqamli sekretarning eng mashhuri *Apple* firmasining *Newton* idir.

Одатда, клавиатураси бўлмайдиган портатив компьютернинг бир тури. Маълумотларни сенсорли панелга киритиш/чиқариш махсус ручка ёрдамида амалга оширилади. Шунинг учун, баъзан қўлда ёзиш билан киритиладиган компью-

## П

тер деб ҳам аталади. Шахсий рақамли секретарь катта оператив ва доимий хотирага эга. Параллел ёки кетма-кет интерфейс орқали бошқа компьютер билан маълумотлар алмашилиши мумкин. Махсус операцион тизим бошқаруви остида ишлайди. Шахсий рақамли секретарнинг энг машҳури Apple фирмасининг Newton идир.

### **Пиктограмма**

**uz** - piktogramma

пиктограмма

**en** - icon

Графическое изображение какого-либо действия, предупреждения, объекта (программа, файл) или понятия. Используется в графических интерфейсах для быстрого понимания и освоения, причем подбираются наиболее общие, понятные образы.

Qandaydir harakatning, o'gohlantirishning, obyektning (dastur, fayl) yoki tushunchaning grafik tasviri. Grafik interfeyslarda tezda tushunish va o'zlashtirish uchun foydalaniladi, bunda eng umumiy, tushunarli obrazlar tanlanadi.

Қандайдир ҳаракатнинг, огоҳлантиришнинг, объектнинг (дастур, файл) ёки тушунчанинг график тасвири. График интерфейсларда тезда тушуниш ва ўзлаштириш учун фойдаланилади, бунда энг умумий, тушунарли образлар танланади.

### **Плата печатная**

**uz** - bosma plata

босма плата

**en** - edge board

Пластина из диэлектрического материала (например, стеклотекстолита), на которой специальными методами (например, травления или электрохимического осаждения) создают проводники, соединяющие электронные устройства (транзисторы, интегральные схемы и пр.), закрепленные на этой пластине. Печатными платами являются системные платы и платы расширения.

Dielektrik material (masalan, shisha tekstolit) dan qilingan plastina. Bu plastinada maxsus metodlar (masalan, kimyoviy usul bilan ishlov berish yoki elektrokimyoviy cho'ktirish) bilan, plastinada mahkamlangan elektron qurilmalar (tranzistorlar, integral sxemalar) ni birlashtiradigan o'tkazgichlar hosil qilinadi. Tizim platalari va kengayish platalari bosma platalar hisoblanadi.

## П

Диэлектрик материал (масалан, шиша текстолит) дан қилинган пластина. Бу пластинада махсус методлар (масалан, кимёвий усул билан ишлов бериш ёки электрокимёвий чўктириш) билан, пластинада маҳкамланган электрон қурилмалар (транзисторлар, интеграл схемалар) ни бирлаштирадиган ўтказгичлар ҳосил қилинади. Тизим платалари ва кенгайиш платалари босма платалар ҳисобланади.

### **Плата расширения**

**uz** - kengayish platasi  
кенгайиш платаси  
**en** - expansion card

Плата печатная, на которой установлены адаптеры устройств ввода/вывода (дисководов, модемов, сети) и пр.

Kiritish/chiqarish qurilmalari (diskovodlar, modemlar, tarmoq) adapterlari oʻrnatilgan bosma plata.

Киритиш/чиқариш қурилмалари (дисководлар, модемлар, тармоқ) адаптерлари ўрнатилган босма плата.

### **Плата системная**

**uz** - tizim platasi  
tizim platasi  
**en** - motherboard

Плата печатная, на которой установлены основные компоненты компьютера: микропроцессор, память (постоянная, оперативная, видео), адаптеры ввода/вывода и пр. Системная плата определяет шины, используемые в персональном компьютере. Иногда называют «материнской» или главной платой.

Kompyuterning asosiy komponentlari: mikroprotsesor, хотира (doimiy, operativ, video), kiritish/chiqarish adapterlari oʻrnatilgan bosma plata. Tizim platasi shaxsiy kompyuterda foydalaniladigan shinalarni belgilaydi. Baʼzan, «ona» yoki asosiy plata deb ham ataladi.

Компьютернинг асосий компонентлари: микропроцессор, хотира (доимий, оператив, видео), киритиш/чиқариш адаптерлари ўрнатилган босма плата. Тизим платаси шахсий компьютерда фойдаланиладиган шиналарни белгилайди. Баъзан, «она» ёки асосий плата деб ҳам аталади.

### **Платформа**

Тип операционной системы, установленной в мо-

## П

**uz** - platforma  
платформа  
**en** - platform

бильном телефоне (смартфоне) или обычном компьютере. Для современных смартфонов существует 4 основных типа платформ: Palm OS, Symbian, Linux и Pocket PC/Windows Mobile.

Oddiy kompyuterlarda yoki mobil telefonlarga oʻrnatilgan operatsion tizim turi. Zamonaviy smartfonlar uchun 4 ta asosiy turdagi platforma mavjud: *Palm OS, Symbian, Linux va Pocket PC/Windows Mobile.*

Оддий компьютерларда ёки мобил телефонларга ўрнатилган операцион тизим тури. Замонавий смартфонлар учун 4 та асосий турдаги платформа мавжуд: *Palm OS, Symbian, Linux va Pocket PC/Windows Mobile.*

**Плоский корпус с четырехсторонним расположением выводов**

**uz** - chiqish uchlari toʻrt tomonda joylashgan yassi korpus

чиқиш учлари тўрт томонда жойлашган ясси корпус

**en** - quad flat package (QFP)

Семейство корпусов микросхем, имеющих планарные выводы, расположенные по всем четырем сторонам. Количество выводов QFP микросхем обычно не превышает 200, с шагом от 0,4 до 1,0 мм.

Barcha toʻrt tomon boʻylab joylashgan planar chiqish uchlari boʻlgan mikrosxemalar korpuslari oilasi. *QFP* mikrosxemalar chiqish uchlarning soni odatda, 200 dan oshmaydi, qadami 0,4 mm dan 1,0 mm gacha.

Барча тўрт томон бўйлаб жойлашган планар чиқиш учлари бўлган микросхемалар корпуслари оиласи. *QFP* микросхемалар чиқиш учларининг сони одатда, 200 дан ошмайди, қадами 0,4 mm дан 1,0 mm гача.

**Плоттер**

**uz** - plotter  
плоттер  
**en** - plotter

Устройство вывода графической информации на бумажный или иной носитель.

Примечание – Различают перьевые, карандашные, струйные, электростатические графопостроители, плоттеры прямого вывода изображения, термоплоттеры и лазерные графопостроители.

Grafik axborotni qogʻoz tashuvchiga yoki boshqa bir tashuvchiga chiqarish qurilmasi.

Izoh – Peroli, qalamli, purkagichli, elektrostatik graftuz-

## II

gichlar, tasvir to'g'ridan-to'g'ri chiqariladigan plotterlar, termoplotterlar va lazer graftuzgichlar ajratiladi.

График ахборотни қоғоз ташувчига ёки бошқа бир ташувчига чиқариш қурилмаси.

Изоҳ – Пероли, қаламли, пуркагичли, электростатик графтузгичлар, тасвир тўғридан-тўғри чиқариладиган плоттерлар, термоплоттерлар ва лазер графтузгичлар ажратилади.

### Повторение

**uz** - takrorlanish

такрорланиш

**en** - repetition

Одна из трех основных структур, используемых при составлении алгоритмов; позволяет в зависимости от условий выполнять отдельные шаги алгоритма несколько раз. В некоторых источниках эта структура называется циклом.

Algoritmnlarni tuzishda foydalaniladigan uchta asosiy strukturadan biri; sharoitga bog'liq ravishda, algoritmning ayrim qadamlarini bir necha marta bajarish imkonini beradi. Ba'zi manbalarda bu struktura sikl deb ataladi.

Алгоритмларни тузишда фойдаланиладиган учта асосий структурадан бири; шароитга боғлиқ равишда, алгоритмнинг айрим қадамларини бир неча марта бажариш имконини беради. Баъзи манбаларда бу структура цикл деб аталади.

### Повторитель

**uz** - takrorlagich

такрорлагич

**en** - repeater

Электронное устройство для усиления и регенерации сигнала в компьютерной сети при увеличении длины кабеля между элементами сети.

Tarmoq elementlari orasida kabel uzunligi oshganda, kompyuter tarmog'idagi signalni kuchaytiradigan va regeneratsiyalaydigan elektron qurilma.

Тармоқ элементлари орасида кабель узунлиги ошганда, компьютер тармоғидаги сигнални кучайтирадиган ва регенерациялайдиган электрон қурилма.

### Подкаталог

**uz** - kichik katalog

кичик каталог

**en** - subdirectory

Каталог файлов, входящий в другой каталог.

Boshqa katalogga kiradigan fayllar katalogi.

## II

Бошқа каталогга кирадиган файллар каталоги.

### Подпрограмма

**uz** - kichik dastur

кичик дастур

**en** - sub-programme

Часть программы, оформленная специальным образом; к ней можно обращаться из других программ по мере необходимости. Во многих языках программирования совпадает с понятием процедура. Используется для замены часто повторяющихся фрагментов программ и для достижения большей ее компактности.

Dasturning maxsus ravishda rasmiylashtirilgan qismi; unga zarur bo'lganda boshqa dasturlardan murojaat qilish mumkin. Ko'plab dasturlash tillarida protsedura tushunchasi bilan mos tushadi. Dasturning tez-tez takrorlanadigan fragmentlarini almashtirish va uning kompaktligiga erishish uchun foydalaniladi.

Дастурнинг махсус равишда расмийлаштирилган қисми; унга зарур бўлганда бошқа дастурлардан муурожаат қилиш мумкин. Кўплаб дастурлаш тилларида процедура тушунчаси билан мос тушади. Дастурнинг тез-тез такрорланадиган фрагментларини алмаштириш ва унинг компактлигига эришиш учун фойдаланилади.

### Подсказка

**uz** - yo'l ko'rsatish

йўл кўрсатиш

**en** - tool tip

Сообщение пользователю компьютера или системы о том, чего ждет от него выполняемая в данный момент программа. Сообщение должно быть кратким и понятным, иногда оно может быть условным.

Kompyuter yoki tizimning, berilgan onda bajariladigan dastur foydalanuvchidan nima kutishligi to'g'risida foydalanuvchiga yuboradigan xabari. Xabar qisqa va tushunarli bo'lishi kerak, ba'zida u shartli bo'lishi mumkin.

Компьютер ёки тизимнинг, берилган онда бажариладиган дастур фойдаланувчидан нима кутишлиги тўғрисида фойдаланувчига юборадиган хабари. Хабар қисқа ва тушунарли бўлиши керак, баъзида у шартли бўлиши мумкин.

### «Подсоединяй и работай»

**uz** - «ula va ishla»

Набор спецификаций быстрого подключения и автоматического конфигурирования дополни-

## П

«ула ва ишла»  
**en** - plug-n-play

тельного аппаратного оборудования, подключаемого к компьютеру: модема, принтера, аудиокарты и пр. Позволяет компьютерам автоматически обнаруживать устройства, а также устанавливать соответствующие драйверы. Исключает проблемы, связанные с установкой переключателей и перемычек.

Kompyuterga ulanadigan qo‘shimcha uskuna: modem, printer, audikartani tezda ulash va avtomatik tarzda konfiguratsiyalash spetsifikatsiyalari to‘plami. Kompyuterlarga o‘rnatiladigan qurilmalarni avtomatik tarzda aniqlash va sozlash, shuningdek, tegishli drayverlarni o‘rnatish imkonini beradi. Almashlab-ulgichlar va peremichkalarni o‘rnatish bilan bog‘liq muammolarni bartaraf qiladi.

Компьютерга уланадиган қўшимча ускуна: модем, принтер, аудикартани тезда улаш ва автоматик тарзда конфигурациялаш спецификациялари тўплами. Компьютерларга ўрнатиладиган қурилмаларни автоматик тарзда аниқлаш ва созлаш, шунингдек, тегишли драйверларни ўрнатиш имконини беради. Алмашлаб-улагичлар ва перемичкаларни ўрнатиш билан боғлиқ муаммоларни бартараф қилади.

**Позиционная система  
счисления**  
**uz** - pozitsion sanoq tizimi  
позицион саноқ тизими  
**en** - positional computation  
system

Система счисления, при которой имеет значение местоположение цифр в записи числа. В каждой позиционной системе счисления имеется основание. Любое число записывается в виде последовательности из цифр основания. Количество цифр основания равно самому основанию. Основание показывает, во сколько раз вес каждой цифры меньше веса цифры, стоящей в старшем соседнем разряде. Количество построенных позиционных систем счисления может быть любым. В информатике используются в основном четыре системы: десятичная, двоичная, восьмеричная и шестнадцатеричная. Позиционные системы счисления очень удобны для вычислений, представления как целых, так и дробных чисел.

Sonlarni yozishda raqamlarning joylashgan o‘rni

## II

ahamiyatga ega bo'ladigan sanoq tizimi. Har bir pozitsion sanoq tizimida asos bo'ladi. Har qanday son asos raqamlardan tuzilgan ketma-ketlik ko'rinishida yoziladi. Asos raqamlari soni asosning o'ziga teng bo'ladi. Asos, har bir raqamning salmog'i katta qo'shni razryadda turgan raqam salmog'idan necha marta kichikligini ko'rsatadi. Qurilgan pozitsion sanoq tizimlarining soni har qanday bo'lishi mumkin. Informatikada asosan to'rtta tizimdan: o'nlik, ikkilik, sakkizlik va o'n oltitalik tizimdan foydalaniladi. Pozitsion sanoq tizimlari hisoblashlar, ham butun, ham kasr sonlarni ko'rsatish uchun juda qulay.

Сонларни ёзишда рақамларнинг жойлашган ўрни аҳамиятга эга бўладиган санок тизими. Ҳар бир позицион санок тизимида асос бўлади. Ҳар қандай сон асос рақамлардан тузилган кетма-кетлик кўринишида ёзилади. Асос рақамлари сони асоснинг ўзига тенг бўлади. Асос, ҳар бир рақамнинг салмоғи катта қўшни разрядда турган рақам салмоғидан неча марта кичиклигини кўрсатади. Қурилган позицион санок тизимларининг сони ҳар қандай бўлиши мумкин. Информатикада асосан тўртта тизимдан: ўнлик, иккилик, саккизлик ва ўн олтиталик тизимдан фойдаланилади. Позицион санок тизимлари ҳисоблашлар, ҳам бутун, ҳам каср сонларни кўрсатиш учун жуда қулай.

### Поле

**uz** - maydon  
    майдон  
**en** -field

Область памяти компьютера. Элемент записи, имеет имя, тип и место в памяти, может обрабатываться отдельно от записи, но записывается и считывается на внешний носитель, в составе записи.

Компьютер хотирасининг соҳаси. Yozuv elementi, хотирада о'ringa, tur va nomga ega, yozuvdan alohida qayta ishlanishi mumkin, biroq tashqi tashuvchiga yozuv tarkibida yoziladi va o'qiladi.

Компьютер хотирасининг соҳаси. Ёзув элементи, хотирада ўринга, тур ва номга эга, ёзувдан алоҳида қайта ишланиши мумкин, бироқ ташқи

## П

### **Полиморфизм**

**uz** - polimorfizm

полиморфизм

**en** - polymorphism

ташувчига ёзув таркибида ёзилади ва ўқилади.

Свойство подпрограмм (процедур, функций) обрабатывать данные по разному алгоритму в зависимости от типа данных; широко используется в объектно-ориентированном программировании.

Kichik dasturlar (protseduralar, funksiyalar)ning, ma'lumotlarni ularning turiga bog'liq holda turli algoritmlar bo'yicha qayta ishlash xususiyati; obyektga yo'naltirilgan dasturlashda keng foydalaniladi.

Кичик дастурлар (процедуралар, функциялар)нинг, маълумотларни уларнинг турига боғлиқ ҳолда турли алгоритм бўйича қайта ишлаш хусусияти; объектга йўналтирилган дастурлашда кенг фойдаланилади.

### **Пользователь**

**uz** - foydalanuvchi

фойдаланувчи

**en** - user

Человек, организация, система, использующие в своей работе в той или иной степени компьютер, вычислительную систему, базу данных, сеть. Очень широкое понятие; может заменять понятия оператор, программист, абонент. Необходимо выделить понятие «конечный пользователь». Это пользователь, как правило, не работающий непосредственно с системой, но использующий результат ее функционирования.

O'zining ishida u yoki bu darajada tarmoqdan, ma'lumotlar bazasidan, hisoblash tizimidan, kompyuterdan foydalanadigan tizim, tashkilot, odam. Juda keng tushuncha; operator, dasturchi, abonent tushunchalarining o'rnini bosishi mumkin. Oxirgi foydalanuvchi tushunchasini ajratish zarur. Bu, odatda, tizim bilan bevosita ishlamaydigan, lekin uning ishlash natijasidan foydalanadigan foydalanuvchidir.

Ўзининг ишида у ёки бу даражада тармоқдан, маълумотлар базасидан, ҳисоблаш тизимидан, компьютердан фойдаланадиган тизим, ташкilot, одам. Жуда кенг тушунча; оператор, дастурчи, абонент тушунчаларининг ўрнини босиши мумкин. Охирги фойдаланувчи тушунчасини ажратиш зарур. Бу, одатда, тизим билан бевосита

## П

ишламайдиган, лекин унинг ишлаш натижасидан фойдаланадиган фойдаланувчидир.

### Помощь

**uz** - yordam

ёрдам

**en** - help

Функция любой компьютерной системы, позволяет пользователю получить необходимые и дополнительные сведения о данной системе. Во многих системах существует контекстная помощь, когда система пытается ответить на конкретный вопрос, возникший в текущей ситуации. В настоящее время появилась тенденция всю необходимую документацию по программе (системе) оформлять в виде помощи. Помощь обычно представляется в виде файла, к которому обращаются из главной программы.

Har qanday kompyuter tizimining funksiyasi, foydalanuvchiga ma'lum bir tizim to'g'risida zarur va qo'shimcha ma'lumotlar olish imkonini beradi. Ko'pgina tizimlarda kontekstli yordam mavjud, bunda tizim mavjud vaziyatda yuzaga kelgan muayyan savolga javob berishga harakat qiladi. Hozirgi vaqtda dastur (tizim) bo'yicha barcha zarur hujjatlarni yordam ko'rinishida rasmiylashtirish tendensiyasi yuzaga keldi. Yordam, odatda asosiy dasturdan murojaat qilinadigan fayl ko'rinishida taqdim qilinadi.

Ҳар қандай компьютер тизимининг функцияси, фойдаланувчига маълум бир тизим тўғрисида зарур ва қўшимча маълумотлар олиш имконини беради. Кўпгина тизимларда контекстли ёрдам мавжуд, бунда тизим мавжуд вазиятда юзага келган муайян саволга жавоб беришга ҳаракат қилади. Ҳозирги вақтда дастур (tizim) бўйича барча зарур ҳужжатларни ёрдам кўринишида расмиylаштириш тенденцияси юзага келди. Ёрдам, одатда асосий дастурдан муурожаат қилинадиган файл кўринишида тақдим қилинади.

### Порт

**uz** - port

порт

**en** - port

Устройство компьютера, через которое осуществляется подключение к внутренней шине компьютера периферийных устройств.

Kompyuterning, periferik qurilmalarni kompyuter

## П

ichki shinasiga ulash amalga oshiriladigan qurilmasi.

Компьютернинг, периферик қурилмаларни компьютер ички шинасига улаш амалга ошириладиган қурилмаси.

### Портал

**uz** - portal

портал

**en** - portal

Web-сайт, предоставляющий пользователю Internet различные интерактивные сервисы, работающие в рамках одного Web-сайта, такие как почта, поиск, погода, новости, форумы, обсуждения, голосования и т.д.

*Internet* dan foydalanuvchiga bir Web-sayt doirasida ishlaydigan, pochta, izlash, ob-havo, yangiliklar, forumlar, muhokama qilish, ovoz berish kabi turli interaktiv xizmatlar taqdim etiladigan Web-sayt.

Internet dan foydalanuvchiga bir Web-сайт доирасида ишлайдиган, почта, излаш, об-ҳаво, янгиликлар, форумлар, муҳокама қилиш, овоз бериш каби турли интерактив хизматлар тақдим этиладиган Web-сайт.

### Портативный компьютер

**uz** - portativ kompyuter

портатив компьютер

**en** - notebook computer

Переносной персональный компьютер, который пользователь может постоянно иметь при себе. Примечание – Различают типы портативных компьютеров в зависимости от их мощности и размеров: электронная записная книжка, персональный цифровой секретарь, карманный, блокнотный, лаптоп.

Foydalanuvchi har doim o'zida olib yurishi mumkin bo'lgan ko'tarib yuriladigan shaxsiy kompyuter.

Izoh – Portativ kompyuterlarning turlari ularning quvvati va o'lchamlariga bog'liq ravishda farqlanadi: elektron yon daftarcha, shaxsiy raqamli sekretar, cho'ntak kompyuteri, bloknotli kompyuter, laptop.

Фойдаланувчи ҳар доим ўзида олиб юриши мумкин бўлган кўтариб юриладиган шахсий компьютер.

Изоҳ – Портатив компьютерларнинг турлари уларнинг қуввати ва ўлчамларига боғлиқ равишда фарқланади: электрон ён дафтарча, шахсий рақамли секретарь, чўнтак компютери, блокнотли компьютер, лаптоп.

## П

### Последовательный порт

**uz** - ketma-ket port

кетма-кет порт

**en** - series port

Порт, в котором данные передаются по порядку следования бит за битом; передает данные медленнее, чем параллельный. Обычно к последовательному порту подключают модем.

Ma'lumotlar o'tish tartibiga ko'ra bitma-bit uzatiladigan port; ma'lumotlar parallel portga qaraganda birmuncha sekin uzatiladi. Odatda, ketma-ket portga modem ulanadi.

Ma'lumotlar ўтиш тартибига кўра битма-бит узатиладиган порт; маълумотлар параллел портга караганда бирмунча секин узатилади. Одатда, кетма-кет портга модем уланади.

### Постоянное запоминающее устройство

**uz** - doimiy xotirlovchi

qurilma

доимий хотирловчи

қурилма

**en** - read-only memory (ROM)

Устройство из одной или нескольких микросхем, постоянно хранящих программы для управления компьютером. Постоянное запоминающее устройство – энергонезависимая память, т.е. при выключении компьютера содержимое постоянного запоминающего устройство не меняется. Постоянное запоминающее устройство служит для размещения данных об аппаратных особенностях персональных компьютеров и базовой системы ввода/вывода операционной системы. В некоторых машинах в постоянное запоминающее устройство, кроме этого, записывается транслятор с языка программирования. Часто называют постоянной памятью.

Kompyuterni boshqarish uchun dasturlar doimiy saqlanadigan, bir yoki bir nechta mikrosxemadan iborat qurilma. Doimiy xotirlovchi qurilma energiyaga bog'liq bo'lmagan xotiradir, ya'ni kompyuter o'chirilganda xotira ichidagi o'zgar olmaydi. Doimiy xotirlovchi qurilma shaxsiy kompyuterlarning apparat xususiyatlari va operatsion tizimning tayanch kiritish/chiqarish tizimi to'g'risidagi ma'lumotlarni joylashtirish uchun xizmat qiladi. Ba'zi mashinalarda doimiy xotirlovchi qurilmaga bundan tashqari, dasturlash tilidan translyator yoziladi. Ko'pincha,

## II

doimiy хотира деб аталади.

Компьютерни бошқариш учун дастурлар доимий сақланадиган, бир ёки бир нечта микросхемадан иборат қурилма. Доимий хотирловчи қурилма энергияга боғлиқ бўлмаган хотирадир, яъни компьютер ўчирилганда хотира ичидаги ўзгармайди. Доимий хотирловчи қурилма шахсий компьютерларнинг аппарат хусусиятлари ва операцион тизимнинг таянч киритиш/чиқариш тизими тўғрисидаги маълумотларни жойлаштириш учун хизмат қилади. Баъзи машиналарда доимий хотирловчи қурилмага бундан ташқари, дастурлаш тилидан транслятор ёзилади. Кўпинча, доимий хотира деб аталади.

### **Постоянное запоминающее устройство на компакт-диске**

**uz** - kompakt-diskdagi doimiy хотирловчи қурилма

компакт-дискдаги доимий хотирловчи қурилма

**en** - compact disk read-only memory (CD-ROM)

1 Внешняя постоянная память для компьютера и других компьютеризированных устройств, расположенная на компакт-диске. Блок данных пользователя занимает на диске 2048 byte. 304 byte в каждом блоке используются под дополнительной информацией и для более подробного отслеживания и исправления ошибок. Полный физический блок занимает 2352 byte.

2 Устройство для считывания компакт-дисков.

1 Kompyuter va boshqa kompyuterlashtirilgan qurilmalar uchun mo'ljallangan, kompakt-diskda joylashtirilgan tashqi doimiy хотира. Foydalanuvchining ma'lumotlar bloki diskda 2048 byte ni egallaydi. Har bir blokdagi 304 byte dan qo'shimcha axborot va xatolarni to'liq kuzatib borish va tuzatish uchun foydalaniladi. To'la fizik blok 2352 byte ni egallaydi.

2 Kompakt-disklarni o'qish uchun mo'ljallangan qurilma.

1 Компьютер ва бошқа компьютерлаштирилган қурилмалар учун мўлжалланган, компакт-дискда жойлаштирилган ташқи доимий хотира. Фойдаланувчининг маълумотлар блоки дискда 2048 byte ни эгаллайди. Ҳар бир блокдаги 304 byte дан қўшимча ахборот ва хатоларни тўлиқ кузатиб

## П

бориш ва тузатиш учун фойдаланилади. Тўла физик блок 2352 byte ни эгаллайди.

2 Компакт-дискларни ўқиш учун мўлжалланган курилма.

### Постусловие

**uz** - postuslovie

кейинги шарт

**en** - post-condition

Условие, истинность которого проверяется после выполнения тела цикла или процедуры.

Haqiqatligi protsedura yoki sikl jismi bajarilgandan keyin tekshiriladigan shart.

Ҳақиқатлиги процедура ёки цикл жисми бажарилгандан кейин текшириладиган шарт.

### Постфикс

**uz** - postfiks

постфикс

**en** - postfix

Элемент описания команды, оператора, записываемый сзади основного элемента; операция, которая записывается после своего операнда, например,  $x^{++}$  в языке Си.

Asosiy element orqasidan yoziladigan, operator, komandani tavsiflash elementi; o'zining operandidan keyin yoziladigan operatsiya. Masalan, Si tilida  $x^{++}$ .

Асосий элемент орқасидан ёзиладиган, оператор, командани тавсифлаш элементи; ўзининг операндидан кейин ёзиладиган операция. Масалан, Си тилида  $x^{++}$ .

### Практический язык

**извлечений и отчетов**

**uz** - hisobotlar va ko'chirmalar amaliy tili

хисоботлар ва кўчирмалар амалий тили

**en** - practical extraction and report language (PERL)

Язык программирования для создания HTML – сценариев интерфейса общего шлюза. Мощный язык интерпретирующего типа. Создан в 80-х годах XX века Лари Уоллом.

Umumiy shlyuz interfeysi ssenariylarini yaratish uchun mo'ljallangan dasturlash tili. Talqin qiluvchi turdagi kuchli til. XX asrning 80-yillarida *Lari Uoll* tomonidan yaratilgan.

Умумий шлюз интерфейси сценарийларини яратиш учун мўлжалланган дастурлаш тили. Талқин қилувчи турдаги кучли тил. XX асрнинг 80-йилларида Лари Уолл томонидан яратилган.

### Предикат

**uz** - predikat

предикат

**en** - predicates

Функция, имеющая своими аргументами высказывания и возвращающая логическое значение («истина» или «ложь»). Предикат – предложение, похожее на высказывание, но им не являющееся, так как в нем находится переменная. Предикат

## II

становится высказыванием, если вместо переменной подставляется конкретное значение.

O‘zining mulohaza argumentlariga ega bo‘lgan va («chin» yoki «yolg‘on») mantiqiy qiymatni qaytaradigan funksiya. Predikat – mulohazaga o‘xshash, lekin o‘zgaruvchi bo‘lganligi uchun mulohaza hisoblanmaydigan gapdir. Predikat mulohaza bo‘ladi, agar o‘zgaruvchi o‘rniga aniq bir qiymat qo‘yilsa.

Ўзининг мулоҳаза аргументларига эга бўлган ва («чин» ёки «ёлгон») мантикий қийматни қайтарадиган функция. Предикат – мулоҳазага ўхшаш, лекин ўзгарувчи бўлганлиги учун мулоҳаза ҳисобланмайдиган гапдир. Предикат мулоҳаза бўлади, агар ўзгарувчи ўрнига аниқ бир қиймат қўйилса.

### Представление данных

**uz** - ma'lumotlarni taqdim etish

маълумотларни тақдим

этиш

**en** - data representation

Форма, в которой данные хранятся, обрабатываются и передаются. Все данные в компьютере представляются в двоичном коде. Поэтому в компьютере для обеспечения интерфейса «человек-компьютер» все время происходит кодирование и декодирование данных. Кроме этого, для уменьшения размера занимаемой памяти широко используются методы упаковки данных.

Ma'lumotlar saqlanadigan, qayta ishlanadigan va uzatiladigan shakl. Kompyuterda barcha ma'lumotlar ikkilik kodda taqdim qilinadi. Shuning uchun, kompyuterda «odam-kompyuter» interfeysini ta'minlash uchun, ma'lumotlarni har doim kodlash va dekodlash yuz beradi. Bundan tashqari, egallanadigan хотира o'lchamini kamaytirish maqsadida, ma'lumotlarni joylashtirish metodlaridan foydalaniladi.

Маълумотлар сақланадиган, қайта ишланадиган ва узатиладиган шакл. Компьютерда барча маълумотлар иккилик кодда тақдим қилинади. Шунинг учун, компьютерда «одам-компьютер» интерфейсани таъминлаш учун, маълумотларни ҳар доим кодлаш ва декодлаш юз беради. Бундан ташқари, эгалланадиган хотира ўлчамини камайтириш мақсадида, маълумотларни жойлаштириш методларидан фойдаланилади.

## П

### Предусловие

**uz** - boshlang'ich shart

бошланғич шарт

**en** - initial conditions

Условие, истинность которого проверяется в начале выполнения тела цикла или процедуры. Это означает, что цикл или процедура будут выполняться только в том случае, если условие окажется истинным.

Haqiqatligi protsedura yoki sikl jismi bajarilishining boshlanishida tekshiriladigan shart. Bu, sikl yoki protsedura faqat shart chin bo'lgan holdagina bajarilishini bildiradi.

Ҳақиқатлиги процедура ёки цикл жисми бажарилишининг бошланишида текшириладиган шарт. Бу, цикл ёки процедура фақат шарт чин бўлган ҳолдагина бажарилишини билдиради.

### Препроцессор

**uz** - preprotessor

препроцессор

**en** - preprocessor

Программа, обеспечивающая предварительную обработку входных данных в основную программу.

Kirish ma'lumotlarining asosiy dasturga oldindan qayta ishlanishini ta'minlaydigan dastur.

Кириш маълумотларининг асосий дастурга олдиндан қайта ишланишини таъминлайдиган дастур.

### Прерывание

**uz** - to'xtatish

тўхтатиш

**en** - interrupt

Временное прекращение выполнения текущей программы для переключения на выполнение ввода/вывода или другой программы. Прерывания бывают аппаратные и программные. Прерываниями управляет операционная система. Для управления прерываниями существует специальный контроллер прерываний.

Boshqa bir dasturni yoki kiritish/chiqarishni bajarishga o'tish uchun, joriy dastur bajarilishini vaqtinchalik to'xtatib turish. Apparat va dasturiy to'xtatishlar bor. To'xtatishlarni operatsion tizim boshqaradi. To'xtatishlarni boshqarish uchun, maxsus to'xtatishlar kontrolleri mavjud.

Бошқа бир дастурни ёки киритиш/чиқаришни бажаришга ўтиш учун, жорий дастур бажарилишини вақтинчалик тўхтатиб туриш. Аппарат ва

## II

дастурий тўхтатишлар бор. Тўхтатишларни операция тизим бошқаради. Тўхтатишларни бошқариш учун, махсус тўхтатишлар контроллери мавжуд.

### **Прикладной программный комплекс**

**uz** - amaliy dasturiy

kompleks

амалий дастурий

kompleks

**en** - software application suite

Объединенные в единый комплекс приложения. Каждое входящее к прикладному программному комплексу приложение может работать самостоятельно. Объединение их в единый комплекс означает наличие единообразных интерфейсов между ними и пользователем. Например, широко известен прикладной программный комплекс Microsoft Office. В его состав входят приложения: Word – текстовый процессор, Excel – электронные таблицы, Access – база данных, PowerPoint – презентация и пр. Отличие от интегрированных систем в том, что каждый элемент прикладного программного комплекса более мощный по своим возможностям, чем его аналог в интегрированных системах, и у прикладного программного комплекса отсутствует специальная общая среда. Средой, в которой работает каждое приложение, является Windows.

Yagona kompleksga birlashtirilgan ilovalar. Amaliy dasturiy kompleksga kiradigan har bir ilova mustaqil ishlashi mumkin. Ilovalarni yagona kompleksga birlashtirish, foydalanuvchi bilan ularning o'rtasida bir xil interfeyslar mavjudligini bildiradi. Masalan, *Microsoft Office* amaliy dasturiy kompleks keng ma'lum. Uning tarkibiga quyidagi ilovalar kiradi: *Word* – matn protsessori, *Excel* – elektron jadvallar, *Access* – ma'lumotlar bazasi, *PowerPoint* – prezentatsiya. Integratsiyalashgan tizimlardan farqi shundaki, amaliy dasturiy kompleksning har bir elementi imkoniyatlari bo'yicha integratsiyalashgan tizimlardagi analogiga qaraganda birmuncha kuchli, amaliy dasturiy kompleksda maxsus umumiy muhit yo'q. Har bir ilova ishlaydigan muhit Windows hisoblanadi.

Ягона комплексга бирлаштирилган иловалар. Амалий дастурий комплексга кирадиган ҳар бир

## II

илова мустақил ишлаши мумкин. Иловаларни ягона комплексга бирлаштириш, фойдаланувчи билан уларнинг ўртасида бир хил интерфейслар мавжудлигини билдиради. Масалан, Microsoft Office амалий дастурий комплекс кенг маълум. Унинг таркибига қуйидаги иловалар киради: Word – матн процессори, Excel – электрон жадваллар, Access – маълумотлар базаси, PowerPoint – презентация. Интеграциялашган тизимлардан фарқи шундаки, амалий дастурий комплекснинг ҳар бир элементи имкониятлари бўйича интеграциялашган тизимлардаги аналогига қараганда бирмунча кучли, амалий дастурий комплексда махсус умумий муҳит йўқ. Ҳар бир илова ишлайдиган муҳит Windows ҳисобланади.

### Приложение

**uz** - ilova

илова

**en** - application

Прикладная программа или пакет программ (набор программ, обеспечивающий полное выполнение задачи), которая, взаимодействуя с операционной системой посредством вызовов системных процедур, непосредственно выполняет необходимые пользователю функции – например, вычислительная программа, текстовый редактор или электронная таблица.

Tizimli proseduralarni chaqirish vositasida operatsion tizim bilan birgalikda ishlagan holda, bevosita foydalanuvchiga zarur bo'lgan funksiyalarni bajaradigan amaliy dastur yoki dasturlar paketi (vazifaning to'la bajarilishini ta'minlaydigan dagturlar to'plami) – masalan, hisoblash dasturi, matn redaktori yoki elektron jadval.

Тизимли процедураларни чақириш воситасида операцион тизим билан биргаликда ишлаган ҳолда, бевосита фойдаланувчига зарур бўлган функцияларни бажарадиган амалий дастур ёки дастурлар пакети (вазифанинг тўла бажарилишини таъминлайдиган дастурлар тўплами) – масалан, ҳисоблаш дастури, матн редактори ёки электрон жадвал.

### Принтер

Устройство для выдачи данных из компьютера на

## П

**uz** - printer  
принтер  
**en** - printer

бумаге, пленке в удобном для чтения виде. Принтеры различаются по способу печати, назначению и количеству цветов печати. По способу печати делятся на матричные; термические, струйные и лазерные; по назначению – на переносные (для блокнотных персональных компьютеров), персональные, учрежденческие, минитипографии; по количеству цветов – одноцветные, цветные. Основные характеристики: скорость печати (знак/с, лист, страница/мин.); качество печати (точка/дюйм).

Ma'lumotlarni kompyuterdan qog'ozda, plyonkada o'qish uchun qulay ko'rinishda berish uchun xizmat qiladigan qurilma. Printerlar bosish usuli, vazifasi va bosma ranglari soni bo'yicha farqlanadi. Bosish usuliga ko'ra, matritsali, termik, purkagichli va lazer printerlarga bo'linadi; vazifasiga ko'ra, ko'tarib yuriladigan (bloknotli shaxsiy kompyuterlar uchun) shaxsiy, muassasa, mini tipografiyalar; ranglar soniga ko'ra, bir rangli, rangli. Asosiy xarakteristikalari: bosish tezligi (sekundiga belgi, minutiga sahifa, varaq); bosish sifati (nuqta/dyuym).

Маълумотларни компьютердан қоғозда, плёнкада ўқиш учун қулай кўринишда бериш учун хизмат қиладиган қурилма. Принтерлар босиш усули, вазифаси ва босма ранглари сони бўйича фарқланади. Босиш усулига кўра, матрицали, термик, пуркагичли ва лазер принтерларга бўлинади; вазифасига кўра, кўтариб юриладиган (блокнотли шахсий компьютерлар учун) шахсий, муассаса, мини типографиялар; ранглар сонига кўра, бир рангли, рангли. Асосий хактеристикалари: босиш тезлиги (секундига белги, минутига саҳифа, варақ); босиш сифати (нуқта/дюйм).

**Принцип WYSIWYG**  
**uz** - WYSIWYG prinsipi  
WYSIWYG принципи  
**en** - WYSIWYG philosophy

Принцип полного соответствия того, что набирается на экране дисплея, с тем, что будет напечатано принтером. Используется в редакторах текста и издательских системах. От англ. WYSIWYG – What You See Is What You Get – «что вы видите,

## II

то и получаете».

Display ekranida teriladigan bilan printer bosadiganing to'la mos kelish prinsipi. Noshirlik tizimlarida va matn redaktorlarida foydalaniladi. Inglizcha *WYSIWYG* – *What You See Is What You Get* – «nimaning ko'rayotgan bo'lsangiz, o'sha narsani olasiz».

Дисплей экранда териладиган билан принтер босадиганнинг тўла мос келиш принципи. Нoширлик тизимларида ва матн редакторларида фойдаланилади. Инглизча *WYSIWYG* – *What You See Is What You Get* – «нимани кўраётган бўлсангиз, ўша нarsани оласиз».

### Проблемно-ориентированный язык программирования

**uz** - muammoga yo'naltirilgan dasturlash tili

муаммага йўналтирилган дастурлаш тили

**en** - problem-oriented programming language

Язык программирования, у которого само построение языка и/или структура данных отражает особенности разрабатываемых задач. Практически все известные универсальные языки программирования разрабатывались как специализированные, проблемно-ориентированные. Например, язык Fortran разрабатывался как язык для научных расчетов, Pascal-для обучения, Си – для разработки системных программ. COBOL – для решения экономических задач. LISP – для решения задач искусственного интеллекта, Fox – для задач, связанных с системой управления базой данных.

Til tuzilishining o'zi va/yoki ma'lumotlar strukturasi ishlab chiqiladigan masalalarning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradigan dasturlash tili. Deyarli barcha ma'lum bo'lgan universal dasturlash tillari ixtisoslashtirilgan, muammoga yo'naltirilgan tillar sifatida ishlab chiqilgan. Masalan; *Fortran* tili ilmiy hisoblashlar uchun mo'ljallangan til sifatida, *Pascal* – o'qitish uchun, *Si* – tizim dasturlarini ishlab chiqish uchun, *COBOL* – iqtisodiy masalalarni hal qilish uchun, *LISP* – sun'iy intellekt masalalarini hal qilish uchun, *Fox* – ma'lumotlar bazalarini boshqarish tizimlari bilan bog'liq vazifalar uchun ishlab chiqilgan.

## II

Тил тузилишининг ўзи ва/ёки маълумотлар структураси ишлаб чиқиладиган масалаларнинг ўзига хос хусусиятларини акс эттирадиган дастурлаш тили. Деярли барча маълум бўлган универсал дастурлаш тиллари ихтисослаштирилган, муаммога йўналтирилган тиллар сифатида ишлаб чиқилган. Масалан; Fortran тили илмий ҳисоблашлар учун мўлжалланган тил сифатида, Pascal – ўқитиш учун, Си – тизим дастурларини ишлаб чиқиш учун, COBOL – иқтисодий масалаларни ҳал қилиш учун, LISP – сунъий интеллект масалаларини ҳал қилиш учун, Fox – маълумотлар базаларини бошқариш тизимлари билан боғлиқ вазифалар учун ишлаб чиқилган.

### **Программа**

**uz** - dastur

дастур

**en** - programme

Последовательность команд на каком-либо языке программирования или команд процессора, описывающая решение определенной задачи.

Muayyan vazifani bajarishga yo'naltirilgan biron-bir dasturlash tilidagi komandalar ketma-ketligi yoki protsessor komandalari.

Муайян вазифани бажаришга йўналтирилган бирон-бир дастурлаш тилидаги командалар кетма-кетлиги ёки процессор командалари.

### **Программа дистанционного управления**

**uz** - masofadan boshqarish dasturi

масофадан бошқариш дастури

**en** - remote control program

Программа, обеспечивающая связь одного компьютера с другим и запускающая на нем прикладную программу. Компьютеры должны быть подключены к сети.

Bir kompyuterning boshqa kompyuter bilan aloqasini ta'minlaydigan va unda amaliy dasturni ishga tushiradigan dastur. Kompyuterlar tarmoqqa ulangan bo'lishi kerak.

Бир компьютернинг бошқа компьютер билан алоқасини таъминлайдиган ва унда амалий дастурни ишга туширадиган дастур. Компьютерлар тармоққа уланган бўлиши керак.

### **Программа защиты экрана**

**uz** - ekranni himoyalash dasturi

Программа, которая спустя определенное время после последнего нажатия клавиши или щелчка мыши или отключает экран совсем, или показы-

## II

экранны ҳимоялаш  
дастури  
**en** - screen protection program

ваёт меняющуюся во времени картинку. Такие программы предназначены для предотвращения выгорания экранного люминофора.

Klavish oxirgi marta bosilgandan yoki sichqoncha surilgandan keyin ma'lum vaqt o'tgach, ekranni umuman o'chiradigan yoki vaqtda o'zgaradigan rasmni ko'rsatadigan dastur. Bunday dasturlar ekran lyuminofori tez yonib tugashining oldini olish uchun mo'ljallangan.

Клавиш охирги марта босилгандан ёки сичқонча сурилгандан кейин маълум вақт ўтгач, экранни умуман ўчирадиган ёки вақтда ўзгарадиган расмни кўрсатадиган дастур. Бундай дастурлар экран люминофори тез ёниб тугашининг олдини олиш учун мўлжалланган.

**Программа оптического  
распознавания символов**  
**uz** - simvollarni optik aniqlash  
dasturi

символларни оптик  
аниқлаш дастури  
**en** - the program of optical-  
recognition of symbols

Программа, ставящая в соответствие графический образ символа (машинописный или рукописный) с кодом символа в компьютере. Используется обычно совместно со сканерами или при обработке текста, введенного с помощью пера. Точность интерпретации машинописного текста в настоящее время составляет более 95 %.

Simvolning (mashinada yoki qo'lda yozilgan) grafik obrazini kompyuterdagi simvol kodi bilan muvofiqlikka keltiradigan dastur. Odatda, skanerlar bilan birga yoki pero yordamida kiritilgan matnni qayta ishlashda foydalaniladi. Hozirgi vaqtda mashinada yozilgan matnni talqin qilish aniqligi 95 foizdan ko'proq.

Символнинг (машинада ёки қўлда ёзилган) график образини компьютердаги символ коди билан мувофиқликка келтирадиган дастур. Одатда, сканерлар билан бирга ёки перо ёрдамида киритилган матнни қайта ишлашда фойдаланилади. Ҳозирги вақтда машинада ёзилган матнни талқин қилиш аниқлиги 95 фоиздан кўпроқ.

**Программатор**  
**uz** - programmer  
программатор  
**en** - programmer

Устройство для записи данных, в том числе и программ, в постоянное запоминающее устройство. Данные в постоянном запоминающем устройстве хранятся в виде электронных схем. Про-

## II

грамматор создает жесткое ультрафиолетовое излучение, с помощью которого изменяются электронные схемы.

Ma'lumotlarni, shu jumladan, dasturlarni doimiy xotirlovchi qurilmaga yozish qurilmasi. Ma'lumotlar doimiy xotirlovchi qurilmada elektron sxemalar ko'rinishida saqlanadi. Programmator qattiq ultrabinafsha nurlanish vujudga keltiradi, uning yordamida elektron sxemalar o'zgaradi.

Маълумотларни, шу жумладан, дастурларни доимий хотирловчи қурилмага ёзиш қурилмаси. Маълумотлар доимий хотирловчи қурилмада электрон схемалар кўринишида сақланади. Программатор қаттиқ ультрабинафша нурланиш вужудга келтиради, унинг ёрдамида электрон схемалар ўзгаради.

### **Программофон**

**uz** - programfon  
программофон  
**en** - softphone

Программный продукт, позволяющий использовать персональный компьютер как телефон. Для использования программфона необходим компьютер, оснащенный модемом, микрофоном и громкоговорителем.

Shaxsiy kompyuterdan telefon sifatida foydalanish imkonini beradigan dasturiy mahsulot. Programfondan foydalanish uchun modem, mikrofon va radiokarnay bilan jihozlangan kompyuter zarur bo'ladi.

Шахсий компьютердан телефон сифатида фойдаланиш имконини берадиган дастурий маҳсулот. Програмфондан фойдаланиш учун модем, микрофон ва радиокарнай билан жиҳозланган компьютер зарур бўлади.

### **Программирование**

**uz** - dasturlash  
дастурлаш  
**en** - programming

Теоретическая и практическая деятельность по созданию программного обеспечения. Теоретические вопросы программирования касаются разработки новых языков программирования, разработки способов доказательств правильности программ, минимизации сложности и пр. Практика программирования занимается разработкой трансляторов, удобной среды программирования, конкретных баз данных и систем управления,

## II

проектирования, обучения и т.д. Процесс программирования – это не только составление программы на каком-то языке, но и участие в постановке задачи, разработке алгоритма, создание сценария. Само программирование – итерационный процесс, состоит из понимания задачи, разработки алгоритма, модулей, отладки модулей, решения тестовой задачи, сравнения результатов, уточнения постановки задачи и последующей итерации.

Dasturiy ta'minot yaratish bo'yicha nazariy va amaliy faoliyat. Dasturlashning nazariy masalalari yangi dasturlash tillarini ishlab chiqishga, dasturlarning to'g'riligini dalillash usullarini ishlab chiqishga, murakkabliklarni kamaytirishga taalluqli. Dasturlash amaliyoti translyatorlar, qulay dasturlash muhiti, aniq ma'lumotlar bazalari va boshqarish tizimlarni loyihalash, o'qitishni ishlab chiqish bilan shug'ullanadi. Dasturlash jarayoni – bu, nafaqat qandaydir tilda dastur tuzish, balki vazifaning qo'yilishida, algoritmni ishlab chiqishda, ssenariyni yaratishda ishtirok etish hamdir. Dasturlashning o'zi iteratsion jarayon bo'lib, vazifani tushunishdan, algoritm, modullar ishlab chiqishdan, modullarni sozlashdan, test topshiriqni yechishdan, natijalarni solishtirishdan, vazifalar qo'yilishini aniqlashtirishdan va keyingi iteratsiyadan iborat. Sifatli dasturlashni ta'minlash uchun, strukturaviy dasturlash texnologiyasi mavjud.

Дастурий таъминот яратиш бўйича назарий ва амалий фаолият. Дастурлашнинг назарий масалалари янги дастурлаш тилларини ишлаб чиқишга, дастурларнинг тўғрилигини далиллаш усуллари-ни ишлаб чиқишга, мураккабликларни камайтиришга тааллуқли. Дастурлаш амалиёти трансляторлар, қулай дастурлаш муҳити, аниқ маълумотлар базалари ва бошқариш тизимларни лойихалаш, ўқитишни ишлаб чиқиш билан шуғулланади. Дастурлаш жараёни – бу, нафақат қандайдир тилда дастур тузиш, балки вазифанинг қўйилишида, алгоритмни ишлаб чиқишда, сценарийни яратишда иштирок этиш ҳамдир. Дастурлашнинг ўзи итерацион жараён бўлиб, вазифани

## II

тушунишдан, алгоритм, модуллар ишлаб чиқишдан, модулларни созиладан, тест топшириқни ечишдан, натижаларни солиштиришдан, вазифалар қўйилишини аниқлаштиришдан ва кейинги итерациядан иборат. Сифатли дастурлашни таъминлаш учун, структуравий дастурлаш технологияси мавжуд.

### Программирование

«сверху вниз»

**uz** - «yuqoridan pastga»  
dasturlash

«юқоридан пастга»  
дастурлаш

**en** - top-down programming

Методика разработки программ, при которой разработка начинается с определения целей решения проблемы, после чего идет последовательная детализация, заканчивающаяся детальной программой. Относится к технологии структурного программирования. Имеет второе название – нисходящее программирование.

Dasturlarni ishlab chiqish metodikasi, bu metodikaga koʻra, ishlab chiqish muammoni hal qilish maqsadlarini aniqlashdan boshlanadi, shundan keyin batafsil dastur bilan tugaydigan izchil detallashtirish ketadi. Strukturaviy dasturlash texnologiyasiga kiradi. Ikkinchi nomi pasayib boradigan dasturlash.

Дастурларни ишлаб чиқиш методикаси, бу методикага кўра, ишлаб чиқиш муаммони ҳал қилиш мақсадларини аниқлашдан бошланади, шундан кейин батафсил дастур билан тугайдиган изчил деталлаштириш кетади. Структуравий дастурлаш технологиясига киради. Иккинчи номи пасайиб борадиган дастурлаш.

### Программирование

«снизу в вверх»

**uz** - «pastdan yuqoriga»  
dasturlash

«пастдан юқорига»  
дастурлаш

**en** - programming  
«bottom up»

Методика разработки программ, начинающаяся с разработки процедур, подпрограмм, в то время когда проработка общей схемы не закончилась. Такая методика часто приводит к нежелательным результатам, переделкам и увеличению времени разработки. Имеет второе название – восходящее программирование.

Umumiy sxemani ishlab chiqish yakunlanmagan bir vaqtda, protseduralar, kichik dasturlarni ishlab chiqishdan boshlanadigan dasturlarni ishlab chiqish metodikasi. Bunday metodika, koʻpincha maʼqul boʻlmagan natijalarga, qayta ishlashlarga va ishlab chiqish vaqti oshib ketishiga olib keladi. Ikkinchi

## П

nomi – ko‘tarilib boradigan dasturlash.

Умумий схемани ишлаб чиқиш якунланмаган бир вақтда, процедуралар, кичик дастурларни ишлаб чиқишдан бошланадиган дастурларни ишлаб чиқиш методикаси. Бундай методика, кўпинча маъкул бўлмаган натижаларга, қайта ишлашларга ва ишлаб чиқиш вақти ошиб кетишига олиб келади. Иккинчи номи – кўтарилиб борадиган дастурлаш.

### Программный продукт

**uz** - dasturiy mahsulot

дастурий маҳсулот

**en** - program product

Программный комплекс в совокупности с сопровождающими документами, готовый к непосредственному использованию.

Bevosita foydalanishga tayyor, ilova qilinadigan hujjatlar bilan birgalikdagi dasturiy kompleks.

Бевосита фойдаланишга тайёр, илова қилинадиган ҳужжатлар билан биргаликдаги дастурий комплекс.

### Прокрутка

**uz** - aylantirish

айлантириш

**en** - scrolling

Способ просмотра данных, находящихся в памяти компьютера, если они не помещаются в выделенном на экрана дисплея окне. Способ заключается в последовательном и управляемом перемещении данных в вертикальном и/или горизонтальном направлении.

Kompyuter хотирасида бо‘лган ма’lumotlarni qarab chiqish usuli, agar bu ma’lumotlar displey ekranida ajratilgan oynada sig‘masa. Usul ma’lumotlarni vertikal va/yoki gorizontal yo‘nalishda ketma-ket va boshqariladigan tarzda ko‘chirishdan iborat.

Компьютер хотирасида бўлган маълумотларни қараб чиқиш усули, агар бу маълумотлар дисплей экранида ажратилган ойнада сиғмаса. Усул маълумотларни вертикал ва/ёки горизонтал йўналишда кетма-кет ва бошқариладиган тарзда кўчиришдан иборат.

### Прокси сервер

**uz** - proksi server

прокси сервер

**en** - proxy server

Программное обеспечение, осуществляющее фильтрацию пакетов, передаваемых между локальной компьютерной сетью и Internet. Предназначено для повышения безопасности локальной сети и снижения сетевого трафика за счет кэширования наиболее часто запрашиваемых доку-

## II

МЕНТОВ.

Lokal kompyuter tarmog‘i va *Internet* o‘rtasida uzatiladigan paketlar filtratsiyasini amalga oshiradigan dasturiy ta‘minot. Eng ko‘p so‘raladigan hujjatlarni keshlash hisobiga, tarmoq trafigini kamaytirish va lokal tarmoq xavfsizligini oshirish uchun mo‘ljallangan.

Локал компьютер тармоғи ва *Internet* ўртасида узатиладиган пакетлар филтрациясини амалга оширадиган дастурий таъминот. Энг кўп сўраладиган хужжатларни кэшлаш ҳисобига, тармоқ трафигини камайтириш ва локал тармоқ хавфсизлигини ошириш учун мўлжалланган.

### **Протокол**

**uz** - protokol  
протокол  
**en** - protocol

Формат передаваемых сообщений, соглашения и правила, по которым происходит обмен информацией между компьютерами или системами. Такие правила определяют содержимое, формат, параметры времени, последовательность и проверку ошибок в сообщениях, которыми обмениваются сетевые устройства.

Kompyuterlar yoki tizimlar o‘rtasida ma‘lumotlar almashinuvini ta‘minlaydigan uzatiladigan ma‘lumotlar formati, kelishuvlar va qoidalar. Bu qoidalar, tarmoq qurilmalari almashinadigan xabarlar mazmunini, formatini, vaqt parametrlarini, ketma-ketligini va xatolar tekshirilishini aniqlaydi.

Компьютерлар ёки тизимлар ўртасида маълумотлар алмашинувини таъминлайдиган узатиладиган маълумотлар формати, келишувлар ва қоидалар. Бу қоидалар, тармоқ қурилмалари алмашинадиган хабарлар мазмунини, форматини, вақт параметрларини, кетма-кетлигини ва хатолар текширилишини аниқлайди.

### **Протокол IP**

**uz** - IP protokol  
IP протокол  
**en** - IP protocol

1 Протокол сети *Internet*. Сетевой протокол, отвечающий за передачу и маршрутизацию сообщений между узлами *Internet* и определяющий правила разбиения данных на пакеты.

2 Межсетевой протокол. Протокол IP работает на уровне 3-модели OSI (модель взаимодействия от-

## II

крытых систем) и является стандартом пересылки IP-дейтаграмм в сетях *internetwork*. IP-часть стека протоколов TCP/IP, который описывает маршрутизацию пакетов.

1 *Internet* tarmog'i protokoli. *Internet* uzellari o'rtasida xabarlarining uzatilishi va marshrutlashtirishi uchun javob beradigan va ma'lumotlarni paketlarga ajratish qoidalarini belgilovchi tarmoq protokoli.

2 Tarmoqlararo protokol. IP protokoli OSI 3-modeli (ochiq tizimlarning o'zaro aloqa modeli) sathida ishlaydi va *internetwork* tarmoqlarida IP-deytagrammalarni yuborish standarti hisoblanadi. IP-paketlar marshrutlashtirilishini tavsiflaydigan, TCP/IP protokollari stekining bir qismidir.

1 Internet тармоғи протоколи. Internet узеллари ўртасида хабарларнинг узатилиши ва маршрутлаштирилиши учун жавоб берадиган ва маълумотларни пакетларга ажратиш қоидаларини белгиловчи тармоқ протоколи.

2 Тармоқлараро протокол. IP протоколи OSI 3-модели (очик тизимларнинг ўзаро алоқа модели) сатҳида ишлайди ва *internetwork* тармоқларида IP-дейтаграммаларни юбориш стандарти ҳисобланади. IP-пакетлар маршрутлаштирилишини тавсифлайдиган, TCP/IP протоколлари стекининг бир қисмидир.

### Протокол MNP

**uz** - MNP protokoli

MNP протоколи

**en** - maximum negative pressure (MNP) protocol

Протокол, определяющий схемы передачи данных при модемной связи. Модем, работающий по этому протоколу, осуществляет коррекцию ошибок и сжатие данных. Протокол разработан фирмой Microcom.

Modemli aloqada ma'lumotlar uzatish sxemasini belgilaydigan protokol. Bu protokol bo'yicha ishlaydigan modem xatolar tuzatilishini va ma'lumotlar siqilishini amalga oshiradi. Protokol *Microcom* firmasi tomonidan ishlab chiqilgan.

Модемли алоқада маълумотлар узатиш схемасини белгилайдиган протокол. Бу протокол бўйича

## II

ишлайдиган модем хатолар тузатилишини ва маълумотлар сиқилишини амалга оширади. Протокол Microsoft фирмаси томонидан ишлаб чиқилган.

### **Протокол NLSP**

**uz** - NLSP protokoli

NLSP протоколи

**en** - network layer security (NLSP) protocol

Протокол, обеспечивающий передачу данных в среде Netware, позволяющий выбирать оптимальные маршруты в сети. Разработан фирмой Novell для сети Netware.

Маълумотларнинг *Netware* мухитида узатилишини таъминлайдиган, тармоқда оптимал маршрут танлаш имконини берадиган протокол. *Novell* фирмаси томонидан *Netware* тармоғи учун ишлаб чиқилган.

Маълумотларнинг *Netware* мухитида узатилишини таъминлайдиган, тармоқда оптимал маршрут танлаш имконини берадиган протокол. *Novell* фирмаси томонидан *Netware* тармоғи учун ишлаб чиқилган.

### **Протокол беспроводного доступа**

**uz** - simsiz erkin foydalanish protokoli

симсиз эркин

фойдаланиш протоколи

**en** - wireless access protokol (WAP)

Набор спецификаций для подключения к сети Internet всех типов систем мобильной радиосвязи, портативных компьютеров. Для создания приложений, позволяющих на мобильных устройствах просматривать ресурсы WWW, предложен язык WML. На базе этого протокола строятся WAP-сети. Протокол WAP разработан в 1997 г. группой компаний (более 200, в том числе Motorola, Nokia, Ericsson и др.).

Barcha turdagi mobil radioaloqa tizimlarini, portativ kompyuterlarni *Internet* tarmog'iga ulash uchun belgilangan spetsifikatsiyalar to'plami. Mobil qurilmalarda WWW resurslarini qarab chiqish imkonini beradigan ilovalarni yaratish uchun qilinadi. Bu protokol negizida WAP tarmoqlar quriladi. WAP protokoli 1997 yilda kompaniyalar guruhi (200 dan ortiq, shu jumladan, *Motorola*, *Nokia*, *Ericsson* va boshq.) tomonidan ishlab chiqilgan.

Барча турдаги мобил радиоалоқа тизимларини, портатив компьютерларни *Internet* тармоғига улаш учун белгиланган спецификациялар тўпла-

## II

ми. Мобил курилмаларда WWW ресурсларини қараб чиқиш имконини берадиган иловаларни яратиш учун қилинади. Бу протокол негизида WAP тармоқлар қурилади. WAP протоколи 1997 йилда компаниялар гуруҳи (200 дан ортиқ, шу жумладан, Motorola, Nokia, Ericsson ва бошқ.) томонидан ишлаб чиқилган.

### **Протокол динамического конфигурирования узла**

**uz** - uzelnı dinamik

konfiguratsiyalash protokoli

узелни динамик

конфигурациялаш протоколи

**en** - dynamic host configuration protocol (DHCP)

Протокол динамического конфигурирования узла для динамического назначения IP-адресов узлам (рабочим станциям) локальной сети на время их сеанса работы в Internet, чтобы смягчить проблему нехватки 32-разрядных IP-адресов. Так как присваивание адресов узлам производится из централизованного пула адресов, то гарантируется их уникальность и, как следствие, отсутствие конфликтующих адресов.

32-razryadli IP-adreslarning yetishmaslik muammosini yengillashtirish uchun ularning *Internet* dagi ish vaqtida IP- adreslarni lokal tarmoqning uzellariga (ishchi stansiyalariga) dinamik tayinlash uchun uzelnı dinamik konfiguratsiyalash protokoli. Uzellarga adreslarni o'zlashtirish adreslarning markazlashtirilgan pulida amalga oshirilishi sababli, ularning noyobligi va nizoli adreslarning bo'lmasligi kafolatlanadi.

32-разрядли IP-адресларнинг етишмаслик муаммосини енгиллаштириш учун уларнинг *Internet* даги иш вақтида IP-адресларни локал тармоқнинг узелларига (ишчи станцияларига) динамик тайинлаш учун узелни динамик конфигурациялаш протоколи. Узелларга адресларни ўзлаштириш адресларнинг марказлаштирилган пулида амалга оширилиши сабабли, уларнинг ноёблиги ва низоли адресларнинг бўлмаслиги кафолатланади.

### **Протокол передачи гипертекста**

**uz** - gipermatnni uzatish protokoli

гиперматнни узатиш

протоколи

Протокол, использующийся для передачи гипертекста. Основная задача протокола состоит в установлении связи с Web-сервером и обеспечении доставки HTML-страниц Web-браузеру клиента. Для работы протокола требуется подключение к Internet через IP-соединение. Адрес компь-

## II

**en** - hyper text transfer protocol (HTTP)

ютера, с которого скачивается Web-документ, предваряется префиксом `http://`

Gipermatnni uzatish uchun foydalaniladigan protokol. Protokolning asosiy vazifasi *Web-server* bilan aloqa o'rnatish va HTML sahifalarini mijozning *Web-brauzeriga* yetkazilishini ta'minlash hisoblanadi. Protokol ishlashi uchun IP bog'lanish orqali *Internet* ga ulanish talab etiladi. *Web-hujjat* olinadigan kompyuter adresi oldidan `http://` prefiksi qo'yiladi.

Гиперматнни узатиш учун фойдаланиладиган протокол. Протоколнинг асосий вазифаси *Web-server* билан алоқа ўрнатиш ва HTML саҳифаларни мижознинг *Web-браузерига* етказилишини таъминлаш ҳисобланади. Протокол ишлаши учун IP боғланиш орқали *Internet* га уланиш талаб этилади. *Web-ҳужжат* олинадиган компьютер адреси олдида `http://` префeksi кўйилади.

**Протокол передачи файлов**

**uz** - fayllarni uzatish protokoli

файлларни узатиш протоколи

**en** - file transfer protocol (FTP)

Клиент-серверный протокол из набора протоколов IP, обеспечивающий поиск и пересылку файлов между двумя, возможно, разнородными машинами по сети TCP/IP. Применяется в Internet для работы с FTP-серверами.

IP protokollari to'plamiga kiradigan, *TCP/IP* tarmog'i orqali ikkita turli xildagi mashinalar orqali fayllarni qidirish va jo'natishni ta'minlovchi mijoz-server protokoli. *Internet* da *FTP-serverlar* bilan ishlashda qo'llaniladi.

IP protokollari tўпламига кирадиган, *TCP/IP* тармоғи орқали иккита турли хилдаги машиналар орқали файлларни қидириш ва жўнатишни таъминловчи мижоз-сервер протоколи. *Internet* да *FTP-serverlar* билан ишлашда қўлланилади.

**Процедура**

**uz** - protsedura

процедура

**en** - procedure

Часть программы для выполнения некоторых стандартных действий, зависящих в общем от входных параметров. Процедуру можно считать подпрограммой.

Примечание – Процедуры разделяются на стандартные и пользовательские, внешние и внутренние относительно программы. Стандартная процедура входит в состав языка программирования и поставляется в составе соответ-

## II

ствующей библиотеки, а пользовательскую процедуру создает каждый разработчик самостоятельно. Внешняя процедура хранится независимо от программы, а внутренняя входит в состав программы.

Dasturning, umumiy holda kirish parametrlariga bogʻliq boʻlgan baʼzi standart amallarni bajaradigan qismi. Protsedurani kichik dastur deb hisoblash mumkin.

Izoh – Protseduralar standart protseduralar va foydalanuvchi protseduralariga, dasturga nisbatan tashqi va ichki protseduralarga boʻlinadi. Standart protsedura dasturlash tili tarkibiga kiradi va tegishli biblioteka tarkibida yetkaziladi, foydalanuvchi protsedurasini har bir ishlab chiquvchi mustaqil yaratadi. Tashqi protsedura dasturga bogʻliq boʻlmagan tarzda saqlanadi, ichki protsedura dastur tarkibiga kiradi.

Дастурнинг, умумий ҳолда кириш параметрларига боғлиқ бўлган баъзи стандарт амалларни бажарадиган қисми. Процедурани кичик дастур деб ҳисоблаш мумкин.

Изоҳ – Процедуралар стандарт процедуралар ва фойдаланувчи процедураларига, дастурга нисбатан ташқи ва ички процедураларга бўлинади. Стандарт процедура дастурлаш тили таркибига киради ва тегишли библиотека таркибида етказилади, фойдаланувчи процедурасини ҳар бир ишлаб чикувчи мустақил яратади. Ташқи процедура дастурга боғлиқ бўлмаган тарзда сақланади, ички процедура дастур таркибига киради.

### **Процедурно-ориентированный язык программирования**

**uz** - protseduraga yoʻnaltirilgan dasturlash tili

процедурага йўналтирилган дастурлаш тили

**en** - procedure-oriented language coding

Язык программирования высокого уровня, в основу которого положен принцип действий, «что надо сделать, чтобы решить задачу». Действия записываются и выполняются операторами. Наблюдается последовательность операторов, которые необходимо выполнить для получения конечного результата. Такая последовательность называется программой. Процедурные языки можно разделить на простые (типа BASIC, Fortran, COBOL) и блочные (модульные) (типа Pascal, Modula-2 и Си). Процедурные языки называют также операторными или императивными.

Asosiga «masalani hal qilish uchun nima qilish kerak» ish prinsipi qoʻyilgan yuqori daraja dasturlash tili. Ishlar operatorlar tomonidan yoziladi va bajariladi. Pirovard natijani olish uchun bajarilishi

## II

zarur bo'lgan operatorlar ketma-ketligi to'planadi. Bunday ketma-ketlik dastur deb ataladi. Protsedura tillarini oddiy (*BASIC, Fortran, COBOL*) va blokli (modulli) (*Pascal, Modula-2 va Si*) tillarga ajratish mumkin. Protsedura tillari shuningdek, operator tillari yoki imperativ tillar deb ham ataladi.

Асосига «масалани ҳал қилиш учун нима қилиш керак» иш принципи қўйилган юқори даража дастурлаш тили. Ишлар операторлар томонидан ёзилади ва бажарилади. Пировард натижани олиш учун бажарилиши зарур бўлган операторлар кетма-кетлиги тўпланadi. Бундай кетма-кетлик дастур деб аталади. Процедура тилларини оддий (*BASIC, Fortran, COBOL*) ва блокли (модулли) (*Pascal, Modula-2 ва Си*) тилларга ажратиш мумкин. Процедура тиллари шунингдек, оператор тиллари ёки императив тиллар деб ҳам аталади.

### Процессор

**uz** - protsessor  
процессор  
**en** - processor

Аппаратное обеспечение компьютера, отвечающее за выполнение арифметических операций, заданных программами операционной системы, и координирующее работу всех устройств компьютера.

Operatsion tizim dasturlari belgilagan arifmetik operatsiyalarning bajarilishiga javob beradigan va kompyuterning boshqa barcha qurilmalari ishini muvofiqlashtiradigan apparat ta'minoti.

Операцион тизим дастурлари белгилаган арифметик операцияларнинг бажарилишига жавоб берадиган ва компьютернинг бошқа барча қурилмалари ишини мувофиқлаштирадиган аппарат таъминоти.

### Процессор со сложным набором команд

**uz** - murakkab komandalar to'plamiga ega protsessor  
мураккаб командалар тўпламига эга процессор  
**en** - complex instruction set computer (CISC)

Традиционная архитектура процессоров с широким набором различных машинных команд переменной длины и разным временем их исполнения в противоположность RISC-процессорам. Процессоры семейств 80×86 и 680×0 относятся к CISC-процессорам, однако часто внутри самих CISC-процессоров используется RISC-архитектура.

## II

*RISC*-protssessorlariga teskari boʻlgan toʻla komandalar toʻplamiga ega anʼanaviy protssessorlar arxitekturasi. Mashina komandalari toʻplami keng, turli, oʻzgaruvchan uzunlik va bajarish vaqtiga ega boʻlgan ommabop protssessorlar.  $80\times 86$  va  $680\times 0$  guruhiga mansub protssessorlar *CISC*-protssessorlari qatoriga kiradi, ammo *CISC*-protssessorlarining ichida koʻpincha *RISC*-arxitekturasi foydalaniladi.

*RISC*-protssessorlariga teskari boʻlgan tʻola komandalar tʻuplamiga ega anʼanaviy protssessorlar arxitekturasi. Mashina komandalari tʻuplami keng, turli, oʻzgaruvchan uzunlik va bajarish vaqtiga ega boʻlgan ommabop protssessorlar.  $80\times 86$  va  $680\times 0$  guruhiga mansub protssessorlar *CISC*-protssessorlari qatoriga kiradi, ammo *CISC*-protssessorlarining ichida koʻpincha *RISC*-arxitekturasi foydalaniladi.

### Прошивка

**uz** - proshivka

прошивка

**en** - firmware

Содержимое энергонезависимой памяти компьютера или любого цифрового вычислительного устройства – микрокалькулятора, сотового телефона, *GPS*-навигатора и т.д., в которой содержится его микропрограмма. Словом «прошивка» иногда называют образ постоянного запоминающего устройства, предназначенный для записи в память соответствующего устройства с целью обновления его микропрограммы, а также собственно процесс записи этого образа в энергонезависимую память устройства.

Компьютер yoki har qanday raqamli hisoblash qurilmasi – mikrokalkulyator, sotali telefon, *GPS* navigatorning, ichida mikrodasturi boʻlgan energiyaga bogʻliq boʻlmagan xotirasining ichidagi. «Proshivka» soʻzi bilan baʼzan, xotiraga tegishli qurilmani, uning mikrodasturini yangilash maqsadida yozish uchun moʻljallangan doimiy xotirlovchi qurilmaning obrazi, shuningdek, bu obrazni qurilmaning energiyaga bogʻliq boʻlmagan xotirasiga yozish jarayonining oʻzi nomlanadi.

Компьютер ёки ҳар қандай рақамли ҳисоблаш

## П

курулмаси – микрокалькулятор, сотали телефон, GPS навигаторнинг, ичида микродастури бўлган энергияга боғлиқ бўлмаган хотирасининг ичидаги. «Прошивка» сўзи билан баъзан, хотирага тегишли қурилмани, унинг микродастурини янгилаш мақсадида ёзиш учун мўлжалланган доимий хотирловчи қурилманинг образи, шунингдек, бу образни қурилманинг энергияга боғлиқ бўлмаган хотирасига ёзиш жараёнининг ўзи номланади.

### **Прямой доступ к памяти**

**uz** - хотирадан то'ғ'ридан-то'ғ'ри foydalanish

хотирадан тўғридан-тўғри фойдаланиш

**en** - direct memory access (DMA)

Метод высокоскоростной пересылки данных по общей шине между оперативным запоминающим устройством и периферийным устройством (например, жёстким диском) минуя процессор, который на это время отключается от всех шин.

Protsessordan foydalanmasdan (uni chetlab o'tib) umumiy shina bo'yicha operativ хотирловчи қурилма ва периферик қурилмаларга (масалан, қаттиқ дискка) маълумотларни уқори тезликда узатиш методи. Бу вақтда protsessor barcha shinalardan uziladi.

Процессордан фойдаланмасдан (уни четлаб ўтиб) умумий шина бўйича оператив хотирловчи қурилма ва периферик қурилмаларга (масалан, қаттиқ дискка) маълумотларни юқори тезликда узатиш методи. Бу вақтда процессор барча шиналардан узилади.

### **Псевдографика**

**uz** - psevdografika

псевдографика

**en** - alphamosaic graphics

Графическое изображение, полученное на экране дисплея в текстовом режиме с помощью символов, закрепленных за клавишами клавиатуры.

Klaviatura klavishlariga biriktirilgan simvollar yordamida matn rejimida display ekranida olingan grafik tasvir.

Клавиатура клавишларига бириктирилган символлар ёрдамида матн режимида дисплей экранда олинган график тасвир.

### **Псевдослучайные числа**

**uz** - psevdotasodifiy sonlar

псевдотасодифий сонлар

**en** - pseudorandom number

Числа, полученные по некоторому алгоритму, а используемые как случайные. Один из методов получения равномерно распределенных псевдослучайных чисел предложен Дж. фон Нейманом:

## П

берется произвольное двоичное число и возводится в квадрат, затем выделяется середина и процесс повторяется сначала; начиная с некоторого шага середина числа будет случайным числом.

Qandaydir algoritm bo'yicha olingan, lekin tasodifiy sonlar sifatida foydalaniladigan sonlar. Bir xil taqsimlangan psevdotasodifiy sonlarni olish metodlaridan biri. *J.fon Neyman* tomonidan taklif qilingan: Ixtiyoriy ikkilik son olinadi va kvadratga oshiriladi, keyin o'rtasi ajratiladi va jarayon boshidan takrorlanadi; qandaydir qadamdan boshlab sonning o'rtasi tasodifiy son bo'ladi.

Қандайдир алгоритм бўйича олинган, лекин тасодифий сонлар сифатида фойдаланиладиган сонлар. Бир хил тақсимланган псевдотасодифий сонларни олиш методларидан бири. Ж.фон Нейман томонидан таклиф қилинган: Ихтиёрий иккилик сон олинади ва квадратга оширилади, кейин ўртаси ажратилади ва жараён бошидан такрорланади; қандайдир қадамдан бошлаб соннинг ўртаси тасодифий сон бўлади.

### Путь

**uz** - yo'l

йўл

**en** - path

Строковое выражение, задающее местоположение файла, каталога или папки на диске.

Diskda fayl, katalog yoki papkaning joylashgan o'rni belgilaydigan satrli ifoda.

Дискда файл, каталог ёки папканинг жойлашган ўрнини белгилайдиган сатрли ифода.

## Р

### Рабочая станция

**uz** - ishchi stansiya

ишчи станция

**en** - subscription unit

Терминал или компьютер, как правило, работающий в составе компьютерной сети.

Odatda, kompyuter tarmog'ida ishlaydigan kompyuter yoki terminal.

Одатда, компьютер тармоғида ишлайдиган компьютер ёки терминал.

### Радиочастотные средства передачи данных

Электронные устройства и программные средства для передачи файлов по радиоканалу (без

## Р

**uz** - radiochastotali ma'lumotlar uzatish vositalari

радиочастотали  
маълумотлар узатиш  
воситалари

**en** - radio frequency facility of data migration

прямой видимости) от компьютера к принтеру, накопителю данных на расстояние 9-12 м. Обеспечивают удобство в работе; при их использовании не нужны кабели, соединяющие устройства между собой.

Fayllarni radiokanal orqali (to'g'ri ko'rinishsiz) kompyuterdan printerga, ma'lumotlar to'plagichga 9-12 m ga uzatish uchun xizmat qiladigan elektron qurilmalar va dasturiy vositalar. Ishlashda qulaylik yaratadi, ulardan foydalanilganda qurilmalarni o'zaro birlashtiradigan kabellar kerak bo'lmaydi.

Файлларни радиоканал орқали (тўғри кўринишсиз) компьютердан принтерга, маълумотлар тўплагичга 9-12 м га узатиш учун хизмат қиладиган электрон қурилмалар ва дастурий воситалар. Ишлашда қулайлик яратади, улардан фойдаланилганда қурилмаларни ўзаро бирлаштирадиган кабеллар керак бўлмайди.

### Раздел

**uz** - bo'lim

бўлим

**en** - block

Часть программы, имеющая специальный смысл. Например, в языке Pascal программный блок состоит в общем виде из разделов: описания меток, описания констант, определения типов данных, описания переменных, описания процедур и функций, операторов.

Dasturning maxsus ma'noga ega bo'lgan qismi. Masalan, *Pascal* tilida dasturiy blok umumiy ko'rinishda belgilar, konstantalarni tavsiflash bo'limlaridan, ma'lumotlar turlarini aniqlash, o'zgaruvchilarni, protseduralar, funksiyalar, operatorlarni tavsiflash bo'limlaridan tuzilgan.

Дастурнинг махсус маънога эга бўлган қисми. Масалан, *Pascal* тилида дастурий блок умумий кўринишда белгилар, константаларни тавсифлаш бўлимларидан, маълумотлар турларини аниқлаш, ўзгарувчиларни, процедуралар, функциялар, операторларни тавсифлаш бўлимларидан тuzилган.

### Разделение времени

**uz** - vaqtni taqsimlash

вақтни тақсимлаш

**en** - time sharing

Режим работы компьютера с одним центральным процессором, при котором процессор регулярно переключается с решения одной задачи на другую. Разделение времени осуществляется опера-

## Р

ционной системой. Этот режим используется для многопрограммной «одновременной» работы. Все действия процессор выполняет последовательно, но очень быстро. Поэтому если каждой задаче выделять на очень короткое время ресурсы процессора, то пользователю будет казаться, что работы выполняются параллельно. Режим деления времени хорошо реализован в системах UNIX и Windows. Например, в режиме деления времени можно одновременно работать с текстовым редактором, выводить на печать какой-либо файл и принимать данные по сети.

Kompyuterning bitta markaziy protsessor bilan ishlash rejimi, bunda protsessor muntazam ravishda bir vazifani hal qilishdan boshqasiga o'tib turadi. Vaqtning taqsimlanishini operatsion tizim amalga oshiradi. Bu rejimdan ko'p dasturli «bir vaqtda» ishlash uchun foydalaniladi. Protsessor barcha ishlarini izchil, lekin juda tez bajaradi. Shuning uchun, har bir vazifaga juda qisqa muddatga protsessor resurslari ajratilsa, foydalanuvchiga ishlar parallel bajarilayotgandek tuyuladi. Vaqtni taqsimlash rejimi *UNIX* va *Windows* tizimlarida yaxshi amalga oshirilgan. Masalan, vaqtni taqsimlash rejimida bir vaqtda matn redaktori bilan ishlash, qandaydir faylni bosishga chiqarish va ma'lumotlarni tarmoq orqali qabul qilish mumkin.

Компьютернинг битта марказий процессор билан ишлаш режими, бунда процессор мунтазам равишда бир вазифани ҳал қилишдан бошқасига ўтиб туради. Вақтнинг тақсимланишини операцион тизим амалга оширади. Бу режимдан кўп дастурли «бир вақтда» ишлаш учун фойдаланилади. Процессор барча ишларни изчил, лекин жуда тез бажаради. Шунинг учун, ҳар бир вазифага жуда қисқа муддатга процессор ресурслари ажратилса, фойдаланувчига ишлар параллел бажарилаётгандек туюлади. Вақтни тақсимлаш режими *UNIX* ва *Windows* тизимларида яхши амалга оширилган. Масалан, вақтни тақсимлаш режимида бир вақтда матн редактори билан ишлаш, қандайдир файлни босишга чиқариш ва маъ-

## Р

**Разделитель**  
**uz** - ajratkich  
ажраткич  
**en** - separator

лумотларни тармоқ орқали қабул қилиш мумкин.

Элемент алфавита языка программирования, с помощью которого выделяются данные или структуры языка в программах. Например, в языке Pascal разделитель внутри конструкции – пробел, между операторами – тире; конец программы обозначается точкой.

Dasturlash tili alfavitining elementi, uning yordamida ma'lumotlar yoki dasturlarda til strukturalari ajratiladi. Masalan, *Pascal* tilida konstruksiya ichidagi ajratkich – bo'sh joy, operatorlar o'rtasida – tирe; dasturning oxiri nuqta bilan belgilanadi.

Дастурлаш тили алфавитининг элементи, унинг ёрдамида маълумотлар ёки дастурларда тил структуралари ажратилади. Масалан, *Pascal* тилида конструкция ичидаги ажраткич – бўш жой, операторлар ўртасида – тире; дастурнинг охири нуқта билан белгиланади.

**Разряд**  
**uz** - razryad  
разряд  
**en** - discharge

Место, занимаемое цифрой в позиционной системе счисления и имеющее порядковый номер. Место любого символа в слове. Номер разряда считается от единицы слева направо. Общее количество разрядов определяет длину слова.

Pozitsion sanoq tizimida raqam egallaydigan, tartib raqamiga ega joy. So'zda har qanday simvolning joyi. Razryad raqami birdan boshlab chapdan o'ngga hisoblanadi. Razryadlarning umumiy soni so'zning uzunligini belgilaydi.

Позицион санок тизимида рақам эгаллайдиган, тартиб рақамига эга жой. Сўзда ҳар қандай символнинг жойи. Разряд рақами бирдан бошлаб чапдан ўнгга ҳисобланади. Разрядларнинг умумий сони сўзнинг узунлигини белгилайди.

**Ранжирование**  
**uz** - ranjlash  
ранжлаш  
**en** - ranking

Распределение объектов или данных в соответствии с некоторыми признаками по уровням с целью классификации. Уровни, по которым распределяются классифицируемые объекты или данные, называются рангами.

Obyektlar yoki ma'lumotlarni, tasniflash maqsadida

## Р

darajalar bo'yicha qandaydir belgilarga ko'ra taqsimlash. Tasniflanadigan obyektlar yoki ma'lumotlar taqsimlanadigan darajalar ranglar deb ataladi.

Объектлар ёки маълумотларни, таснифлаш мақсадида даражалар бўйича қандайдир белгиларга кўра тақсимлаш. Таснифланадиган объектлар ёки маълумотлар тақсимланадиган даражалар ранглар деб аталади.

### Распаковка

**uz** - ochish

очиш

**en** - unpack

Процесс преобразования данных из формы, удобной для хранения и передачи, в форму, удобную для обработки. Процесс, обратный упаковке.

Ma'lumotlarni saqlash va uzatish uchun qulay bo'l-gan shakldan qayta ishlash uchun qulay shaklga o'z-gartirish jarayoni. Joylashtirish jarayoniga teskari jarayon.

Маълумотларни сақлаш ва узатиш учун қулай бўлган шаклдан қайта ишлаш учун қулай шаклга ўзгартириш жараёни. Жойлаштириш жараёнига тескари жараён.

### Распределение памяти

**uz** - хотирани taqsimlash

хотирани тақсимлаш

**en** - memory allocation

Прикрепление ресурсов памяти для решения отдельных задач.

Xotira resurslarini ayrim vazifalarni hal qilish uchun biriktirish.

Хотира ресурсларини айрим вазифаларни ҳал қилиш учун бириктириш.

### Распределенная база

**данных**

**uz** - taqsimlangan ma'lumotlar

bazasi

тақсимланган

маълумотлар базаси

**en** - distributed data base

База данных, размещаемая на двух или более компьютерах и понимаемая пользователем как единая, целая база данных.

Ikki yoki undan ortiq kompyuterda joylashtiriladigan, foydalanuvchi tomonidan yaxlit, bir butun ma'lumotlar bazasi sifatida tushuniladigan ma'lumotlar bazasi.

Икки ёки ундан ортиқ компьютерда жойлаштирилладиган, фойдаланувчи томонидан яхлит, бир бутун маълумотлар базаси сифатида тушуниладиган маълумотлар базаси.

### Распределенная обработка

**uz** - taqsimlangan qayta ishlash

Применение для обработки данных большого количества компьютеров, соединенных в вычисли-

## Р

тақсимланган қайта  
ишлаш  
**en** - distributed processing

тельные сети; подключение двух или более компьютеров таким образом, что они могут совместно работать над одной и той же задачей и не обязательно под управлением единой программы. В отличие от централизованной обработки, когда вся обработка выполняется на одном большом центральном компьютере, при распределенной обработке задача разделяется между множеством мэйнфреймов, мини-компьютеров, персональных компьютеров, серверов и рабочих станций, связанных в одну сеть.

Ма'lumotlarni qayta ishlash uchun, hisoblash tarmoqlariga ulangan katta miqdordagi kompyuterlarning qo'llanilishi; ikki yoki undan ko'p kompyuterni, yagona dastur boshqaruvi ostida shart emas, aynan bir topshiriq ustida birgalikda ishlaydigan qilib ulash. Barcha qayta ishlash bitta katta kompyuterda bajariladigan markazlashtirilgan qayta ishlashdan farqli ravishda, taqsimlangan qayta ishlashda topshiriq bitta tarmoqqa birlashtirilgan ko'plab meynfreymlar, mini-kompyuterlar, shaxsiy kompyuterlar, serverlar va ishchi stansiyalar o'rtasida bo'linadi.

Маълумотларни қайта ишлаш учун, ҳисоблаш тармоқларига уланган катта миқдордаги компьютерларнинг қўлланилиши; икки ёки ундан кўп компьютерни, ягона дастур бошқаруви остида шарт эмас, айнан бир топширик устида биргаликда ишлайдиган қилиб улаш. Барча қайта ишлаш битта катта компьютерда бажариладиган марказлаштирилган қайта ишлашдан фарқли равишда, тақсимланган қайта ишлашда топширик битта тармоққа бирлаштирилган кўплаб мэйнфреймлар, мини-компьютерлар, шахсий компьютерлар, серверлар ва ишчи станциялар ўртасида бўлинади.

**Распределенная сеть**  
**uz** - taqsimlangan tarmoq  
тақсимланган тармоқ  
**en** - distributed network

Компьютерная сеть, у которой управление распределено между всеми серверами, ресурсы (аппаратные, программные и данные) и пользователи не закреплены за отдельными серверами, а принадлежат всей сети.

## Р

Boshqarish barcha serverlar o'rtasida taqsimlangan, resurslar (apparat, dasturiy resurslar, ma'lumotlar) va foydalanuvchilar alohida serverlarga birlashtirilmagan, balki butun tarmoqqa tegishli bo'lgan kompyuter tarmog'i.

Бошқариш барча серверлар ўртасида тақсимланган, ресурслар (аппарат, дастурий ресурслар, маълумотлар) ва фойдаланувчилар алоҳида серверларга бириктирилмаган, балки бутун тармоққа тегишли бўлган компьютер тармоғи.

### Распределенная система

**uz** - taqsimlangan tizim

тақсимланган тизим

**en** - distributed system

Организация системы, при которой мощности компьютера обработки распределяются вместо централизации.

Tizimni tashkil qilish, bunda kompyuterda qayta ishlash quvvatlari markazlashtirish o'rniga taqsimlanadi.

Тизимни ташкил қилиш, бунда компьютерда қайта ишлаш қувватлари марказлаштириш ўрнига тақсимланади.

### Растровая графика

**uz** - rastrli grafika

растрли графика

**en** - raster graphics

Графика, изображение в которой представляется в виде набора точек. Каждая точка называется элементом растра, ее описание хранится в специальных растровых файлах. Существует несколько форматов растровых файлов, например, DIB (Device-Independent Bitmap – аппаратно-независимый растровый формат), используемый в Windows.

Tasvir nuqtalar to'plami ko'rinishida taqdim etiladigan grafika. Har bir nuqta rastr elementi deyiladi, uning tavsifi maxsus rastrli fayllarda saqlanadi. Rastrli fayllarning bir nechta formati bor, masalan, *Windows* da foydalaniladigan, apparat jihatdan mustaqil rastrli format *DIB (Device Independent Bitmap)*.

Тасвир нуқталар тўплами кўринишида тақдим этиладиган графика. Ҳар бир нуқта растр элементи дейилади, унинг тавсифи махсус растрли файлларда сақланади. Растрли файлларнинг бир

## Р

нечта формати бор, масалан, Windows да фойдаланиладиган, аппарат жиҳатдан мустақил растрли формат DIB (Device Independent Bitmap).

### Расширение

**uz** - kengayish

кенгайиш

**en** - expansion

Часть имени файла; с ее помощью производится классификация файлов. Например, в MS-DOS расширение, если оно есть, может состоять из символов (от одного до трех) после точки; расширения используются для выделения выполняемых файлов (.COM, .EXE, .BAT), текстов программ разных языков программирования (BAS – BASIC, PAS – Pascal).

Fayl nomining bir qismi; uning yordamida fayllarni tasniflash amalga oshiriladi. Masalan, MS-DOS da kengayish, agar bor bo'lsa, nuqtadan keyingi (bittadan uchtagacha) simvoldan iborat bo'lishi mumkin; kengayishdan bajariladigan fayllarni (.COM, .EXE, .BAT), turli dasturlash tillari dasturlarining matnlarini ajratish uchun (BAS – BASIC, PAS – Pascal) foydalaniladi.

Файл номининг бир қисми; унинг ёрдамида файлларни таснифлаш амалга оширилади. Масалан, MS-DOS да кенгайиш, агар бор бўлса, нуқтадан кейинги (биттадан учтагача) символдан иборат бўлиши мумкин; кенгайишдан бажариладиган файлларни (.COM, .EXE, .BAT), турли дастурлаш тиллари дастурларининг матнларини ажратиш учун (BAS – BASIC, PAS – Pascal) фойдаланилади.

### Расширенная таблица расположения файлов

**uz** - kengaytirilgan fayllarning  
joylashish jadvali

кенгайтирилган

файлларнинг жойлашиш

жадвали

**en** - extended file allocation  
table

Проприетарная файловая система, предназначенная главным образом для флеш-накопителей. Впервые представлена фирмой Microsoft для встроенных устройств в Windows Embedded CE 6.0.

Asosan, flesh-to'plagichlar uchun mo'ljallangan proprietar fayl tizimi. Birinchi marta Microsoft firmasi tomonidan Windows Embedded CE 6.0.da o'rnatilgan qurilmalar uchun taqdim etilgan.

Асосан, флэш-тўплагичлар учун мўлжалланган проприетар файл тизими. Биринчи марта Microsoft фирмаси томонидан Windows Embedded CE 6.0.да ўрнатилган қурилмалар учун тақдим

## Р

этилган.

### Расширяемый интерфейс аппаратного обеспечения

**uz** - apparat ta'minot

kengayadigan interfeys

аппарат таъминот

кенгаядиган интерфейс

**en** - extensible firmware

interface (EFI)

Интерфейс между операционной системой и микропрограммами, управляющими низкоуровневыми функциями оборудования, его основное предназначение: корректно инициализировать оборудование при включении системы и передать управление загрузчику операционной системы. Первая спецификация EFI была разработана Intel.

Operatsion tizim va uskunaning past sath funksiyalarini boshqaradigan mikrodesturlar o'rtasidagi interfeys, uning asosiy vazifasi tizim ulanganda uskunani ohista initsiallashtirish va boshqaruvni operatsion tizim yuklagichiga berish. *EFI* ning dastlabki spetsifikatsiyasi *Intel* tomonidan ishlab chiqilgan.

Операцион тизим ва ускунанинг паст сатҳ функцияларини бошқарадиган микродастурлар ўртасидаги интерфейс, унинг асосий вазифаси тизим уланганда ускунани охиёта инициаллаш ва бошқарувни операцион тизим юклагичига бериш. *EFI* нинг дастлабки спецификацияси *Intel* томонидан ишлаб чиқилган.

### Расширяемый язык

разметки

**uz** - kengayadigan belgilash tili

кенгаядиган белгилаш

тили

**en** - extensible markup language

(XML)

Язык для подготовки, хранения и передачи гипертекстовых документов в сети WWW.

WWW tarmog'ida gipermatnli hujjatlarni tayyorlash, saqlash va uzatish uchun mo'ljallangan til.

WWW тармоғида гиперматнли хужжатларни тайёрлаш, сақлаш ва узатиш учун мўлжалланган тил.

### Регистр

**uz** - registr

регистр

**en** - register

Устройство, физически находящееся в процессоре и используемое для временного хранения небольших данных и быстрого доступа к ним.

Jismonan protsessorda joylashgan va katta bo'lmagan ma'lumotlarni vaqtincha saqlash, ulardan tez foydalanish imkonini beradigan qurilma.

Жисмонан процессорда жойлашган ва катта бўл-

## Р

маган маълумотларни вақтинча сақлаш, улардан тез фойдаланиш имконини берадиган қурилма.

### **Редактор текста**

**uz** - matn redaktori

matn redaktori

**en** - source editor

Программа или ее часть, обеспечивающая создание текстовых документов и их корректировку. Текстовые документы – это обычные статьи, тексты программ, команды операционной системы. Любой пользовательский интерфейс должен обеспечить работу с текстом, а значит, должен иметь в своем составе текстовый редактор. Около 80 % времени работы всех компьютеров в мире уходит на работу с текстами. Разработано много хороших редакторов для разных целей. Из универсальных и широко используемых следует отметить Лексикон и Word фирмы Microsoft. Основные функции редактора текстов выделение сегментов, их копирование и перенос, возможность отката, автоматический перенос слов, проверка орфографии, форматирование, печать с использованием различных шрифтов и др. Редакторы позволяют вставлять в текст графический материал, подготовленный с помощью графических редакторов, и таблицы.

Matnli hujjatlar yaratilishi va ularning to'g'rilanishi ta'minlanadigan dastur yoki uning bir qismi. Matnli hujjatlar – bu, oddiy maqolalar, dasturlarning matnlari, operatsion tizim komandalaridir. Har qanday foydalanuvchi interfeysi matn bilan ishlashni ta'minlashi, demak, tarkibida matn redaktori bo'lishi kerak. Dunyoda barcha kompyuterlar ishlash vaqtining 80 foizga yaqini matnlar bilan ishlashga ketadi. Turli maqsadlar uchun ko'plab yaxshi redaktorlar ishlab chiqilgan. Universal va keng foydalaniladigan redaktorlardan *Microsoft* firmasining *Word* va *Leksikon* matn redaktorlarini ko'rsatish mumkin. Matn redaktorlarining asosiy funksiyalari segmentlarni ajratish, ulardan nusxa olish va ko'chirish, orqaga qaytarish mumkinligi, so'zlarni avtomatik ko'chirish, orfografiyani tekshirish, formatlash, turli shriftlardan foydalanib bosish hisoblanadi. Redaktorlar matnga grafik redaktorlar yordamida tayyorlangan grafik material va jadvallarni kiritish imkonini beradi.

## Р

Матнли хужжатлар яратилиши ва уларнинг тўғриликаниши таъминладиган дастур ёки унинг бир қисми. Матнли хужжатлар – бу, оддий мақола-лар, дастурларнинг матнлари, операцион тизим командаларидир. Ҳар қандай фойдаланувчи интерфейси матн билан ишлашни таъминлаши, демак, таркибида матн редактори бўлиши керак. Дунёда барча компьютерлар ишлаш вақтининг 80 фоизга яқини матнлар билан ишлашга кетади. Турли мақсадлар учун кўплаб яхши редакторлар ишлаб чиқилган. Универсал ва кенг фойдаланиладиган редакторлардан Microsoft фирмасининг Word ва Лексикон матн редакторларини кўрсатиш мумкин. Матн редакторларининг асосий функциялари сегментларни ажратиш, улардан нусха олиш ва кўчириш, орқага қайтариш мумкинлиги, сўзларни автоматик кўчириш, орфографияни текшириш, форматлаш, турли шрифтлардан фойдаланиб босиш ҳисобланади. Редакторлар матнга график редакторлар ёрдамида тайёрланган график материал ва жадвалларни киритиш имконини беради.

### **Режим реального времени**

**uz** - real vaqt rejimi

реал вақт режими

**en** - real-time mode

Режим работы вычислительной системы, при котором обработка данных о процессах, происходящих во внешней среде, проходит в том же темпе, что и сами процессы.

Hisoblash tizimining ishlash rejimi, bunda tashqi muhitda yuz beradigan jarayonlar to'g'risidagi ma'lumotlarni qayta ishlash, jarayonlar o'zi kechadigan sur'atda kechadi.

Ҳисоблаш тизимининг ишлаш режими, бунда ташқи муҳитда юз берадиган жараёнлар тўғрисидаги маълумотларни қайта ишлаш, жараёнлар ўзи кечадиган суръатда кечади.

### **Резидентная программа**

**uz** - rezident dastur

резидент дастур

**en** - resident program

Программа, помещаемая во время работы компьютера в оперативную память, не выгружается автоматически из нее после выполнения, выполняется по мере необходимости и не мешает работе других программ.

Kompyuterning ishlash vaqtida operativ хотирага joylashtiriladigan dastur, bajarilgandan so'ng undan

## Р

avtomatik ravishda olinmaydi, zaruratga qarab bajariladi va boshqa dasturlar ishiga xalaqit bermaydi.

Компьютернинг ишлаш вақтида оператив хотирага жойлаштириладиган дастур, бажарилгандан сўнг ундан автоматик равишда олинмайди, заруратга қараб бажарилади ва бошқа дастурлар ишига халақит бермайди.

### **Рекурсивная функция**

**uz** - rekursiv funksiya

рекурсив функция

**en** - recursive function

Функция, содержащая в своем определении обращение к самой себе. Рекурсивные функции широко используются в функциональных языках программирования, в частности в языке LISP.

O‘ziga-o‘zi murojaat qiladigan funksiya. Rekursiv funksiyalardan funksional dasturlash tillarida, xususan, *LISP* tilida keng foydalaniladi.

Ўзига-ўзи муурожаат қиладиган функция. Рекурсив функциялардан функционал дастурлаш тилларида, хусусан, *LISP* тилида кенг фойдаланилади.

### **Реляционная база данных**

**uz** - relyatsion ma’lumotlar

bazasi

реляцион маълумотлар

базаси

**en** - relational database

Совокупность взаимосвязанных двумерных (реляционных) таблиц. Каждая таблица отражает одну сущность. В реляционной базе данных связи между двумя таблицами обеспечиваются по ключу связи (ключу главной таблицы). Для работы с базой данных используются таблицы, формы, запросы, отчёты, макросы и модули. Таблицы создаются пользователями для хранения информации в базе данных, при этом каждой сущности соответствует одна таблица. Столбцы таблицы (поля) содержат значения реквизитов, а строки таблицы (записи) – экземпляры сущности.

O‘zaro bog‘langan ikki o‘lchamli (relyatsion) jadvallar yig‘indisi. Har bir jadval bitta mohiyatni aks ettiradi. Relyatsion ma’lumotlar bazasida ikkita jadval orasidagi aloqalar aloqa kaliti (bosh jadval kaliti) orqali ta’minlanadi. Ma’lumotlar bazasi bilan ishlash uchun, jadvallardan, shakllar, so‘rovlar, hisobotlar, makroslar va modullardan foydalaniladi. Jadvallar ma’lumotlar bazasida axborotni saqlash uchun foydalanuvchilar tomonidan tuziladi, bunda har bir mohiyatga bitta jadval mos keladi. Jadval (maydon)

## Р

ustunlari rekvizitlarning qiymatlarini, jadval (yozuv) satrlari esa, mohiyat nusxalarini ichiga oladi.

Ўзаро боғланган икки ўлчамли (реляцион) жадваллар йиғиндиси. Ҳар бир жадвал битта моҳият-ни акс эттиради. Реляцион маълумотлар базасида иккита жадвал орасидаги алоқалар алоқа калити (бош жадвал калити) орқали таъминланади. Маълумотлар базаси билан ишлаш учун, жадваллардан, шакллар, сўровлар, ҳисоботлар, макрослар ва модуллардан фойдаланилади. Жадваллар маълумотлар базасида ахборотни сақлаш учун фойдаланувчилар томонидан тузилади, бунда ҳар бир моҳиятга битта жадвал мос келади. Жадвал (майдон) устунлари реkvизитларнинг қийматларини, жадвал (ёзув) сатрлари эса, моҳият нусxаларини ичига олади.

### **Реляционная модель**

**uz** - relyatsion model

реляцион модель

**en** - relational model

Модель данных, описывающая структуру данных, допустимые операции над данными и специальные правила, обеспечивающие целостность данных. Разработана Эдгаром Коддом в фирме IBM в 1970 г. Данные представляются в виде двухмерных таблиц, над которыми допускаются традиционные теоретико-множественные операции (объединение, пересечение, разность и декартово произведение) и специальные реляционные операции (селекция, проекция, соединение и деление). Использование модели позволило создать как сами реляционными базы данных, так и системы управления реляционными базами данных.

Ma'lumotlar strukturasi, ma'lumotlar ustidagi yo'l qo'yiladigan operatsiyalar, ma'lumotlarning yaxlitligi ta'minlanadigan maxsus qoidalar tavsiflangan ma'lumotlar modeli. *Edgar Kodd* tomonidan *IBM* firmasida 1970 yilda ishlab chiqilgan. An'anaviy na-zariy ko'plik amallar (birlashtirish, kesishish, farq va dekart ko'paytmasi) va maxsus relyatsion amallar (seleksiya, proeksiya, birlashtirish va bo'lish) yo'l qo'yiladigan ikki o'lchamli jadvallar ko'rinishida taqdim etiladi. Modeldan foydalanish, ham relyatsion ma'lumotlar bazalarini, ham relyatsion ma'lumotlar bazalarini

## Р

boshqarish tizimini yaratish imkonini berdi.

Маълумотлар структурасини, маълумотлар устидаги йўл қўйиладиган операциялар, маълумотларнинг яхлитлиги таъминланадиган махсус қоидалар тавсифланган маълумотлар модели. Эдгар Кодд томонидан IBM фирмасида 1970 йилда ишлаб чиқилган. Анъанавий назарий кўплик амаллар (бирлаштириш, кесишиш, фарқ ва декарт кўпайтмаси) ва махсус реляцион амаллар (селекция, проекция, бирлаштириш ва бўлиш) йўл қўйиладиган икки ўлчамли жадваллар кўринишида тақдим этилади. Моделдан фойдаланиш, ҳам реляцион маълумотлар базаларини, ҳам реляцион маълумотлар базаларини бошқариш тизимини яратиш имконини берди.

### **Реляционная система управления базой данных (РСУБД)**

**uz** - relyatsion ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi (RMBBT)

реляцион маълумотлар базасини бошқариш тизими (РМББТ)

**en** - relational database management system (RDMS)

Система управления реляционной базой данных, построенная на реляционной модели. Каждая РСУБД – это достаточно мощный язык программирования со специфическим уклоном на обработку таблиц. Последние версии этих систем обладают не только хорошими скоростными качествами, но и имеют удачный пользовательский интерфейс. В состав этой системы РСУБД обычно входит язык структурированных запросов (SQL). В состав многих РСУБД для персональных компьютеров входят три модуля: командный язык, интерпретирующая и/или компилирующая система и пользовательская оболочка.

Relyatsion model asosida tuzilgan, relyatsion ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi. Har bir relyatsion ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi – bu, jadvallarni qayta ishlashga spetsifik yetarlicha kuchli dasturlash tilidir. Bu tizimlarning oxirgi versiyalari na faqat yaxshi tezlik sifatlariga, balki qulay foydalanuvchi interfeysiga ham ega. Bu tizim tarkibiga odatda strukturalangan so'rovlar (SQL) tili kiradi. Shaxsiy kompyuterlar uchun belgilangan ko'plab relyatsion ma'lumotlar bazalarini boshqarish tizimi tarkibiga uchta modul: komanda tili, talqin qiladigan va/yoki kompilyatsiyalovchi tizim va foydalanuvchi qobig'i kiradi.

## Р

Реляцион модель асосида тузилган, реляцион маълумотлар базасини бошқариш тизими. Ҳар бир реляцион маълумотлар базасини бошқариш тизими – бу, жадвалларни қайта ишлашга специфик етарлича кучли дастурлаш тилидир. Бу тизимларнинг охириги версиялари на фақат яхши тезлик сифатларига, балки қулай фойдаланувчи интерфейсига ҳам эга. Бу тизим таркибига одатда структураланган сўровлар (SQL) тили киради. Шахсий компьютерлар учун белгиланган кўплаб реляцион маълумотлар базаларини бошқариш тизими таркибига ўрта модуль: команда тили, талқин қиладиган ва/ёки компиляцияловчи тизим ва фойдаланувчи қобиғи киради.

### Ресурсы сети

**uz** - tarmoq resurslari  
тармоқ ресурслари  
**en** - network resources

Отдельные устройства (например, принтер, дисковые накопители), программы, базы данных, которыми могут пользоваться абоненты сети.

Tarmoq abonentlari foydalanishlari mumkin boʻlgan maʼlumotlar bazalari, dasturlar, alohida qurilmalar (masalan, printer, diskli toʻplagichlar).

Тармоқ абонентлари фойдаланишлари мумкин бўлган маълумотлар базалари, дастурлар, алоҳида қурилмалар (масалан, принтер, дискли тўплагичлар).

### Речевой ввод

**uz** - nutqli kiritish  
нутқли киритиш  
**en** - speech input

Технология ввода данных в компьютер с помощью голоса (без клавиатуры). Для использования речевого ввода необходимо иметь достаточно мощный персональный компьютер с процессором i486 или Pentium с оперативной памятью не менее 8 Mbyte и программное обеспечение со словарем. Программа оцифровывает речь, выделяет каждое слово и осуществляет поиск его в своем словаре для точного определения.

Maʼlumotlarni kompyuterga ovoz yordamida (klaviaturasiz) kiritish texnologiyasi. Nutqli kiritishdan foydalanish uchun, operativ xotirasi kamida 8 Mbyte boʻlgan *Pentium* yoki i486 protsessorga ega katta quvvatli shaxsiy kompyuter va lugʻatli dasturiy taʼminot boʻlishi zarur. Dastur nutqni raqamlash-

## Р

tiradi, har bir soʻzni ajratadi va aniq taʼriflash uchun uni oʻzining lugʻatidan topishni bajaradi.

Маълумотларни компьютерга овоз ёрдамида (клавиатурасиз) киритиш технологияси. Нуткли киритишдан фойдаланиш учун, оператив хотира-си камида 8 Mbyte бўлган Pentium ёки i486 процессорга эга катта қувватли шахсий компью-тер ва луғатли дастурий таъминот бўлиши зарур. Дастур нутқни рақамлаштиради, ҳар бир сўзни ажратади ва аниқ таърифлаш учун уни ўзининг луғатидан топишни бажаради.

## С

### Сайт

**uz** - sayt

сайт

**en** - site

Группа Web-страниц, связанная общим именем, тематикой и системой навигации. Программа, которая интерпретируется как текст, графика, анимация, звук. Оформление сайта производится с помощью языков HTML, Java.

Umumiy nom, mavzu va navigatsiya tizimi bilan bogʻlangan Web-sahifalar toʻplami. Matn, grafika, animatsiya, tovush sifatida talqin qilinadigan dastur. Saytni rasmiylashtirish *HTML*, *Java* tillari yordami-da amalga oshiriladi.

Умумий ном, мавзу ва навигация тизими билан боғланган Web-саҳифалар тўплами. Матн, гра-фика, анимация, товуш сифатида талқин қилина-диган дастур. Сайтни расмиёлаштириш HTML, Java тиллари ёрдамида амалга оширилади.

### Сегмент

**uz** - segment

сегмент

**en** - segment

Область оперативной памяти, выделяемая опера-ционной системой для хранения программы, данных или стека данных.

Operativ хотиранинг, dastur, maʼlumotlar yoki maʼlumotlar stekini saqlash uchun operatsion tizim ajratadigan sohasi.

Оператив хотиранинг, дастур, маълумотлар ёки маълумотлар стекини сақлаш учун операцион тизим ажратадиган соҳаси.

## С

### **Сектор**

**uz** - sektor  
сектор  
**en** - sector

Часть дорожки гибкого или жесткого магнитного диска, на которой записаны данные. Сектор – минимальная единица памяти, имеющая свой адрес.

Egiluvchan yoki magnit qattiq disk yoʻlkasining, maʼlumotlar yozilgan qismi. Sektor – хотиранинг oʻz adresiga ega boʻlgan eng kichik birligi.

Эгилувчан ёки магнит қаттиқ диск йўлкасининг, маълумотлар ёзилган қисми. Сектор – хотиранинг ўз адресига эга бўлган энг кичик бирлиги.

### **Сектор диска**

**uz** - disk sektori  
диск сектори  
**en** - disk sector

Минимальная адресуемая единица хранения информации на дисковых запоминающих устройствах. Является частью дорожки диска. У большинства устройств размер сектора составляет 512 byte (например, у жестких и гибких дисков), либо 2048 byte (например, у оптических дисков). Новые жесткие диски используют размер сектора 4096 byte, известный как расширенный формат.

Diskli хотирловчи қурилмаларда ахборот сақлашнинг minimal adreslanadigan birligi. Disk yoʻlkasining bir qismi hisoblanadi. Koʻpgina қурилмаларда sektorning oʻlchami 512 byteni (masalan, qattiq va egiluvchan disklarda) yoki 2048 byteni (masalan, optik disklarda) tashkil qiladi. Yangi qattiq disklarda kengaytirilgan format sifatida maʼlum boʻlgan 4096 byte sektor oʻlchamidan foydalaniladi.

Дискли хотирловчи қурилмаларда ахборот сақлашнинг минимал адресланадиган бирлиги. Диск йўлкасининг бир қисми ҳисобланади. Кўпгина қурилмаларда секторнинг ўлчами 512 байтни (масалан, қаттиқ ва эгилувчан дискларда) ёки 2048 байтни (масалан, оптик дискларда) ташкил қилади. Янги қаттиқ дискларда кенгайтирилган формат сифатида маълум бўлган 4096 байт сектор ўлчамидан фойдаланилади.

### **Семантика**

Смысл каждой синтаксической конструкции в

## С

**uz** - semantika  
семантика  
**en** - semantics

языке или системе. В языках программирования транслятор превращает синтаксические построения в команды, понятные операционной системе и процессору. Смысловые ошибки транслятор не выявляет, их поиск осуществляет человек в процессе отладки, тестирования и даже эксплуатации.

Til yoki tizimdagi har bir sintaktik konstruksiyaning ma'nosi. Dasturlash tillarida translyator sintaktik tuzilishlarni operatsion tizim va protsessor tushundigan komandalarga aylantiradi. Ma'noviy xatolarni translyator aniqlamaydi, ularni qidirib topish bilan testlash, sozlash va hatto ekspluatatsiya jarayonida odam shug'ullanadi.

Тил ёки тизимдаги ҳар бир синтактик конструкциянинг маъноси. Дастурлаш тилларида транслятор синтактик тузилишларни операцион тизим ва процессор тушунадиган командаларга айлантиради. Маъновий хатоларни транслятор аниқламайди, уларни қидириб топиш билан тестлаш, созлаш ва ҳатто эксплуатация жараёнида одам шуғулланади.

**Семафор**  
**uz** - semafor  
семафор  
**en** - semaphore

Специальный тип данных в некоторых языках программирования. Управляет доступом к некоторым ресурсам компьютера, к которым стремятся разные процессы, то есть синхронизирует выполнение процессов.

Ba'zi dasturlash tillarida ma'lumotlarning maxsus turi. Kompyuterning, turli jarayonlar intiladigan ba'zi resurslaridan foydalanishni boshqaradi, ya'ni jarayonlar bajarilishini sinxronlashtiradi.

Баъзи дастурлаш тилларида маълумотларнинг махсус тури. Компьютернинг, турли жараёнлар интиладиган баъзи ресурсларидан фойдаланишни бошқаради, яъни жараёнлар бажарилишини синхронлаштиради.

**Сенсорная панель**

Манипулятор, работающий от изменения элек-

## С

**uz** - sensorli panel  
сенсорли панель  
**en** - touch panel

трического поля над поверхностью устройства при движении пальца.

Barmoqning harakatlanishi paytida qurilma yuzasidagi elektr maydonning o'zgarishidan ishlaydigan manipulyator.

Бармоқнинг ҳаракатланиши пайтида қурилма юзасидаги электр майдоннинг ўзгаришидан ишлайдиган манипулятор.

**Сервер**  
**uz** - server  
сервер  
**en** - server

Компьютер или приложение, предоставляющие услуги (сервисы), ресурсы или данные клиентскому приложению или компьютеру. Клиентское приложение обычно посылает серверу запрос в формате OLE , DDE или в каком-либо другом.

Mijoz dasturi yoki kompyuter resurslari va ma'lumotlariga xizmat ko'rsatuvchi dastur yoki kompyuter. Mijoz dastur serverga so'rovni *OLE*, *DDE* yoki boshqa formatlarda uzatadi.

Мижоз дастури ёки компьютер ресурслари ва маълумотларига хизмат кўрсатувчи дастур ёки компьютер. Мижоз дастур серверга сўровни *OLE*, *DDE* ёки бошқа форматларда узатади.

**Сервер удаленных узлов**  
**uz** - olisdagi uzellar serveri  
олисдаги узеллар сервери  
**en** - server remote node

Компьютер и специальные программы, обеспечивающие работу удаленного персонального компьютера с локальной компьютерной сетью. Сервер и удаленный персональный компьютер должны быть оснащены модемами. Основные задачи – обеспечение надежности соединения и передачи данных, предотвращение несанкционированного доступа.

Olisdagi shaxsiy kompyuterning lokal kompyuter tarmog'i bilan ishlashini ta'minlaydigan maxsus dasturlar va kompyuter. Server va olisdagi shaxsiy kompyuter modamlar bilan ta'minlanishi kerak. Asosiy vazifalari – ruxsat etilmagan tarzda erkin foydalanishga yo'l qo'ymaslik, ma'lumotlar uzatish va birlashtirish ishonchliligini ta'minlashdir.

## С

Олисдаги шахсий компьютернинг локал компьютер тармоғи билан ишлашни таъминлайдиган махсус дастурлар ва компьютер. Сервер ва олисдаги шахсий компьютер модемлар билан таъминланиши керак. Асосий вазифалари – рухсат этилмаган тарзда эркин фойдаланишга йўл қўймаслик, маълумотлар узатиш ва бирлаштириш ишончилигини таъминлашдир.

### **Сетевая база данных**

**uz** - tarmoq ma'lumotlar bazasi  
тармоқ маълумотлар  
базаси  
**en** - network data base

База данных, элементы которой могут быть связаны между собой произвольным образом. С теоретической точки зрения, каждый элемент может быть связан с любым другим элементом базы. Описывается с помощью графа.

Elementlari o'zaro ixtiyoriy ravishda bog'langan ma'lumotlar bazasi. Nazariy jihatdan har bir element bazaning istalgan boshqa bir elementi bilan bog'langan bo'lishi mumkin. Graf yordamida tavsiflanadi.

Элементлари ўзаро ихтиёрий равишда боғланган маълумотлар базаси. Назарий жиҳатдан ҳар бир элемент базанинг исталган бошқа бир элементи билан боғланган бўлиши мумкин. Граф ёрдамида тавсифланади.

### **Сетевая операционная система**

**uz** - tarmoq operatsion tizimi  
тармоқ операцион тизими  
**en** - network operating system

Операционная система, обеспечивающая работу сети. Основные функции: управление передачей сообщений, защита данных от несанкционированного доступа, управление каталогами, электронная почта. В локальных сетях широко используется сетевая операционная система NetWare фирмы Novell.

Tarmoqning ishini ta'minlaydigan operatsion tizim. Asosiy funksiyalari: xabarlar uzatilishini boshqarish, ma'lumotlarni ruxsatsiz foydalanishdan himoyalash, kataloglarni boshqarish, elektron pochta. Lokal tarmoqlarda *Novell* firmasining *NetWare* tarmoq operatsion tizimidan keng foydalaniladi.

Тармоқнинг ишини таъминлайдиган операцион тизим. Асосий функциялари: хабарлар узатили-

## С

шини бошқариш, маълумотларни рухсатсиз фойдаланишдан ҳимоялаш, каталогларни бошқариш, электрон почта. Локал тармоқларда Novell фирмасининг NetWare тармоқ операцион тизимидан кенг фойдаланилади.

### Сетевой компьютер

**uz** - tarmoq kompyuteri

тармоқ компютери

**en** - network computer

Компьютер для работы в глобальных или корпоративных сетях в качестве терминала. Отличается от традиционных персональных компьютеров встроенными средствами для подключения к сети и отсутствием жесткого диска. Разрабатывает компьютер консорциум, в который вошли известные фирмы IBM, Apple, Sun. Сетевые компьютеры создаются в основном для домашнего применения, основываются на стандартах сети Internet.

Terminal sifatida global yoki korporativ tarmoqlarda ishlash uchun mo'ljallangan kompyuter. An'anaviy shaxsiy kompyuterlardan tarmoqqa ulash uchun mo'ljallangan o'rnatiladigan vositalar va qattiq diskning bo'lmasligi bilan farqlanadi. Tarmoq kompyuterini *IBM, Apple, Sun* kabi mashhur firmalar kiradigan konsorsium ishlab chiqadi. Tarmoq kompyuterlari asosan uyda qo'llanish uchun yaratiladi, *Internet* tarmog'i standartlariga asoslanadi.

Терминал сифатида глобал ёки корпоратив тармоқларда ишлаш учун мўлжалланган компьютер. Анъанавий шахсий компьютерлардан тармоққа улаш учун мўлжалланган ўрнатиладиган воситалар ва қаттиқ дискнинг бўлмаслиги билан фарқланади. Тармоқ компютерини *IBM, Apple, Sun* каби машхур фирмалар кирадиган консорциум ишлаб чиқади. Тармоқ компютерлари асосан уйда қўлланиш учун яратилади, *Internet* тармоғи стандартларига асосланади.

### Сеть

**uz** - tarmoq

тармоқ

**en** - network

Структура организации технических средств, данных, программ. Описывается и исследуется с помощью графов. Набор соединенных между собой устройств, предоставляющих возможность пользователям сохранять, обмениваться и получать доступ к необходимой информации. Наиболее популярными устройствами, соединяющими-

## С

ся в сеть, являются микрокомпьютеры, миникомпьютеры, мэйнфреймы, терминалы, принтеры, факсы, пейджеры и различные устройства для хранения данных.

Texnik vositalar, ma'lumotlar, dasturlar tashkil qilish strukturasi. Graflar yordamida tavsiflanadi va tadqiq qilinadi. Qurilmalar o'rtasidagi ulanishlar bo'lib, foydalanuvchilarga ma'lumotlarni saqlash, ular bilan almashinish, ularga murojaat qilish imkonini yaratadi. Tarmoqqa asosan mikrokompyuterlar, minikompyuterlar, meyn-freymlar, terminallar, printerlar, fakslar, peyjerlar va turli ma'lumot saqlaydigan qurilmalar ulanadi.

Техник воситалар, маълумотлар, дастурлар ташкил қилиш структураси. Графлар ёрдамида тавсифланади ва тадқиқ қилинади. Қурилмалар ўртасидаги уланишлар бўлиб, фойдаланувчиларга маълумотларни сақлаш, улар билан алмашишни, уларга мурожаат қилиш имконини яратади. Тармоққа асосан микрокомпьютерлар, миникомпьютерлар, мэйн-фреймлар, терминаллар, принтерлар, факслар, пейжерлар ва турли маълумот сақлайдиган қурилмалар уланади.

### Сеть Internet

**uz** - *Internet* tarmog'i

Internet тармоғи

**en** - Internet network

Глобальная компьютерная сеть или объединение сетей. Прообраз Internet создан в 1969 г. в виде сети Arpanet. В настоящем виде Internet существует с начала 90-гг. XX в. Работает в режимах «off-line» и «on-line». Основа сети Internet – протокол TCP/IP. Среди сетевых услуг, предлагаемых Internet, самыми распространенными являются: передача файлов, работа с гипертекстовыми документами (WWW) и электронная почта.

Global kompyuter tarmog'i yoki tarmoqlar birlashmasi. *Internet* timsoli *Arpanet* tarmog'i ko'rinishida 1969 yilda yaratilgan. Hozirgi ko'rinishda *Internet* XX asrning 90-yillaridan mavjud. «Off-line» va «on-line» rejimlarida ishlaydi. *Internet* tarmog'ining asosi *TCP/IP* protokoli hisoblanadi. *Internet* taklif qiladigan tarmoq xizmatlari ichida fayllar uzatish gipermatnli hujjatlar bilan ishlash va elektron pochta

## С

keng tarqalgan.

Глобал компьютер тармоғи ёки тармоқлар бирлашмаси. Internet тимсоли Arpanet тармоғи кўринишида 1969 йилда яратилган. Ҳозирги кўринишида Internet XX асрнинг 90-йилларидан мавжуд. «Off-line» ва «on-line» режимларида ишлайди. Internet тармоғининг асоси TCP/IP протоколи ҳисобланади. Internet таклиф қиладиган тармоқ хизматлари ичида файллар узатиш гиперматнли хужжатлар билан ишлаш ва электрон почта кенг тарқалган.

### **Сеть неоднородная**

**uz** - bir jinsli bo'lmagan tarmoq  
бир жинсли бўлмаган

тармоқ

**en** - nonuniform network

Компьютерная сеть, состоящая из фрагментов разной топологии и разнотипных технических средств.

Turli topologiya fragmentlaridan va turli xil texnik vositalardan tuzilgan kompyuter tarmog'i.

Турли топология фрагментларидан ва турли хил техник воситалардан тузилган компьютер тармоғи.

### **Сеть одноранговая**

**uz** - bir rangdagi tarmoq  
бир рангдаги тармоқ

**en** - peer network

Компьютерная сеть, в которой все компьютеры равноправны, не требуют выделенного сервера.

Barcha kompyuterlar teng huquqli bo'lgan, ajratilgan server talab qilinmaydigan kompyuter tarmog'i.

Барча компьютерлар тенг ҳуқуқли бўлган, ажратилган сервер талаб қилинмайдиган компьютер тармоғи.

### **Сеть связи**

**uz** - aloqa tarmog'i  
алоқа тармоғи

**en** - telecommunication network

Часть вычислительной системы, обеспечивающей передачу данных, состоящая из аппаратуры передачи данных и канала связи.

Hisoblash tizimining, ma'lumotlar uzatilishini ta'minlaydigan, aloqa kanali va ma'lumotlar uzatish apparaturasidan tuzilgan qismi.

Ҳисоблаш тизимининг, маълумотлар узатилишини таъминлайдиган, алоқа канали ва маълумотлар узатиш аппаратурасидан тузилган қисми.

### **Сжатие**

**uz** - siqish  
сиқиш

Преобразование данных с целью уменьшения объема памяти, необходимого для их хранения и уменьшения объема передаваемых данных при

## С

**en** - compression

работе в сети. Методы сжатия данных основаны на уменьшении избыточности путем их кодирования. Степень сжатия зависит от типа файла, выполняемые файлы практически не уменьшаются, а файлы с графическими данными сжимаются в 4 раза.

Tarmoqda ishlash vaqtida uzatiladigan ma'lumotlar hajmini kamaytirish va saqlash uchun zarur bo'lgan xotira hajmini kamaytirish maqsadida ma'lumotlarni o'zgartirish. Ma'lumotlarni siqish metodlari kodlash yo'li bilan ortiqchalikni kamaytirishga asoslangan. Siqish darajasi fayl turiga bog'liq, bajariladigan fayllar amalda kamaumaydi, grafik ma'lumotlar bo'lgan fayllar 4 marta siqiladi.

Tarmoqda ishlash vaqtida uzatiladigan ma'lumotlar hajmini kamaytirish va saqlash uchun zarur bo'lgan xotira hajmini kamaytirish maqsadida ma'lumotlarni o'zgartirish. Ma'lumotlarni siqish metodlari kodlash yo'li bilan ortiqchalikni kamaytirishga asoslangan. Siqish darajasi fayl turiga bog'liq, bajariladigan fayllar amalda kamaumaydi, grafik ma'lumotlar bo'lgan fayllar 4 marta siqiladi.

**Символ**

**uz** - simvol

символ

**en** - symbol

Элемент алфавита, имеющий определенное значение. Как правило, записывается в памяти компьютера 8 битами или байтом.

Alfavitning muayyan qiymatiga ega bo'lgan elementi. Odatda, kompyuter хотирасида 8 та бит yoki bayt bilan yoziladi.

Алфавитнинг муайян қийматиға эға бўлган элементи. Одатда, компьютер хотирасида 8 та бит ёки байт билан ёзилади.

**Симплексное соединение**

**uz** - simpleks ulanish

симплекс уланиш

**en** - simplex connection

Логическое или физическое соединение двух точек, между которыми может осуществляться передача данных только в одном направлении.

Orasida faqat bir yo'nalishda ma'lumotlarning uzatilishi amalga oshirilishi mumkin bo'lgan ikki nuqtaning mantiqiy va fizik birikishi.

## С

Орасида фақат бир йўналишда маълумотларнинг узатилиши амалга оширилиши мумкин бўлган икки нуқтанинг мантиқий ва физик бирикиши.

### **Синапс**

**uz** - sinaps

синапс

**en** - sinaps

Понятие нейронных сетей. Синапс – связь между нейронами. Выходной сигнал с одного нейрона поступает в синапс, который передает его другому нейрону. При этом возможно преобразование сигнала. Сложные синапсы могут иметь память.

*Neuron tarmoqlar tushunchasi. Sinaps – neyronlar o‘rtasidagi bog‘lanishdir. Bir neyron dan chiqadigan chiqish signali, bu signalni boshqa neyron ga uzatadigan sinaps ga kelib tushadi. Bunda signal o‘zgartirilishi mumkin. Murakkab sinapslarda хотира bo‘lishi mumkin.*

Нейрон тармоқлар тушунчаси. Синапс – нейронлар ўртасидаги боғланишдир. Бир нейрондан чиқадиган чиқиш сигнали, бу сигнални бошқа нейронга узатадиган синапсга келиб тушади. Бунда сигнал ўзгартирилиши мумкин. Мураккаб синапсларда хотира бўлиши мумкин.

### **Синергетика**

**uz** - sinergetika

синергетика

**en** - synergetics

Наука, изучающая спонтанное (самопроизвольное) образование высокоупорядоченных структур в физических, химических и биологических открытых системах.

*Fizik, ximik va biologik ochiq tizimlarda yuqori tartiblashtirilgan strukturalarning spontan (o‘z-o‘zidan) hosil bo‘lishini o‘rganadigan fan.*

Физик, химик ва биологик очик тизимларда юқори тартиблаштирилган структураларнинг спонтан (ўз-ўзидан) ҳосил бўлишини ўрганадиган фан.

### **Синтаксис**

**uz** - sintaksis

синтаксис

**en** - syntaxis

Набор правил построения слов, конструкций и структур текста в языке или системе. Некоторые авторы включают в синтаксис и алфавит. Существует много способов описания синтаксиса языка, наиболее распространенные – синтаксические диаграммы и расширенная Бэкуса-Наура форма (РБНФ). Ошибки, возникающие при написании

## С

программы и касающиеся только синтаксиса, выявляются при синтаксическом анализе, осуществляемом транслятором.

Til yoki tizimda matn soʻzlari, konstruksiyalari va strukturalarini qurish qoidalari toʻplami. Baʼzi mualliflar sintaksisga alifboni ham kiritadilar. Til sintaksisini tavsiflashning koʻplab usullari mavjud, ularning ichida eng koʻp tarqalganlari – sintaktik diagrammalar va kengaytirilgan *Bekus-Naur* shakli. Dasturni yozishda paydo boʻladigan va faqat sintaksisga taalluqli xatolar, translyator amalga oshiradigan sintaktik tahlil paytida aniqlanadi.

Тил ёки тизимда матн сўзлари, конструкциялари ва структураларини қуриш қоидалари тўплами. Баъзи муаллифлар синтаксисга алифбони ҳам киритадилар. Тил синтаксисини тавсифлашнинг кўплаб усуллари мавжуд, уларнинг ичида энг кўп тарқалганлари – синтактик диаграммалар ва кенгайтирилган Бэкус-Наур шакли. Дастурни ёзишда пайдо бўладиган ва фақат синтаксисга тааллуқли хатолар, транслятор амалга оширадиган синтактик таҳлил пайтида аниқланади.

### **Синтаксическая диаграмма**

**uz** - sintaktik diagramma  
синтактик диаграмма  
**en** - syntactic diagram

Графическое представление синтаксиса языка программирования. Синтаксические диаграммы соответствуют расширенной Бэкуса-Наура форме и используются при описании языка программирования.

Dasturlash tili sintaksisining grafik koʻrsatilishi. Sintaktik diagrammalar kengaytirilgan *Bekus-Naur* shakliga toʻgʻri keladi va dasturlash tilini tavsiflashda foydalaniladi.

Дастурлаш тили синтаксисининг график кўрсатилиши. Синтактик диаграммалар кенгайтирилган Бэкус-Наур шаклига тўғри келади ва дастурлаш тилини тавсифлашда фойдаланилади.

### **Синхронизация**

**uz** - sinxronlash  
синхронлаш  
**en** - synchronization

Согласование каких-либо действий (событий) по времени, частоте или сигналам. Последовательность сигналов подтверждения связи, устанавливаемой между компьютерами или другими

## С

устройствами. Аппаратная синхронизация – это обмен сигналами по определенным линиям (отличным от линий данных), во время которого каждое устройство обозначает свою готовность к отправке или получению данных. В программной синхронизации применяются сигналы по тем же линиям, которые используются для передачи данных, аналогично связи между модемами по телефонным каналам.

Biror-bir ish (xabar) ning vaqt, chastota yoki signal bo'yicha moslashtirilishi. Kompyuter yoki boshqa qurilmaning aloqasini tasdiqlovchi signallar ketma-ketligi. Apparat sinxronlash – bu qurilmani ma'lumotlarni uzatish yoki qabul qilishga tayyorligini ko'rsatuvchi signallarni aniq bir tarmoq (ma'lumotlar tarmog'idan farqli ravishda) orqali almashinuvi. Dasturiy sinxronlashda signallar xuddi modemlar orasida telefon kanali bo'yicha aloqa qilish singari, ma'lumotlarni uzatish uchun qo'llaniladigan tarmoq orqali yuboriladi.

Бирор-бир иш (хабар) нинг вақт, частота ёки сигнал бўйича мослаштирилиши. Компьютер ёки бошқа қурилманинг алоқасини тасдиқловчи сигналлар кетма-кетлиги. Аппарат синхронлаш – бу қурилмани маълумотларни узатиш ёки қабул қилишга тайёрлигини кўрсатувчи сигналларни аниқ бир тармоқ (маълумотлар тармоғидан фарқли равишда) орқали алмашинуви. Дастурий синхронлашда сигналлар худди модемлар орасида телефон канали бўйича алоқа қилиш сингари, маълумотларни узатиш учун қўлланиладиган тармоқ орқали юборилади.

### **Система**

**uz** - tizim

тизим

**en** - system

Совокупность объектов, модулей, программ, связанных для совместного решения поставленной задачи (задач). Например, операционная система предназначена для организации взаимодействия пользователя с персональным компьютером.

Qo'yilgan vazifa (vazifalar) ni birgalikda hal etish maqsadida bog'langan dasturlar, modullar, obyektlar yig'indisi. Masalan, operatsion tizim foydalanuvchi

## С

bilan shaxsiy kompyuter oʻrtasidagi bogʻlanishni taʼminlash uchun moʻljallangan.

Қўйилган вазифа (вазифалар) ни биргаликда ҳал этиш мақсадида боғланган дастурлар, модуллар, объектлар йиғиндиси. Масалан, операцион тизим фойдаланувчи билан шахсий компьютер ўртасидаги боғланишни таъминлаш учун мўлжалланган.

### **Система автоматизированного проектирования**

**uz** - avtomatlashtirilgan

loyihalash tizimi

автоматлаштирилган

лойихалаш тизими

**en** - optimal design integration system

Комплекс технических и программных средств, позволяющих создавать всю необходимую конструкторскую и технологическую документацию на отдельные изделия, здания и сооружения.

Айрим buyumga, bino va inshootga tegishli barcha zarur konstruktorlik va texnologik hujjatlarni tuzish imkonini beradigan texnik va dasturiy vositalar kompleksi.

Айрим буюмга, бино ва иншоотга тегишли барча зарур конструкторлик ва технологик ҳужжатларни тузиш имконини берадиган техник ва дастурий воситалар комплекси.

### **Система сетевого управления**

**uz** - tarmoq boshqaruv tizimi

тармоқ бошқарув тизими

**en** - network operating system

Совокупность аппаратных и программных средств для контроля и управления сетью; состоит из программы, находящейся на компьютере, управляющем сетью; аппаратных и программных агентов, находящихся на компьютерах абонентов сети. Существует общепринятый протокол для управления сетями – SNMP (Simple Network Management Protokol – протокол управления простой сетью), позволяющий управлять сетью даже с разнородными абонентами. Основные функции управления сетью: сканирование сети и определение наличия устройств с SNMP- протоколом; определение состояния сети, удаленная диагностика абонентов на уровне портов, установление ограничений на доступ по паролю, 7/0I ведение журнала сети и др., т.е. обеспечение администратора сети всеми необходимыми для управления данными.

## С

Tarmoqni boshqarish va nazorat qilishning apparat va dasturiy vositalari jami, tarmoqni boshqaradigan kompyuterda joylashtirilgan dasturdan; tarmoq abonentlarining kompyuterlarida joylashtirilgan apparat va dasturiy agentlardan iborat. Tarmoqlarni boshqarishning umumqabul qilingan protokoli – *SNMP* (*Simple Network Management Protokol* – oddiy tarmoqni boshqarish protokoli) mavjud, bu protokol hatto turli xil abonentlar bo‘lgan tarmoqni ham boshqarish imkonini beradi. Tarmoqni boshqarishning asosiy funksiyalari: tarmoqni skanerlash va *SNMP* protokoli bo‘lgan qurilmalar mavjudligini aniqlash; tarmoq holatini aniqlash, portlar darajasida abonentlarni masofadan diagnostika qilish, parol bo‘yicha foydalanishga cheklashlar belgilash, 7/0I tarmoq jurnalini yuritish va boshqalar, ya’ni tarmoq administratorini ma’lumotlarni boshqarish uchun barcha zarur narsalar bilan ta’minlash.

Тармоқни бошқариш ва назорат қилишнинг аппарат ва дастурий воситалари жами, тармоқни бошқарадиган компьютерда жойлаштирилган дастурдан; тармоқ абонентларининг компьютерларидан жойлаштирилган аппарат ва дастурий агентлардан иборат. Тармоқларни бошқаришнинг умумқабул қилинган протоколи – *SNMP* (*Simple Network Management Protokol* – оддий тармоқни бошқариш протоколи) мавжуд, бу протокол ҳатто турли хил абонентлар бўлган тармоқни ҳам бошқариш имконини беради. Тармоқни бошқаришнинг асосий функциялари: тармоқни сканерлаш ва *SNMP* протоколи бўлган қурилмалар мавжудлигини аниқлаш; тармоқ ҳолатини аниқлаш, портлар даражасида абонентларни масофадан диагностика қилиш, парол бўйича фойдаланишга чеклашлар белгилаш, 7/0I тармоқ журналин юритиш ва бошқалар, яъни тармоқ администраторини маълумотларни бошқариш учун барча зарур нарсалар билан таъминлаш.

**Система счисления**  
**uz - sanoq tizimi**  
санок тизими

Способ отображения чисел и правила действий над ними. Различают позиционные и непозиционные системы счисления. В компьютерах при

## С

**en** - numbering system

вычислениях используются позиционные системы счисления.

Sonlarni aks ettirish usuli va ular ustida boʻladigan amallar qoidalari. Pozitsion va nopozitsion sanoq tizimlari farqlanadi. Kompyuterda hisoblashlarda pozitsion sanoq tizimlaridan foydalaniladi.

Сонларни акс эттириш усули ва улар устида бўладиган амаллар қоидалари. Позицион ва нопозицион санок тизимлари фарқланади. Компьютерда ҳисоблашларда позицион санок тизимларидан фойдаланилади.

**Система управления базами данных (СУБД)**

**uz** - maʼlumotlar bazasini boshqarish tizimi (MBBT)

маълумотлар базасини бошқариш тизими (МББТ)

**en** - data base management system (DBMS)

Программное обеспечение, обеспечивающее создание, хранение, обновление и поиск информации в базе данных с помощью развитого языка запросов, а также управление безопасностью и целостностью данных. Современные СУБД посредством механизма транзакций поддерживают одновременный доступ к данным многих пользователей, исключая возможность влияния одного пользователя на результаты, получаемые другим. В состав СУБД входят язык программирования; генераторы программ – облегчают составление программ, создание базы данных и их обработку; компиляторы – генерируют программы управления в машинных кодах для ускорения работы программ и их независимости от среды; генераторы отчета – позволяют пользователю оперативно создавать выходные документы, производить выборку, сортировку и расчеты; средства документирования – позволяют одновременно с созданием базы данных создавать описания ее в текстовом и графическом видах, описания программ с листингами. В соответствии с типами базы данных существуют иерархические, сетевые и реляционные СУБД. Практически все СУБД поддерживают работу в сети с архитектурой «клиент–сервер».

Rivojlangan soʻrovlar tili yordamida maʼlumotlar bazasi maʼlumotlari tuzilmasini hosil qilish, saqlash,

## С

yangilash, yangi ma'lumotlar qo'shish, izlash amallarining bajarilishini ta'minlaydigan dasturiy ta'minot. Zamonaviy MBBTlari tranzaksiya mexanizmi orqali ma'lumotlardan bir vaqtda ko'plab foydalanuvchilarning erkin foydalanishlarini ta'minlaydi. Bunda bir foydalanuvchining olgan natijasi boshqas-inikiga ta'sir qilmaydi. Ma'lumotlar bazalarini boshqarish tizimi tarkibiga dasturlash tili; dasturlar generatorlari – dasturlar tuzilishini, ma'lumotlar bazasi (MB) yaratilishini va ularning qayta ishlani-shini osonlashtiradi; kompilyatorlar – mashina kod-laridagi boshqarish dasturlarini, dasturlarning ishla-shini tezlashtirish va ularning muhitga bog'liq bo'l-masligi uchun generatsiyalaydi; hisobot generatorlari – foydalanuvchiga chiqish hujjatlarini operativ yaratish, tanlab olish, saralash va hisoblashlarni bajarish imkonini beradi; hujjatlashtirish vositalari – MB ni yaratish bilan bir vaqtda, matn va grafik ko'rinishlarda uning tavsifini yaratish, listinglar bo'lgan dasturlarni tavsiflash imkonini beradi. Ma'lumotlar bazalarining turlariga ko'ra, ierarxik, tarmoq va relyatsion MBBT mavjud. Amalda barcha MBBT «mijoz-server» arxitekturali tarmoqda ishlashni ta'minlaydi.

Ривожланган сўровлар тили ёрдамида маълумотлар базаси маълумотлари тузилмасини ҳосил қилиш, сақлаш, янгилаш, янги маълумотлар қўшиш, излаш амалларининг бажарилишини таъминлайдиган дастурий таъминот. Замонавий MBBTлари транзакция механизми орқали маълумотлардан бир вақтда кўплаб фойдаланувчиларнинг эркин фойдаланишларини таъминлайди. Бунда бир фойдаланувчининг олган натижаси бошқасиникига таъсир қилмайди. Маълумотлар базаларини бошқариш тизими таркибига дастурлаш тили; дастурлар генераторлари – дастурлар тузилишини, маълумотлар базаси (MB) яратилишини ва уларнинг қайта ишланишини оsonлаштиради; компиляторлар – машина кодларидаги бошқариш дастурларини, дастурларнинг ишлашини тезлаштириш ва уларнинг муҳитга боғлиқ бўлмаслиги учун генерациялайди; ҳисобот гене-

## С

раторлари – фойдаланувчига чиқиш ҳужжатлари-ни оператив яратиш, танлаб олиш, саралаш ва ҳисоблашларни бажариш имконини беради; ҳужжатлаштириш воситалари – МБ ни яратиш билан бир вақтда, матн ва график кўринишларда унинг тавсифини яратиш, листинглар бўлган дастурларни тавсифлаш имконини беради. Маълумотлар базаларининг турларига кўра, иерархик, тармоқ ва реляцион МББТ мавжуд. Амалда барча МББТ «мижоз-сервер» архитектурали тармоқда ишлашни таъминлайди.

### **Системное программное обеспечение**

**uz** - tizimli dasturiy ta'minot

tizimli dasturiy

ta'minot

**en** - operational software

Программное обеспечение, дающее пользователям возможность работать с компьютером и облегчающее эту работу. Основной частью системного программного обеспечения является операционная система. К системному программному обеспечению относят трансляторы, оболочки, системы управления базами данных и пр.

Foydalanuvchilarga kompyuter bilan ishlash imkoniyatini beradigan va bu ishni osonlashtiradigan dasturiy ta'minot. Operatsion tizim tizimli dasturiy ta'minotning asosiy qismi hisoblanadi. Tizimli dasturiy ta'minotga translyatorlar, qobiqlar, ma'lumotlar bazalarini boshqarish tizimlari kiradi.

Фойдаланувчиларга компьютер билан ишлаш имкониятини берадиган ва бу ишни оsonлаштирадиган дастурий таъминот. Операцион тизим тизimli дастурий таъминотнинг асосий қисми ҳисобланади. Тизimli дастурий таъминотга трансляторлар, қобиклар, маълумотлар базаларини бошқариш тизимлари киради.

### **Системные инструменты**

#### **Nvidia**

**uz** - Nvidia tizim vositalari

Nvidia tizim vositalari

**en** - Nvidia sistem tools

Набор утилит для доступа, мониторинга и настройки компонентов компьютерной системы, включая контроль за температурой и напряжением при помощи удобных панелей управления в Windows.

Kompyuter tizimi komponentlarini sozlash, monitoring qilish, erkin foydalanish, jumladan, Windows dagi qulay boshqarish panellari yordamida kuchlanish va temperaturani nazorat qilish.

## С

Компьютер тизими компонентларини созлаш, мониторинг қилиш, эркин фойдаланиш, жумладан, Windows даги қулай бошқариш панеллари ёрдамида кучланиш ва температурани назорат қилиш.

### **Системный блок**

**uz** - tizimli blok

тизимли блок

**en** - system unit

Часть персонального компьютера, в которой размещены блок питания, материнская плата, платы расширения, накопители на магнитных и оптических дисках.

Shaxsiy kompyuterning, ta'minot bloki, asosiy plata, kengayish platasi, magnit va optik disklardagi to'plagichlar joylashgan qismi.

Шахсий компьютернинг, таъминот блоки, асосий плата, кенгайиш платаси, магнит ва оптик дисклардаги тўплагичлар жойлашган қисми.

### **Системный подход**

**uz** - tizimli yondashuv

тизимли ёндашув

**en** - system concept

Метод рассмотрения каждого вопроса, задачи, явления, объекта как части более широкого единого и неразделимого целого – системы взаимосвязанных составных элементов. Предусматривает определение целей функционирования системы, выделение ее связей с другими системами; решение самой задачи ставится в зависимость от решения смежных задач и проблем более высокого уровня.

Har bir masala, vazifa, hodisa, obyektни birmuncha keng yaxlit va ajralmas butunning – o'zaro bog'lagan tarkibiy elementlar tizimining bir qismi sifatida qarab chiqish metodi. Tizim ishlashining maqsadlari aniqlanishini, uning boshqa tizimlar bilan aloqalari ajratib ko'rsatilishini ko'zda tutadi; vazifaning hal etilishi o'zaro bog'langan vazifalar va yuqoriroq darajadagi muammolar hal etilishiga bog'liq qilib qo'yiladi.

Ҳар бир масала, вазифа, ҳодиса, объектни бирмунча кенг яхлит ва ажралмас бутуннинг – ўзаро боғлаган таркибий элементлар тизимининг бир қисми сифатида қараб чиқиш методи. Тизим ишлашининг мақсадлари аниқланишини, унинг бошқа тизимлар билан алоқалари ажратиб кўрса-

## С

### Сканер

**uz** - skaner

сканер

**en** - scanner

тилишини кўзда тутуди; вазифанинг ҳал этилиши ўзаро боғланган вазифалар ва юқорироқ даражадаги муаммолар ҳал этилишига боғлиқ қилиб қўйилади.

Устройство ввода изображения с двухмерной поверхности в компьютер.

Примечание – Различают сканеры четырех типов: ручной; листовой; планшетный; барабанный.

Tasvirni ikki o'lchamli sirtidan kompyuterga kiritish qurilmasi.

Izoh – To'rt turdagi skaner farqlanadi: qo'l skaneri; varaqli skaner; planshetli skaner; barabanli skaner.

Тасвирни икки ўлчамли сиртдан компьютерга киритиш қурилмаси.

Изоҳ – Тўрт турдаги сканер фарқланади: қўл сканери; varaqli сканер; planshetli сканер; barabanli сканер.

### Скорость передачи данных

**uz** - ma'lumotlar uzatish tezligi

маълумотлар узатиш

тезлиги

**en** - data-transfer rate

Скорость, с которой данные передаются из внешней памяти в оперативную. Данная скорость зависит от типа локальной шины, на которой находится внешняя память, от типа интерфейса с периферийными устройствами. Скорость обмена данными в компьютерных сетях. Определяется состоянием канала и аппаратурой передачи данных.

Ma'lumotlar хотирадан operativ хотирага uzatiladigan tezlik. Bu tezlik tashqi хотира bo'lgan lokal shina turiga, periferik qurilmalar bo'lgan interfeys turiga bog'liq. Kompyuter tarmoqlarda ma'lumotlar almasinish tezligi. Kanalning holati va ma'lumotlar uzatish apparaturasi bilan belgilanadi.

Маълумотлар хотирадан оператив хотирага узатиладиган тезлик. Бу тезлик ташқи хотира бўлган локал шина турига, периферик қурилмалар бўлган интерфейс турига боғлиқ. Компьютер тармоқларда маълумотлар алмашилиш тезлиги. Каналнинг ҳолати ва маълумотлар узатиш аппаратураси билан белгиланади.

### Скремблер

**uz** - skrembler

скремблер

Устройство или программа для кодирования/декодирования данных с целью предотвращения несанкционированного доступа к сообщениям.

## С

**en** - scrambler

Xabarlardan ruxsat etilmagan tarzda foydalanishning oldini olish maqsadida ma'lumotlarni kodlash/dekodlash uchun mo'ljallangan qurilma yoki dekofer.

Хабарлардан рухсат этилмаган тарзда фойдаланишнинг олдини олиш мақсадида маълумотларни кодлаш/декодлаш учун мўлжалланган қурилма ёки декофер.

**Скрипт**

**uz** - skript

скрипт

**en** - script

Последовательность команд и/или действий, небольшая программа или макрос, исполняемые приложением или операционной системой при конкретных обстоятельствах. Сценарии часто хранятся в виде текстовых файлов.

Operatsion tizim yoki dastur muayyan holatda ishga tushiradigan komandalar va/yoki harakatlar ketma-ketligi, kichik dastur yoki makros. Ssenariylar ko'pincha matnli fayllarda saqlanadi.

Операцион тизим ёки дастур муайян ҳолатда ишга туширадиган командалар ва/ёки ҳаракатлар кетма-кетлиги, кичик дастур ёки макрос. Сценарийлар кўпинча матнли файлларда сақланади.

**Словарь**

**uz** - lug'at

луғат

**en** - dictionary

Организованная совокупность данных, каждый элемент которой состоит из двух частей. В первой – краткое имя того, что находится во второй части. Предназначен для ускорения обработки данных, которая производится по имени, указанному в первой части, при необходимости, подключается вторая часть.

Har bir elementi ikki qismdan iborat, ma'lumotlarning uyushtirilgan jami. Birinchi qismda ikkinchi qismda bo'lganning qisqacha nomi. Birinchi qismda ko'rsatilgan nom bo'yicha bajariladigan ma'lumotlar qayta ishlanishini tezlashtirish uchun mo'ljallangan, zarur bo'lganda ikkinchi qism qo'shiladi.

Ҳар бир элементи икки қисмдан иборат, маълумотларнинг уюштирилган жами. Биринчи қисмда иккинчи қисмда бўлганнинг қисқача номи. Би-

## С

ринчи қисмда кўрсатилган ном бўйича бажариладиган маълумотлар қайта ишланишини тезлаштириш учун мўлжалланган, зарур бўлганда иккинчи қисм қўшилади.

### Слово

**uz** - soʻz

сўз

**en** - word

1. Упорядоченный набор символов в заданном алфавите, имеющий определенный смысл.

2. Единица данных, рассматриваемая как целое при передаче и обработке данных в процессоре. Обычно измеряется в битах, или двоичных разрядах. Как правило, называется машинным словом.

1. Berilgan alifboda simvollarning muayyan maʼnoga ega boʻlgan tartiblashtirilgan toʻplami.

2. Protsessorda maʼlumotlarni qayta ishlash va uzatishda bir butun deb qaraladigan maʼlumotlar birligi. Odatda, bitlarda yoki ikkilik razryadlarda oʻlchanadi. Qoidaga koʻra, mashina soʻzi deb ataladi.

1. Берилган алифбода символларнинг муайян маънога эга бўлган тартиблаштирилган тўплами.

2. Процессорда маълумотларни қайта ишлаш ва узатишда бир бутун деб қараладиган маълумотлар бирлиги. Одатда, битларда ёки иккилик разрядларда ўлчанади. Қоидага кўра, машина сўзи деб аталади.

### Служебное слово

**uz** - xizmatga oid soʻz

хизматга оид сўз

**en** - unique word

Слово (/), имеющее специальное значение в языках программирования или других системах. Использование служебного слова не по назначению не разрешается.

Dasturlash tillarida yoki boshqa tizimlarda maxsus qiymatga ega boʻlgan soʻz (/). Xizmatga oid soʻzdan vazifasiga koʻra foydalanilmaslikka ruxsat etilmaydi.

Дастурлаш тилларида ёки бошқа тизимларда махсус қийматга эга бўлган сўз (/). Хизматга оид сўздан вазифасига кўра фойдаланилмасликка ружсат этилмайди.

### Смайлик

**uz** - smaylik

смайлик

Значок для выражения эмоций, составленный из основных и вспомогательных символов. Используется при общении в сети Internet (в электрон-

## С

**en** - smiley

ной почте, в чатах и т. п.). Состоит из трех символов: двоеточия «:», дефиса «-» и закрывающей скобки «)».

His-tuyg'ularni ifodalaydigan, asosiy va yordamchi simvollardan tuzilgan belgi. *Internet* tarmog'ida muloqot chog'ida (elektron pochta, chatlarda) foydalaniladi. Uchta simvol: «:» ikki nuqta, «-» defis va yopadigan qavs «)» dan iborat.

Ҳис-туйғуларни ифодалайдиган, асосий ва ёрдамчи символлардан тузилган белги. *Internet* тармоғида мулоқот чоғида (электрон почтада, чатларда) фойдаланилади. Учта символ: «:» икки нуқта, «-» дефис ва ёпадиган қавс «)» дан иборат.

**Смартфон**

**uz** - smartfon

смартфон

**en** - smart phone

Мобильный телефон, дополненный функциональностью карманного персонального компьютера.

Cho'ntak shaxsiy kompyuterining funksionalligi qo'shilgan mobil telefon.

Чўнтак шахсий компьютерининг функционал-лиги қўшилган мобил телефон.

**Событие**

**uz** - voqea

воқеа

**en** - signal

Действие пользователя или сообщение, генерируемое операционной системой, например, нажатие кнопки, закрытие окна и пр. Любое событие связано с объектом, его свойствами и методами. Понятие объектно-ориентированного анализа и проектирования сложных систем.

Foydalanuvchining harakati yoki operatsion tizim yuzaga keltiradigan xabar, masalan, tugmachani bosish, oynani yopish. Har qanday voqea obyekt bilan, uning xususiyatlari va metodlari bilan bog'liq. Murakkab tizimlarni loyihalash va obyektga yo'naltirilgan tahlil tushunchasi.

Фойдаланувчининг ҳаракати ёки операцион тизим юзага келтирадиган хабар, масалан, тугмачани босиш, ойнани ёпиш. Ҳар қандай воқеа объект

## С

### **Событийно-управляемое программирование**

**uz** - voqea - boshqariladigan dasturlash

воқеа - бошқариладиган дастурлаш

**en** - event-driven programming

билан, унинг хусусиятлари ва методлари билан боғлиқ. Мураккаб тизимларни лойиҳалаш ва объектга йўналтирилган таҳлил тушунчаси.

Программирование, при котором описывается, как должна реагировать программа на различные события (действия пользователя). Разновидность объектно-ориентированного программирования.

Dastur turli voqealarga (foydalanuvchining harakatlari) qanday javob berishi tavsiflanadigan dasturlash. Obyektga yoʻnaltirilgan dasturlashning bir turi.

Дастур турли воқеаларга (фойдаланувчининг ҳаракатларига) қандай жавоб бериши тавсифланадиган дастурлаш. Объектга йўналтирилган дастурлашнинг бир тури.

### **Сообщение**

**uz** - xabar

хабар

**en** - message

Единица обмена информацией между компьютерами, на которых запущена система «Очередь сообщений». Содержимое сообщения (текст или двоичные данные) определяется приложением, производящим отправку. Все сообщения, включая сообщения состояния, размещаются в очередях компьютеров.

«Xabarlar navbati» tizimi ishlayotgan kompyuterlar oʻrtasida axborot almashinish birligi. Xabar nimani oʻz ichiga olishini (ikkilik yoki matnli maʼlumotlar) joʻnatayotgan dastur aniqlaydi. Barcha xabarlar, ularning holati haqidagilar ham kompyuterlar navbatida joylashadi.

«Хабарлар навбати» тизими ишлаётган компьютерлар ўртасида ахборот алмашилиш бирлиги. Хабар нимани ўз ичига олишини (иккилик ёки матнли маълумотлар) жўнатаётган дастур аниқлайди. Барча хабарлар, уларнинг ҳолати ҳақидагилар ҳам компьютерлар навбатида жойлашади.

### **Сопроцессор**

**uz** - soprotsessor

сопроцессор

**en** - message coprocessor

Дополнительный процессор, увеличивающий функциональные возможности основного процессора.

Asosiy protsessorning funksional imkoniyatlarini

## С

oshiradigan qo‘shimcha protsessor.

Асосий процессорнинг функционал имкониятларини оширадиган қўшимча процессор.

### Спам

**uz** - spam

спам

**en** - spam

Сообщение, которое принудительно посылается подписчикам телеконференций с целью напомнить тематику дискуссионных списков, или непрошенное рекламное сообщение в электронной почте. Всё чаще служит для обозначения любого «сетевого мусора». Существуют способы маскировки спама, так называемый *stealth spam*.

Foydalanuvchining so‘rovisiz, majburiy tarzda jo‘natiladigan keraksiz ma’lumotlar. Bunga misol tariqasida turli telekonferensiyalarda ro‘yxatdan o‘tgan ishtirokchilarga diskussiya olib borish qoidalarini ma’lum qilish, yoki reklamalar va boshqalar kiradi. Yana bu turli xildagi «elektron chiqindi»ni atashda ham ishlatiladi. Spamni yashirish yo‘llari mavjud bo‘lib, *stealth spam* deb ataladi.

Фойдаланувчининг сўровисиз, мажбурий тарзда жўнатиладиган кераксиз маълумотлар. Бунга мисол тариқасида турли телеконференцияларда рўйхатдан ўтган иштирокчиларга дискуссия олиб бориш қоидаларини маълум қилиш, ёки рекламалар ва бошқалар киради. Яна бу турли хилдаги «электрон чиқинди»ни аташда ҳам ишлатилади. Спамни яшириш йўллари мавжуд бўлиб, *stealth spam* деб аталади.

### Спецификация

**uz** - spetsifikatsiya

спецификация

**en** - specification

Описание системы, полностью определяющее ее цель и функциональные возможности. Как правило, используется при разработке системы. Спецификация программы предполагает описание входных и выходных данных.

Tizimning maqsadi va funksional imkoniyatlarini belgilaydigan tavsif. Qoidaga ko‘ra, tizimni ishlab chiqish paytida foydalaniladi. Dastur spetsifikatsiyasi kirish va chiqish ma’lumotlari tavsiflanishini ko‘zda tutadi.

## С

Тизимнинг мақсади ва функционал имкониятларини белгилайдиган тавсиф. Қоидага кўра, тизимни ишлаб чиқиш пайтида фойдаланилади. Дастур спецификацияси кириш ва чиқиш маълумотлари тавсифланишини кўзда тутди.

### Спецификация АСРІ

**uz** - АСРІ spetsifikatsiyasi

АСРІ спецификацияси

**en** - advanced configuration and power (management)

Interface (ACPI) specification

Открытый стандарт, разработанный корпорациями Intel, Microsoft и Toshiba в 1996 году. Позволяет осуществлять полное управление энергопотреблением (с возможностью включения и отключения отдельных устройств) со стороны операционной системы, а не BIOS.

*Intel, Microsoft va Toshiba korporatsiyalari tomonidan 1996 yilda ishlab chiqilgan ochiq standart. Kompyuterlarning energiyaga bo'lgan etiyojini BIOS tomonidan emas, balki operatsion tizim tomonidan to'liq boshqarilishini (alohida qurilmalarni yoqish va o'chirib qo'yish) amalga oshirishga imkon beradi.*

Intel, Microsoft va Toshiba korporatsiyalari tomonidan 1996 йилда ишлаб чиқилган очик стандарт. Компьютерларнинг энергияга бўлган этиёжини BIOS томондан эмас, балки операцион тизим томондан тўлиқ бошқарилишини (алоҳида қурималарни ёқиш ва ўчириб қўйиш) амалга оширишга имкон беради.

### Список

**uz** - ro'yxat

рўйхат

**en** - list register

1 Упорядоченный набор элементов.

2 В программировании – структура данных, которая может объединять элементы разных типов и иметь произвольную длину, ограниченную только объёмом памяти компьютера. Список нулевой длины называется пустым. Недостатком списка является невозможность прямого обращения к его элементу по его позиции в списке.

1 Tartiblashtirilgan elementlar to'plami.

2 Dasturlashda – faqat kompyuter xotirasi bilan chegaralangan, ixtiyoriy uzunlikdagi turli elementlarni birlashtiradigan ma'lumotlar strukturasi. Uzunligi nolga teng ro'yxat bo'sh ro'yxat deb ataladi. Ro'yxatning kamchiligi, uning elementiga ro'yxatdagi pozitsiyasidan kelib chiqib to'g'ridan-

## С

to‘g‘ri murojaat eta olmasligidadir.

1 Тартиблаштирилган элементлар тўплами.

2 Дастурлашда – фақат компьютер хотираси билан чегараланган, ихтиёрий узунликдаги турли элементларни бирлаштирадиган маълумотлар структураси. Узунлиги нолга тенг рўйхат бўш рўйхат деб аталади. Рўйхатнинг камчилиги, унинг элементига рўйхатдаги позициясидан келиб чиқиб тўғридан-тўғри мурожаат эта олмаслигидадир.

### Сплайн

**uz** - splayn  
сплайн  
**en** - spline

В компьютерной графике – кривая, построенная по нескольким точкам. Описание кривой задается полиномом некоторой степени.

Kompyuter grafikasida – bir nechta nuqta bo‘yicha tuzilgan egri chiziq. Egri chiziqning tavsifi qandaydir darajadagi polinom bilan beriladi.

Компьютер графикасида – бир нечта нуқта бўйича тузилган эгри чизик. Эгри чизикнинг тавсифи қандайдир даражадаги полином билан берилади.

### Справочник

**uz** - spravochnik  
справочник  
**en** - reference

Набор ссылок, определяющий соответствие между элементами данных и их расположением в памяти компьютера.

Ma‘lumotlar elementlari va ularning kompyuter хотирасида жойлашиши о‘ртасидаги мувофиқликни белгилайдиган ҳаволалар то‘плами.

Маълумотлар элементлари ва уларнинг компьютер хотирасида жойлашиши ўртасидаги мувофиқликни белгилайдиган ҳаволалар тўплами.

### Спрайт

**uz** - sprayt  
спрайт  
**en** - sprite

Изображаемый объект, определяемый пользователем; может двигаться по экрану дисплея независимо от других элементов экрана (текста, графики) под управлением команд программы. Используется в некоторых языках программирования, например в BASIC.

Foydalanuvchi tomonidan aniqlanadigan, tavsiflana-

## С

digan obyekt; ekran bo‘ylab dastur komandalari boshqaruvida ekran (matn, grafika) ning boshqa elementlaridan mustaqil ravishda harakatlanishi mumkin. Ba’zi dasturlash tillarida, masalan, *BASIC* da foydalaniladi.

Фойдаланувчи томонидан аниқланадиган, тавсифланадиган объект; экран бўйлаб дастур командалари бошқарувида экран (матн, графика) нинг бошқа элементларидан мустақил равишда ҳаракатланиши мумкин. Баъзи дастурлаш тилларида, масалан, *BASIC* да фойдаланилади.

### Спускающееся меню

**uz** - tushadigan menyu

тушадиган меню

**en** - pull-down menu

Меню команд, которые применимы ко всем окнам; меню, вызываемое указанием его заголовка, расположенного у верхнего края экрана дисплея, появляющееся непосредственно под этим заголовком и исчезающее после выбора команды. Называется также «глобальным меню».

Barcha oynalarga qo‘llaniladigan komandalar menyusi; displey ekranining yuqori burchagida joylashgan sarlavhasi ko‘rsatilgan holda chaqiriladigan, bevosita shu sarlavha ostida paydo bo‘ladigan va komanda tanlangandan so‘ng yo‘qo‘ladigan menyu. Shuningdek, «global menyu» deb ham ataladi.

Барча ойналарга қўлланиладиган командалар менюси; дисплей экранининг юқори бурчагида жойлашган сарлавҳаси кўрсатилган ҳолда чақириладиган, бевосита шу сарлавҳа остида пайдо бўладиган ва команда танлангандан сўнг йўқўладиган меню. Шунингдек, «глобал меню» деб ҳам аталади.

### Среда

**uz** - muhit

муҳит

**en** - environment

Совокупность технических и программных средств, в которых функционирует система (объект).

Tizim (obyekt) ishlaydigan texnik va dasturiy vositalar jami.

Тизим (объект) ишлайдиган техник ва дастурий

## С

**Среда передачи данных**  
**uz** - ma'lumotlar uzatish muhiti  
маълумотлар узатиш муҳити  
**en** - communication environment

воситалар жами.

Физическая среда, в которой передаются данные. Это может быть проводная или беспроводная линия. Проводная линия – медный или волоконно-оптический кабель. Беспроводная линия – радио-, телевизионные, инфракрасные каналы.

Ma'lumotlar uzatiladigan fizik muhit. Bu simli yoki simsiz liniya bo'lishi mumkin. Simli liniya – mis yoki optik tolali kabel. Simsiz liniya – radio-, televizion, infraqizil kanallar.

Маълумотлар узатиладиган физик муҳит. Бу симли ёки симсиз линия бўлиши мумкин. Симли линия – мис ёки оптик толали кабель. Симсиз линия – радио-, телевизион, инфрақизил каналлар.

**Средства передачи данных**  
**uz** - ma'lumotlar uzatish vositalari  
маълумотлар узатиш воситалари  
**en** - data transmission facilities

Совокупность аппаратуры передачи данных и канала связи.

Aloqa kanali va ma'lumotlar uzatish apparatura-sining yig'indisi.

Алоқа канали ва маълумотлар узатиш аппарату-расининг йиғиндиси.

**Стандарт**  
**uz** - standart  
стандарт  
**en** - standard

Требования, предъявляемые к техническому, программному, информационному обеспечению, для создания возможности стыковки и совместной работы систем.

Примечание – Стандарты бывают двух типов: де-юре, когда они официально объявлены и приняты; де-факто, когда большинство ими пользуется фактически, но формально в виде документа стандарт не оформлен. Иногда стандарт, разработанный для внутрифирменного использования, становится общепринятым стандартом.

Tizimlarning birgalikda ishlash va birikish imkoniyatini yaratish maqsadida, texnik, dasturiy, axborot ta'minotiga ko'rsatiladigan talablar.

Izoh – Standartlar ikki turda bo'ladi: *de-yure*, standartlar rasman e'lon qilinadi va ma'qullanadi; *de-fakto*, ko'pchilik standartlardan haqiqatda foydalanadi, lekin rasmiy ravishda

## С

ular rasmiylashtirilmagan bo'ladi. Ba'zan, firma ichida foydalanish uchun ishlab chiqilgan standart umumqabul qilingan standart bo'ladi.

Тизимларнинг биргаликда ишлаш ва бирикиш имкониятини яратиш мақсадида, техник, дастурий, ахборот таъминотида кўрсатиладиган талаблар.

Изох – Стандартлар икки турда бўлади: де-юре, стандартлар расман эълон қилинади ва маъқулланади; де-факто, кўпчилик стандартлардан ҳақиқатда фойдаланади, лекин расмий равишда улар расмийлаштирилмаган бўлади. Баъзан, фирма ичида фойдаланиш учун ишлаб чиқилган стандарт умумқабул қилинган стандарт бўлади.

### **Стандарт JEIDA**

**uz - JEIDA standarti**

JEIDA стандарти

**en - JEIDA standard**

Стандарт, обеспечивающий подключение к компьютеру любых устройств типа «кредитная карточка», включая карты памяти, накопители на жестких дисках и модемы.

Kompyuterga «kredit kartochkasi» turidagi har qanday qurilmalarni, jumladan, хотира kartalari, qattiq diskdagi to'plagichlar, modemlarni ulash ta'minlanadigan standart.

Компьютерга «кредит карточкаси» туридаги ҳар қандай қурилмаларни, жумладан, хотира карталари, қаттиқ дискдаги тўплагичлар, модемларни улаш таъминланадиган стандарт.

### **Стандарт PCMCIA**

**uz - standart PCMCIA**

стандарт PCMCIA

**en - PCMCIA standart**

Стандарт, определяющий размеры и интерфейс карт для подключения внешних устройств (памяти, модемов) к блокнотным компьютерам. Новая версия стандарта PCVICIA. Поддерживает Card-Bus- 32-разрядный шинный интерфейс, способный обеспечить скорость передачи до 133 Mbyte/s; имеет средства управления энергопотреблением, прямой доступ к памяти и поддержку многофункциональных карт.

Примечание – Существует три типа карт (плат) PCMCIA-I, II, III, совместимых между собой сверху вниз. Платы типа I используются для подключения различных видов памяти, имеют толщину 3,3 mm. Платы типа II используются для подключения различных видов устройств ввода/вывода, накопителей гибких магнитных дисков, модемов, сетевых плат; имеют толщину 3,3 mm по краям и 5

## С

mm в середине. Платы типа III используются для подключения различных видов жестких дисководов, пейджеров, имеют толщину 3,3 mm по краям и 10 mm в середине.

Tashqi qurilmalar (xotira, modemlar) ni bloknotli kompyuterlarga ulash uchun kartalar interfeysi va o'lchamlarini belgilaydigan standart. *PCMCIA* standartining yangi versiyasi. Uzatish tezligini 133 Mbyte/s gacha ta'minlay oladigan 32-razryadli shina interfeysi – *CardBus* qo'llaniladi; energiya iste'molini boshqarish vositalariga ega, xotiradan to'g'ridan-to'g'ri foydalanish mumkin, ko'p funksional kartalarni qo'llaydi.

Izoh – O'zaro yuqoridan pastga moslashtirilgan *PCMCIA* – I,II,III kartalar (platalar) turi mavjud. I turdagi platalardan xotiraning turli xillarini ulash uchun foydalaniladi, qalinligi 3,3 mm II turdagi platalardan turli xil kiritish/chiqarish qurilmalarini, egiluvchan magnit diskdagi to'plagichlarni, modemlar, tarmoq platalarini ulash uchun foydalaniladi, qalinligi chetlarida 3,3 mm, o'rtasida 5 mm III turdagi platalardan qattiq diskovodlarning turli xillarini, peyjerlarni ulash uchun foydalaniladi, qalinligi chetlarida 3,3 mm, o'rtasida 10 mm.

Ташқи қурилмалар (хотира, модемлар) ни блокнотли компьютерларга улаш учун карталар интерфеysi ва ўлчамларини белгилайдиган стандарт. *PCMCIA* стандартининг янги версияси. Узатиш тезлигини 133 Mbyte/s гача таъминлай оладиган 32-разрядли шина интерфеysi – *CardBus* қўлланилади; энергия истеъмолини бошқариш воситаларига эга, хотирадан тўғридан-тўғри фойдаланиш мумкин, кўп функционал карталарни қўллайди.

Изох – Ўзаро юқоридан пастга мослаштирилган *PCMCIA* –I,II,III карталар (платалар) тури мавжуд. I турдаги платалардан хотиранинг турли хилларини улаш учун фойдаланилади, қалинлиги 3,3 mm II турдаги платалардан турли хил киритиш/чиқариш қурилмаларини, эгилувчан магнит дискдаги тўплагичларни, модемлар, тармоқ платаларини улаш учун фойдаланилади, қалинлиги четларида 3,3 mm, ўртасида 5 mm III турдаги платалардан қаттиқ дисководларнинг турли хилларини, пейжерларни улаш учун фойдаланилади, қалинлиги четларида 3,3 mm, ўртасида 10 mm.

## С

### **Статистический пакет**

**uz** - statistik paket

статистик пакет

**en** - statistics package

Программный продукт для статической обработки данных; надежный инструмент повышения качества принимаемых решений. В пакет входят: деловая графика, дисперсионный анализ, регрессионный анализ, анализ временных рядов и пр.

Ma'lumotlarni statistik qayta ishlash uchun belgilangan dasturiy mahsulot, qabul qilinadigan qarorlar sifatini oshirishning ishonchli vositasi. Paketga amaliy grafika, dispersion tahlil, regression tahlil, vaqt qatorlari tahlili va boshqalar kiradi.

Ma'lumotlarni statistik qayta ishlash uchun belgilangan dasturiy mahsulot, qabul qilinadigan qarorlar sifatini oshirishning ishonchli vositasi. Paketga amaliy grafika, dispersion tahlil, regression tahlil, vaqt qatorlari tahlili va boshqalar kiradi.

### **Статическая компоновка**

**uz** - statik kompanovka

статик компоновка

**en** - static linking

Метод подключения к исполняемой программе стандартных функций из библиотек с помощью компоновки их в программной исполняемый файл, т.е. при статической компоновке библиотечный объект становится непосредственно частью программы. Используется в языках под управлением дисковой операционной системы.

Bajariladigan dasturga bibliotekalardan olingan standart funksiyalarni, dasturning bajariladigan faylga ularni joylashtirish yordamida qo'shish metodi, ya'ni statik kompanovkada biblioteka obyekt bevosita dasturning bir qismiga aylanib ketadi. Diskli operatsion tizim boshqaruvidagi tillarda foydalani-ladi.

Bajariladigan dasturga bibliotekalardan olingan standart funktsiyalarni, dasturning bajariladigan faylga ularni joylashtirish yordamida qo'shish metodi, ya'ni statik kompanovkada biblioteka obyekt bevosita dasturning bir qismiga aylanib ketadi. Diskli operatsion tizim boshqaruvidagi tillarda foydalani-ladi.

### **Статическая оперативная**

Тип полупроводниковой оперативной памяти.

## С

### память

**uz** - statik operativ хотира

статик оператив хотира

**en** - static random-access  
memory

Каждый двоичный разряд (бит) хранится в схеме из четырех транзисторов и двух резисторов. В схеме отсутствует конденсатор, поэтому не нужна подзарядка. Статическая оперативная память работает быстрее, чем динамическая оперативная память, но стоит дороже и занимает больше места.

Yarimo'tkazgichli operativ хотiraning bir turi. Har bir ikkilik razryad (bit) to'rtta tranzistor va ikkita rezistordan iborat sxemada saqlanadi. Sxemada kondensator yo'q, shuning uchun zaryadlash kerak emas. Statik operativ хотира dinamik operativ хотирага qaraganda tezroq ishlaydi. Lekin qimmat va ko'p joyni egallaydi.

Yarimo'tkazgichli operativ хотiraning bir turi. Har bir ikkilik razryad (bit) to'rtta tranzistor va ikkita rezistordan iborat sxemada saqlanadi. Sxemada kondensator yo'q, shuning uchun zaryadlash kerak emas. Statik operativ хотира dinamik operativ хотирага qaraganda tezroq ishlaydi. Lekin qimmat va ko'p joyni egallaydi.

### Стек

**uz** - stek

стек

**en** - stack

1 Точка присоединения к сети, устройство, подключенное к сети; узел в сети передачи данных или в компьютерной сети, представляющий собой компьютер, связывающий две сети, использующие одинаковые протоколы. Обеспечивает связь двух совместных программ на двух подобных сетях. Использует адресную информацию, содержащуюся в передаваемых пакетах. Узлы сети, как и маршрутизаторы являются, в отличие от мостов, устройствами сетевого уровня.

2 В иерархической структуре: элемент структуры, например, «узел гипертекста».

3 Соединительная точка между двумя компонентами.

4 В операционной системе Windows 2000/XP: применительно к консоли управления, любой управляемый объект, задание или вид: например, компьютеры, пользователи, Web - страницы.

1 Tarmoqqa ulanish nuqtasi, tarmoqqa ulangan qurilma; kompyuter tarmog'idagi yoki ma'lumotlar uzatish tarmog'idagi bir xil protokoldan foydalanadigan ikkita tarmoqni bog'laydigan kompyuterni o'zida ifodalaydigan uzul. Ikkita o'xshash tarmoqdagi ikki mos dasturning bog'lanishini ta'minlaydi. Uzatiladigan paketlarda bo'ladigan adresli axborotdan foydalanadi. Tarmoq uzellari marshrutizatorlar kabi, ko'priklardan farqli ravishda, tarmoq darajasidagi qurilmalar hisoblanadi.

2 Iyerarxik strukturada: struktura elementi, masalan, «gipermatn uzeli».

3 Ikki komponent o'rtasidagi bog'lovchi nuqta.

4 *Windows 2000/XP* operatsion tizimida: boshqarish konsoliga tatbiqan, har qanday boshqariladigan obyekt, topshiriq yoki tur: masalan, kompyuterlar, foydalanuvchilar, *Web* sahifalar.

1 Tarmoqqa ulanish nuqtasi, tarmoqqa ulangan qurilma; kompyuter tarmog'idagi ёки маълумотлар узатиш тarmoғидаги бир хил протоколдан фойдаланадиган иккита тarmoқни боғлайдиган компьютерни ўзида ифодалайдиган узел. Иккита

## У

Ўхшаш тармоқдаги икки мос дастурнинг боғланишини таъминлайди. Узатиладиган пакетларда бўладиган адресли ахборотдан фойдаланади. Тармоқ узеллари маршрутизаторлар каби, кўприклардан фарқли равишда, тармоқ даражасидаги қурилмалар ҳисобланади.

2 Иерархик структурада: структура элементи, масалан, «гиперматн узели».

3 Икки компонент ўртасидаги боғловчи нукта.

4 Windows 2000/XP операцион тизимида: бошқариш консолига татбиқан, ҳар қандай бошқариладиган объект, топшириқ ёки тур: масалан, компьютерлар, фойдаланувчилар, Web саҳифалар.

**Умолчание**  
**uz** - yashirish  
яшириш  
**en** - default

Принцип предварительной установки конкретных значений отдельных параметров системы, с которыми она работает, пока пользователь не задаст явно другие значения. Умолчание используется очень часто, так как при стандартных действиях упрощает работу.

Foydalanuvchi hali oshkora boshqa qiymatlarni bermagan holatda, tizim ishlaydigan alohida parametrlarning aniq qiymatlarini oldindan belgilash prinsipi. Yashirishdan tez-tez foydalaniladi, chunki standart harakatlarda ishlashni osonlashtiradi.

Фойдаланувчи ҳали ошкора бошқа қийматларни бермаган ҳолатда, тизим ишлайдиган алоҳида параметрларнинг аниқ қийматларини олдиндан белгилаш принципи. Яширишдан тез-тез фойдаланилади, чунки стандарт ҳаракатларда ишлашни оsonлаштиради.

**Универсальная,  
последовательная шина**  
**uz** - universal ketma-ket  
shina  
универсал кетма-кет  
шина  
**en** - universal serial bus

Стандарт, предложенный в 1995 г. консорциумом из семи ведущих компьютерных и телекоммуникационных фирм (Compaq, IBM, Intel, NEC, Micrisoft, Digital, Northern Telecom), для обмена данными по недорогой шине между персональным компьютером и среднескоростными периферийными устройствами. Подключение устройства не требует перезагрузки компьютера, пере-конфигурирования системы или установки ин-

## У

терфейсной карты. Распознавание устройства и установка соответствующего драйвера выполняется компьютером автоматически без вмешательства человека.

1995 yili yettita yetakchi kompyuter va telekommunikatsiya firmalari (*Compaq, IBM, Intel, NEC, Micrisoft, Digital, Northern Telecom*) konsorsiumi tomonidan taklif etilgan, shaxsiy kompyuter va o'rtacha tezlikli periferik qurilmalar o'rtasida uncha qimmat bo'lmagan shina orqali ma'lumotlar almashinish uchun belgilangan standart. Qurilmani ulash, kompyuter qayta yuklanishini, tizim qayta konfiguratsiyalanishini yoki interfeysli karta o'rnatilishini talab qilmaydi. Qurilmani aniqlash va tegishli drayverni o'rnatish kompyuterda avtomat ravishda odamning aralashuvisiz bajariladi.

1995 йили еттита етакчи компьютер ва телекоммуникация фирмалари (*Compaq, IBM, Intel, NEC, Micrisoft, Digital, Northern Telecom*) консорциуми томонидан таклиф этилган, шахсий компьютер ва ўртача тезликли периферик қурилмалар ўртасида унча қиммат бўлмаган шина орқали маълумотлар алмашилиш учун белгиланган стандарт. Қурилмани улаш, компьютер қайта юкланишини, тизим қайта конфигурацияланишини ёки интер-фейсли карта ўрнатилишини талаб қилмайди. Қурилмани аниқлаш ва тегишли драйверни ўрнатиш компьютерда автомат равишда одамнинг аралашу-висиз бажарилади.

### **Универсальный идентификатор ресурса**

**uz** - universal resurs  
identifikatori

универсал ресурс  
идентификатори

**en** - uniform resource identifier  
(URI)

Символьная строка, позволяющая идентифицировать какой-либо ресурс: документ, изображение, файл, службу, ящик электронной почты и т.д.

Qandaydir resurs: hujjat, tasvir, fayl, xizmat, elektron pochta qutisini identifikatsiya qilish imkonini beradigan simvolli satr.

Қандайдир ресурс: хужжат, тасвир, файл, хизмат, электрон почта қутисини идентификация қилиш имконини берадиган символли сатр.

## У

### Универсальный местоопределитель ресурсов

**uz** - universal resurslar joyini  
aniqlagich

универсал ресурслар  
жойини аниқлагич

**en** -uniform resource locator  
(URL)

URL-адрес, используемый Web-браузером для поиска ресурса в Internet. Предложен Тимом Бернерсом-Ли. URL представляет собой стандартизованную строку символов, указывающую местонахождение ресурса, документа или его части в Internet. Она начинается обычно с указания типа протокола (например, FTP://, если документ находится на FTP-сервере или http://, если он на Web-узле), за которым следует идентификатор конкретной информации, например, имя домена, которому принадлежит сервер, название организации или путь имени файла на этом сервере. Суффикс обозначает тип организации.

*Web brauzerning Internet tarmog'idan resurs qidirishida ishlatiladigan URL-adres. Tim Berners-Li tomonidan kiritilgan. URL resurs, hujjat yoki uning qismining Internet dagi joylashgan o'rni ko'rsatuvchi simvollarning standartlashtirilgan satrini ifodalaydi. U odatda protokolning tipini ko'rsatish bilan boshlanadi (masalan, FTP://, agar hujjat FTP-serverda yoki http:// agar hujjat Web-uzelda bo'lsa), keyin aniq axborot identifikatori keladi, masalan, server taalluqli bo'lgan domen nomi, tashkilot nomi yoki shu serverdagi fayl nomining yo'li. Suffiks tashkilotning turini ko'rsatadi.*

Web браузернинг Internet тармоғидан ресурс кидиришида ишлатиладиган URL-адрес. Тим Бернерс-Ли томонидан киритилган. URL ресурс, ҳужжат ёки унинг қисмининг Internet даги жойлашган ўрнини кўрсатувчи символларнинг стандартлаштирилган сатрини ифодалайди. У одатда протоколнинг типини кўрсатиш билан бошланади (масалан, FTP://, агар ҳужжат FTP-серверда ёки http:// агар ҳужжат Web-узелда бўлса), кейин аниқ ахборот идентификатори келади, масалан, сервер тааллуқли бўлган домен номи, ташкилот номи ёки шу сервердаги файл номининг йўли. Суффикс ташкилотнинг турини кўрсатади.

### Унифицированный язык моделирования

**uz** - soddallashtirilgan

Язык графического описания для объектного моделирования в области разработки программного обеспечения. UML является языком широкого

## У

modellash tili  
соддалаштирилган  
моделлаш тили  
**en** - unified modeling language  
(UML)

профиля, это открытый стандарт, использующий графические обозначения для создания абстрактной модели системы, называемой UML моделью. UML был создан для определения, визуализации, проектирования и документирования в основном программных систем. Использование UML не ограничивается моделированием программного обеспечения. Его также используют для моделирования бизнес-процессов, системного проектирования и отображения организационных структур. UML позволяет разработчикам программного обеспечения достигнуть соглашения в графических обозначениях для представления общих понятий (таких как класс, компонент, обобщение, объединение и поведение) и больше сконцентрироваться на проектировании и архитектуре.

Dasturiy ta'minot ishlab chiqish sohasida, obyekt-larni modellashtirish uchun grafik tasvirlash tili. *UML* ko'p sohalarda foydalanish uchun mo'ljallangan til hisoblanadi, bu *UML* model deb ataluvchi, tizimning abstrakt modelining grafik ko'rinishini tasvirlovchi ochiq standartdir. *UML* dasturiy tizimda aniqlik kiritish, tasvirlash, loyihalash va hujjatlashtirish uchun yaratilgan. *UML* dasturiy ta'minotda foydalanish bilan cheklanib qolmaydi. Uni shu kabi biznes-jarayonlarni modellashtirish, tizimli loyihalash va tashkilotlar strukturasi tasvirlashda qo'llash mumkin. *UML* dasturiy ta'minot dasturchilariga umumiy tushunchalarni (klass, komponent, umumlashtirish, birlashtirish va o'zini tutish kabi) tasvirlashni grafik izohlashda kelishuvga erishish hamda loyihalash va arxitekturada ko'proq e'tibor qaratishga imkon beradi.

Дастурий таъминот ишлаб чиқиш соҳасида, объектларни моделлаштириш учун график тасвирлаш тили. UML кўп соҳаларда фойдаланиш учун мўлжалланган тил ҳисобланади, бу UML модель деб аталувчи, тизимнинг абстракт моделининг график кўринишини тасвирловчи очик стандартдир. UML дастурий тизимда аниқлик киритиш, тасвирлаш, лойиҳалаш ва ҳужжатлаштириш учун яратилган. UML дастурий таъминотда фойдала-

## У

ниш билан чекланиб қолмайди. Уни шу каби бизнес-жараёнларни моделлаштириш, тизимли лойиҳалаш ва ташкилотлар структурасини тасвирлашда қўллаш мумкин. UML дастурий таъминот дастурчиларига умумий тушунчаларни (класс, компонент, умумлаштириш, бирлаштириш ва ўзини тутиш каби) тасвирлашни график изоҳлашда келишувга эришиш ҳамда лойиҳалаш ва архитектурага кўпроқ эътибор қаратишга имкон беради.

### Упаковка

**uz** - joylashtirish

жойлаштириш

**en** - handy pack

Процесс преобразования данных из стандартной формы, предназначенной для обработки данных, в форму компактного представления для хранения и передачи по каналам связи. Существует много программ, осуществляющих эту операцию с разными алгоритмами и разными коэффициентами сжатия. Упаковка – самостоятельная операция, но может использоваться и при архивации. Иногда называется архивацией или сжатием.

Ma'lumotlarni, ularni qayta ishlash uchun mo'ljallangan standart shakldan, saqlash va aloqa kanallari orqali uzatish uchun ixcham holda taqdim etiladigan shaklga o'zgartirish jarayoni. Bu operatsiyani turli algoritmlar va turli siqish koeffitsiyentlari bilan amalga oshiradigan ko'plab dasturlar mavjud. Joylashtirish mustaqil operatsiya, lekin arxivlashda ham foydalanilishi mumkin. Ba'zan, arxivlash yoki siqish deb ataladi.

Маълумотларни, уларни қайта ишлаш учун мўлжалланган стандарт шаклдан, сақлаш ва алоқа каналлари орқали узатиш учун ихчам ҳолда тақдим этиладиган шаклга ўзгартириш жараёни. Бу операцияни турли алгоритмлар ва турли сиқиш коэффициентлари билан амалга оширадиган кўплаб дастурлар мавжуд. Жойлаштириш мустақил операция, лекин архивлашда ҳам фойдаланилиши мумкин. Баъзан, архивлаш ёки сиқиш деб аталади.

### Управление

**uz** - boshqarish

бошқариш

Процесс воздействия на объект для обеспечения конкретной цели. В управлении участвуют: объект, которым управляют; блок, осуществляющий

## у

**en** - handling

управление; данные, поступающие от объекта управления к управляющему блоку, осуществляющие обратную связь; данные или сигналы, обеспечивающие собственно управление. Управлением как наукой занимается кибернетика.

Aniq bir maqsadni ta'minlash uchun, obyektga ta'sir ko'rsatish jarayoni. Boshqarishda boshqariladigan obyekt; boshqarishni amalga oshiradigan blok; boshqarish obyektidan boshqaruvchi blokka kelib tushadigan, teskari aloqani amalga oshiradigan ma'lumotlar; boshqarishning o'zini ta'minlaydigan signallar yoki ma'lumotlar qatnashadi. Fan sifatida boshqarish bilan kibernetika shug'ullanadi.

Аниқ бир мақсадни таъминлаш учун, объектга таъсир кўрсатиш жараёни. Бошқаришда бошқариладиган объект; бошқаришни амалга оширадиган блок; бошқариш объектидан бошқарувчи блокка келиб тушадиган, тескари алоқани амалга оширадиган маълумотлар; бошқаришнинг ўзини таъминлайдиган сигналлар ёки маълумотлар қатнашади. Фан сифатида бошқариш билан кибернетика шуғулланади.

**Ускоренный  
графический порт**

**uz** - tezlashtirilgan  
grafika porti

тезлаштирилган  
графика порти

**en** - accelerated graphics port  
(AGP)

Интерфейс между видеоадаптером и набором микросхем системной платы. Базируется на шине PCI. Разработан во второй половине 1997 года. Существует несколько реализаций AGP: AGP 1x, AGP 2x, AGP 4x со скоростями передачи данных 266, 533 и 1066 Mbyte/s соответственно. В настоящее время вытесняется графическим портом PCI-Express.

Videoadapter va tizim platasi mikrosxemalari o'rtasidagi interfeys. *PSI* shinasiga asoslanadi. 1997 yilning ikkinchi yarmida ishlab chiqilgan. *AGP* ning bir nechta realizatsiyalari mavjud: *AGP 1x*, *AGP 2x*, *AGP 4x* lar mos ravishda 266, 533 va 1066 Mbyte/s uzatish tezligiga ega. Ayni vaqtda *PCI-Express* grafika porti ularning o'rnini egallagan.

Видеоадаптер ва тизим платаси микросхемалари ўртасидаги интерфейс. *PSI* шинасига асосланади. 1997 йилнинг иккинчи ярмида ишлаб чиқилган.

## У

AGP ning bir nechta realizatsiyalari mavjud: AGP 1x, AGP 2x, AGP 4x lar mos ravishda 266, 533 va 1066 Mbyte/s uzatish tezligiga ega. Ayni vaqtda PCI-Express graфика porti ularning ўrnini egallagan.

### Условие

**uz** - shart

шарт

**en** - criterion

Логическое выражение, принимающее значение «истина» или «ложь». Используется в конструкциях цикла и ветвления, например, условие  $a=2$  принимает значение «истина», если  $a$  имеет значение 2, при любых других значениях  $a$  условие «ложно».

Sikl va tramoqlanish tuzilishlarda foydalaniladigan, «chin» yoki «yolg'on» qiymat oladigan mantiqiy ifoda. Masalan,  $a=2$  shart,  $a=2$  qiymatga ega bo'lsagina «chin» qiymat oladi, boshqa har qanday qiymatlarda  $a$  shart «yolg'on» bo'ladi.

Цикл ва трамоқланиш тузилишларда фойдаланиладиган, «чин» ёки «ёлғон» қиймат оладиган мантикий ифода. Масалан,  $a=2$  шарт,  $a=2$  қийматга эга бўлсагина «чин» қиймат олади, бошқа ҳар қандай қийматларда  $a$  шарт «ёлғон» бўлади.

### Усовершенствование

**uz** - takomillashtirish

такомиллаштириш

**en** - betterment

Устройство и/или программный продукт для совершенствования предыдущей продукции. Дополняет предыдущую версию. После установки система приобретает функциональные возможности нового продукта.

Avvalgi mahsulotni takomillashtirish uchun belgilangan qurilma va/yoki dasturiy mahsulot. Avvalgi versiyani to'ldiradi. O'rnatilgandan so'ng tizim yangi mahsulotning funksional imkoniyatlarini oladi.

Аввалги маҳсулотни такомиллаштириш учун белгиланган қурилма ва/ёки дастурий маҳсулот. Аввалги версияни тўлдиради. Ўрнатилгандан сўнг тизим янги маҳсулотнинг функционал имкониятларини олади.

### Устройства ввода/вывода

Физические устройства, основанные на разных

## У

**uz** - kiritish/chiqarish  
qurilmalari

киритиш/чиқариш  
қурилмалари

**en** – input/output device

принципах работы, но функционально выполняющее ввод данных и команд и вывод данных. Устройства ввода данных: манипуляторы (клавиатура, мышь, джойстик, трекбол, трекпоинт, сканер, перо, сенсорная панель), датчики, микрофон, видеокамера. Устройства вывода данных: принтер, плоттер, громкоговоритель, телевизор и др. Устройства ввода/вывода: телефон, телетайп, телетекст, телефакс, дисплей и др.

Turli ish prinsiplariga asoslangan, lekin funksional jihatdan ma'lumotlar, komandalar kiritilishini va ma'lumotlar chiqarilishini bajaradigan fizik qurilmalar. Ma'lumotlarni kiritish qurilmalari: manipulyatorlar (klaviatura, sichqoncha, joystik, trekbol, trekpoint, skaner, pero, sensorli panel), datchiklar, mikrofon, videokamera. Ma'lumotlarni chiqarish qurilmalari: printer, plotter, radiokarnay, televizor. Kiritish/chiqarish qurilmalari: telefon, teletayp, teletekst, telefaks, displey.

Турли иш принципларига асосланган, лекин функционал жиҳатдан маълумотлар, командалар киритилишини ва маълумотлар чиқарилишини bajaradigan физик қурилмалар. Маълумотларни киритиш қурилмалари: манипуляторлар (клавиатура, сичқонча, жойстик, трекбол, трекпоинт, сканер, перо, сенсорли панель), датчиклар, микрофон, видеокамера. Маълумотларни чиқариш қурилмалари: принтер, плоттер, радиокарнай, телевизор. Киритиш/чиқариш қурилмалари: телефон, телетайп, телетекст, телефакс, дисплей.

**Устройство бесперебойного питания**

**uz** - uzluksiz ta'minot  
qurilmasi

узлуксиз таъминот  
қурилмаси

**en** - uninterruptible power  
supply (UPS)

Устройство, имеющее в своём составе аккумуляторы и обеспечивающее питание, защиту компьютера и периферии при бросках или падении напряжения основного электропитания, а также возможность надёжного автоматического сохранения данных при его исчезновении.

Tarkibida akkumulyatorlar bo'lgan va asosiy elektr ta'minot kuchlanishi tushib ketganda yoki sakrashlarida kompyuter va periferiyaning ta'minoti va

## У

himoyasini ta'minlaydigan, shuningdek, kuchlanish yo'qolganda ma'lumotlarni avtomatik ravishda saqlash imkoniyatiga ega qurilma.

Таркибида аккумуляторлар бўлган ва асосий электр таъминот кучланиши тушиб кетганда ёки сакрашларида компьютер ва перифериянинг таъминоти ва ҳимоясини таъминлайдиган, шунингдек, кучланиш йўқолганда маълумотларни автоматик равишда сақлаш имкониятига эга қурилма.

### Утилита

**uz** - utilita

утилита

**en** - utility

Служебная программа, осуществляющая техническое обслуживание компьютера и компьютерных программ. Утилита служит для опробования компьютерных систем, для тестирования и воспроизведение операционной системы или её частей для восстановления утерянных или поврежденных файлов.

Kompyuter va kompyuter dasturlariga texnik xizmat ko'rsatadigan xizmat dasturi. Utilita kompyuter tizimlarini sinovdan o'tkazish, operatsion tizim yoki uning qismlarini testlash va qayta tiklash, buzilgan yoki yo'qotilgan fayllarni qayta tiklash uchun xizmat qiladi.

Компьютер ва компьютер дастурларига техник хизмат кўрсатадиган хизмат дастури. Утилита компьютер тизимларини синовдан ўтказиш, операцион тизим ёки унинг қисмларини тестлаш ва қайта тиклаш, бузилган ёки йўқотилган файлларни қайта тиклаш учун хизмат қилади.

## Ф

### Файл

**uz** - fayl

файл

**en** - file

Упорядоченный набор записей или иная совокупность данных, хранящаяся в компьютерной системе под общим именем.

Примечание – Вся совокупность файлов делится на два больших класса – файлы программ (исполняемые файлы) и файлы данных (неисполняемые файлы). По типу хранимых данных файлы делятся на текстовые, графические, двоичные, командные, файлы базы данных, видео и аудиофайлы.

## Ф

Yozuvlarning tartiblashtirilgan to‘plami yoki umumiy nom ostida kompyuter tizimida saqlanadigan ma’lumotlarning boshqacha bir yig‘indisi.

Izoh – Barcha fayllar ikkita katta klassga bo‘linadi – dastur fayllari (bajariladigan fayllar) va ma’lumotlar fayllari (bajarilmaydigan fayllar). Saqlanadigan ma’lumotlarning turiga ko‘ra, fayllar matnli, grafik, ikkilik, komanda, ma’lumotlar bazasining fayllari, video va audiofayllarga bo‘linadi.

Ёзувларнинг тартиблштирилган тўплами ёки умумий ном остида компьютёр тизимида сақланадиган маълумотларнинг бошқача бир йиғиндиси.

Изоҳ – Барча файллар иккита катта классга бўлинади – дастур файллари (бajarиладиган файллар) ва маълумотлар файллари (бajarилмайдиган файллар). Сақланадиган маълумотларнинг турига кўра, файллар матнли, график, иккилик, команда, маълумотлар базасининг файллари, видео ва аудиофайлларга бўлинади.

### **Файловая система**

**uz** - fayl tizimi

файл тизими

**en** - file system

1 Часть операционной системы, обеспечивающая управление каталогами и файлами на дисках.

2 Общая структура, определяющая в операционной системе наименование, сохранение и размещение файлов. Различными типами файловых систем являются системы NTFS, FAT и FAT32.

1 Operatsion tizimning bir qismi bo‘lib, diskdagi katalog va fayllar boshqarilishini ta‘minlaydi.

2 Operatsion tizimda fayllarni nomlash, saqlash, va joylashni belgilovchi umumiy struktura. *NTFS*, *FAT* va *FAT32* tizimlari fayl tizimlarining har xil turlari bo‘lib hisoblanadi.

1 Операцион тизимнинг бир қисми бўлиб, дискдаги каталог ва файллар бошқарилишини таъминлайди.

2 Операцион тизимда файлларни номлаш, сақлаш, ва жойлашни белгиловчи умумий структура. *NTFS*, *FAT* ва *FAT32* тизимлари файл тизимларининг ҳар хил турлари бўлиб ҳисобланади.

## Ф

### **Файловая система новой технологии**

**uz** - yangi texnologiya fayl tizimi

янги технология файл тизими

**en** - new technology file system (NTFS)

Стандартная файловая система для семейства операционных систем Microsoft Windows NT.

*Microsoft Windows NT* operatsion tizimlar oilasi uchun belgilangan standart fayl tizimi.

Microsoft Windows NT операцион тизимлар оиласи учун белгиланган стандарт файл тизими.

### **Файловый сервер**

**uz** - fayl serveri

файл сервери

**en** - file server

Тип сервера, который хранит в личных и разделяемых каталогах файлы пользователей локальной сети, доступные с их рабочих станций. Использование файл-сервера облегчает администрирование системы и уменьшает потребность в дисковой памяти. Функции файл-сервера имеются, например, в операционной системе Novell NetWare и в NFS.

Shaxsiy va ajratiladigan kataloglarda lokal tarmoq foydalanuvchilarining, ularning ishchi stansiyalaridan kira olish mumkin bo'lgan fayllarini saqlaydigan server turi. Fayl-serverdan foydalanish tizimni boshqarishni yengillashtiradi va disk хотирасига bo'lgan ehtiyojni kamaytiradi. Fayl-server funksiyalari *Novell NetWare* va *NFS* operatsion ti-zimlarida mavjud.

Шахсий ва ажратиладиган каталогларда локал тармоқ фойдаланувчиларининг, уларнинг ишчи станцияларидан kira олиш мумкин бўлган файлларини сақлайдиган сервер тури. Файл-сервердан фойдаланиш тизимни бошқаришни енгиллаштиради ва диск хотирасига бўлган эҳтиёжни камайтиради. Файл-сервер функциялари *Novell NetWare* ва *NFS* операцион тизимларида мавжуд.

### **Факс**

**uz** - faks

факс

**en** - fax

Устройство для передачи на расстояние и приема факсимильных сообщений, документов по коммутируемым линиям (обычно телефонным).

Faksimil xabarlar, hujjatlarni kommutatsiya liniyalari (odatda, telefon liniyalari) orqali masofaga uzatish

## Ф

hamda masofadan qabul qilish qurilmasi.

Факсимиль хабарлар, хужжатларни коммутация линиялари (одатда, телефон линиялари) орқали масофага узатиш ҳамда масофадан қабул қилиш қурилмаси.

### Факс-модем

**uz** - faks-modem

факс-модем

**en** - fax modem

Компьютерный dial-up-модем, который имеет возможность принимать факсимильные сообщения. С факс-программой (например Venta Fax and Voice) компьютер получает возможность выполнять функции факса.

Faksimil xabarlarini qabul qilish imkoniga ega bo'lgan kompyuterning *dial-up-modemi*. Faks-dastur bilan (masalan *Venta Fax and Voice*) kompyuter faks funksiyalarini bajarishi mumkin bo'ladi.

Факсимиль хабарларни қабул қилиш имконига эга бўлган компьютернинг *dial-up-модеми*. Факс-дастур билан (масалан *Venta Fax and Voice*) компьютер факс функцияларини бажариши мумкин бўлади.

### Фильтр

**uz** - filtr

фильтр

**en** - filter

Программа, которая получает на вход данные со стандартного ввода, преобразует их определенным образом и направляет на стандартный вывод. В службе индексирования – программное обеспечение, извлекающее из документов их содержимое и значения свойств с целью построения индекса.

Kiruvchi ma'lumotlarni standart kiritishdan oladigan, ularni aniq bir tartib bo'yicha qayta ishlaydigan va standart chiqarishga yo'naltiradigan dastur. Indeksflash xizmatida – hujjatlarni indekslash uchun ulardan mazmuni, xossalari qiymatini ajratib oladigan dasturiy vosita.

Кировчи маълумотларни стандарт киритишдан оладиган, уларни аниқ бир тартиб бўйича қайта ишлайдиган ва стандарт чиқаришга йўналтирадиган дастур. Индекслаш хизматида – хужжатларни индекслаш учун улардан мазмуни, хossalari қийматини ажратиб оладиган дастурий

## Ф

восита.

### Флаг

**uz** - bayroq  
байроқ

**en** - tab

1 Признак, используемый при обработке данных в языках программирования, операционных системах, от значения которого зависит дальнейшая работа программы.

2 Признак, используемый в сетях передачи данных для выделения кадров.

1 Operatsion tizimlarda, dasturlash tillarida ma'lumotlarni qayta ishlash paytida foydalaniladigan, qiymatiga dasturning keyingi ishi bog'liq bo'lgan belgi.

2 Ma'lumotlar uzatish tarmoqlarida kadrlarni ajratish uchun foydalaniladigan belgi.

1 Операцион тизимларда, дастурлаш тилларида маълумотларни қайта ишлаш пайтида фойдаланиладиган, қийматига дастурнинг кейинги иши боғлиқ бўлган белги.

2 Маълумотлар узатиш тармоқларида кадрларни ажратиш учун фойдаланиладиган белги.

### Флопс

**uz** - flops  
флопс

**en** - flops

Единица измерения быстродействия компьютера; означает количество производимых процессором операций с плавающей точкой (запятой) в секунду.

Kompyuterning tez ishlashini o'lchash birligi; protsessor sekundiga bajaradigan siljiydigan nuqta (vergul) li operatsiyalar sonini bildiradi.

Компьютернинг тез ишлашини ўлчаш бирлиги; процессор секундига бажарадиган силжийдиган нуқта (вергул) ли операциялар сонини билдиради.

### Флэш-память

**uz** - flesh-hotira  
флэш-хотира

**en** - flash memory

Энергонезависимый тип полупроводниковой памяти, разработанной компанией Intel. Флэш-память может стираться электрическим способом, что позволяет перепрограммировать её, не вынимая из компьютера. Поскольку этот тип памяти может стираться только блоками, а не отдельными байтами, она не пригодна в качестве замены основного компонента оперативного за-

## Ф

поминающего устройства, однако флэш-память часто используется в PC-картах, модемах и других устройствах, а также в качестве добавочной памяти в портативных компьютерах.

*Intel* kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan yarimoʻtkazgichli хотиранинг энергияга bogʻliq boʻlmagan turi. Flesh-xotira elektr usul bilan oʻchirilishi mumkin, bu uni kompyuterdan olmay turib qayta dasturlash imkonini beradi. Хотиранинг bu turi alohida baytlar bilan emas, balki faqat bloklar bilan oʻchirib boʻlishligi sababli, operativ хотирловчи qurilmaning asosiy komponenti sifatida yaroqsiz, biroq, flesh-xotiradan koʻpincha RS-kartalarda, modemlarda va boshqa qurilmalarda, shuningdek, portativ kompyuterlarda qoʻshimcha хотira sifatida foydalaniladi.

Intel kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan yarimoʻtkazgichli хотиранинг энергияга bogʻliq boʻlmagan turi. Флэш-хотира электр усул билан ўчирилиши мумкин, бу уни компютердан олмай туриб қайта дастурлаш имконини беради. Хотиранинг бу тури алоҳида байтлар билан эмас, балки фақат блоклар билан ўчириб бўлишлиги сабабли, оператив хотирловчи қурилманинг асосий компоненти сифатида яроқсиз, бироқ, флэш-хотирадан кўпинча РС-карталарда, модемларда ва бошқа қурилмаларда, шунингдек, портатив компютерларда қўшимча хотира сифатида фойдаланилади.

### **Фоновый процесс**

**uz** - fon jarayoni

фон жараёни

**en** - background process

Процесс, выполняемый одновременно с основными действиями.

Asosiy harakatlar bilan bir vaqtda bajariladigan jarayon.

Асосий ҳаракатлар билан бир вақтда бажариладиган жараён.

### **Формализация**

Процесс описания объекта исследования в виде,

## Ф

**uz** - formallashtirish  
формаллаштириш  
**en** - formalisation

исключающем по возможности неоднозначное толкование данного объекта.

Tadqiqot obyektini, mumkin qadar, bu obyekt har xil ma'noda talqin qilinishligi istisno qilinadigan ko'rinishda ta'riflash jarayoni.

Тадқиқот объектини, мумкин қадар, бу объект ҳар хил маънода талқин қилинишлиги истисно қилинадиган кўринишда таърифлаш жараёни.

### Формат графического обмена

**uz** - grafik almashinish  
formati

график алмашиниш  
формати

**en** - graphics interchange format  
(GIF)

Точное название – GIF89A; способ сжатия графического изображения и формат графических файлов, наиболее часто используемый в WWW; обеспечивает сжатие данных без потерь.

Aniq nomlanishi – *GIF89A*; grafik tasvirni siqish usuli va grafik fayllar formati, *Internet* sahifalarida ko'proq ishlatiladigan format hisoblanadi; ma'lumotlarni yo'qotmasdan siqishni ta'minlaydi.

Аниқ номланиши – *GIF89A*; график тасвирни сиқиш усули ва график файллар формати, *Internet* саҳифаларида кўпроқ ишлатиладиган формат ҳисобланади; маълумотларни йўқотмасдан сиқишни таъминлайди.

### Форматирование

**uz** - formatlash  
форматлаш  
**en** - formatting

Подготовка диска для использования – процесс форматирования – установка структуры, способов расположения и представления информации. Дисковое пространство памяти организуется в коллекцию данных – «разделы», каждый из которых может быть расположен операционной системой так, чтобы данные могли сортироваться, отыскиваться и восстанавливаться. Когда форматируется используемый диск, любая ранее находившаяся на нем информация удаляется.

Diskni foydalanish uchun tayyorlash – axborotlarni joylashtirish va o'qib olish strukturasi va usullarini o'rnatish jarayoni. Xotiraning diskli fazosi – ma'lumotlar kolleksiyasi – «bo'limlar» orqali tashkil qilinib, ularning har biri operatsion tizimga shunday joylashtiriladiki, bunda ma'lumotlarni tartiblash, izlash va tiklash imkoni mavjud bo'ladi. Foydalanilayotgan disk formatlansa, unda oldin mavjud

## Ф

boʻlgan axborot oʻchiriladi.

Дискни фойдаланиш учун тайёрлаш – ахборотларни жойлаштириш ва ўқиб олиш структураси ва усулларини ўрнатиш жараёни. Хотиранинг дискли фазоси – маълумотлар коллекцияси – «бўлимлар» орқали ташкил қилиниб, уларнинг ҳар бири операцион тизимга шундай жойлаштириладики, бунда маълумотларни тартиблаш, излаш ва тиклаш имкони мавжуд бўлади. Фойдаланилаётган диск форматланса, унда олдин мавжуд бўлган ахборот ўчирилади.

### **Функциональные клавиши**

**uz** - funksional klavishlar

функционал клавишлар

**en** - function keys

Группа программируемых клавиш на клавиатуре, помеченных от F1 до F10 (иногда до F12) и имеющих специальное назначение в каждой программе.

Klaviaturadagi F1 dan F10 (baʻzan F12) gacha belgilangan, dasturlashtiriladigan va har bir dasturda maxsus vazifasi boʻlgan klavishlar guruhi.

Клавиатурада F1 дан F10 (баъзан F12) гача белгиланган, дастурлаштирилладиган ва ҳар бир дастурда махсус вазифаси бўлган клавишлар гуруҳи.

### **Функциональный язык программирования**

**uz** - funksional dasturlash tili

функционал дастурлаш тили

**en** - functional language

Язык программирования декларативного типа. Программа на языке функционального типа представляется в виде совокупности определенных функций. Практически все функции рекурсивные. Характерные представители функциональных языков – LISP и Logo.

Deklarativ turdagi dasturlash tili. Funksional tur tildagi dastur maʼlum funksiyalar yigʻindisi koʻrinishida taqdim etiladi. Amalda barcha funksiyalar rekursiv. *LISP* va *Logo* funksional tillarning oʻziga xos vakillaridir.

Декларатив турдаги дастурлаш тили. Функционал тур тилдаги дастур маълум функциялар йиғиндисини кўринишида тақдим этилади. Амалда барча функциялар рекурсив. *LISP* ва *Logo* функционал тилларнинг ўзига хос вакиллари.

### **Функция**

Задача или цель, решаемая программой или сис-

## Ф

**uz** - funksiya  
функция  
**en** - functionality

темой, а также назначение какого-либо устройства. Например, функция принтера – печатание, одной из функций компьютера является обучение, функция текстового редактора – подготовка документа и т.д.

Dastur yoki tizim tomonidan hal qilinadigan masala yoki maqsad, shuningdek, qandaydir qurilmaning belgilangan vazifasi. Masalan, printerning funksiyasi – bosib chiqarish, o‘qitish kompyuterning funksiyalaridan biri, matn redaktorining funksiyasi hujjatni tayyorlash.

Дастур ёки тизим томонидан ҳал қилинадиган масала ёки мақсад, шунингдек, қандайдир қурилманинг белгиланган вазифаси. Масалан, принтернинг функцияси – босиб чиқариш, ўқитиш компьютернинг функцияларидан бири, матн редакторининг функцияси ҳужжатни тайёрлаш.

## Х

**Хит, совпадение**  
**uz** - xit, mos kelish  
хит, мос келиш  
**en** - hit

1 Обращение пользователя к Web-странице, исключая перезагрузки страницы.  
2 При профилактической проверке и восстановлении содержимого файла – нахождение соответствия между текущей записью и основной записью.

1 Sahifani qayta yuklash mustasno qilinganda, foydalanuvchining Web-sahifaga murojaat qilishi.  
2 Fayl ichidagini tiklashda va profilaktik tekshirishda – asosiy yozish va joriy yozish o‘rtasida muvofiqlikni topish.

1 Саҳифани қайта юклаш мустасно қилинганда, фойдаланувчининг Web-саҳифага мурожаат қилиши.  
2 Файл ичидагини тиклашда ва профилактик текширишда – асосий ёзиш ва жорий ёзиш ўртасида мувофиқликни топиш.

**«Холодный» старт**

Перезагрузка всех частей системы с выключени-

## X

**uz** - «sovuq» start  
«совук» старт  
**en** - «cold» start

ем, а затем включением всех устройств системы. Используется в тех случаях, когда «горячий» старт не работает.

Tizimning barcha qurilmalarini uzib qo'yish, so'ng ulash bilan tizimning barcha qismlarini qayta yuklash. «Issiq» start ishlamagan hollarda qo'llaniladi.

Тизимнинг барча қурилмаларини узиб қўйиш, сўнг улаш билан тизимнинг барча қисмларини қайта юклаш. «Иссиқ» старт ишламаган ҳолларда қўлланилади.

### Хост-компьютер

**uz** - xost-kompyuter  
хост-компьютер  
**en** - host computer

Компьютер в вершине иерархический компьютерной сети или подсети. Иногда используется термин «главный компьютер».

Iyerarxik kompyuter tarmog'i cho'qqisidagi yoki quyi tarmoqdagi kompyuter. Ba'zan, «bosh kompyuter» atamasidan foydalaniladi.

Иерархик компьютер тармоғи чўққисидаги ёки қуйи тармоқдаги компьютер. Баъзан, «бош компьютер» атамасидан фойдаланилади.

### Хранилище данных

**uz** - ma'lumotlar ombori  
маълумотлар омбори  
**en** - data store

Концепция хранения данных, отличающаяся от базы данных, во первых, тем, что актуализация данных означает не обновление данных, а добавление к уже имеющимся; во вторых, кроме данных, отражающих состояние системы управления, в хранилище данных хранятся и метаданные (данные о структуре хранилища, отношения между данными и пр.).

Ma'lumotlarni saqlash konsepsiyasi. Ma'lumotlar bazasidan birinchidan, ma'lumotlarni aktuallashtirish ma'lumotlar yangilanishini emas, balki mavjudlariga qo'shilishini bildirishligi bilan; ikkinchidan, boshqarish tizimining holatini aks ettiradigan ma'lumotlardan tashqari, ma'lumotlar omborida metama'lumotlar ham (omborning strukturasi to'g'risidagi ma'lumotlar, ma'lumotlar o'rtasidagi bog'lanish) saqlanishligi bilan ajralib turadi.

## Х

Маълумотларни сақлаш концепцияси. Маълумотлар базасидан биринчидан, маълумотларни актуаллаштириш маълумотлар янгиланишини эмас, балки мавжудларига қўшилишини билдиришлиги билан; иккинчидан, бошқариш тизимининг ҳолатини акс эттирадиган маълумотлардан ташқари, маълумотлар омборида метамаълумотлар ҳам (омборнинг структураси тўғрисидаги маълумотлар, маълумотлар ўртасидаги боғланиш) сақланишлиги билан ажралиб туради.

### Хэширование

**uz** - xeshlash

хэшлаш

**en** - hashing

1 Процесс вычисления значения хэш-функции.

2 Преобразования массива данных произвольного размера в блок данных фиксированного размера, служащий заменителем исходного массива в некоторых контекстах.

1 Xesh-funksiya qiymatlarini hisoblash jarayoni.

2 Ba'zi bir matn bo'laklarida dastlabki massivning o'rni bosishga xizmat qiladigan ixtiyoriy o'lchamdagi ma'lumotlar massivini belgilangan o'lchamdagi ma'lumotlar blokiga almashtirish.

1 Хэш-функция қийматларини ҳисоблаш жараёни.

2 Баъзи бир матн бўлақларида дастлабки массивнинг ўрнини босишга хизмат қиладиган ихтиёрий ўлчамдаги маълумотлар массивини белгиланган ўлчамдаги маълумотлар блокига алмаштириш.

## Ц

### Целостность данных

**uz** - ma'lumotlarning yaxlitligi

маълумотларнинг

яхлитлиги

**en** - data integrity

1 Способность данных сохранять точность и непротиворечивость независимо от выполняемых изменений.

2 Свойство, гарантирующее невозможность изменения, подмены или уничтожения данных несанкционированным способом.

Примечание – Целостность данных включает устойчивость системы к отказам и автоматическое восстановление

## Ц

ние.

1 Amalga oshiriladigan o'zgartirishlardan qat'i nazar, ma'lumotlarning aniqlikni va zid kelmaslikni saqlash qobiliyati.

2 Ma'lumotlarni ruxsat etilmagan usulda o'zgartirib, o'rnini almashtirib yoki yo'q qilish mumkin bo'lmasligini kafolatlaydigan xususiyat.

Izoh – Ma'lumotlarning yaxlitligi tizimning buzilishlarga chidamliligini va avtomatik tiklanishini ichiga oladi.

1 Амалга ошириладиган ўзгартиришлардан қатъи назар, маълумотларнинг аниқликни ва зид келмасликни сақлаш қобилияти.

2 Маълумотларни рухсат этилмаган усулда ўзгартириб, ўрнини алмаштириб ёки йўқ қилиш мумкин бўлмаслигини кафолатлайдиган хусусият.

Изоҳ – Маълумотларнинг яхлитлиги тизимнинг бузилишларга чидамлилигини ва автоматик тикланишини ичига олади.

### **Централизованная сеть**

**uz** - markazlashtirilgan tarmoq  
марказлаштирилган тармоқ

**en** - centralized network

Компьютерная сеть, управление которой осуществляется с единого сервера, к которому относятся все ресурсы сети.

Boshqarilishi, tarmoqning barcha resurslari tegishli bo'lgan yagona serverdan amalga oshiriladigan kompyuter tarmog'i.

Бошқарилиши, тармоқнинг барча ресурслари тегишли бўлган ягона сервердан амалга ошириладиган компьютер тармоғи.

### **Цикл**

**uz** - sikl

цикл

**en** - cyclic process

Схема выполнения части алгоритма, при которой некоторые действия повторяются. Путь в графе, начинающийся от одного из узлов и заканчивающийся в нем. Оператор (/) в процедурно-ориентированном языке программирования, обеспечивает выполнение части программы некоторое количество раз. В языках программирования декларативного типа циклические конструкции выполняются с помощью рекурсивных построений.

Algoritmning qismini bajarish sxemasi, bunda ba'zi

## Ц

harakatlar takrorlanadi. Grafda, uzellarning biridan boshlanadigan va unda tugaydigan yo‘l. Protседuraga yo‘naltirilgan dasturlash tilidagi (/) operator, dastur qismi qanchadir marta bajarilishini ta‘minlaydi. Deklarativ turdagi dasturlash tillarida siklik konstruksiyalar rekursiv tuzilishlar yordamida bajariladi.

Алгоритмнинг қисмини бажариш схемаси, бунда баъзи ҳаракатлар такрорланади. Графдаги, узелларнинг бирдан бошланадиган ва унда тугайдиган йўл. Процедурага йўналтирилган дастурлаш тилидаги (/) оператор, дастур қисми қанчадир марта бажарилишини таъминлайди. Декларатив турдаги дастурлаш тилларида циклик конструкциялар рекурсив тузилишлар ёрдамида бажарилади.

### **Цифровая сеть с интеграцией услуг**

**uz** - xizmatlari  
integratsiyalashgan raqamli  
tarmoq

хизматлари  
интеграциялашган рақамли  
тармоқ

**en** - integrated services digital  
network (ISDN)

Международный стандарт цифровой связи по коммутируемой телефонной линии, используется для передачи компьютерного и мультимедийного (голос, видео) трафика. Как правило, одна пользовательская ISDN-линия обеспечивает передачу данных по двум каналам 64 kbit/s, а канал 16kbit/s используется для передачи управляющей информации. Локальные сети подключаются к ISDN-каналу через маршрутизатор, а отдельные пользователи – через ISDN-модем. Для организаций возможен вариант подключения ISDN-канала 23×64 kbit/s - управляющий канал.

Kommutatsiyalanadigan telefon liniyasi bo‘ylab o‘tadigan raqamli aloqa xalqaro standarti, kompyuter va multimedia (ovoz, video) trafikini uzatishda foydalaniladi. Odatda, foydalanuvchining *ISDN* liniyasi ikkita 64 kbit/s tezlikli kanal orqali ma‘lumotlar uzatilishini ta‘minlaydi, 16 kbit/s tezlikli kanaldan boshqaruvchi axborotni uzatish uchun foydalaniladi. Lokal tarmoqlar *ISDN* kanalga marshrutizator orqali, alohida foydalanuvchilar esa, *ISDN* modem orqali ulanadi. Tashkilotlar uchun, 23×64 kbit/s *ISDN* kanalni – boshqaruvchi kanalni ulash imkoniyati mavjud.

## Ц

Коммутацияланадиган телефон линияси бўйлаб ўтадиган рақамли алоқа халқаро стандарти, компьютер ва мультимедиа (овоз, видео) трафикини узатишда фойдаланилади. Одатда, фойдаланувчининг ISDN линияси иккита 64 kbit/s тезликли канал орқали маълумотлар узатилишини таъминлайди, 16 kbit/s тезликли каналдан бошқарувчи ахборотни узатиш учун фойдаланилади. Локал тармоқлар ISDN каналга маршрутизатор орқали, алоҳида фойдаланувчилар эса, ISDN модем орқали уланади. Ташкилотлар учун, 23×64 kbit/s ISDN канални – бошқарувчи канални улаш имконияти мавжуд.

### **Цифровой видеointерфейс**

**uz** - raqamli videointerfeys

рақамли видеointерфейс

**en** - digital visual interface

(DVI)

Стандарт на интерфейс и соответствующий разъём, предназначенный для передачи видеоизображения на цифровые устройства отображения, такие как жидкокристаллические мониторы, телевизоры и проекторы. Разработан консорциумом Digital Display Working Group.

Interfeys standarti va videotasvirlarni suyuq kristalli monitor, televizor, proyektor kabi raqamli aks ettirish qurilmalariga uzatish uchun mo'ljallangan tegishli razyom. *Digital Display Working Group* konsorsiumi tomonidan ishlab chiqilgan.

Интерфейс стандарти ва видеотасвирларни суюк кристалли монитор, телевизор, проектор каби рақамли акс эттириш қурилмаларига узатиш учун мўлжалланган тегишли разъём. Digital Display Working Group консорциуми томонидан ишлаб чиқилган.

### **Цифровой универсальный диск**

**uz** - raqamli universal disk

рақамли универсал диск

**en** - digital versatile disk (DVD)

Технология и устройство внешней памяти. Относится к лазерным технологиям. Используются лазеры с более короткой длиной волны, чем в CD-ROM, поэтому на 5-дюймовый диск можно записать 4,7 Gbyte данных; диск может быть двухслойным и двусторонним, что позволяет довести емкость диска до 17 Gbyte. Такие диски будут широко использоваться в мультимедийных при-

## Ц

ложениях.

Texnologiya va tashqi xotira qurilmasi. Lazer texnologiyalarga kiradi. *CD-ROM* dagiga qaraganda, to'liq uzunligi birmuncha qisqa bo'lgan lazerlardan foydalaniladi, shu sababli, 5 dyuymli diskka 4,7Gbyte ma'lumot yozish mumkin; disk ikki qatlamli va ikki tomonlama bo'lishi mumkin, bu disk sig'imini 17 Gbyte gacha yetkazish imkonini beradi. Bunday disklardan multimedia ilovalarda keng foydalaniladi.

Технология ва ташқи хотира қурилмаси. Лазер технологияларга қиради. *CD-ROM* дагига қараганда, тўлқин узунлиги бирмунча қисқа бўлган лазерлардан фойдаланилади, шу сабабли, 5 дюймли дискка 4,7 Gbyte маълумот ёзиш мумкин; диск икки қатламли ва икки томонлама бўлиши мумкин, бу диск сиғимини 17 Gbyte гача етказиш имконини беради. Бундай дисклардан мультимедиа иловаларда кенг фойдаланилади.

## Ч

### Частота

**uz** - chastota

частота

**en** - line-locked frequency

Количественная характеристика периодического процесса, равная числу периодов, совершаемых в единицу времени.

Davriy jarayonning, vaqt birligida bajariladigan davrlar soniga teng bo'lgan miqdor xarakteristikasi.

Даврий жараённинг, вақт бирлигида бажариладиган даврлар сонига тенг бўлган миқдор харақтеристикаси.

### Чат

**uz** - chat

чат

**en** - chat

Обмен текстовыми сообщениями в реальном времени между пользователями Internet.

*Internet* foydalanuvchilari o'rtasida real vaqtda matnli xabarlar almashinish.

Internet фойдаланувчилари ўртасида реал вақтда матнли хабарлар алмашиниш.

## Ч

### Чип

**uz** - chip

чип

**en** - chip

Интегральная схема в одном корпусе. Функциональное назначение чипа бывает различное, например микропроцессор или память.

Bir korpusdagi integral sxema. Chipning funksional vazifasi har xil, masalan, mikroprotssessor yoki хотира.

Бир корпусдаги интеграл схема. Чипнинг функционал вазифаси ҳар хил, масалан, микропроцессор ёки хотира.

### Чипсет

**uz** - chipset

чипсет

**en** - chip set

Набор интегральных схем, устанавливаемых на материнской плате для обеспечения работы центрального процессора с периферийными устройствами.

Markaziy protsessorning periferik qurilmalar bilan ishlashini ta'minlash uchun asosiy platada o'rnatiladigan integral sxemalar to'plami.

Марказий процессорнинг периферик қурилмалар билан ишлашини таъминлаш учун асосий платада ўрнатиладиган интеграл схемалар тўплами.

### Чтение

**uz** - o'qish

ўқиш

**en** - perusal

Процесс перезаписи данных на внешних запоминающих устройствах в оперативную память. При этом данные на внешнем устройстве сохраняются.

Tashqi xotirlovchi qurilmalardagi ma'lumotlarni operativ xotiraga qaytadan yozish jarayoni. Bunda tashqi qurilmadagi ma'lumotlar saqlanadi.

Ташқи хотирловчи қурилмалардаги маълумотларни оператив хотирага қайтадан ёзиш жараёни. Бунда ташқи қурилмадаги маълумотлар сақланади.

## Ш

### Шина

**uz** - shina

шина

**en** - bus line

В компьютерах – система проводников и вспомогательных элементов для связи процессора со всеми элементами компьютера. Представляет собой набор параллельных проводников, к которым подсоединяются основные компоненты

### Ш

компьютерной системы, включая центральный процессор, память, контроллеры внешних устройств.

Kompyuterlarda – protsessorni kompyuterning barcha elementlari bilan bog‘lash uchun belgilangan o‘tkazgichlar va yordamchi elementlar jami. Kompyuter tizimining asosiy komponentlari, jumladan, markaziy protsessor, хотира, kontrollerlar, tashqi qurilmalar ulanadigan parallel o‘tkazgichlar to‘plamini o‘zida ifodalaydi.

Компьютерларда – процессорни компьютернинг барча элементлари билан боғлаш учун белгиланган ўтказгичлар ва ёрдамчи элементлар жами. Компьютер тизимининг асосий компонентлари, жумладан, марказий процессор, хотира, контроллерлар, ташқи қурилмалар уланадиган параллел ўтказгичлар тўпламини ўзида ифодалайди.

#### Шинный контроллер

**uz** - shina kontrolleri

шина контроллери

**en** -bus controller

Контроллер, обеспечивающий формирование потоков данных, передаваемых по шине в соответствии со стандартом, и управляющий передачей сигналов по шине.

Standartga muvofiq, shina bo‘ylab uzatiladigan ma’lumotlar oqimi tuzilishini ta’minlaydigan va shina bo‘ylab signallar uzatilishini boshqaradigan kontroller.

Стандартга мувофиқ, шина бўйлаб узатиладиган маълумотлар оқими тузилишини таъминлайдиган ва шина бўйлаб сигналлар узатилишини бошқарадиган контроллер.

#### Шифр

**uz** - shifr

шифр

**en** - cipher, cypher

Совокупность обратимых преобразований множества возможных открытых (исходных) данных на множество возможных зашифрованных данных, осуществляемых по определенным правилам с применением ключей.

Kalitlardan foydalangan holda alohida qoidalar bo‘yicha amalga oshiriladigan, mumkin bo‘lgan ochiq (dastlabki) ma’lumotlar to‘plamini mumkin bo‘lgan shifrlangan ma’lumotlar to‘plamiga qayta

### Ш

o'zgartirishlar jami.

Калитлардан фойдаланган ҳолда алоҳида қоидалар бўйича амалга ошириладиган, мумкин бўлган очиқ (дастлабки) маълумотлар тўпламини мумкин бўлган шифрланган маълумотлар тўпламига қайта ўзгартиришлар жами.

#### **Шифрование данных**

**uz** - ma'lumotlarni shifrlash

маълумотларни шифрлаш

**en** - data encryption

Способ обработки данных с использованием специальных алгоритмов, обеспечивающих их скрытую передачу. Преобразование информации осуществляется на уровне битов или их последовательностей в отличие от криптографических методов, где единицами кодирования обычно являются смысловые слова или фразы.

Ma'lumotlarni, ularning yashirin uzatilishini ta'minlovchi maxsus algoritmlardan foydalanib, qayta ishlash usuli. Axborotning o'zgartirishi kodlash birliklari, odatda, mazmunli so'z yoki jumlar bo'lgan kriptografik metodlardan farqli o'laroq, bitlar yoki ularning ketma-ketligi darajasida amalga oshiriladi.

Маълумотларни, уларнинг яширин узатилишини таъминловчи махсус алгоритмлардан фойдаланиб, қайта ишлаш усули. Ахборотнинг ўзгартирилиши кодлаш бирликлари, одатда, мазмунли сўз ёки жумлалар бўлган криптографик методлардан фарқли ўлароқ, битлар ёки уларнинг кетма-кетлиги даражасида амалга оширилади.

#### **Шлюз**

**uz** - shlyuz

шлюз

**en** - gateway server

